

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIPLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

TARIXIY O'LKASHUNOSLIK VA URBANIZATSIYA
JARAYONLARI

Bilim soxasi: 100000 – Gumanitar soxa

Ta'lif soxasi: 120000 – Gumanitar fanlar

Ta'lif yo'nalii: 5120300–Tarix (jahon mamlakatlari bo'yicha)

ANDIJON– 2021

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
tomonidan 2018 yil 25 08 dagi №744 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan
fan dasturi asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: Xakimov A.A.

O'zbekiston tarixi kafedrasи
katta o'qituvchisi, t.f.f.d (PhD)

Taqrizchilar: Xoshimov S.A.

O'zbekiston tarixi kafedrasи
dotsenti

Sobirova D.T.

O'zbekiston tarixi kafedrasи
dotsenti

**O'quv-uslubiy majmua ADU kengashining 2021 yil 31 avgustdagи
1-sonli qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.**

MUNDARIJA

I. O‘quv materiallari.....	4-159
1.1. Ma’ruza mavzulari.....	4-146
1.2. Seminar mashg‘ulotlari mavzulari.....	146-159
II. Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari.....	160-162
III. Glossariy.....	162-167
IV. Ilovalar.....	168-279
4.1. Fan dasturi.....	169-192
4.2. Ishchi fan dasturi.....	193-214
4.3. Tarqatma materiallar.....	215-237
4.4. Testlar.....	237-266
4.5. Yakuniy nasorat savollari.....	266-272
4.6. Baholash mezonlari.....	272-273
4.7. Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati.....	274-275
4.8. Dastur bajarilishining kalendar rejasi.....	276-279

I. O'QUV MATERIALLARI

1.1. MA'RUZA MATN

3-SEMESTR UCHUN

1-Mavzu: Kirish. O'lkashunoslik fanining predmeti, tadqiqot doirasi, maqsad va vazifasi. (2 soat) Reja.

1. Tarixiy o'lkashunoslik fanining maqsad va vazifalari.
2. Tarixiy o'lkashunoslik fanining manbalari.
3. Tarixiy o'lkashunoslik fanining shakillanishiga doir ma'lumotlar.

Tayanch so'z va iboralar: Tarixiy o'lkashunoslik, manbashunoslik, xudud, ovul, davlat, jamiyat, viloyat, vatan, taraqqiyot, ravnaq.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. -T.; O'zbekiston 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.; O'zbekiston 2017.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. 1997.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 2008 y.
5. Karamatov H. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi. 2009 y.
6. Nabiev A. Tarixiy o'lkashunoslik. — T., 1996.
7. Ochildeev F.B. Tarixiy o'lkashunoslik. Toshkent. 2008 y
8. Vaxidov M.M., Mirzaev Sh.R. Me'morchilik. 1-qism. Me'morchilik tarixi.T., "Tafakkur".-2010. y.

Mustaqillik sharofati tufayli o'zbek xalqi o'zligini tom ma'noda anglab, jahonga yuz tutdi, o'zi belgilab olgan istiqbolli taraqqiyot yo'lidan jadal ilgarilab bormoqda. Istiqlol yillarda O'zbekiston tarixining ko'pgina masalalari o'zining yangi, ilmiy jihatdan xolis va haqqoni yechimini topa boshladi. Jumladan, tarixiy o'lkashunoslik fanining oliy o'quv yurtlari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida fan sifatida o'qitala boshlanishi bu fanga bo'lgan e'tiborning yanada kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Jamiyat qurilishining hozirgi bosqichida o'lkashunoslikning roli va ahamiyati beqiyosdir. Bugungi kunda talaba yoshlarni tarbiyalash, ma'naviy saviyasini yanada oshirish, o'z tarixini chuqurroq bilishi hamda o'z navbatida kelajak avlodga madaniy merosimizni o'rgatish va yetkazish o'lkashunoslik fanining maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, Vatanimiz juda qadim tarixga ega bo'lgan o'lkalardan biri sanaladi. Demak bu yerda qadimgi davrlardan buyon turli urbanistik jarayonlar, madaniy aloqalar, shahar va davlatlar paydo bo'lgan hamda rivojlanib kelgan. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'fga kiritishi, dunyo hamjamiyatidan munosib o'rinn olishi uning o'z tarixini xolis, haqqoni yoritishga keng yo'l ochib berdi va bu davlat miyosida hatto qonun bilan belgilab qo'yildi.

Davlatimizning asosiy qomusi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham O'zbekiston fuqarolarining respublika hududida joylashgan madaniy yodgorliklarga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lishi, asrab avaylashlari shartligi ta'kidlab o'tilgan. Bugungi kunda o'lkashunoslik fani O'zbekiston tarixini hamda madaniy yodgorliklarini o'rganishning eng muhim vositalaridan biridir.

O'lkashunoslik fani mahalliy aholi tomonidan o'z ona yurti hisoblangan muayyan o'lka, shahar yoki qishloqlar tarixini, tabiatini, aholisi xo'jaligini va madaniyatini o'rganadi. Xususan, oliy o'quv yurtlari va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'qitilayotgan o'lkashunoslik fani ma'lum ikki maqsadni:

1) O'z o'lkasi o'tmishini va hozirgi hayoti tarixini har tomonlama ilmiy asosda o'rganish yo'li bilan to'plangan arxeologik, etnografik, toponimik, nodir qo'lyozmalar, arxiv hujjatlarini saralash,

tartibga solish va tahlil qilishni;

2) To‘plangan o‘lka materiallaridan o‘quv tarbiyaviy ishlarda o‘rinli va samarali foydalanib, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni ko‘zda tutadi.

Tarixiy o‘lkashunoslik fani hozirgi kunda O‘zbekiston xalqlarining qadimiy tarixini, uning jahon tarixiy taraqqiyotiga qo‘sghan katta hissasini, o‘z bag‘ridan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud az-Zamaxshariy, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi kabi buyuk qomusiy olimlarni yetishtirib, jahon taraqqiyotiga qo‘sghan hissasini daliliy ashylar vositasi bilan isbotlab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning doimiy e’tibori tufayli mustaqillik yillarda jahon ilm-fani, madaniyati rivojiga, insoniyat ma’naviyati takomiliga ulkan hissa qo‘sghan buyuk ajdodlarimizning biz uchun ardoqli bebaho merosini o‘rganish, shu bilan birga, ularning ibratli hayoti va ijodi, benazir kashfiyotlarining jahonshumul ahamiyati haqidagi bilimlarni ommalashtirishga qaratilgan harakat bugun o‘z samarasini bermoqda.

2014 yilning 15-16 may kunlari Samarcand shahrida «**O‘rtta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizasiya rivojidagi roli va ahamiyati**» mavzuida xalqaro anjuman tashkil etildi. Xalqaro anjumanda jahonning ellikka yaqin mamlakatidan, shu jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Italiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya, Yaponiya, Hindiston, Misr, Indoneziya, Saudiya Arabistoni, Quvayt, Rossiya, Ozarbayjon kabi davlatlardan taniqli olimlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari, jahonning mashhur oliy ta’lim muassasalari professorlari, ilmiy markazlar va institutlar mutaxassislar, ekspertlar ishtirot etdi. Mazkur xalqaro anjumanda O‘rtta Osiyo, xususan, O‘zbekistonning qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri ekanligi, bu o‘lkada yetishib chiqqan allomalar o‘z davrida jahon tamadduni rivojiga munosib xissa qo‘sghanligi yana bir bor e’tirof etildi. Bu munosib e’tirof bizni fahrlantirish bilan birga, o‘z navbatida ma’lum mas’uliyat ham yuklaydi. Bugungi yosh avlod ajdodlar merosiga, tarixiy qadriyatlarga muhabbat ruhida tarbiyalanishi darkor. Bu muhim tarbiyada tarixiy o‘lkashunoslik fani ham muayyan o‘rin egallaydi.

O‘zbek xalqining tarixiy madaniy va me’morchilik yodgorliklari jahon madaniy merosining tarkibiy qismi bo‘lib, jahon taraqqiyotiga qo‘shilgan g‘oyat katta ulushdir. Mana shunday muhim nodir qimmatli ahamiyatga molik bo‘lgan moddiy va ma’naviy yodgorliklarni har tomonlama ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganadigan va tahlil qiladigan fan - tarixiy o‘lkashunoslikdir.

Tarixiy o‘lkashunoslik fani bo‘yicha tayyorlangan ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma asosan quyidagi masalalarni o‘z ichiga oladi:

1. Tarixiy yodgorliklar. Bunga insoniyat hayotidagi eng muhim tarixiy voqealar, jamiyatning rivojlanish bosqichlari, atoqli sarkardalar, yirik davlat, fan va madaniyat arboblarining nomlari bilan bog‘liq voqealari, o‘tmishdan qolgan qo‘lyozma asarlari va shu kabilar kiradi.

2. Arxeologiya yodgorliklari. Bunga qo‘hna shaharlar, qo‘rg‘onlar, qal’alar, qadimiy manzilgohlar, istehkomlar, korxonalar, kanallar, shuningdek, yo‘llarning qoldiqlari, qadimiy dafn joylari, tosh haykallar, qoyalardagi tasvirlar va boshqalar kiradi.

3. Shahar qurilishi va me’morchilik yodgorliklari. Bularga me’morchilik ansamblari va komplekslari, tarixiy markazlar, kvartallar, maydonlar, ko‘chalar, shaharlar va boshqa aholi yashaydigan joylarning qoldiqlari: fuqaro, sanoat, harbiy, diniy, xalq me’morchiligi inshootlari kiradi.

4. San’at yodgorliklari. Bunga monumental, tasviriyl, amaliy-dekorativ va boshqa turdag‘i san’at asarlari kiradi.

5. Yodgorlik hujjatlari. Mazkur hujjatlarga markaziy va mahalliy davlat hokimiyyati organlari va davlat boshqaruv organlaridan qolgan turli hujjatlar, boshqa yozma va chizma hujjatlar, kino-foto hujjatlari va tovush yozuvlari, shuningdek, qadimiy qo‘lyozmalar hamda arxiv materiallari, folklor va

musiqa yozuvlari, nodir bosma nashrlar kiradi.

6. Etnografik va toponimik materiallar. Bunga xalq urf-odatlari, moddiy va ma'naviy madaniyat, xalqlarning ertak, folklor, mifologiyasi hamda joy nomlarining ilmiy jihatdan kelib chiqishini o'rganish kiradi.

Bular bilan bir qatorda tarixiy, ilmiy, badiiy qimmatga yoki boshqa xil madaniy qimmatga ega bo'lgan ob'ektlar hamda muzeyda saqlanadigan eksponatlar va ulardan o'quv, ta'lim-tarbiya ishlarida foydalanish uslublari, namunaviy dars rejali topgan.

Yuqorida manbalarni o'rganish va umumlashtirish ilmiy o'lkashunoslik tadqiqotchilarini, jamoat o'lkashunosligi va havaskorlari uchun ham, u yoki bu voqealarga tavsif berish, turli tarixiy tushunchalarga aniqlik kiritish uchun ham ko'p zarur ma'lumot bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanmani yozishda imkon qadar mahalliy materiallaridan, xususan, O'zbekiston Respublikasi turli hududlariga doir o'lkashunoslik hujjatlaridan, yetuk tarixchi olimlarning asarlaridan, arxiv materiallardan foydalanildi. Ayrim masalalarni yoritishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi xodimlari tomonidan tayyorlangan kartoteka va ko'rsatkichlardan, muzey eksponatlari mavzusini yoritishda esa O'zbekiston tarixiy muzeyi materiallaridan foydalanildi.

2-Mavzu: O'zbekistonning tarixiy geografik o'rni va tabiiy iqlim sharoitlari.(2 soat)

Reja.

1. O'zbekistonning geografik holati va tabiiy sharoiti
2. O'lkashunoslik turlari.
3. Tarixiy o'lkashunoslikning rivojlanish tarixi.
4. O'rta Osiyo tarixini o'rganishda rus sharqshunos olimlarining roli va ularning mahalliy tarixchilikka ta'siri.
5. Tarixiy o'lkashunoslikning 1917 yildan keyingi ahvoli.

Tayanch so'z va iboralar: Geografiya, tabiat, sharoit, Sharq shunos, rus olimi, tarixiy o'lkashunoslik, manbashunoslik, xudud, ovul, davlat, jamiyat, viloyat, vatan, taraqqiyot, ravnaq.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. -T.; O'zbekiston 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.; O'zbekiston 2017.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. 1997.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 2008 y.
5. Karamatov H. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi. 2009 y.
6. Nabiev A. Tarixiy o'lkashunoslik. — T., 1996.
7. Ochildev F.B. Tarixiy o'lkashunoslik. Toshkent. 2008 y
8. Vaxidov M.M., Mirzaev Sh.R. Me'morchilik. 1-qism. Me'morchilik tarixi.T., "Tafakkur".-2010. y.
9. Jabborov I. M. O'zbek xalqi etnografiyasi. — T., 1994.
10. Jabborov I. M. Jahon xalqlari etnografiyasi. - T., 1985.
11. Asanova G., Nabixanov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. — T., 1994.
12. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. T.,1988.

1.O‘zbekistonning geografik holati va tabiiy sharoiti.

O‘zbekiston Respublikasi

Markaziy Osiyoning o‘rta qismida joylashgan. Sharq va shimoliy-sharkda Qirg‘iziston, shimal va shimoliy-g‘arbda Qozog‘iston Respublikalari, janub va janubiy-sharqda Tojikiston Respublikasi, janubiy-g‘arbda Turkmaniston, janubda qisman Afg‘oniston bilan chegaradosh. O‘zbekistonning eng shimoliy chekka nuqtasi shimoliy-sharkda - Ustyurt platosida Orol dengizining g‘arbiy sohilida ($45^{\circ}36'$ shimoliy kenglikda), eng janubiy nuqtasi - Surxondaryo viloyati Termiz shahri yonida (37° shimoliy kenglikda), sharqiylar nuqtasi-Farg‘ona vodiysining sharqida, Qirgiziston Respublikasi bilan chegara joy ($37^{\circ}10'$ sharqiylar uzunlik)da Shimoliy va janubiy chekka nuqtalari orasi - 925 km, g‘arbdan sharqqa - 1400 km. O‘zbekiston Respublikasining maydoni 448, 9 ming km².

Respublika hududi janubiy-sharqdan shimoliy-g‘arbgaga cho‘zilgan va yuzasi ham shu yo‘nalishda yirik daryolar oqimiga mos ravishda pasayib boradi. Mamlakatning shimoliy-g‘arbiy chekkasida, Kizilqum bilan Ustyurt oralig‘ida Orol dengizi joylashgan. O‘zbekiston Respublikasi maydonining qariyb 4/5 qismi tekislik, oz qismi tog‘, adir va tog‘ oldidan iborat. Respublika hududidan O‘rta Osiyoning eng katta daryolari - Amudaryo va Sirdaryo oqib o‘tadi va Orol dengiziga quyiladi. Qizilqum cho‘li, Amudaryoning allyuvial tekisligi, Zarafshon va Qashqadaryoning suberal deltasini, Ustyurt platosining berk sho‘rxok botiqlaridan iborat janubiy-sharqiylar qismi tashkil etadi, ba’zi joylarda qirlar uchraydi. Respublikaning sharqiylar va janubiy-sharqiylar qismida Tyanshan, Oloy, Turkiston, Zarafshon va Hisor tog‘lari bor. Bu tog‘lar orasida Farg‘ona, Zarafshon, Kitob, Shahrisabz, Surxon-Sherobod, Chirchiq-Ohangaron kabi kagga cho‘kmalar - vodiylar joylashgan. Vodiylar sug‘oriladigan yerlar bo‘lib, aholining asosiy qismi shu vodiylarda yashaydi. Ayrim tog‘ cho‘qqilar muzliklar, doimiy qor qatlamlari bilan qoplangan. Mamlakatning g‘arbiy va shimoliy-g‘arbiy qismiga borgan sari ulkan tog‘lar pasayib, tog‘ oldi bag‘ri tekisliklari go‘zal, xushmanzara vodiylarga aylanadi. Vodiylar tugagach, asta-sekin cho‘l va qumliklar boshlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, O‘zbekiston-suveren demokratik respublikadir. O‘zbekiston Respublikasi 12 viloyat, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloq va ovullar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan iborat. Davlat boshlig‘i - Prezident, saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadi. Prezident O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarinipg Oliy Bosh qo‘mondoni hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining oliy davlat vakillik organi - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi (O‘zbekiston parlamenti)dir. U qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Oliy Majlis ikki palatadan: Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata) dan iborat. Ijro etuvchi hokimiyat - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Poytaxti - Toshkent shahri.

O‘zbekiston Respublikasi aholisi 31021300 ming kishi (2016). O‘zbekistonda 125 dan ortiq millat va elat vakillari, shu jumladan, o‘zbeklar (80,0%), qoraqalpoqlar (2,2%), tojiklar (4,9%), ruslar (3,8%), qozoqtar (3,6%), tatarlar (1,0%), qirg‘izlar (0,9%), koreyslar (0,6%), ukrainlar (0,3%) va boshqa millat vakillari (2,7%) yashaydi.

O‘zbekiston hududida eng keng yoyilgan din - islomdir. Shuningdek, xristianlik, iudaizm, buddizm dinlari ham tarqalgan. Rasmiy davlat tili - o‘zbek tili. Pul birligi - so‘m.

2.O‘lkashunoslik turlari. Tarixga nazar tashlasak, o‘z o‘lkasini sevmagan va uning tuprog‘ini ardoqlamagan biron ham zotni uchrata olmaymiz. Shuning uchun ham biz Vatanni sevmoq iymondandir, deymiz. Zotan, ona-yurt farzandlari uchun Vatanni sevish, uning tarixini o‘rganish, dilga jo etish muqaddasdir.

O‘lkashunoslik uch turga bo‘linib, ular quyidagilar:

- 1) ilmiy, ya’ni davlat o‘lkashunosligi;
- 2) jamoat o‘lkashunosligi;
- 3) maktab o‘lkashunosligi.

1. Ilmiy, ya’ni davlat o’lkashunosligi – bevosita davlat ilmiy tashkilotlari, ilmiy tadqiqot institutlari, Respublika tarix va madaniyat yodgorliklarini muxofaza qilish va undan foydalanish, regional, maxsus muzeylar, Respublika Fanlar akademiyasi qoshidagi tarix, arxeologiya ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy xodimlari tomonidan respublika va viloyatning o’lkashunoslik muzeylarida ekspozitsiya sifatida namoyish qilinadi.

2. Jamoat o’lkashunosligi – xalq deputatlari, ijroiya qo‘mitalarining bevosita rahbarligida tegishli joydagi arxeologik, etnografik, toponimik va arxiv hujjatlari mutaxassislari yordamida o‘rganiladi.

Jamoat o’lkashunosligi qishloq, ovul, qo‘rg‘on, tuman, shahar va viloyat hududidagi tarixiy obidalarni saqlash va asrash ishlariga boshchilik qilish bilan birga joylarda istiqomat qilib turgan xalqlarning kelib chiqishlari, urf-odatlarini o‘rganadi hamda ilg‘or mehnatkashlar, Mehnat Qahramonlari xotirasini abadiylashtirish uchun haykallar, mangu olovlar, hurmat taxtalari tashkil qiladi. Bundan tashqari jamoat o’lkashunosligiga mustaqil ravishda tanga pullarni o‘rganuvchi mutaxassislar – numizmatlar, muhrlarni o‘rganuvchilar – sfragistlar, tamg‘a (gerb) larni o‘rganuvchilar – geraldistlar, tosh, metall, sopol va yog‘ochdagi yozuvlarni o‘rganadigan olimlar – epigrafistlar, osori-atiqalarni to‘plovchi havaskorlar ham uyushadi.

3. Maktab o’lkashunosligi – maktablarda tarix va jamiyatshunoslik (inson va jamiyat, shaxs va jamiyat) fani o‘qituvchilarining bevosita rahbarligida tashkil qilinadi.

Maktab o’lkashunosligi ikkiga bo‘linib, o‘quv jarayonida (o‘quv dasturi asosida) va dasturdan tashqari (maktabning tarbiyaviy ishlar rejasiga asoslangan holda) amalga oshiriladi.

O‘quv jarayonida (sinfda) olib boriladigan o’lkashunoslik ishlari ham 2 (ikki) maqsadni ko‘zlaydi:

1) o‘z o’lkasining o‘tmishini arxeologik, etnografik, toponimik, qo‘lyozma asarlar va arxiv hujjatlari asosida o‘rganish va o’lkashunoslik materiallarini bir tizimga solish;

2) to‘plangan o’lkashunoslik materiallaridan tarix hamda inson va jamiyat darslarida foydalanish.

Maktab o’lkashunosligi maktabni, ya’ni ta’lim-tarbiyani turmush bilan, ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘lashdagi eng muhim vositalaridan biridir. O‘qitish jarayonida o‘quv materiallaridan o‘rinli foydalanish o‘quvchilarning o‘z o’lkasining tarixini bilib olishga, mustaqil ijod qilishga bo‘lgan qiziqishini orttiradi va kelgusi hayot yo‘lini tanlab olishga yordam beradi.

Maktab o’lkashunosligi predmetlararo aloqani mustahkamlaydi. Maktab o’lkashunosligi o‘quvchilarda o‘z Vataniga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbat uyg‘otish bilan birga ularni estetik ruhda tarbiyalashga ham munosib hissasini qo‘shadi.

3. Tarixiy o’lkashunoslikning rivojlanish tarixi. O‘lkani o‘rganish masalasi O‘rta Osiyo, shu jumladan O‘zbekiston hududida Rossiyadan ancha keyinroq, ya’ni XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Rus olimi M.V. Lomonosov o‘z o’lkasini mukammal o‘rganish maqsadida 1761 yilda 30 savoldan javob varaqasi tuzib, aholi o‘rtasida tarqatgan edi. Ayni vaqtida bu bilan o’lkashunoslik faniga asos solingan edi. Tarixdan bizga ma’lumki, XIX asrning birinchi yarmidan tarix fani ham, boshqa fanlar singari hukmron sinfnинг manfaati uchun xizmat qildi.

XIX asrning 30-yillarda Buxoro saroy tarixchisi Muhammad Yoqub yozgan «Gulshan ul-mulk» nomli asar o‘sha davr tarixiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Muhammad Yoqub Kenja ibn Ali Mirzo Buxoriy (taxminan 1771-1831 yy) – buxorolik tarixchi, mang‘itlar sulolasinining ikkinchi hukmdori Doniyorbiy otaliq (1758-1785 yy.) ning o‘g‘li.

Asar 1825-1831 yillarda yozilgan bo‘lib, o‘z mazmuni va yozilish uslubi bilan XVIII asr oxiri va XIX asr birinchi yarmida yaratilgan tarixiy asarlardan farq qiladi. Bu asar fors-tojik tilida yozilgan bo‘lib, unda qadimgi zamonlardan to XIX asrning 30-yillarigacha bo‘lgan Buxoro amirligidagi siyosiy

voqealar bayoni beriladi.

Asarda saroy voqeliklari, hukmron sinflar tarixi, o‘zaro urushlar, unda erishilgan g‘alabalar, xonlikning keyingi sulolasining geneologiyasi (nasabnomasi) ifodalanib, jamiyatni rivojlantirishda asosiy kuch bo‘lgan xalq harakatlari va bu harakatning tub mohiyatini yoritishga bo‘lgan intilishni deyarli ko‘rmaymiz.

Yana o‘sha davrda fors-tojik tilida yozilgan ikkinchi manbaa Buxoro saroyi tarixchisi Muhammad Mir Olimning «Tarixi amir Nasrullo» nomli asaridir. Bu asar Buxoro amiri Nasrulloning (1826-1860) topshirig‘i bilan yozilgan, asar XVIII asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligida yuz bergen siyosiy voqealarni, ichki va tashqi voqeliklarni tasvirlash bilan boshlanib, amir Nasrulloning hokimiyatga kelishi, uning dastlabki, yillardagi davlat boshqarishda yuritgan siyosati bilan tugallanadi. Asarda Buxoro amirligidagi 1821-1825 yillarda bo‘lib o‘tgan xitoy-qipchoqlar qo‘zg‘oloni va uning bostirilishi yoritilgan. Ammo bu asarda ham qo‘zg‘olnonning asosiy sababları va mohiyati o‘chib berilmagan, bu tabiiy hol bo‘lib, saroy tarixchisidan buni kutish mumkin emas edi.

Yana shu yo‘nalishda yozilgan tarixiy manbalardan biri Mulla Ibodulla va Mulla Muhammad Shariflar tomonidan fors-tojik tilida yaratilgan «Tarixi amir Haydar» nomli asaridir. Asarda Ashtarkoniylar bilan mang‘itlar sulolasining tarixi amir Haydarning otasi Shohmurodning tug‘ilishidan boshlab, to amir Haydarning o‘limi (1826 yilgacha) Buxoro amirligida bo‘lib o‘tgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy voqeliklarga ham to‘xtalib o‘tilgan. Shu bilan asarda 1820 yilda A.F.Negri boshliq Rossiyadan Buxoroga yuborilgan elchilik tashrifi to‘g‘risida ham ma’lumotlar berilgan.

Muhammad Sharifning xuddi o‘sha davrni aks ettiruvchi «Toji tavorix» (Tarixlar toji) nomli asari maydonga keladi. Asarda mang‘itlar Chingizzon va uning avlodlari, Shayboniylar, Ashtarkoniylar sulolasining tarixlari berilgan (ikki nusxasi O‘zR FA Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondida saflanmoqda).

XIX asrning 40-yillarida yozilgan yirik tarixiy manbalardan biri Muhammad Hakimxon To‘raning «Muntaxab ut-tavorix» nomli asaridir. Asarda XVIII asrning 70-yillaridan to Qo‘qon xoni Umarxonning vafoti (1822 yil) undan so‘ng taxtga o‘tirgan Madalixongacha (1822-1842 yy.) bo‘lgan davrdagi Qo‘qon xonligi tarixiga doir siyosiy voqealar tasvirlangan. Asarning qimmati shundaki, Rossiyaning O‘rta Osiyoga nisbatan tutgan siyosati va o‘sha vaqtdan mahalliy aholining Rossiyaga nisbatan tutgan pozitsiyasini aniqlashda muhim o‘rin tutadi. Chunki, muallif Rossiyada bo‘lib, u yerdagi hayot bilan bevosita tanishgan, Rossiya bilan bog‘lanish masalasida o‘zining shaxsiy xulosalarini bayon qilgan. Muallif o‘z asarida 1821-1825 yillarda Buxoroda bo‘lib o‘tgan xitoy-qipchoqlar qo‘zg‘olonda qatnashganlarni «xoin kishilar» deb qoralaydi. Bu esa muallif tutgan yo‘lni yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Qo‘qon xonligi tarixiga oid manbalaridan yana biri Mulla Avaz Muhammadning fors-tojik tilida yozilgan «Tarixi jahonnumai» asari bo‘lib, o‘z ko‘zi bilan ko‘rganlarini bayoni hamda tarixiy manbalar asosida yozilgan ikki kitob va geografik qo‘shimchadan iborat. Asarning birinchi qismida insonning paydo bo‘lishidan boshlab to XVI asrgacha bo‘lgan hukmdorlar tarixi berilgan. Asarning ikkinchi qismida Qo‘qon xoni Olimxon (1798-1810) va Umarxon (1810-1822) hukmronligi davri siyosati to‘liq berilgan.

Qo‘qon xonligi tarixchiligidagi Mulla Niyoz Muhammadning «Tarixi Shohruxiy» degan asari ham diqqatga sazovordir. Muallifning bu asari Qo‘qon xonligining XVIII asr va XIX asrning 70 yillarigacha bo‘lgan tarixiga oid muhim ma’lumotlarga ega bo‘lib va shu davrni o‘rganuvchi tadqiqotchilar uchun juda qimmatlidir.

XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligida yozilgan tarixiy manbalardan eng muhimi Munis, Ogahiy asarlari hisoblanadi. Munis Eltuzarning topshirig‘i bilan o‘zining «Firdavs ul-iqbol» nomli mashhur asarini yozdi. Mirxondning mashhur asari «Ravzat us-safo»ni fors tilidan o‘zbek tiliga

tarjima qilish topshiriladi. Munis bu kitobning birinchi qismini tamomlab, ikkinchisini yozayotganida to'satdan vafot etadi. Muhammad Rizo Ogahiy Xiva xoni Ollohqulixon topshirig'i bilan bu asarni davom ettirib, 1827 yilgacha bo'lgan voqealarni yozadi.

Ogahiy bu asarni tugatganidan so'ng o'zining quyidagi asarini yozadi: «Riyoz ud-davlat» asarida 1826-1842 yillardagi voqealarni, «Zubdat ut-tavorix» 1826-1845 yillardagi tarixiy voqealarni, «Gulshani davlat» 1856-1865 yillardagi voqealarni o'z ichiga oladi. Ogahiy «Shohidi iqbol» nomli beshinchi asarini Xiva xoni Muhammad Rahimxon II davriga bag'ishlaydi. (1864-1910). Ammo bu asar tamomlanmay, 1872 yilgi voqealar bilan tugaydi. Munis va Ogahiylar saroy tarixchilar bo'lsalarda, ularning asarlari o'zining dalillarga boyligi, xronologik izchilligi, o'zida aks ettirilgan siyosiy voqealarning to'liq bayoni jihatidan o'sha davrdagi Buxoro va Qo'qon saroy tarixchilaridan birmuncha yuqorida turadi. Bu xususiyatni o'z vaqtida V.V.Bartold ham «Istoriya kulturnoy jizni Turkestana» degan asarida ta'kidlab: «Munis va Ogahiyning kitoblari adabiy va tarixiy asar sifatidagi kamchiliklariga qaramay, bayon qilishning to'liqligi va daliliy ma'lumotlarning soni jihatidan bizgacha yetib kelgan Buxoro va Qo'qon xonliklari tarixi bo'yicha bitilgan asarlarni orqada qoldiradi» – deb yozgan edi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asrning birinchi yarmida mahalliy tarixchilar tomonidan yaratilgan tarixiy asarlar, mamlakatning xo'jaligi, iqtisodiy munosabatlар, sinfiy kurash, xalq harakatlari va siyosiy voqealarning ijtimoiy-iqtisodiy ildizlarini ochib bera olmagan bo'lsa ham, tarixchilarimiz o'lkani o'rghanishda, solnomalar tuzishda etnografik va toponimik materiallar to'plashda bu nodir asarlardan, tanqidiy nuqtai nazardan qarab foydalanishlari mumkin.

4.O'rta Osiyo tarixini o'rghanishda rus sharqshunos olimlarining roli va ularning mahalliy tarixchilikka ta'siri. XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo chor askarlari tarafidan bosib olingach bu yerga rus olimlari kelib, ko'plab tadqiqot ishlarini olib bordilar. Shunday murakkab va og'ir sharoitda ham o'lkashunoslар o'z fikr va mulohazalarini erkin bayon etishga harakat qilganlar. O'rta Osiyoga kelgan olimlar o'lkadagi ilg'or mahalliy ziyolilarning namoyondalari bilan yaqin aloqada bo'lardilar.

Tabiiy boyliklari, madaniy merosi g'oyat boy bo'lgan va kam tekshirilgan bu o'lka rus ziyolilarining taraqqiyatini qismini juda qiziqtirardi. Mashhur rus zoologi, zoogeografi va sayyohi, darvinizmni e'tiqodli tarafdozlaridan bo'lgan N.A. Seversov (1827-1886) Turkistonning ko'p joylarini fizik-geografik jihatdan o'rghanishda, jumladan Pomir tizma tog'larining orfografiyasini o'rghanishda ko'p mehnat va kuch sarf qildi. Zoologiya, botanika mineralogiya va paleantalogiyaga oid juda qimmatli kolleksiyalar to'pladi.

Mashhur rus geografi P.P. Semyonov – Tyanshanskiy (1827-1914) O'rta Osiyo, ayniqsa Tyanshan tizma tog'larini geografik o'rghanishiga asos soldi.

Rus tabiatshunosi va sayyohi A.P.Fedchenko (1844-1873) Turkiston tabiatini o'rghanishda katta rol o'ynadi. U Farg'ona vodiysi bilan Oloyni birinchi marta tekshirib chiqdi. Oloy tog'i orasidagi tizma tog'lar va uning eng baland cho'qqisini ochish sharafi ham unga nasib bo'lgan.

Geolog va geograf I.V. Mushketovning (1850-1902) ilmiy xizmatlari ham katta. Shimoliy Tyanshan tizma tog'i orfografiyasining geologik asoslarini dastlab u ko'rsatib berdi. 1877-1879 yillarda Mushketov geologik tekshirish ishlarini bajarish maqsadida Oloy, Pomir, Buxoro, Xisorga, Amudaryo bo'ylab va Qizilqumga sayohat qildi. 1881 yilda (G.D. Romanovskiy bilan) Turkistonning birinchi geografiya xaritasini tuzdi.

O'lkani o'rghanishda statistika qo'mitalari ham muhim rol o'ynaydi. 1868 yil yanvar oyida Turkiston statistika qo'mitasi tuzildi. Uning tashabbusi bilan 1872 yildan «Turkiston o'lkasi statistikasi uchun materiallar» nomli to'plam chiqarila boshladi: (1872-1876 yillar ichida hammasi bo'lib 5 to'plam chiqarildi) 1887 yil 1 yanvardan boshlab Sirdaryo (Toshkentda), Samarqand, Farg'ona (Yangi

Marg‘ilon) viloyatlari statistika qo‘mitalari tuzildi.

O‘rta Osiyo xalqlarining turmushiga bag‘ishlangan, ilmiy va o‘lkashunoslikka doir turli habarlar va maqolalar «Turkestanskiy vedomosti», hamda «Turkiston viloyatini gazetasi» (Toshkent 1870-1917 yillar), shuningdek boshqa mahalliy matbuotlarda ham muntazam bosilib turgan.

1870 yilda Toshkentda ochilgan Turkiston xalq kutubxonasi (hozirgi Alisher Navoiy nomli O‘zbekiston milliy kutubxonasi) o‘lkani o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi barcha tadqiqotchilar, ayniqsa mahalliy xodimlar uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Kutubxona ochilishi vaqtida faqat 1700 jild kitob bor edi, 1917 yilga kelib undagi kitoblar soni 80 ming jildga yetdi.

Kutubxona fondida saqlanayotgan adabiyot va manba majmualaridan O‘rta Osiyoga ayniqsa Turkiston o‘lkasiga taalluqli «Turkiston asarlar va maqolalar to‘plami» juda ham qimmatli asar bo‘lib, shu kunlarda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Bu to‘plamni tuzish ishlarini ko‘zga ko‘ringan rus bibliografi V.I. Mejov Peterburgda 1868 yildan boshlab, 20 yil davomida olib borgan edi. 1888 yilda «Turkiston to‘plami»ga kirgan katta-katta jiddlarning soni 416 ga yetganda (1867-1887 yillarda to‘plangan materiallar edi) o‘lkadagi chor ma’muriyatining buyrug‘i bilan «mablag‘ yo‘qligi sababli» bu ishlar to‘xtatilgan edi.

1872 yilda A.A. Kun va boshqa Sharqshunoslar mashhur «Turkiston albomi» ni (Turkiston o‘lkasining etnografiya, arxeologiya, kasb-hunar va tarixiga doir sur’atli albomni) tuzib tamomladilar. Albom 1262 dona rangli va rangsiz fotosur’atlar yopishtirilgan 447 kartondan iborat bo‘lib, Rossiyada faqat uch kutubxona imperator kutubxonasi, Fanlar akademiyasi kutubxonasi va Turkiston kutubxonasigina faxrlana oladigan, badiiy jihatdan g‘oyat noyob asar edi.

O‘rta Osiyo tarixiga oid eng muhim manbalardan biri X asr muallifi Muhammad Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari N.S. Likoshin tomonidan rus tiliga o‘girilib, 1897 yilda nashr etilishi (V.V. Bartold tahriri ostida) juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Qisqa muddat ichida O‘rta Osiyo olimlari jamiyatni paydo bo‘ldi. Bu jamiyat o‘z oldiga O‘rta Osiyo tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, statistikasini, iqtisodiga oid ma’lumotlarni to‘plash, ishslash va tarqatishni maqsad qilib qo‘ygan edi. Uning ochiq majlisi 1871 yil 28 yanvarda bo‘ldi.

O‘lkada ishlab turgan xavaskor arxeologlar 1875 yilda Turkiston arxeologiyasi xavaskorlari to‘garagiga a’zolari tomonidan Farg‘ona tog‘ tizmalaridagi Saymalitosh degan joyda toshga o‘yib solingan juda ko‘p sur’atlarni topish fanga muhim ilmiy kashfiyotlar bo‘lib kirdi.

O‘rta Osiyo tarixi va arxeologiyasi XIX asr boshidan chuqurroq tekshirila boshlandi. Bunda sharqshunos olim V.V.Bartoldning o‘rnii benihoya kattadir. U sharq tillarini juda yaxshi bilganligidan, hamisha uning ilmiy faoliyati markazida turgan O‘rta Osiyo tarixchiligi emas, shu bilan birga butun «Musulmonlar Sharqi» tarixiga ham oid juda ko‘p birmuncha manbalarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Uning 1898-1900 yillarda yozilgan «Turkiston mo‘g‘illar hujumi davrida» asari puxtaligi, ma’lumotlarga boyligi jihatidan O‘rta Osiyoning o‘tmishini o‘rganishda qimmatli manba sanaladi.

V.V. Bartoldning «Ulug‘bek va uning zamoni», «Turkistonning sug‘orilish tarixiga oid» degan tadqiqotlari va boshqa ko‘p kitob, maqola, tadqiqot va mulohazali, g‘oyat qimmatli o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan asarlardir. V.V. Bartoldda katta tashkilotchilik ilmiy qobiliyati ham bor edi. Darhaqiqat, O‘rta Osiyoni tarixi va arxeologiyasini o‘rganish sohasidagi biron kattaroq tadbir Bartoldning ishtirokisiz bo‘lmagan. Mahalliy arxeologlardan V.P. Vyatkining (1869-1932) qilgan ishlari ham diqqatga sazovordir. Bu olim 1908 yilda Samarqandagi mashhur Ulug‘bek rasadxonasining goldiqlarini o‘rganish va saqlash bilan shug‘ullangan.

V.V. Bartold o‘zining 1894 yilda bosilib chiqqan «Turkistonda arxeologik tadqiqotlar masalasiga oid» kitobida o‘lkani jiddiy ravishda o‘rganish hali oldimizda turibdi, bu ishda bosh rolni mahalliy ilmiy kuchlar o‘ynamog‘i lozim degan edi. Uning taklifi bilan 1895 yil oktabr oyida Turkiston arxeologiyasi xavaskorlar to‘garagi va uning Nizomi tasdiqlandi. Nizomda jumladan:

1. Turkiston o‘lkasini qadimgi yodgorliklarini o‘rganish;
2. To‘garakni faxriy va haqiqiy a’zolaridan tuzishadi;
3. To‘garakning haqiqiy va xavaskorlik a’zoligiga mahalliy arxeologik masalalari bilan qiziquvchi, unga a’zolik badallarini to‘lab turuvchi har bir kishi saylana oladi, saylovchining unvoniga, kelib chiqishiga, millatiga va jinsiga qaralmaydi;
4. Haqiqiy a’zolar o‘z ichidan bir yil muddatga boshqarma saylanadi;
5. Boshqarma to‘garagidagi ishlarni olib boradi, qaysi yodgorliklarni qazib, tadqiq qilishni aniqlaydi. Mahalliy idoralar va Rossiya arxeologiya komissiyasi bilan aloqa ishlarini olib boradi;
6. To‘garakning umumiy majlislariga har bir qiziquvchi kishi qatnasha oladi;
7. To‘garakning bo‘limlarini boshqa shaharlarda ham ochish;
8. To‘garak mablag‘i haqiqiy a’zolaridan hamda arxeologiya xavaskorlari tomonidan beriladigan hayriyalardan tashkil topadi.

Rus sharqshunosligi o‘zining g‘oyat katta ilmiy faoliyati bilan mahalliy tarixchilikka shak-shubhasiz katta ta’sir ko‘rsatdi. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, rus sharqshunoslari O‘rta Osiyo tarixi yuzasidan jiddiy tadqiqot ishlari olib borib, bu ishga yerli tarixchi havaskorlarni ham jalb qilish, ular bilan birga hamkorlikda ish olib borishga harakat qildilar. Turkistonga kelgan sharqshunos olimlar mahalliy tarixchi va havaskorlar o‘rtasida yurib va yashab, O‘rta Osiyo tarixi haqida muhim ma’lumotlar va asarlarni to‘pladilar. Toshkentlik tarixchi Muhammad Solih Qoraxo‘ja o‘g‘li o‘zining «Tarixi jadidi Toshkent» degan asarida Iskandar to‘ra ismli bir rus olimining uyiga kelgani, u bilan suhbatlashgani va O‘rta Osiyo tarixiga oid ko‘p savollar berib bahslashgani haqida yozadi. Iskandar to‘ra aslida Aleksandr Kun bo‘lib mahalliy xalq qadimdan Aleksandr ismini Iskandar deb atashadi. Faqat A. Kunning emas, balki O‘rta Osipyoga kelgan barcha sharqshunoslarning ham xalq orasida yurib tarixga oid savollar berishi, ayrim masalalar yuzasidan bahslashishlari hamda ularga yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatishlari, shubhasiz, yerli xalqlar o‘rtasida tarixga qiziqish hissini oshirdi.

O‘sha vaqtida nashr qilingan «Turkiston viloyatining gazeti» «Turkestanskiy vedomosti» va boshqa gazeta sahifalaridagi mahalliy tarixchi va havaskorlar tomonidan yozilgan yodnomalar, yodgorliklar haqidagi kichik-kichik xabarlar va maqolalar, arxeologik kolleksiyalar rus sharqshunoslarning mahalliy tarixchilikka samarali ta’sir ko‘rsatganligini va yerli xalq orasida ham tarixga qiziqish avj olganligini ko‘rsatdi.

Sattorxon Abdug‘offorov – rus sharqshunosligining bevosita ta’siri ostida tarixchilar qatoridan o‘rin organ. U 1876 yili Peterburgda chaqirilgan III xalqaro sharqshunoslari s’ezdiga A. Kun, Jo‘rabek Toshkentlik Muhammadqulov, Abdulla Niyozov, Buxorolik Mo‘sajon Saidjonovlar bilan birga Turkiston vakili bo‘lib qatnashdi.

Rus sharqshunoslari, jumladan, N.I. Veselovskiy rahbarligida Akrom polvon Asqarov kabi havaskor tarixchi va arxeologlar yetishib chiqdi. U o‘zining harakatchanligi va ishchanligi bilan Turkistondagi fan ahillariga tanila boshlaydi. «Turkestanskiy vedomosti» gazetasining 1892 yida bosilib chiqqan sahifasida Akrom Asqarovning 1370 dona kumush pul, 13274 dona mis pul, neolit davriga oid tosh bolg‘a, jezdan yasalgan sulug‘, jez oyna kabi turli buyumlar to‘planganligi haqida ma’lumot beradi. Ular orasida sopoldan yasalgan odam haykallari, bir bo‘lak nefrit, isirg‘a, tumor, mis va sopol idish hamda shunga o‘xhash tarixiy buyumlar bor. Akrom Asqarovning fan uchun qimmatli bo‘lgan bu kolleksiyasiga o‘sha davr mutaxassis professor N.I. Veselovskiy ham katta baho bergen edi.

O‘rta Osiyo, shu jumladan Qo‘qon xonligining Namangan va Toshkent shaharlarida yashagan, o‘zbek xalqining tarixi, tilini va urf-odatlarini o‘rganishda Vladimir Petrovich Nalivkinning (1852-1918) ham qo‘shgan hissasi kattadir. Uning ilmiy faoliyati O‘rta Osiyo xalqlari tarixi, tilini va etnografiyasini o‘rganishdan boshlandi. U rafiqasi M.V. Nalivkina bilan hamkorlikda «Farg‘ona

mahalliy aholisi ayollarining turmushi haqida ocherk» degan kitob yozdi. V.P. Nalivkin rus olimlari ichida birinchi bo‘lib, mahalliy tillarni o‘rganib, mahalliy tarixchilar qo‘lyozma asarlarini o‘rgangan va shular asosida «Qo‘qon xonligining qisqacha tarixi», «Ruscha-sartcha va sartcha-ruscha lug‘at» hamda «Intixob ut-tavorix mamlakati Rusiya» («Rossiyaning qisqacha tarixi») kitoblarini va 40 dan ortiq ilmiy asarlar, maqolalar yozgan. Mahalliy xalq tilini juda mukammal bilganligi sababli uni yerli xalqlar Jahongir to‘ra deb ataganlar, u ham bir necha asarini Jahongir to‘ra nomi bilan chop etgan.

Uning 1885 yilda Jahongir to‘ra nomi bilan yozilgan «Intihob ut-tavorix mamlakati Rusiya» nomli asari buning yorqin dalilidir. Muallifning «Bu faqir... zaboni nochor va suxoni ojiz birlan tavorix kitoblarining tahriridagi voqealarni intihab aylab ko‘p tafsili keltirmay imoli birla muxtasar bayonini qillardiki, Rusiya mamlakatining paydo va bino bo‘lganidan to oxir zamonigacha mazkur viloyat ichra o‘tgan xodisa va voqeliklarni tasnif qilg‘ay», - deyishidan ma’lumki, u o‘z asarini ko‘p adabiyotlardan foydalangan holda yozgan. Bu asarning yerli aholini Rossiyaning o‘tmish tarixi bilan tanishtirish maqsadida o‘zbek tilida yozilishi o‘z davri uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan bir xodisa edi.

Shunday qilib, XX asrning 20-yillariga qadar olimlar va turkshunos havaskorlarning kuchlari bilan O‘zbekiston o‘lkasini o‘rganishga doir anchagina materiallar to‘plangan. Biroq bularning orasida uzuq-yuluq va tasodifiy materiallar anchagina bo‘lib, keng, ilmiy asosda umumlashtirilmagan edi.

5. Tarixiy o‘lkashunoslikning 1917 yildan keyingi ahvoli. Qadriyatimiz o‘z o‘lkamiz tarixini o‘rganishdan boshlanishi hech kimga sir emas. Yetnish yildan ortiq davr mobaynida biz yosh avlodga o‘tmishimiz tarixini o‘rgatishda juda katta chalkashliklar va xatoliklarga yo‘l qo‘yib keldik.

1917 yilgacha yashagan sharqshunos olimlar va mahalliy tarixchilarning o‘lkani o‘rganishga bag‘ishlangan asarlari unutildi. O‘lka bilan bevosita shug‘ullanganlar millatchiik tamg‘asiga duchor bo‘ldilar.

1917 yilga qadar o‘lkamizda har xil fanlarning rivojiga o‘z hissalarini qo‘sib kelgan anchagina mahalliy kishilar foydali qazilmalar topish va ularni ta’riflash, qadimgi zamon yodgorliklarini, osori-atiqalarni o‘rganish kabi ishlarni amalga oshirganlar. Bunday ajoyib kishilarning nomlari keyinchalik esdan chiqarib yuborilgan. Masalan, o‘lkamizda mineral boyliklar qidirgan, qo‘rg‘oshin va feruza konlarini topgan xo‘jandlik Mulla Sang‘in, Chimkentda o‘lkadagi birinchi rus-tuzem maktabini ochishda faollik ko‘rsatgan, Qo‘qon shahar maktabida ishlagan hamda «Turkiston viloyatining gazeti»da mas‘ul muharrirlik qilgan, Turkiston muallimlar seminariyasida o‘zbek va fors tillarida dars bergan, 1876 yilda Peterburgda orientalistlar III xalqaro kongressida ma’ruza qilgan, o‘lkadagi tub joy aholi orasida dunyoviy bilimlarning tarqalishiga katta hissa qo‘sigan Sattorxon Abdulg‘afforov, o‘zbek arxeologiyasi rivojiga ham katta hissa qo‘sigan, numizmatik kolleksiyalar to‘plagan, hozirgacha boy kolleksiyasi Davlat Ermitajida tilga olinmagan samarqandlik Mirzo Buxoriy, Mirzo Abdullolarning nomlari unutildi. Vaholanki, shu iste’doddardan biri-ajoyib san’atkor, xattot Mirzo Barot Mullo Qosimov Samarqand va uning atroflaridagi ko‘pdan-ko‘p qadimgi zamon yodgorliklarining rasmini chizgan, Ulug‘bek madrasasining g‘oyat aniq chizmasini tayyorlagan edi.

Tarixiy o‘lkashunoslik fanining sodiq tashkilotchilaridan biri Akrompolvon Asqarov juda ajoyib yodgorliklar-O‘rtta Osiyoda eng qadimda zarb etilgan tanga-chaqalardan 15 mingdan ko‘p kolleksiya to‘plagan. Akrompolvon arxeologiya faniga ko‘rsatgan xizmatlari uchun Rus arxeologiya jamiyatining nishoni bilan mukofotlangan. U Toshkentda 1890 yilda ochilgan Turkiston qishloq xo‘jaligi va sanoati ko‘rgazmasiga oliy navli g‘o‘za, pilla va xom ipak, pilla qurti boqishda eng yaxshi nav deb topilgan tut navlarini qo‘ygan.

Buxoroda qadimgi gilamlar, qo‘lyozmalar, nodir sopol idishlar to‘plagan Muhammad Vafo juda mashhur bo‘lgan. Havaskor-geograflardan Olimxo‘ja Yunusov, Mirza Hakim va boshqalar Rus geografiya jamiyati Turkiston bo‘limining jonkuyar xodimlari edi. Xalqning olqishiga sazavor bo‘lgan

mana shunday yuzlab ajoyib olimlar faoliyati, ularning asarlari o'rganilmay qolib ketgan. Shunisi achinarlikni, 1917 yildan so'ng to hozirgi kunimizgacha o'lkashunoslik fani o'lkamiz tarixini davrma-davr o'rganishdan iborat o'z vazifasini bajarmay, ko'proq Rossiyaning Yevropa qismidagi o'lkalarini o'rganish bilan mashg'ul bo'lib kelavergan.

Xullas, 1917 yildan so'ng, o'lkada o'lkashunoslik fani ko'proq markazdan andoza olgan xolda rivojlandi. Rossiyaning markaziy tumanlariga tegishli bo'lган nashrlar ko'paydi. O'rta Osiyoning asosiy yirik shaharlari tarixi qisman yoritiladi. Maktablarda o'lkashunoslikka tegishli bo'lган ishlar o'lka tarixidan chetda qolib ketaverdi.

Mustaqillik sharofati bilan o'lka tarixini o'rganishga yangidan e'tibor berildi. O'zbekiston tarixini o'rganish mahalliy hujjalalar, matbuot, arxiv materiallari, arxeologik, toponimik, etnogenetik va boshqa manbalarni chuqur o'rganish bilan chambarchas bog'lab olib borishi lozimligi ta'kidlanadi va amalga oshirlmoqda. Bu esa o'lka tarixiga yangicha yondashishni taqozo etadi. Bu yo'lida olimlarning yangi va ilmiy asarlari nashr yuzini ko'rishi o'lka tarixiga ob'ektiv baho berishini kun tartibiga qo'yadi.

3-Mavzu: Arxeologik va me'moriy yodgorliklarni o'lkashunoslikda tutgan o`rni (4 soat)

Reja:

1. O'rta Osiyoda arxeologiya fanining vujudga kelishi tarixidan.
2. Rus sharqshunosligi va arxeologiya.
3. O'zbekistonda arxeologiya fanining vujudga kelishida Ya. G'ulomovning xizmati.
4. O'lka tarixini o'rganishda arxeologik materiallardan foydalanish.
5. Farg'ona vodiysidagi arxeologik madaniy yodgorliklar va ularni o'lkamiz tarixini yoritishdagi ahamiyati.
6. Me'moriy yodgorliklarni o'lkashunoslikda tutgan o`rni

Tayanch so'z va iboralar: arxeologiya, Farg'ona vodiysi, qazishma ishlari, Registon, Madrasa, Me'moriy obidalar, Ichon qa'la, Dishan qa'la, Sarvontepa, Qo'shtepa, Ershi, Fayoztepa, Quva, Eylaton, ibridoiy odam, manzilgoh.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. -T.; O'zbekiston 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.; O'zbekiston 2017.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. 1997.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 2008 y.
5. Karamatov H. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi. 2009 y.
6. Nabiev A. Tarixiy o'lkashunoslik. — T., 1996.
7. Ochildev F.B. Tarixiy o'lkashunoslik. Toshkent. 2008 y
8. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. T., 1988.

1.O'rta Osiyoda arxeologiya fanining vujudga kelishi tarixidan. «Arxeologiya» so'zi lotin tilidan olingan bo'lib «Arxayos»« - «qadimgi», «Logos» - fan, ya'ni «qadimgi davrni o'rganuvchi fan» degan ma'noni bildiradi. Arxeologiya o'lkashunoslik va tarix fanlarining asosiy manbalaridan biridir.

Dunyo xalqlarining bir necha 100 ming yillardan beri davom etib kelayotgan tarixi bor. Lekin shu uzoq tarixiy taraqqiyotning eng qadimgi davridan, ya'ni eramizdan avvalgi IV-III ming yilliklarda yozma asarlар paydo bo'lган. Undan avval esa yozuv va yozma tarix bo'lmanan.

Yozuv paydo bo‘lgandan keyin ham ko‘pgina voqealar yozilmay qolgan, podsholarning buyruqlari, ruhoniylarning diniy ta’limotlari, xazinalarning hisob kitoblari hamda turli urushlar haqidagi yozma asarlar esa o‘z zamonasining ishlab chiqarish usullari va vositalarini, xalqning mashaqqatini yetarlicha aks ettirmagan. Demak, qadimgi shahar va qishloqlar qazib ko‘rilganda, u yerdan qadimgi xalqlarning uy-joy qoldiqlari, mehnat qurollari, zeb-ziyarat buyumlari, ibodatxona qoldiqlari topiladi, bu narsalar yozma tarixdagi ma’lumotlarga qaraganda, o‘scha davr turmushini har taraflama va aniqroq yoritib berishga yaraydi. Bunday yodgorliklar buyumlarni tekshiruvchi fan arxeologiya bo‘lib, u tarixchilikning muhim bir tarmog‘ini tashkil etadi. Arxeologiya-ibtidoiy odamlar yashagan makonlarni, sinfiy davrdan qolgan shahar, qishloq va mozorlarni qazib ko‘rib, tarixni aniqlaydi.

Arxeologik ilmiy izlanishlarning boshlanishi xorijiy mamlakatlarda XVIII asrga to‘g‘ri keladi. Ana shu XVIII asr boshlarida eramizning 79 yilda Vezuviy vulqonini otilishi natijasida fojiali xodisalar yuz bergen. Pompey va Gerkulanum shaharlarida birinchi marotaba arxeologik qazish ishlar olib boriladi va ilk bor 1600 yil ilgari xalok bo‘lgan odamlarni hayotini aks ettiruvchi manzara paydo qilindi.

Shundan so‘ng o‘scha zamon olimlari kundalik turmush tarzini aks ettiruvchi buyumlarni o‘rganishning ahamiyati naqadar yuqori ekanligini tushundilar. Arxeologlar qazilma usuli bilan ish ko‘radilar. Ayniqsa yozuvlar paydo bo‘lmasdan qadimgi davr tarixini arxeologik qazishmalarda topilgan buyumlar to‘ldiradi, arxeologiya qazishmasining natijasi matbuotda keng yoritilib beriladi. Arxeologiya fani xali boshqa fanlarga qaraganda yosh bo‘lishiga qaramasdan, dunyoda katta e’tibor qozongan va hammani qiziqtirgan fandir.

O‘rta Osiyo ham qadimgi Sharqning yuksak madaniyat yaratgan o‘choqlaridan biri bo‘lib, bu o‘lkada insoniyat ilk tosh asridan boshlab yashagan. O‘lkaning turli joylaridan topilgan moddiy manbalar fikrimizni to‘liq tasdiqlaydi.

Keng ko‘lamdagi arxeologik tadqiqot ishlari natijasida tog‘ va tog‘ oldi, vodiyo hatto qoraqum va qizilqum cho‘llaridan tosh asri makonlari, manzilgoxlari neolit va bronza davri qishloqlari, mozor qo‘rg‘onlar, ilk temir va feodal davri qishloqlari, shaharları, suv inshootlari, mudofaa devorlarining qoldiqlari va ulardan o‘rin olgan turli xildagi moddiy manbalar hamda turli davrlarga oid qoyatosh rasmlar ko‘plab topilgan.

Bu o‘lka hududidagi arxeologik yodgorliklar xilma - xilligi va madaniy qatlaming boyligi bilan ajralib turadi. Arxeologik manbalar quyidagi ikki turga bo‘linadi:

1. Tabiiy manbalar (Paleozoologiya, paleobotaniqa) - inson va hayvon suyaklari va o‘simlik qoldiqlari geologik qatlamlar bo‘lib, ularni asosan antropologlar, zoologlar, botaniklar va geologlar o‘rganadilar.

2 Inson tomonidan yaratilgan manbalar: mehnat qurollari, qurol-aslahalar, kulolchilik buyumlari, san’at va zeb-ziyarat buyumlari, qoyatosh rasmlari, yozma manbalar va h.k. Yozma manbalarni o‘rganish bilan asosan tarixchilar shug‘ullansalar-da, arxeologlar kishilik o‘tmishini o‘rganishda moddiy manbalar bilan birgalikda yozma manbalarga ham tayanib ish ko‘radilar.

Arxeologiya fanida «yodgorlik» va «manba» iboralari keng qo‘llanilib, ular bir ma’noni anglatuvchi sinonim so‘zlardir. Shuning uchun odamlar yashagan barcha turdagи manzilgoxlarni arxeologik yodgorliklar deb ataladi.

O‘rta Osiyo xalqlarining moddiy madaniy yodgorliklarini o‘rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan, ya’ni o‘lkaning chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so‘ng boshlandi. Bu o‘lkaga turli kasbdagi kishilar kela boshladilar. Ular orasida moddiy yodgorliklarga qiziquvchi mahalliy kishilar xam bor edi. V.V. Bartold, V.A. Jukovskiy, N.I. Veselovskiy kabi sharqshunoslar, hamda A.L. Kun, V.L. Vyatkin, I.T. Poslovskiy, N.P. Ostroumov va boshqalarning o‘lka

arxeologiyasini o‘rganishdagi xizmatlari kattadir. Mahalliy xavaskorlardan Akrom Asqarov, M. Mirmuxammedovlarning ishlari ham diqqatga sazovordir.

V.V. Bartoldning bevosita rahbarligi va taklifi bilan 1895 yilda «Turkiston arxeologiya xavaskorlari to‘garagi» tuzilib, uning nizomi tasdiqlandi. To‘garak tadqiqot ishlariiga jiddiy e’tibor qaratib, dastlabki yutuqlarga erishdi. Lekin bu paytda ish olib borgan olimlar va xavaskorlar ishni muntazam tashkil etmagan edilar.

O‘rta Osiyo arxeologiyasiga jiddiy e’tibor XX asrning 20 - yillari oxiri va 30 - yillardan boshlandi. Ayniqsa ikkinchi jahon urushidan so‘ng arxeologik tadqiqot ishlari O‘rta Osyoning barcha hududlarida keng ko‘lamda olib borila boshlandi.

Bu davrda O‘rta Osiyo arxeologiyasi rivojlanishida S.P. Tolstov, M.Ye. Masson, M.M. Dyakonov, A.P. Okladnikov, M.M. Gerasimov, V.G. Grigor’ev, A.Yu. Yakubovskiy, Ya.G. G‘ulomov, M.P. Gryaznov, A.N. Bernshtam, A.I. Terenojkin, B.A. Latinin, A.M. Beleniskiy, V.A. Shishkin, V.M. Masson, B.A. Litvinskiy, G.A. Pugachenkova, M.A. Itina kabi arxeologlarning fan oldidagi xizmatlari beqiyosdir.

Keyingi 30 - 35 yil ichida O‘rta Osiyo moddiy madaniyatini o‘rganishda ulkan ishlarni amalga oshirgan arxeologlar guruxi yetishib chiqib, ular jumlasiga A.A. Asqarov, A.R. Muhammadjonov, O‘. Islomov, L.I. Albaum, Yu.F. Buryakov, R.X. Sulaymonov, N. Ne’matov, V.A. Ranov, I. Axrorov, V.I. Sarianidi, O.K. Berdiev, M.R. Qosimov, T. Mirsoatov, E.V. Rtveladze, M. Jo‘raqulov, A.S. Sagdullaev, Sh.R. Pidaev, Z.I. Usmonova, B. Turg‘unov, T.Sh. Shirinov, B.X. Matboboev va boshqalarni kiritish mumkin. Bularning ko‘pchiligi hozirgi paytda ham O‘rta Osyoning o‘tmish tarixining turli davrlari bo‘yicha muntazam tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

O‘rta Osiyo arxeologiyasini o‘rganish hozirda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Bu ishlar bilan maxsus institutlar, universitetlar, arxeologiya kafedralari, joylardagi muzeylar hamda ular bilan xamkorlikda chet el institutlari va universitetlari shug‘ullanishmoqdalar. Bularning tadqiqotlari o‘lka xalqlari tarixini o‘rganishda katta ilmiy ahamiyat kasb etmoqda.

2. Rus sharqshunosligi va arxeologiya. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, tarixchilik O‘rta Osiyoda juda ham qadimdan boshlangan. Xorazmlik mashhur olim Beruniyning yozishiga ko‘ra, arab istilochilari O‘rta Osiyodagi mahalliy til va mahalliy yozuvdagi asarlarni ham yo‘q qilib, yondirib yuborganlar. Shu sababli eng qadimgi zamonalarda yozilgan asarlar saqlanmagan. Ming yil davomida yozilib kelingan tarixiy asarlar juda ko‘p, Muhammad Narshaxiyning «Buxoro tarixi», Bal’amiyning «Tarix tabari tarjimasi» kabi asarlari yozilganiga ming yildan oshdi.

O‘rta Osiyoda arxeologiya fani, yuqorida aytilganidek juda yosh fan. XVIII asrda jahoning ayrim ilg‘or mamlakatlarda boshlangan arxeologik ilmiy izlanishlar XIX asrga kelib bir muncha rivojlandi. XX asrda esa ayniqsa taraqqiy etdi.

Ammo bizning O‘rta Osiyo hududida, garchi insoniyat tarixini barcha davrini aks ettiruvchi yodgorliklar ko‘p bo‘lishiga qaramay, bu jarayon sust darajada bo‘ldi. Bunga sabab, Rossiya imperiyasini ham, sovet mustamlakachiligi davrini ham, O‘rta Osiyo respublikalariga nisbatan mustamlakachilik siyosatida bo‘lishi edi. XX asrning II-yarmiga qadar Yahyo G‘ulomovdan tashqari birorta ham milliy mutaxassis arxeolog yo‘q edi. Ana shu sabablarga ko‘ra O‘rta Osiyo hududida arxeologik izlanishlarni asosan rus olimlari olib borar edi.

Rus sharqshunosi V.N. Veselovskiy, V.B. Grigorev, I. Kallaur, V.V. Bartold va boshqalar, shuningdek, o‘zbek havaskor arxeologlardan Akrom Polvon Asqarov (Havaskor arxeologlardan bo‘lgan Akram Asqarov N.I. Veselovskiy tashkil qilgan qazuv-qidiruv ishlarida bevosita qatnashgan, turli davrga oid tangalarni davri, zarb qildirgan podshoning nomlarini juda yaxshi bilgan. Farg‘ona, Sirdaryo, Samarqand va Buxorodagi ekspeditsiyalarda qatnashgan. Akram Asqarovni bemalol birinchi

o‘zbek arxeologlaridan edi, deb aytsa bo‘ladi. Rus sharqshunos olimi N.I. Veselovskiy Akram Asqarovga baho berib «Agar Akram Asqarov bo‘lmaqanda men bunchalik muvaffaqiyatlarga erishmagan bo‘lar edim» deb juda yuqori baholagan. 1887 yili «Rus arxeologiya jamiyati» Akram Asqarovni «Arxeologiya rivojiga qo‘sghan hissasi uchun» kichik kumush medali bilan mukofotlaydi) va boshqalar yodgorliklarni tarix nuqtai nazaridan o‘rganish ishiga tashabbuschi bo‘ldilar. V.L.Vyatkin qadimgi vositalarni o‘rganish asosida rasadxonani o‘rnini aniqladi. 1908-1909 yillarda bu joy arxeologik yo‘l bilan qazilgan va rasadxonani g‘ildirak shaklidagi binosini kursi, binoning buzilgan g‘isht va naqshlarini hamda rasadxonani sekstantidan bir qismi topildi. Bu tarix fani uchun o‘lkamiz tarixi uchun juda katta yangilik bo‘ldi. Lekin shu joyda bir ma’lumotni aytib o‘tish lozim. Ulug‘bek rasadxonasi o‘rnini V.L. Vyatkinga mahalliy havaskorlardan biri bo‘lgan – numizmat, samarqandlik hattot Abu Said Mahsum XVI asr vaqfnomalarini o‘rganib turib ko‘rsatib bergenligi to‘g‘risida ma’lumotlar bor.

O‘rta Osiyoni Amudaryo etaklarida S.P. Tolstov qadimgi Xorazm alifbosini aniqlashga muvaffaq bo‘ldi. Shahar va qal’alarda topilgan madaniy topilmalar madaniyatimizni naqadar porloq bo‘lganidan dalolat beradi.

A. Yakubovskiy O‘rta Osiyoning o‘rta asrlaridagi eng muhim shaharni ijtimoiy topografiyasini aniqladi. O‘rta Osiyo arxeologiyasini o‘rganishda M.Ye. Masson, Shishkin, A.P. Okladinkov, Ya. G‘ulomov asarlari katta ahamiyatga ega. Ibtidoiy jamoa tuzimi davri odamzodning paydo bo‘lgandan to mulkiy jamiyat vujudga kelishigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy kishilik jamiyati uch davrga bo‘linadi: *tosh, bronza va temir* asrlari bo‘lgan. Ana shu davrlar bo‘yicha bosqichma-bosqich davrlarga oid madaniy yodgorliklar ham hududimizdan ko‘plab topila boshladi.

Agar Tolstov neolit davriga oid madaniy yodgorlik topgan bo‘lsa, A.P. Okladnikov 1938 yil Surxandaryo viloyati, Boysun tog‘idagi Teshiktosh g‘oridan, must‘e davri ya’ni o‘rta paleolit davriga oid yosh bolaning suyak qoldiqlari bilan birga o‘choq o‘rni, mehnat qurollari, hayvon suyaklarini topishga muvaffaq bo‘ldi.

1946 yilda Samarcand viloyatining Urgut tumanidagi Omonqo‘ton g‘oridan o‘rta paleolit davriga oid makon hamda tosh qurollari topildi. 1955 yilda Toshkent yaqinidagi Shoim ko‘prik degan joyda ashell (ya’ni ilk paleolit) davri qurollari bilan birga muste (o‘rta paleolit) davri qurollari ko‘plab topildi.

1954 yillarda Farg‘ona vodiysining Qayroq qum cho‘lida ham bir necha yerdan muste davrining ashell davri tosh qurollari topildi. Bunday tosh mehnat qurollari respublikamizning yana bir necha yeridan ham topilgan. Bu topilmalarning o‘lkamiz tarixini o‘rganishimizda juda katta ahamiyatga egadir.

Demak, O‘zbekiston ibtidoiy to‘dadan urug‘chilik tuzumiga o‘tish bosqichi bo‘lgan muste davrida aholi g‘orlarda va ochiq yerlarda makon tutib hayot kechirganlar. Muste davrining oxirlariga kelib ov qilinadigan qurollarning bir muncha yaxshilanganligini olovdan foydalanish imkoniyatini kengayishi uzoq atrofdagi aholi bilan ma’lum aloqa bog‘lanishi natijasida ma’lum bir toifa o‘troq xolda yashagan bir guruhi kishilar o‘rtasida qon-qarindoshlik munosabatlari boshlanadi. Bolalar faqat onani tanigan va urug‘ tepasida ona turgan. Bu davr tarix tili bilan aytilganda urug‘chilik shart-sharoitida ov va baliqchilik mahsulotlari ko‘payib borgan, g‘ayri tabiiy kuchlar haqida afsonalar to‘qila boshlangan.

O‘zbekistonda yuqori paleolit davrining deyarli barcha bosqichlari manzilgohlaridan darak beruvchi makonlar Toshkent yaqinidagi Shoim ko‘pri dagi Boysun tog‘larida, Machay g‘orida, Amir Temur g‘orida, Samarcand makonlaridan topilgan. Ular ichida Shoim ko‘prik va Machay g‘ori yodgorliklari o‘sha davr hayoti haqida yaxshi materiallar beradi. Yuqori paleolit davriga xos tosh qurollar Buxoro viloyati Uchtut qishlog‘i atrofida, Toshkent yaqinidagi Bo‘zsuv I va Bo‘zsuv II

makonlarida, Oxangaron yaqinidagi Ko‘lbuloq makonida va boshqa joylarda topildi.

Paleolit davri tamom bo‘lib, mezolit davri boshlandi. Mezolit o‘rta tosh davri bo‘lib, bu davrda kishilar o‘q, yoyni kashf etdilar. Ovchilik mehnat quollarini takomillashuvi natijasida osonlashdi. Birinchi marotaba it xonakilashdi. Surxondaryo viloyatidagi Zarautsoy bo‘yidagi «Zarautsoy kamar» degan bir tog‘ning kamarida toshga qizil bo‘yoq bilan solingan sur’atlar topilgan. Unda chodir yopinib, o‘ziga dum bog‘lagan va o‘q, yoy ko‘targan ovchilar, yovvoyi hayvonlar bilan tasvirlangan.

Respublikamizda mezolit davri yodgorliklari Boysun tumanidagi Mochay g‘orida, Toshkent yaqinidagi Qo‘shilish degan joyda topilgan. Farg‘ona vodiysidan Obishir I-V madaniy yodgorliklari ham mezolit davriga mansubdir.

Neolit davriga kelib, asosan toshni silliqlash va teshish usullarini ixtiro qilindi. Bu davrni buyuk yutuqlaridan biri sopol idishlar qilinishi, to‘qish, tikish, kulolchilik, dehqonchilik, chorvachilikni boshlanishi bo‘ldi. Neolit davri madaniy yodgorliklari: Kaltaminor madaniy qatlami, Uchtut ustaxonasi, Joytun manziloghini topilishi o‘lkamiz tarixini o‘rganishimizda juda katta ahamiyatga ega.

Shunday qilib, O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi yuzasidan yozma manbalarni o‘rganishga kirishish bilan birga arxeologik yodgorliklarini qazib topishga ham jiddiy e’tibor berila boshlandi. Shuningdek, 1925-1930 yillarda Samarqandda V.L. Vyatkin, 1926-1928 yillarda Termizda A.A. Potapovlar, Farg‘ona vodiysida, hamda 1932-1933 yillarda Namangan viloyatining Uchqo‘rg‘on tumani Norin daryosi bo‘yida elektrostansiya qurish tayyorgaligi bilan Sankt-Peterburg arxeologlaridan B.A. Latinin Farg‘ona vodiysining shimoliy-sharqiy tumanlarida, Buxoro viloyatining sharqiy qismlarida, M.Ye. Masson boshliq arxeologlar Oxangaron vodiysida jiddiy arxeologik qidiruv ishlari o‘tkazdilar.

3. O‘zbekistonda arxeologiya fanining vujudga kelishida akademik Ya. G‘ulomovning xizmati. G‘ulomov Yahyo G‘ulomovich (1908.1.5 -Toshkent - 1977.10.1) - tarixchi-arxeolog olim. O‘zbekiston FA akademigi (1966), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1958), tarix fanlari doktori (1950), professor (1955).

Atoqli olim o‘zining qisqa va mazmundor hayotida tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi darajasiga ko‘tariladi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi.

1926 yilda Toshkentdagи O‘zbekiston erkaklar bilim yurtini tamomladi, 1930 yili Samarqanddagи Pedagogika akademiyasida 1931-32 yillarda Toshkent pedagogika texnikumida o‘qituvchi bo‘lib ishladi.

Ilmga, tarixga chanqoqligini sezgan mashhur o‘lkashunos olim arxeolog V.L. Vyatkin uni o‘zi rahbarlik qilayotgan ko‘hna Afrosiyobda olib borayotgan qazishmalarda ishtirok etishga taklif etdi. Ya. G‘ulomov mustaqil arxeologik tadqiqotlarni ilk bor 1936 yili qadimgi Xorazm yerlaridan boshladi. 1933-1940 yillarda O‘zbekiston qadimgi davr va san’at yodgorliklarini muhofaza qilish qo‘mitasi (Uzkomstaris)da ilmiy xodim, so‘ngra ilmiy kotib bo‘lib ishladi. 1940-1943 yillarda sobiq SSSR Fanlar Akademiyasi O‘zbekiston bo‘limi tarix, til va adabiyot instituti arxeologiya bo‘limi mudiri va 1943 yildan O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi tarix va arxeologiya institutining qadimgi va o‘rta asrlar tarixi sektori mudiri, institut direktori vazifasini bajaruvchi (1956-1959 yy.) bo‘lib ishladi. «Xorazmning sug‘orilish tarixi, qadimgi zamondan hozirgacha» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. 4 tomlik O‘zbekiston SSR tarixi, 2 tomlik «Samarqand tarixi» asarlarini mualliflaridan.

Biz yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, mutaxassislarining yo‘qligi uchun, o‘lkamiz tarixini dastlab rus olimlari tomonidan tadqiq qilish boshlangan edi. O‘rta Osiyo jumladan, O‘zbekiston hududida olib borgan rus olimlarining arxeologik tadqiqot ishlarini yerli xalqlar uchun o‘ziga yarasha ijobjiy tomonlari bo‘lishi bilan bir qatorda salbiy tomoni ham mavjud edi.

Ijobiy tomonlaridan biri – yerli xalqlarning qadimiy tarixini ma'lum darajada yoritilishi bo'lsada, ikkinchisi yerli milliy kadrlardan mutaxassis arxeolog olimlarni tayyorlashdagi hissalaridir.

Salbiy tomonlaridan biri – ko‘p hollarda rus olimlarini O‘rta Osiyo yodgorliklarini o‘rganish jarayonlarida bu yerdagi madaniyatlarni vujudga kelishini chetdan kelgan deb isbotlashga urinishlari bo‘lsa, ikkinchisi bu bir necha ming yillardan buyon bizlar uchun ajdodlarimizdan meros bo‘lib saqlanib kelayotgan o‘tmish madaniyatimizni aks ettiruvchi arxeologik topilmalarni Moskva, Peterburg shaharlariga olib ketishidir.

O‘rta Osiyodagi har bir respublika Rossiyaga mustamlaka ekan, o‘zining milliy arxeologik olimlariga ega bo‘lmay turib, bu kabi salbiy oqibatlarga barham berib bo‘lmas edi. Buni o‘z vaqtida anglagan bиринчи o‘zbek arxeologi va hozirgi kunda o‘zbek arxeologiyasini otasi darajasiga ko‘tarilgan akademik Yahyo G‘ulomovning tinimsiz qilgan sa’yi harakatlari tufayli O‘zbekistonda Fanlar Akademiyasining tarix va arxeologiya institutida o‘zbek arxeologlaridan tashkil topgan, o‘ziga xos arxeologiya mактаби vujudga keldi. Yahyo G‘ulomov har qaysi davr uchun alohida mutaxassis arxeolog yetishtirishga kirishdi. Bu borada olim Peterburg olimlari bilan kelishib, 1960 - 1970 yillar mobaynida A. Asqarov, O‘. Islomov, M. Qosimov, S. Raximov, R. Sulaymonov, T. Mirsoatov kabilarni fan nomzodlari qilib chiqardilar.

1970 yil 1 oktabrda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi tarkibida butun O‘rta Osiyoda yagona bo‘lgan arxeologiya ilmiy tekshirish instituti tashkil topdi. Institut juda keng ko‘lamda ishlari olib bordi. Yosh mutaxassislar har bir davr tarixiga oid ilmiy izlanishlar, qazuv ishlari olib borishib, o‘lkamiz tarixini yangi-yangi ma'lumotlar bilan boyitib bordilar. Masalan: O‘. Islomov tomonidan Farg‘ona vodiysida Haydarkondagi So‘hdan Selung‘ur g‘orini o‘rganilishi natijasida (1988 yil) insoniyat tarixini yoshi 1 mlnga yetkazildi.

T. Mirsoatovning Uchtut joylarini qazib o‘rganilish natijalari neolit davri mehnat qurollarni yasash ustaxonalarini ochib o‘rganilishi, M. Qosimov tomonidan Ko‘lbuloq madaniy yodgorlik va xokazolar. Akademik Ya. G‘ulomov «Xiva shahrining yodgorliklari» (rus tilida, 1941 y.), «Quyi Zarafshon vodiysida ibridoiy madaniyat va sug‘orma dehqonchilikning paydo bo‘lishi» (rus tilida) kabi asarlar yozgan. «O‘zbekiston tarixi» (4 jildli), «Samarkand tarixi» (2 jildli), «Buxoro tarixi»ning asosiy mualliflaridan. Vafotidan so‘ng «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan (2002). Respublikada G‘ulomov xotirasiga bag‘ishlangan «Akademik Ya. G‘ulomov o‘qishlari»ni o‘tkazish ilmiy an'anaga aylangan. Toshkentdagi ko‘chalardan biri hamda O‘zbekiston FA Arxeologiya institutiga G‘ulomov nomi qo‘yilgan.

4. O‘lka tarixini o‘rganishda arxeologik materiallardan foydalanish. O‘lka tarixini o‘rganishda, yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, arxeologiya fanini rus olimlari tomonidan O‘zbekistonga kirib kelishi, qolaversa yerli milliy havaskor arxeologlarni ya’ni A. Asqarov, Turdi Mirg‘iyosov va boshqalar tufayli keyinchalik Ya. G‘ulomov boshchiligidagi o‘zbek arxeologiyasi maktabini tashkil topishi natijasida o‘lkamiz tarixini bosqichma-bosqich o‘rganish boshlandi. Tosh, bronza, temir davri, qadimgi, o‘rta asrlar tarixiy yodgorliklari ochib o‘rganila boshlandi.

Qadimgi Xorazm yerlarida, G‘arbiy Buxoro cho‘llarida, ikkinchi jahon urushi arafasida o‘tkazilgan arxeologiyaga oid tekshirishlar bu masalaga aniqlik kiritdi. Shu tariqa Amudaryo va Zarafshon etaklarida cho‘lga aylanib yotgan katta maydonlarda arxeologiyaga oid tadqiqotlar o‘tkazilgan vaqtida bu yerlar qadimgi qal’alar, qishloqlar va shaharlarning vayronalari bilan ular o‘rtasidan o‘tgan qadimgi sug‘orish kanallari izlari bilan to‘la ekanligi bir muncha aniqlandi.

Bundan 2100 yil burun O‘rta Osiyoga kelib ketgan Xitoy sayyohi Chjan szyanning ma'lumotlariga ko‘ra «Davon» deb atalgan Farg‘onada 70 ga yaqin katta va kichik qal’alar, 300000 ga yaqin aholi bo‘lib, bu yerda beda, uzum yetishtirilgan va yilqichlik keng rivojlangan. Farg‘onaning Chjan szyan safaridan keyingi davrda qanday bo‘lganligi haqida yozma ma'lumotlar yo‘q, lekin

arxeologiya bu hususida ko‘p ma’lumotlarni aniqlab berayotir.

Ko‘pincha rus sharqshunoslari O‘rta Osiyodagi qadimgi madaniyatni yo‘qqa chiqarib, bu yerlarda madaniyat faqat Eron davlati ta’siri ostida vujudga kelib, keyinroq Iskandar Zulqarnayn istilosи va umuman yunonlar hukmronligi ta’sirida taraqqiy etgan, so‘ngra yana harobalikka yuz tutib, faqat arablar istilosidan so‘ng islom dini ta’sirida yana ko‘tarilgan degan fikrni ilgari surar edilar. Xorazmda, G‘arbiy Buxoro cho‘llarida va umuman butun O‘zbekistonda arxeologiya yordamida topilgan narsalar va dalillar esa G‘arbning bu uydurmalarini fosh qilib tashladi.

Ilgari O‘rta Osiyoning madaniy, siyosiy va iqtisodiy aloqalari haqidagi targ‘ibot faqat Eron hamda Old Osiyo bilan munosabat «Eron ta’siri» degan gaplardan nariga o‘tmas edi. Xorazm va Buxoro viloyatida o‘tkazilgan arxeologiyaga oid qazilmalar O‘rta Osiyo xalqlari Rossianing Markaziy tumanlari ayniqsa, Volga daryosining xavzasida bo‘lgan davlatlar bilan juda qadimdan muntazam aloqada bo‘lib kelganini ko‘rsatadi. Daliliy ma’lumotlar qadimdan boshlangan bu aloqaning ilgari surilgani o‘rganilmay kelganini ko‘rsatadi.

Otashparastlik zardo‘sht (zaroastrizm) dinning rivoji Eronda emas, O‘rta Osiyoda bo‘lganligi arxeologlar tomonidan isbotlandi. Arxeolog Ya. G‘ulomov 1936 yili Xorazmning Mang‘it tumanidagi Qubba tog‘ ustida zardo‘shtiyarning qabristonini topdi.

1933 yili Termiz tumanida, Ayrитом degan joyda budda dini ibodatxonasing xarobasi topilgan. Ibodatxonada buddaning haykali va boshqa ibodatxona qismlari qatorida toshdan yasalgan odam haykallari topilgan. Haykallarning qiyofasida, kiyimlarda Hindistonga xos belgilar yorqin bo‘lib, bu san’at ikki mamlakat orasidagi munosabatlarning samarasidir.

II asrda Kushon davlati budda dinini Hindistondan O‘rta Osiyo va Sharqiy Turkistonga tarqatib, uni davlat dini darajasiga ko‘targan. III asrga kelib, qadimgi davrning shaharlari xarobalikka yuz tutib, iqtisodiy hayot asosan alohida vohalarga, qishloqlarga ko‘chadi. Hozir Toshkent, Samarqand, Buxoro, Jizzax, Farg‘она vodiysidagi va boshqa ko‘plab shaharlar atrofidagi sug‘oriladigan yerlarda baland-baland «Oqtepa»lar bor. Arxeologiyaga oid qazilmalar bularning hammasi feodallarning hom g‘ishtdan solingan feudal ko‘shklarning xarobasidan iborat bo‘lib, «dehqonlar» yashab o‘tgan joylarning qoldiqlari ekanligini ko‘rsatadi. Akademik Ya. G‘ulomovning kuzatishlari buni yaqqol isbotladi. Masalan: Xorazmda Tuproqqaл'a (IV asr) ko‘shkini qazishda u yerdan «podsholar zali» deb atalgan zal topildi. Professor S.P. Tolstov «Bu zalda Xorazmda Afrig‘ xonadoniga mansub podsholarning haykallari ota-bobolar ruhiga sig‘inish tariqasida aks ettirilgan» - deb aytadi.

1937 yildan to 1956 yilga qadar Buxorodan 40 km g‘arbdagi cho‘lda Varaxsha shahrining xarobalari topilgan.

Tuproqqaл'a, Bolaliktepa, Varaxsha, Fayoztepa, Panjikentlarda topilgan rasmlarning san’ati va tasvirlarining boyligi ilk feodalizm madaniyatining o‘z zamonasida ancha rivoj topganligini va mulkdorlik davrida an’anaviy san’atning bu davrga kelib avj organini tasdiqlaydi.

Keng ko‘lamda respublikamizda olib borayotgan arxeologiyaga oid tadqiqotlar tufayli O‘zbekiston arxeologiyasining deyarli hamma davrlarda: paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza va temir davrlari hamda antik dunyo va o‘rta asrlarga oid tekshirishlar natijasida to‘plangan boy va qimmatli moddiy manba O‘zbekiston xalqlarining qadimgi tarixini yoritish, imkonini beribgina qolmay, balki o‘rta asrlar tarixi, shuningdek shaharlar «yoshini» aniqlashga ham katta yordam berdi.

Bu esa o‘z-o‘zidan o‘lkamiz tarixini naqadar uzoq o‘tmishga borib taqalishini, o‘lkashunoslik fanini talabalarga o‘tilayotganda arxeologik materiallarni benihoya o‘rnii kattaligini ko‘rsatadi.

5. Farg‘она vodiysidagi arxeologik madaniy yodgorliklar va ularni o‘lkamiz tarixini yoritishdagi ahamiyati. Farg‘она vodiysi O‘rta Osiyoning boshqa hududlarida bo‘lgani kabi arxeologik yodgorliklarga boy hudud xisoblanadi. Vodiya olib borilgan tadqiqotlar natijasida ilk

paleolit davridan tortib to o‘rta asrlargacha bo‘lgan davrlarga oid bir necha yuzlab arxeologik yodgorliklar topib o‘rganilgan. Bronza davri va uning so‘nggi bosqichlariga kelib Farg‘ona vodiysi qadimgi axolisi o‘ziga xos madaniyatlar yaratib, tarixiy-madaniy jarayonlarni yanada faollashtiradilar. Ushbu o‘ziga xoslikni o‘troq va dasht axolisi o‘zaro aloqalarida, moddiy madaniyat buyumlarida, turar joylar qurilishi va uslubida, dafn etish inshootlarida ayniqsa, ko‘proq kuzatish mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlarni qiyosiy taxlil qilish asosida Farg‘ona vodiysi so‘nggi bronza davridan antik davrgacha bo‘lgan tarixiy-madaniy hayotida Chust madaniyati, Qayroqqum madaniyati va Eylaton madaniyati kabi bosqichlarga ajratildi. Ushbu lavhada yuqorida ajratilgan arxeologik madaniyatlar bosqichlariga nisbatan batafsilroq to‘xtalishga harakat qilamiz.

Chust madaniyati bosqichi. Farg‘ona vodiysining ilk temir davriga oid o‘ziga xos madaniyatini Chust madaniyati deb atashni 1956 yilda Yu.A.Zadneprovskiy taklif etgan edi. Qo‘lda ishlanib qizil angob qoplangan va ayrim xollarda qora bo‘yoq bilan sayqallangan sopollar Farg‘ona vodiysining kattagina hududlariga yoyilgan Chust madaniyati uchun xosdir.

Naqshli sopollar 1933-1934 yillarda Eylatonda B.A. Latinin tomonidan topilgan edi. Ammo o‘sha paytda bu sopollar bronza davriga oid deb noto‘g‘ri talqin etildi. Keyinroq T.G.Oboldueva (1939 y) Katta Farg‘ona kanali qurilishi munosabati bilan olib borgan kuzatuv ishlari natijasida aynan shunga o‘xhash ko‘plab sopol namunalarini topdi. Ushbu madaniyat yodgorliklarini tartibli va har tomonlama o‘rganish 1950 yilda Pomir-Farg‘ona kompleks ekspeditsiyasi tomonidan boshlandi. Xususan, Chust manzilgohida keng ko‘lamdagi tadqiqot ishlari olib borildi. 1952 yilda esa Dalvarzin qo‘hna shahri ochilib uzoq yillar arxeologik tadqiqotlar olib borildi. O‘sha yillarda Farg‘ona vodiysining turli hududlarida ko‘p sonli yangi manzilgohlar aniqlanib, bugungi kunda ularni soni 100ga yaqin hamda ularning yarmida stratigrafik shurf va kichik qazishma ishlari o‘tkazilgan.

Chust madaniyatiga oid bronza mehnat qurollari orasida o‘roqlar, iskana, pichoqlar, bigiz, ignalar bo‘lsa, qurol-yarog‘lardan kamon o‘qi uchlari va nayzalar bor. Ushbu madaniyatga oid metall buyumlar uch guruhga ajratiladi: 1) faqat Farg‘ona uchungina xos bo‘lgan mahalliy buyumlar; 2) Farg‘onadan janubi-g‘arbiy hududlarda (Janubiy Turkmaniston, Eron) joylashgan yerlarda tarqalgan buyumlarga o‘xhash buyumlar; 3) bronza davri dasht madaniyati buyumlariga juda o‘xhash buyumlar. Bular orasida son jihatdan uchinchi guruhga mansub buyumlar ko‘pchilikni tashkil etib, bu holat Farg‘onaning dasht qabilalari bilan uzviy aloqalaridan dalolat beradi.

Qayroqqum madaniyati. Farg‘onaning bir-biridan ancha jiddiy farqlanuvchi so‘nggi bronza davri yodgorliklari (manzilgohlar va mozor-qo‘rg‘onlar) Qayroqqum nomi bilan bitta madaniyatga birlashtirilgan. Ammo bu yodgorliklar nafaqat hududiy birlik, balki ko‘pgina umumiyligi belgilari bilan ham bir-biriga yaqindir. Farg‘ona vodiysi va unga qo‘shni bo‘lgan hududlardagi bronza davri dasht yodgorliklarini Qayroqqum madaniyatiga ajratishni birinchi bo‘lib 1956 yilda B.A. Litvinskiy taklif etdi. Hozirgi kunga qadar olib borilgan tadqiqotlar asosida ushbu madaniyatning rivojlanish bosqichlari, yoyilgan hududlari va davrlashtirish masalalarini yanada chuqurroq o‘rganish imkoniyatlari paydo bo‘ldi.

Qayroqqum madaniyati ko‘rinishidagi yodgorliklarni tadqiq etish natijasi ko‘pgina ilmiy tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Qayroqqum madaniyatiga oid barcha manzilgoxlar G‘arbiy Farg‘onada joylashgan. Ularning deyarli barchasi yemirilib ketgan yoki haddan tashqari vayrona holatda bo‘lganligi tufayli bugungi kunda bu manzilgoxlardagi turar joy tiplari va xaqiqiy o‘lchamlari haqida aniq fikr aytib bo‘lmaydi. Bronza buyumlar ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan nisbatan ko‘p sonli topilmalar markaziy guruh manzilgohlaridan topilgan bo‘lib, ulardan eng kattasi (maydoni 300 hektarga yaqin) mil. avv. VII-IV asrlarga yoki Farg‘onaning so‘nggi bronza davri chegaralariga xos bo‘lgan madaniyatga oiddir.

Eylaton madaniyati bosqichi. Eylaton madaniyatini o‘rganish 1932 yilda Farg‘ona

arxeologiyasining asoschilaridan biri B.A. Latinin tomonidan Eylaton qo‘hna shahrida tadqiqotlar olib borildi. Ammo tadqiqotchi fanning o‘scha davrdagi yutuqlari nuqtai nazaridan qazilma topilmalarini ancha qadimgi davr, ya’ni mil. avv. III-II ming yilliklar bilan belgiladi. 1939 yilda Katta Farg‘ona kanali qazilishi munosabati bilan bu hududlarda tadqiqotlar olib borgan T.G.Oboldueva topilgan arxeologik materiallarni ilk temir asri bilan sanaladi.

1952 yilda Yu.A. Zadneprovskiy Eylaton qo‘hna shahrida qazishma ishlari olib borib, Eylaton madaniyati davrini aniqladi va fanga bu to‘g‘risidagi ilmiy tushunchani kiritdi.

Farg‘ona vodiysidan mil. avv. V-IV asrlarga oid qo‘xna shahar xarobalari Eylatondan boshqa hozircha aniqlanmagan. Mil. avv. IV-III asrlarga oid madaniy qatlamlar Sho‘rabashat, Simtepa, Sufantepa, Piloltega, Qoraqo‘rg‘on kabi yodgorliklarning pastki qatlamlarida uchraydi, xolos.

Eylaton shahar xarobasi mil. avv. VI-III asrlarga oid bo‘lib, (mahalliy aholi Shahri Haybar deb ham ataydi) – Andijon viloyati Izboskan tumanining Yangiqishloq fuqarolar yig‘ini Eylaton mahallasi yaqinida joylashgan. Yirik shahar xarobasi bo‘lmish Eylaton ikki qismidan iborat. Tashqi shahar maydoni 200 hektar bo‘lib, birinchi mudofaa devori bilan o‘ralgan. Uning ichida 40 hektar joyda ichki shahar bo‘lib, u ikkinchi mudofaa devori bilan o‘rab olingan.

Mudofaa devorlari kuzatuv minoralari bilan mustahkamlangan. Mudofaa devorlarining qalinligi 4 metr, balandligi 2,5 metrda yozma manbalarida tilga olingan. Eylaton ushbu davr uchun hozircha ma’lum bo‘lgan eng katta yodgorlik bo‘lib, arxeologiya fanida butun bir madaniyat nomini olgan.

Antik davrga oid Mingtepa ko‘hna shahar xarobasi Andijon viloyati Marhamat tumani markaziga tutashib ketgan, bugungi Marhamat shahrining sharqiy qismida joylashgan yodgorlik. Yodgorlik mil. avv. 3 – milodiy 5-asrlarga mansub bo‘lib, Xitoy yozma manbalarida tilga olingan Qadimgi Davan davlatining poytaxti Ershi shahri bo‘lganligi ko‘pchilik arxeolog–tarixchilar tomonidan (A. Bernshtam, Yu. Zadneprovskiy, N. Gorbunova, B. Matboboev) tan olingan. Olimlarning bu xulosaga kelishining sababi Mingtepaning maydoni murakkab va mukammal tuzilgan ikki qator mudofaa devorlari bo‘lgan. Bunday yodgorlik ushbu davr uchun vodiyyda hozircha ma’lum emas. Arxeologik jihatdan Mingtepa ichki va tashqi shaharlardan iborat bo‘lib, hozirda ichki shahar (38 hektar) ni to‘rt tomondan qurshagan mudofaa devori saqlanib qolgan. Mingtepadi tepaliklar soni 52 ta. Ichki shaharning shimoli-g‘arb tomonidagi markaziy tepalikning madaniy qatlami 10 metr dan ortiq. Eng quyi qatlam mil. avv. 3-2 asrlarga oiddir. Tepalikdan 5 metr qalinlikdagi platforma (tagkursi) ustida qurilgan inshoot qoldiqlari chiqqan. Mutaxassislarning fikricha, bu tepalik shahar arki bo‘lgan. Mingtepa mudofaa devorining har 38-40 metr masofasida kuzatuv minorasi o‘rnatalib, uning uzunligi 18 metr, eni 9 metr, balandligi 3-4 metrda yetgan. Kuzatuv minoralarining 4 tasi markaziy, kamida 60 tasi oraliq kuzatuv minoralari hisoblanadi. Minora o‘rtasida shinaklar bilan ta’milangan xona joylashib, unda soqchilar yashagan. Burjlarni o‘zaro tutashtirib turgan mudofaa devorining qalinligi quyi qismida 7 metr, yuqorida 4 metr, balandligi 4 metrda yetgan. Bu o‘lchamlardan kelib chiqib, devorlar mahobatini anglash mumkin. Devor va burj asosan yaxshi pishirilgan paxsa va xom g‘ishtdan tiklangan. Devor tashqarisida xandaqlar qazilgan.

XX asrning 50-yillarida tuzilgan rejaga ko‘ra, Mingtepaning tashqi mudofaa devori ham shunday mukammal bo‘lgan. Shundan bo‘lsa kerakki, bu shaharni mil. avv. 104 va 101 yillarda Xitoy armiyasi ikki marta qamal qilib ham qo‘lga kirta olmagan.

Mingtepa arxeologik yodgorligi 1940-50 yillarda A.N. Bernshtam, Yu.A. Zadneprovskiy, keyinchalik (1990 yillarda) O‘zR FA Arxeologiya instituti Farg‘ona otryadi (B. Matboboev) arxeologik tekshiruv ishlari olib borgan.

B. Matboboev tomonidan Farg‘ona vodiysidagi bronza va ilk temir davri dehqonlarining uy-joylari chuqur tahlil etildi, uzoq yillar tadqiqotlari natijasida aniqlangan turar-joylar xarobalarini

o'rganish natijalarini umumlashtirdi. Shuningdek, keyingi yillarda Farg'ona vodiysining sharqida ya'ni Andijon viloyatida B.Matboboev boshchiligidagi arxeologik tadqiqotlar olib borilmoqda. Hisoblarga ko'ra shaharda hozirgacha qariyb 20 mavsumda arxeologik qazishma-kuzatuv ishlari olib borilgan. Masalan, ayni shu olimning tadqiqotlari asosida shaharning qadimgi va o'rta asrlar davridagi rivoji tarixi, shaharning tuzilishi to'g'risida qimmatli materiallar e'lon qilindi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Farg'ona vodiysidagi arxeologik yodgorliklar jamiyat taraqqiyotida sezilarli ta'sir o'tkazgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bo'lib o'tganligi bilan izohlanadi. Bu o'zgarishlarni turli madaniyatlar taraqqiy etishida kuzatishimiz mumkin. O'rganilgan tarixiy - arxeologik madaniyatlar ayrim jihatlari bilan farqlanib tursada ko'p hollarda ular o'rtasidagi o'xhashliklar seziladi.

Me'moriy obidalarning o'lakashunoslikda tutgan o'rni.

IX – XII asrlarda Movarounnahrda moddiy madaniyat o'ziga xos uslub va shakllarda to'xtovsiz rivoj topib bordi. Xalq ichidan chiqqan mahalliy ustalar, me'morlar, naqqoshlar, kulollar, zargarlar, miskarlar tomonidan yurt dovrug'ini olamga tanitgan ajoyib me'morchilik obidalari, san'at namunalarini bunyod etildi. Movarounnahrda me'morlik va san'at yangi taraqqiyot bosqichiga o'tdi.

Ushbu davrda Samarcand, Buxoro, Urganch, Termiz, O'zgan va Marv kabi shaharlarda ko'plab saroy, masjid, madrasa, minora, xonaqoh, maqbara, tim (usti yopiq bozor) va karvonsaroylar qurildi. IX – XII asrlarda O'rta Osiyo me'morchiligidagi ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib, qurilish ashyosi sifatida paxsa, xom g'isht va pishiq g'isht hamda bog'lovchi vosita sifatida ganchdan foydalanish keng yo'lda qo'yilgan edi. Bu vaqtida sinch qadab quriladigan uy – joylar va umum ahamiyatga ega bo'lgan binolar, saroylar, masjidlar, madrasalar qurilishida yog'och ham muhim o'rinni egallar edi. X asrlarga kelib binokorlikda qurilish tartibi ham o'zgara boshladi. Mahobatli qurilishda tomi gumbaz bilan yopilgan kub shaklidagi binolar muhim ahamiyatga ega bo'la boshladi.

Mazkur davr me'morchiligining noyob obidalariqa quyidagilarni aytish mumkin:

Ismoil Somoni maqbarasi(Buxoro, taxm. 864 – 868)

Buxorodagi ko'hna me'moriy yodgorlik Somoniylar davlatining asoschisi Ismoil Somoni va uning avlodlari maqbarasi. Ismoil Somoni maqbarasi 4 tomoni bir xil chordara shaklida, jum – jima g'ishtin bezaklari chiviqli to'siq yoki qamish, buyra to'qimasini eslatadi. Ismoil Somoni maqbarasi O'rta Osiyo me'morchiligi va san'ati tarixidagi dastlabki maqbaralardan. Uning tuzilishida qadimgi sug'd me'morligining an'analari saqlanib qolgan buyuk me'moriy asardir. 1925 yilda gumbazi ta'mir etilgan. V. Vyatkin boshchiligidagi arxeologik tekshiruvlar olib borilgan. Binoni ko'mib yuborgan zax tuproqlardan tozalanib, B. Zasipkin va Usta Shirin Murodov boshchiligidagi ta'mirlangan (1937 – 1939). Ismoil Somoni maqbarasi shahar madaniyat va istirohat bog'i hududida joylashgan.

Arabota maqbarasi (Samarcand viloyati Tim qishlog'i, 977/8 (hijriy 367)

Mazkur me'moriy yodgorlikning me'mori noma'lum. Poydevori toshdan, devorlari chorsi g'ishtdan (23x23x4 sm) ganchxok bilan terilgan. Arabota maqbarasi Movarounnahrda saqlanib qolgan eng qadimgi musulmon maqbaralaridan biri. Maqbara me'moriy tuzilishi jihatidan katta ahamiyatga ega. Uning peshtoki o'sha davrda yaratilgan shu turdag'i binolarning dastlabki yetuk namunasi bo'lib, XI – XII asrlar me'morchiligining rivojiga ta'sir etgan.

Mag'oki Attori masjidi (Buxoro, X – XVI asrlar)

Buxorodagi me'moriy yodgorlik bo'lib, mag'ok (chuqurlik)da va attor bozori yaqinida joylashgani sababli Mag'oki Attori masjidi deb nomlangan. Qadimgi 4 ustunli Moh masjidi (IX asr) o'rnida XII asrda eski loyiha asosida qayta qurilgan (1934 – 1935 yillari V.A.Shishkin rahbarligida arxeologik qazishlar o'tkazilishi natijasida aniqlangan). XIV asrda ta'mirlangan, XV asrda peshtoqining yuqori qismi buzilgan. Abdulazizzon davrida (1541 – 42 yillar) binoning yuqori qismi, gumbazlari qayta qurilgan. Masjid tarhi (13,35x17,6 m) sodda yechimga ega, ichkarisi 6 ustunli, 12 gumbazli, o'rta gumbazi balandroq bo'lib,

uning asosi (poygumbazi)dagi darchalar orqali bino ichiga yorug‘lik tushadi. Sharqiy qismini keng pillapoyali zina egallagan. Bosh tarzidagi peshtoq g‘ayri odatiy ravishda binoning yon tomoni (janub)da joylashgan. Keyinchalik sharqiy qismiga qayta qurilgan. Peshtoqining ko‘rinishida yoysimon chuqur ravoq va undagi o‘ziga xos bezaklar muhim o‘rin tutadi. Ganch va mayda g‘isht bo‘lakchalaridan bezatilgan peshtoq hashami g‘oyatda nafis va yuksak badiiy did bilan bajarilgan. Namoyon o‘lchamlariga mutanosib ravishda murakkab bo‘rtma bezaklar ishlangan. Ustun go‘shalari o‘yma naqshlar bilan, boshasi vazasimon shaklda ko‘rkamlashtirilgan. Mag‘oki Attori masjidining bezaklari XII asr Buxoro me’morlik matabining yuksak namunasi sifatida O‘zbekistan me’morlik tarixida alohida o‘rin tutadi. 1939 – 1949 yillarda peshtoqi mustahkamlanib ta’mirlangan, atrofi obodonlashtirilgan.

Qusam ibn Abbas maqbarasi (Samarqand, XI asr)

Shohizinda ansamblining shimoliy – sharqiy qismida joylashgan eng qadimgi yodgorlik. Kusam ibn Abbas qabri atrofida keyinchalik turli masjid, maqbara va chillaxona buniyod etilgan. Qusam ibn Abbas islam dinining asoschisi, payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning amakivachchasi bo‘lgan Abbosning surriyoti edi. Kusam ibn Abbas islamni targ‘ib va tashviq qilishda ishtirok etgan buyuk shaxslardan bo‘lgan. U shu maqsadda 676 yilda arab istilochilar bilan birgalikda Samarqandga kelgan. Shu yerda, afsonalarda aytishicha, nomoz o‘qib turgan paytlarida kofirlar hujum qilib uni o‘ldirgan ekanlar.

Buxoro namozgohi (Buxoro, 1119)

Buxorodagi me’moriy yodgorlik. Shaharning janubiy chekkasida, qoraxoniylar sulolasining yozgi qarorgohi o‘rnida barpo etilgan. Masjid pishiq g‘ishtdan oddiy qilib qurilgan, atrofi baland devor bilan o‘ralgan. XVI asrda 3 toqili va ustunli peshayvon shaklidagi gumbazli bino qurilgan. Tarhi to‘g‘ri to‘rtburchak bo‘lib, 3 asosiy xonadan iborat. O‘rtadagi murabba tarxli xona yassi gumbaz bilan, yonlaridagi xonalar balxi gumbaz bilan yopilgan. Asosiy xonaga peshtoq, yonidagi xonalarga dalon – yo‘lakdan kirilgan. Peshtoqqa girih naqsh ishlangan, Qur‘ondan ko‘chirilgan oyatlar bitilgan. Buxoro namozgohi me’morchiligidagi mehrob va uning atrofiga ishlangan koshinkori bezaklar alohida ajralib turadi. Unda Buxoro me’morchiligi va bezak san’atining an‘analari o‘z ifodasini topgan.

Raboti Malik, Shoh raboti (hozirgi Navoiy shahrida yaqinida, Karmona, taxm. 1069 – 79)

O‘rta Osiyodagi Monumental me’moriy yod-gorlik Qadimgi Buxoro – Samarqand yo‘lining Cho‘li Malikdagi yirik chegara va savdo bekatida buniyod etilgan. Katta karvonsaroy, hozirgi Navoiy shahri yaqinida. Bizgacha uning faqat peshtoq qismi (diametri – 12,6 m.) saqlangan.

Janubiy minorasi (balandligi 5,5 m) 1930 yilgacha mavjud bo‘lgan. Raboti Malik karvonsaroy vazifasidan tashqari, istehkom, qo‘rg‘on sifatida ham muhim rol o‘ynagan. Rabot katta keng hovli (22,5x22,5 m) va atrofi o‘ralgan 2 qavatli xona – hujralardan iborat bo‘lib, ularga sopol quvurlar orqali suv o‘tkazilgan. Markaziy qismi to‘ridagi muhtasham saroy oldi bir qatorli ravoqli ayvon (7,5x13 m) 2 qanotiga joylashgan.

Buxoro Arki (Buxoro, IX – XX asrlar)

Buxorodagi qadimgi shaharsozlik yodgorligi. Dastlab mil. avv. I asrda qurilgan. Shaharning qadimgi qal’asi. Arablar istilosiga qadar arkda shahar hokimlari – buxorhudotlar yashagan. Somoiiylar davrida (IX – X asrlar) qayta qurilib devor va burjlar bilan mustahkamlangan.

Qoraxoniylar davrida (XI – XII asrlar) va mo‘g‘ullar bosqinchiligi vaqtida (XIII asr) ark bir necha bor vayron qilingan. Hozirgi qiyofasi asosan Shayboniylar sulolasini davri (XVI asr)da shakllangan.

Balandligi 20 m cha bo‘lgan tepalik ustiga qurilgan arkning maydoni 4 ga, tarhi ko‘pburchakli. Turli davrlarda devorlari tosh, pishiq va xom g‘isht, paxsalar bilan mustahkamlangan.

Chashmai Ayyub maqbarasi (Buxoro, XII asr, 1380)

Muqaddas ziyoratgoh binosi to‘g‘ri to‘rtburchak tarqli (19 x 26 m) bo‘lib, g‘arbdan sharqqa cho‘zilgan 4 xonadan iborat, har bir xona bir – biriga o‘xshamagan gumbazlar bilan qoplangan. Dastlab

eng qadimgi xona – murabba tarhli ($4,5 \times 4,5$ m) quduqxona bunyod etilgan (Arslonxon tomonidan Minorai kalon va Namozgoh masjidi bilan bir davrda qurilgan degan rivoyatlar saqlangan), uning ikki yonida ziyoratchilar uchun o‘z vaqtida 2 eshigi bo‘lgan. Old tomoniga toqli xona ($4,5 \times 4,5$ m) tutashtirib qurilgan, u binoga peshtoq vazifasini o‘tagan, qo‘sh gumbazli, oldi peshtoqli. Ziyoratxona devorida Amir Temur farmoyishiga binoan 1379 yilda unga taqab gumbazli katta xona, burchaklarida minoralari bo‘lgan daxliz qurilganligi yozilgan. Binoning qadimgi qismi ichkarida qolgan. Rivoyatlarga ko‘ra chashma – quduq Ayyub payg‘ambar qadamjoyi.

Jarqo‘rg‘on minorasi (Surxondaryo viloyati, 1108 – 09)

Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumani Minor qishlog‘ida joylashgan me’moriy yodgorlik. Xuroson me’morlik maktabi an’analari asosida barpo etilgan. Yonida bir vaqtlar pishiq g‘ishtdan qurilgan Jome masjid bo‘lgan (saqlanmagan). Jarqo‘rg‘on minorasi 8 qirrali poydevor ustiga g‘ishtdan mavj shaklida terilgan 16 plitavor qobirg‘adan iborat. 20 m balandlikda g‘ishtin panjarali ravoqlar ishlaniib, uning ustida kufiy yozuvli belbog‘ hoshiya bor. Belbog‘ ustida yana qirralar davom ettirilgan, lekin minora tepasi saqlanmagan. N.N. Karazin rasmida masjid va minora xarobasi aks ettirilgan (1879 yil). Minoraning hozirgi bal. 21,6 m, assosi (diametri – 5,4 m)ning kitobasida me’mor nomi Ali ibn Muhammad Saraxsiy va qurilgan sanasi yozilgan (V.A. Shishkin tomonidan o‘qilgan). Jarqo‘rg‘on minorasi ta’mirlangan, davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Minorai kalon (Katta minora), Arslonxon minorasi (Buxoro, 1127)

Buxorodagi me’moriy yodgorlik. Muxandis va me’mor Baqo loyihasi asosida Qoraxoni Arslonxon qurdirgan (1127). Minorai kalon o‘rnida avval ham minora bo‘lgan, u qulab tushgach, mustahkam qilib qayta qurilgan. Poydevori tosh va maxsus qir qorishmasidan terilgan. Yer sathidan 9 m chuqur, bal. 50,0 m, kursisi qirrador, tanasi g‘o‘lasimon, tepasi gumbazli davra qafasa – ko‘shk bilan bog‘langan.

Minorai kalonning o‘zagi ham, bezagi ham chorsi g‘isht ganchxok loyida terilgan. Bezaklar orasida tarixiy va diniy mazmundagi kufiy yozuvlar uchraydi. Shakllarning o‘zaro monandligi va mutanosibligi, handasiy uyg‘unlik, ajoyib ko‘rk va mahobatlilik Minorai kalonga chinakam go‘zallik bag‘ishlaydi. 1924 yilda binoning tanasi va muqarnaslari ta’mir etilgan. 1960 yilda esa yer ostidagi assosi (kursisi) usta Ochil Bobomurodov tomonidan olib borildi (1997). Minorai kalon Buxoro shahrining noyob va qo‘hna yodgorlikdari qatoridan markaziy o‘rin egallagan.

Vobkent minorasi (Buxoro, XII asr)

Buxoro viloyati Vobkent shahridagi me’moriy yodgorlik. O‘n ikki qirrali supa asosga o‘rnatilgan g‘o‘la (quyi qismining diametri 6,19 m, yuqori qisminiki – 2,81 m) shaklida rangdor, pishik g‘ishtlardan qurilgan. Bir paytalar yonida mavjud bo‘lgan masjid tomonidan kirib, yuqoriga aylanma zinapoya orqali chiqilgan. Bo‘rtma naqshli 10 belbog‘ bilan qismlarga ajratilgan, har bir qismi bir – biriga o‘xshamaydigan qilib g‘isht terib naqshlangan, quyisidagi naqshlar orasida qurilgan yili va qurdirgan shaxs – Sadr Burhoniddin Abdulaziz II ning nomi kufiy uslubida yozilgan. Minoraning uchi kengaytirilib, qafasa ishlangan (diametri 3,66 m), g‘isht terib ishlangan 10 ravoq orasida 10 darcha hosil kilingan, darchalarning quyisi g‘isht panjara bilan to‘silgan. Minoraning tashqi ko‘rinishi ko‘p jihatdan Minorai kalonga o‘xshaydi, lekin muqarnaslari ancha sodda. Minora supasi tuproq ostida qolgan, qurilgan paytida uning balandligi 2,3 m bo‘lganini arxeologik tadqiqotlar ko‘rsatadi. Minoraning umumiy balandligi esa 40,3 m.

Sulton Sanjar maqbarasi (Marv, (Turkmaniston) XII asrning 40 – yillari)

Saljuqiylar sulton Sanjar (1157 yilda vafot etgan) o‘zi uchun qurdirgan ulkan bino. Me’mori Muhammad ibn Otsiz as Saraxsiy. Sulton qal’a markaziga joylashgan. Sulton Sanjar maqbarasi bizgacha xaroba holda yetib kelgan. Maqbaraga Saljuqiylar saroyi va masjid tutash bo‘lgan. Sulton Sanjar maqbarasiga turli urushlar ko‘p putur yetkazilganiga qaramay, o‘z mahobatini yo‘qotmagan. 1980 yilda

qayta tiklangan.

Ushbu me'moriy yodgorliklar bilan birqatorda bu davrida barpo etilgan ko'plab noyob me'mochilik inshootlari qatorida O'zgandagi *Qoraxoniylar maqbarasi* (XI asr), G'azna yaqinida marmar koshinlardan barpo etilgan 32 ta kirish eshiklari, 4 ta ayvoni bo'lган, baland qubbalar lojuvard osmonni eslatuvchi *G'aznaviyarning mahobatli yozgi saroyi* (1112 yilda qurilgan)ni ham aytish mumkin.

Amir Temur va temuriylar davri memoriy obidalari

Amir Temur va temuriylar mamlakat mustaqilligi, el – yurt osoyishtaligi, uni obod etishda bunyodkorlik ishlariga katta ahamiyat berdilar. Amir Temurga har bir zafarli voqeа va sevinchli hodisani muhtasham me'morlik obidasi barpo etish bilan nishonlash odad bo'lган. Shu maqsadda Hindiston, Sheruz, Isfahon va Damashqning mashhur usta – hunarmandlari mamlakatda hashamdon imoratu inshootlar bino qilganlar. Bu davrda Chingizxon hujumi va mo'g'ullarning beto'xtov bosqinlari oqibatida vayronaga aylangan Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv, Banokat (Shohruxiya) kabi qadimgi shaharlar, qal'a va istehkomlar qayta tiklandi, ya'ni shaharlar va qishloqlar qad ko'tardi. Sohibqironning buyrug'iga asosan 1365 yilda Qarshi, 1370 yilda Samarqand, 1380 yilda Kesh shaharlari atrofida mudofaa devorlari barpo etiladi.

Amir Temur zabt etgan mamlakatlarida ham bunyodkorlik ishlarini amalga oshirib bir qator shaharlari (1258 yil mo'g'ullar tomonini vayron qilgan Iroq poytaxti Bag'dodni, Dog'iston Respublikasidagi Darbandni, 1221 yilda mo'g'ullar istilosi davrida vayron qilingan Arake va Kura daryolari birlashadigan yerga yaqin bo'lган shahar – Baylaqonni (1403 yil))ni qayta tikladi. Amir Temur tomonidan Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag'dodda madrasa, 1389 – 1395 yillarda Turkistonda mashhur shayx Xoja Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirlig'an bo'lsa-da, lekin asosiy e'tiborini ona shahri Kesh (Shahrisabz) va poytaxti Samarqandga qaratdi.

Keshda otasining qabri ustiga maqbara, o'g'li Jahongirga maqbara bilan masjid qurdirdi. Amir Temur hukmronligining ilk davrida Kesh shahrini poytaxtga aylantirish niyatida bo'lib, uning obodonchiligiga katta ahamiyat berdi, bu yerda mashhur Oqsaroy qad ko'tardi. Amir Temur Keshni Movarounnahrning madaniy markaziga aylantirishga harakat qildi. Shu boisdan bu shahar «Qubbat ul – ilm val adab», ya'ni «Ilm va ta'lim gumbazi» degan sifat bilan shuhrat topgan. Amir Temur va Temuriylar davrida Shahrisabzda ulkan sultanatning yirik shahriga, barlos beklarining yozga qarorgohiga aylantirilgan. Shahar atrofi qal'a devori bilan o'rab olingen.

Shahrisabzda Amir Temur tomonidan «*Dor us – Siyodat*» («Sayyidlar uyi») maqbarasi va *Oqsaroy* qurilgan.

Dor us-Siyodat – «Sayyidlar uyi» (1379 – 1380)

Shahrisabzning janubiy – sharqiy qismida Amir Temur qurdirlig'an maqbara kompleksi. XIX – XX asr boshlarida qisman ta'mirlangan. Farzandi Jahongir Mirzo maqbarasi (Hazrati Imom maqbarasi) va Amir Temurga mo'ljallangan yer osti go'rxonasi saqlanib qolgan. *Dor ut-tilovat* bilan bir ansamblni tashkil qilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»sida yozilishicha, Amir Temur Shahrisabzda maxsus bino qurdirlig'an, unda o'z o'g'li Amirkzoda Jahongir va boshqa amaldorlar hamda buzrukvorlarning daxmalari qo'yilsin, deb farmon bergen.

Dor ut-tilovat majmuasi

(Tilovat uyi, Qur'on o'qiydigan joy, XIV asr)

Shahrisabz markazida Dor us-siyodat majmuasi g'arbida temuriylar xonadoniga mansub qadimgi inshootlardan iborat Dor ut-tilovat majmuasi ham joylashgan. Hozir kompleksdan uchta yodgorlik saqlanib qolgan: 1) Amir Temur tomonidan otasi Tarag'ayning piri shayx Shamsuddin Kulol mozori (1370) ustiga shahar jome' masjidi yoniga qurdirlig'an maqbara. 2) Otasi Tarag'ay mozori qoldig'ini Shahrisabzga ko'chirtirib, pirini oyoq tomoniga qo'ydirib, gumbaz maqbara qurdirlig'an. 3) Ulug'bek jome' masjidi Ko'k gumbaz (1435 – 1436).

Oqsaroy (1380 – 1404)

Shahrisabzdagi me'moriy yodgorlik. Amir Temurning onasi Takina xotun sharafiga qurilgan. Shaharning shimoliy – sharqidagi bosh maydonda joylashgan. Me'mor Muhammad Yusuf. Bir zamonlar muhtasham, xashamatli bo'lgan bu saroyning bizgacha yemirilib, xaroba holga kelgan ulkan peshtoqi, ikki chekkasidagi minorasi, saroy poydevorining bir qismigina saqlangan. Oqsaroyning hozirgi ko'rinishi ham salobatli va go'zaldir. Bu salobatlilik va go'zallikka g'ishtlarning yaxlit bo'lib ko'rinishini ta'minlash – old va shimoliy devor yuzasini sirkor parchinlar bilan bir tekisda ishlash tufayli erishilgan. Peshtoq ravog'ining eni 22,5 m, balandligi 40 m, umumiy balandligi 50 m dan oshadi. Peshtoq minorasi ichidagi aylanma zina orqali yuqoriga chiqilgan. 20 yil davomida qurilgan ushbu me'moriy yodgorlikning ranglari oy yorug'ida jilolanib – oqarib ko'rinishidan bino Oqsaroy deb nomlangan. Saroyning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – tom tepasiga ishlangan hovuzdir. Hovuzga suv Taxtaqoracha dovonidan qo'rg'oshin quvurlar orqali oqib kelib, undan sharshara hosil qilib pastga tushirilgan.

1707 yilda Buxoro xoni Ubaydullaxon Oqsaroy peshtoqi ostida toj kiyib, taxtga o'tirganligi peshtoqning o'sha paytda butun ekanligidan darak beradi. 1973 – 1975 yillarda arxeologik tadqiqotlar, 1994 – 1996 yillarda konservatsiya ishlari olib borilgan.

Samarqand saltanat poytaxtiga aylantirilgach, unda Isfahon, Sheroz, Xalab, Xorazm, Buxoro, Nasaf va Keshning me'moru binokorlari qo'li bilan saroylar, masjidlar, maqbara va xonaqohlar qurildi. 1403 – 1404 yillarda Samarqandda bo'lgan Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixo (? – 1412.2.4) Amir Temurning olib borayotgan binokorlik ishlaridan hayratda qolgan.

Jumladan, mo'g'ullar bosqinida butunlay vayron etilgan va aksari aholisi qirib tashlangan va qisman qul qilingan Samarqand shahri Amir Temur hukmronligi davrida o'zining qadimgi o'rni Afrosiyobdan birmuncha janubroqda butunlay yangidan qurildi. Shahar tevaragi mustahkam qal'a devori bilan o'ralib, Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron va Feruza kabi nomlar bilan ataluvchi 6 ta darvoza o'rnatildi. Shahar arkida Amir Temurning qarorgohi Ko'ksaroy va Bo'stonsaroylar bino kilindi. Ko'ksaroy 4 qavatli bo'lib, gumbazlari va devorlari zangori koshinlar, naqshinkor va gulor parchinlar bilan qoplangani uchun u shunday atalgan. Ko'ksaroyda xonlarni podsholik taxtiga chiqarish marosimi vaqtida ularni oq kigiz ustiga olib o'tqazadigan toshdan taxtkursi – Ko'ktosh qo'yilgan edi. Bularidan tashqari arkda davlat devonxonasi, qurol – yarog'lar ustaxonasi va aslahaxona, tangalar chekiladigan zarbxona kabi imoratlar joylashgan.

Movarounnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan Zarafshon vodiysida o'nlab sug'orish tarmoqlari chiqarilib, dehqonchilik maydonlari kengaytirildi. Yangi qishloqlar barpo etildi. Ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur Samarqand atrofida qad ko'targan bir qancha yangi qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari Dimishq (Damashq), Misr, Bag'dod, Sultoniya va Sheroz nomlari bilan atadi. Amir Temurning fikricha, Samarqand kattaligi, go'zalligi hamda tevarak – atrofining obod etilganligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog'i lozim edi.

XIV asrning oxiri – XV asrda Samarqandda ko'rkam va muhtasham binolardan tashqari shahriston yoki rabodi doxidda turli – tuman kasbdagi hunarmandlar mahallalari qad ko'taradi. Amir Temur mamlakatda, xususan uning poytaxti Samarqandda hunarmandchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor beradi. Ispan elchisi Klavixoning yozishicha, Sohibqiron hunarli biror kishini ham Movarounnahrni tashlab ketishiga yo'l qo'yagan. Aksincha, Amir Temurning amri – farmoni bilan Damashqning eng mohir to'quvchilari, Halabning mashhur paxta yigiruvchilari, Anqaraning movut to'quvchi korxonalar, Turkiya va Gurjistonning zargarları, xullas, ko'p kasb-hunar sohiblari boshqa shaharlardan Samarqandga ko'chirib olib kelindi. O'sha davrda shaharda turli din va mazhablardagi kishilar istiqomat qilardi. Klavixoning ma'lumotiga ko'ra, Samarqandda 150 mingdan ziyodroq aholi yashagan. Shahar maydoni Ispaniyaning Shibliya (Sevilya) shahridan kengroq bo'lgan. Lekin uning bu ma'lumotida shahar arki bilan qal'a, ya'ni ichki shahar kismlarigina ko'zda tutilgan xolos.

Shohizinda ansamblı majmui (Samarqand, XI – XX asrlar)

Samarqanddagi me'moriy yodgorlik. Afrosiyob tepaligi janubida joylashgan qabristondagi maqbaralardan hamda masjid, minora va madrasadan iborat ansambl.

Qusam ibn Abbas maqbarasi

Ularning eng qadimiysi Qusam ibn Abbas maqbarasi bo'lib, xalq orasida Shohizinda («Tirik shoh») nomi bilann mashhur. Ansambl bir – biri bilan yo'lak orqali bog'langan 3 guruh binolardan iborat.

XIII asrda mo'g'ullar istilosi davrida Afrosiyob vayron bo'lgach, xalq bu yerni tark qilgan. Amir Temur va Ulug'bek davrida bu yerda qurilish ishlariga ahamiyat berilgan. Arxeologik qazishlardan aniqlanishicha, Afrosiyobning qadimiy qal'a devori yon bag'rida qilingan zina XVIII asrda vayron bo'lgan, keyinchalik 40 pog'onali g'ishtin yangi zina va chortoq qurilgan, bular hozirgacha saqlangan. Shohizinda ansamblidagi inshootlarning ko'pchiligi XIV asrga taalluqli. Ansamblning bosh darvozasi janubda ko'chaga qaratib qurilgan. Darvozaxonani Ulug'bek hijriy 838 (milodiy 1434 – 1435) yidda o'g'li Abdulazizga atab qurdirgan. Unda qo'yidagi so'zlar bitilgan: «Abdulaziz Baxodir ibn Ulug'bek ibn Shohrux ibn Temur».

Shohizinda ansamblı tarkibida temuriylar xonadoni bilan bog'liq bo'lgan quyidagi me'moriy yodgorliklar mavjud: Shodi mulk og'a (Turkan og'o) maqbarasi (1372)

Samarqanddagi me'moriy yodgorlik. Amir Temurning opasi Turkan og'o vafot etgan qizi Shodimulk og'o (1370 – 1371)ga atab qurdirgan peshtoq - gumbazli bir xonali sag'anasi. 1383 yilda Turkan og'oning o'zi ham qizi yoniga dafn etilgan. Maqbara 1954 yilda ilmiy o'rganilib, ta'mirlash ishlari olib borilgan. Maqbarada XIV – XV asrlardagi xalq ustalarining me'morlik va naqqoshlikda erishgan yutuqlari, yuksak mahorati aks etgan.

Tug'lu Tekin maqbarasi (1376)

Shohizinda ansamblining o'rta qismida. Shaharning qadimgi devoriga taqab, Temur sarkardalaridan amir Husaynning o'zi va onasi Tug'lu Tekin sharafiga qurilgan. Maqbara (8,5 x 9,5 m) bir xonali, eshigi g'arba qaragan. Maqbarada o'sha davr me'morlik hamda koshinkorlik san'atining noyob namunalari saqlangan. Gul va yaproqlar tasviri, tutashgan halqalar hamda yozuvlar ko'k – moviy bo'yoqlarda to'ldirilgan. Tug'lu Tekin maqbarasi ostida sag'ana (3,15 x 4,15 m) bor. Unga yo'lakdan kiriladi. Maqbaraning bizgacha yetib kelgan ravog'i va unga tutash devor qoldiklari asosida 1960 yillarda qolgan qismlari qayta tiklangan (usta Sh. Is'hoqov, me'mor I.I. Notkin).

Shirinbeka og'o maqbarasi (1385 – 1386)

Amir Temurning singlisi Shirinbeka og'oga atab qurilgan. Maqbara ravog'i ichidagi arabiylar bitikda muhim tarixiy hujjat saqlangan (tarjimasi): «Bu qabr malikai muazzama, mukarrama Shirinbeka og'o Tarag'ay (bek) qiziniki. Ravzasini Alloh nurli etsin. Sana 787» (mil. 1385/6).

Tuman og'o majmuasi (XIV – XV asrlar)

Majmua Amir Temurning xotini Tuman og'o begin nomi bilan bog'langan. Tuman og'o majmuasi maqbara, masjid, hujralar va chortokdan iborat, turli davrlarda bunyod etilgan. Bezaklari XV asr boshlarida ishlanib, uning yaxlitligini ta'minlagan. Tuman og'o qurdirgan bir guruh binolar yaqinida usta Muhammad Shayx ibn Hojibek Tabriziy tomonidan 1405 – 1406 yillarda kurilgan Tuman og'o maqbarasi bor.

Shohizinda ansamblı tarkibiga Xoja Ahmad maqbarasi (XIV asr 60 – yillari) va Usta Ali maqbarasi (1380) ham kiradi. Xoja Ahmad maqbarasi (XIV asr 60 – yillari)

Shohizinda xazirasining yuqori hovlisi (to'ri)da joylashgan. Maqbara peshtoq – gumbazli, to'rtburchak tarhli (7,6 x 3 m) xonadan iborat bo'lib, xona o'rtasida 4 ta nomsiz sag'ana bo'lgan. Bino ichi, gumbaz osti tuzilishi XII asr me'morligi uslubini eslatadi.

Old tomondagi peshtoqi rangli sirkori koshinlar bilan bezatilgan, suls va kufiy xatidagi kitobalar va bezaklar mahorat bilan uyg'unlashtirilgan. O'ymakori bezaklar orasida «... amali usta Faxr Ali...» yozuvi

saqlangan.

Usta Ali maqbarasi (1380)

Bu me'moriy yodgorlik birinchi – nomsiz maqbara bo'lib, unda qarshilik Usta Ali Nasafiy nomi saqlanganligi uchun uning nomi bilan ataladi. Maqbara to'rtburchak tarhli (8,1 x 9,8 m), bir xonali, peshtoq – gumbazli, gumbazi 16 qirrali baland asosga o'rnatilgan. Maqbaraga peshtoqida chuqur ravokli eshik orqali kiriladi. Makbara ostida to'rtburchakli sag'ana joylashgan.

4-Mavzu:Paleontropologik va etnografik ma'lumotlarning o'lka tarixini o'rganishdagi ahamiyati

(4 soat)

Reja:

1. Antropologiya va etnologiya fanlari, ularning vazifalari.
2. O'zbekistonning qadimgi odamlar yashagan hudud ekanligi (Selung'ur, Teshiktosh, Samarqand topilmalar).
3. O'rta Osiyodagi etnik guruhlar (so'g'dlar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, sak va massagetlar) to'g'risidagi dastlabki yozma ma'lumotlar.
4. O'zbek xalqi to'g'risidagi etnografiyaga oid ilk ma'lumotlar.
5. O'rta asrlar davri etnografik ma'lumotlari.
6. XIX-XX asrlar madaniyatini o'rganishda etnografiya fanining roli.

Tayanch so'z va iboralar: Antropologiya, qadimgi inson, qiyofa, mexnat quroli, ma'daniyat, o'zbek, ulus, urug', qabila, Etnografiya, etnologiya, qang'li – qipchoq. Nukus – mang'it, san'at, etnik birlik, etnogenez, diplomatik missiya, antropologiya.

Adabiyotlar:

1. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. T., 1988.
2. Alimov I., Ergashev F., Butaev A. Arxivshunoslik. - T1997.
3. Rustamov M. O'zbek etnografiyasi. — T., 1990.
4. Xujaev T. Qadimgi ajdodlarimiz qiyofasi. — T., 1992.
5. Xujaev T. Xujaeva G. O'zbek xalqining antropologiyasi va etnik tarixi. — T., 1995.
6. Sagdullaev A.S. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T., 1996.
7. Sagdullaev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. T., 2002.
8. Suleymanov R.X. Drevniy Naxshab. T., 2000.
9. Z.Choriev, T.Annaeva boshqalar. Al-Hakim At-Termizi. 2008 y.
10. Tarixiy o'lakashunoslik. O'quv-uslubiy majmua. Universitet. 2011.

1. Antropologiya va etnologiya fanlari, ularning vazifalari. Xalqlarning kelib chiqishi, turli hududlarda joylashishi, ularning o'ziga xos moddiy va ma'naviy madaniyati, xalqlarning bir-biri bilan tarixiy-madaniy munosabati, turmush tarzi va taraqqiyotini etnografiya, etnogenez va etnik tarix fani o'rganadi.

Etnologiya yunoncha so'z bo'lib, «Etnos» - xalq, «logos» - fan, ya'ni «Xalqlarni o'rganuvchi fan» yoki «Xalqshunoslik», umumlashtirilganda esa, xalqlarning turmush tarzi va madaniyatini o'rganuvchi fan degan ma'noni anglatadi.

Ba'zi mamlakatlarda shu ma'noda «Etnologiya» atamasi bilan bir qatorda «Madaniy antropologiya» va «Xalqshunoslik» nomlari ham uchraydi. Etnografiya so'zi ham lotin tilidan olingan bo'lib, «Etnos»-xalq, «stafos»-ta'rif degan ma'noni anglatadi.

Ayrim xorijiy olimlar etnografiyani ta'riflovchi fan, etnologiyani esa nazariy fan, deb izohlashga urinadilar. Yaqinda rus etnografiyasi ham etnologiya nomiga almashtirildi. Shuning uchun hozirgacha etnografiya fanining yakdillik bilan qabul qilingan ta'rifi yo'q. Shunday bo'sada shubhasiz, bu fan jahondagi barcha xalqlarni, katta-kichikligi, irqi, ijtimoiy tuzimi, qaloq, yoki rivojlangan

bo‘lishidan qat’iy nazar teng, bab-baravar o‘rganuvchi muhim tarixiy ilm sohasi hisoblanadi. Etnologiya dastlab yuqorida ta‘kidlanganidek, hozirgi etnoslarning kelib chiqishi va shakllanishi, joylashishi va etnik tuzilishi, mashg‘uloti, madaniy-tarixiy munosabatlari, moddiy va maishiy turmushi, ma’naviy madaniyati va milliy xususiyatlarini tarixiy jarayon bilan bog‘liq holda o‘rganadi.

Etnografiya – dunyo xalqlari madaniyatini maishiy hayotini kelib chiqishi va madaniyati tarixini, o‘zaro aloqa va munosabatlarini o‘zgartiruvchi tarixiy fandir.

Xalq va elatlar dastlab quldorlik tuzumi davrida kelib chiqib, tili yaqin bo‘lgan bir necha qabilalarning birikishi, bosqinchilik yurishlari tufayli aralashib ketishi, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi natijasida shakllana boshlagan. Odatda xalqlar iqtisodiy sotsial va madaniy jihatlardan eng kuchli va rivojlangan ko‘p sonli etnoslar doirasida muayyan iqtisodiy-hududiy va til umumiyligi negizida paydo bo‘ldi.

Etnografik bilimlar ham asrlar davomida to‘planib kelgan nihoyatda boy ma’lumotlarni o‘zlashtirib, muayyan xulosalar va nazariyalar, dunyoqarashlar sistemasi va yo‘nalishlar xosil qildi. Natijada XIX asr o‘rtalariga kelib mustaqil fan sohasi-etnografiya tug‘ilishiga zarur shart-sharoitlar yaratilgan edi.

XIX asrning 60-70 yillarda yangi fan-etnografiya bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘lgan turli jamiyatlar va jurnallar bilan bir qatorda har xil kasbdagi kishilar tomonidan yaratilgan ajoyib tadqiqotlar etnografiya ilm sohasi ekanligini to‘liq tasdiqladi.

Atoqli tadqiqotchilardan germaniyalik Adolf Bastion, Geodor Vayts, Yulius Lippert, angliyalik Djon Fergyusson, Mak Lennan, Jon Lebbok, Edurad Teylor, fransuz Sharl Leterpo, amerikalik Lyus Genri Margon kabilarning ko‘p tomlik asarlari etnografiya fani qonuniy ravishda tug‘ilganligini isbotlovchi dalillar edi.

Etnografiya terminini dastlab, XVII asr boshlarida nemis yozuvchisi Logan Zummer ishlatgan, keyin XVIII asr oxirlarida va 1808 yilda maxsus jurnallar shu nom bilan chiga boshladи. Etnografiya so‘zi mashhur fransuz tabiatshunosi va fizik olimi Jon-Jak Amper tomonidan 1830 yilda taklif qilingan edi.

Rossiyada «etnografiya» termini dastlab XIX asr boshlaridan boshlanib qo‘llana boshlagan, keyin rasmiy ravishda yangi fan deb topilgan. Buni mashhur rus geografiya jamiyatining etnografiya bo‘limi ochilishi tasdiqlaydi.

Etnografiya fani tarixiy fanlar ayniqsa, arxeologiya, antropologiya, geografiya va lingvistika bilan bevosita bog‘liqidir. Bundan tashqari u yozma manbalar, geografik hujjatlar, moddiy va ma’naviy materiallardan ham foydalanadi. Mana shu xususiyatlari bilan etnografiya boshqa fanlardan farq qiladi. Inson aql zakovati va hulqi bilan yaratilgan hamma narsa madaniyat etnografiyasidir. Madaniyat o‘z navbatida ikkiga bo‘linadi:

1. Moddiy madaniyat.
2. Ma’naviy madaniyat.

Etnografiya fani faqat moddiy madaniyat bilan ma’naviy madaniyat o‘rtasidagi asosiy farqlarinigina o‘rganib qolmay, ular o‘rtasidagi o‘xshashlik, umumiyligi qonuniyatlarni ham o‘rganadi.

Bu qonuniyatlarni tadqiq qilish esa, insoniyatning umumiy tarixiy taraqqiyoti qonunlarini bilish imkoniyatini beradi. Etnograflar oldida turgan keng va hilma xil masalalar etnografiya fanini boshqa yaqin fan sohalari bilan uzviy bog‘labgina qolmay, uning o‘zini ham bir qator ihtisosliklarga bo‘lib yuboradi:

1. Xo‘jalik va texnika tarixi;
2. Xalq me’morchiligi va tasviriy san’at;
3. Urf-odatlar va marosimlar;
4. Etnik oilaviy tuzum;

5. Kiyim-kechak va uy ro‘zg‘or;
6. Ijtimoiy va maishiy turmush ixtisoslari va hokazolar.

O‘lka tarixini o‘rganishda antropologiyaning o‘rni beqiyosdir. Antropoliya - odamning kelib chiqishi va evolyusiyasi, odamzod irqlarining paydo bo‘lishi, odamning tana tuzilishidagi normal farq-tafovut, o‘zgaruvchanlik haqidagi fan. Antropoliya ijtimoiy fanlarga juda yaqin turadigan biologiya sohasidir.

Antropoliyaga doir fikrlar bundan bir necha ming yil ilgari paydo bo‘lganiga qaramay, u fan sifatida faqat XIX asrning 2-yarmidan shakllana boshladi. Antropologiyaning muhim sohasi - odam organizmining tuzilishi va rivojlanishiga ta’sir qiladigan fiziologik, biokimiyoviy va genetik omillarni o‘rganadigan bo‘limi - «Odam biologiyasi» degam umumiy nom bilan XX asrning o‘rtalaridan boshlab rivojlandi. Odamning paydo bo‘lishida faqat tabiat olamining qonuniyatlarigina emas, balki ijtimoiy omillar ham muhim rol o‘ynagan. Odam paydo bo‘lgandan hozirgi holatigacha uning butun hayoti ijtimoiy jamiyatning rivojlanish qonuniyati bilan chambarchas bog‘langan. Antropologiyaning fan bo‘lib rivojlanishida tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi fanlar ijobiy rol o‘ynadi. Zamonaviy fan nuqtai nazaridan aytganda, antropoliya quyida-gi uchta katta bo‘limdan iborat: 1) odam morfologiyasi; 2) *antropogenez*; 3) irqshunoslik (etnik antropoliya.). Morfologiya odamning jismoniy tuzilishidagi belgilarning yosh, jins, kasb va tashqi sharoitga qarab o‘zgarishini tushun-tirib beradi. Irqshunoslik odamzod irqlarining kelib chiqish davri va sa-bablarini, ularning Yer yuziga tarqalishini izohlab, *etnogenez* muammo-larini yechishga ham o‘z hissasini qo‘sadi. Antropoliya o‘zining turlicha tekshirish usullariga (antropometriya, osteometriya, kraniometriya) va ko‘p xil asboblariga ega. Antropoliya biologiya fanining faqat nazariy sohasi bo‘libgina qolmay, amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan sohasi hamdir. Uning dalillaridan ko‘p sohalarda, jumladan tibbiyotning har xil sohalarida (masalan, odamning jismoniy o‘sishini o‘rganishda), shuningdek, sud ekspertizasida foydalilanildi.

Turkiston o‘zining geografik o‘rniga ko‘ra uzoq o‘tmishda murakkab irqiy va etnik jarayonlarni boshidan kechirgan, shuningdek qo‘shti xalqlarning ham tarixiy taqdirlarini belgilab berishda katta rol o‘ynagan. Bu o‘lka, xususan O‘zbekiston xalqlarini antropologik jihatdan o‘rganish 20-yillarda rivojlandi. Bu ishda O‘rta Osiyo davlat universiteti antropoliya kafedrasи asoschisi va doimiy rahbari L.V. Oshaninning xizmati katta bo‘ldi. Uning rahbarligida Turkiston bo‘ylab 29 ta antropologik ekspeditsiyalar uyuşhtirildi. L.V. Oshanin va uning shogirdlari (V.Ya. Zezenkova, Q.N. Najimov)ning sa'y-harakatlari natijasida Turkiston antropologik jihatidan 3 viloyatga ajratildi. Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida yashovchi o‘zbeklar va tojiklar yer yuzidagi mavjud uch irqning (yevropeoid, negroid va mongoloid) biri - yevropeoid irqining «O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i tipi»ga mansub deb topildi. Moskvalik antropolog A.I. Yarxo bu irqni «Pomir-Farg‘ona tipi» deb atadi. Farg‘ona vodiysidagi Selung‘ur va Surxondaryodagi Teshiktosh g‘orlaridan topilgan qadimgi ajdodlarimiz qoldiqlari tufayli O‘zbekiston Afrika va Old Osiyo hududlari bilan bir qatorda, hozirgi zamon odamlarining paydo bo‘lishi jarayoni yuz bergen hududlar tarkibiga kiritildi va bu xulosa fanda uzil-kesil isbotlangan.

Sopollitepadan topilgan jez davri odamlari bosh suyaklarining rekonstruksiyasi (T. Xo‘jayov) yaqingacha yagona fikr yo‘q edi. Bir guruh olimlar bu irqiy tip bundan 6 - 8 ming yil ilgari shakllandi desa, boshqa bir guruh mutaxassislar bu voqeа bundan 3 ming yil ilgari sodir bo‘ldi deyishdi. Uchinchi guruh olimlari esa uni XVI acarda shakllandi deb hisoblar edilar. O‘zbek antropologlari (T. Xo‘jayov)ning uzoq yillik izlanishlari natijasida, juda boy antropologik materiallar asosida bu tip bundan 2200 - 2300 yil ilgari shakllana boshlaganligini isbotladilar.

2.O‘zbekistonning qadimgi odamlar yashagan hudud ekanligi (Selung‘ur, Teshiktosh, Samarqand topilmalari). Shuni aytish kerakki, o‘tgan asrimizni II yarmidan boshlab, ayniqsa, uning oxirgi choragida O‘rta Osiyodagi respublikalarning milliy kadrlardan tashkil topgan mutaxassislarini ilmiy izlanishlari

natijsida O'rta Osiyo hududlarida 300 dan ortik, o'rta paleolitta, ya'ni muste davriga mansub neandertal odamlarni mehnat qurollari va makonlari borligi aniqlandi. Bu borada O'zbekiston Respublikasida Arxeologiya institutining tashkil topgani va unda mutaxassis arxeolog olimlarni jamlangani tufayli, u bosh rolni o'ynadi. Faqat, Toshkent vohasining o'zidagina 30 dan ortiq muste yodgorliklari topildi va mukammal ravishda o'rganildi. Ammo, O'rta Osiyodagi 300 dan ortiq muste yodgorliklari orasida Teshiktosh g'orida yashagan neandertal odamlarning makoni o'zining qadimiyligi va arxeologik materiallarini boyligi bilan hamon o'z hukmronligini davom ettirib kelmoqda. Haqiqatdan ham Teshiktosh g'oridan topilgan arxeologik topilmalar hozirgacha juda katta ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Faqat toshdan yasalgan mehnat quollarining soni 339 ta bo'lib, ularning chiqindilari 3000 taga yetadi.

Teshiktoshdan topilgan mehnat quollarini

aksariyati qirquvchi va tarashlovchi vazifalarni bajarganlar. Bu mehnat quollari orasida o'rta paleolitni neandertal odamlariga xos bo'lган rapidasimon nukleuslar (o'zaklar) bir nechta nusxada bo'lib, ularning diametri 10-15 sm bo'lган. Bu kabi o'zaklardan neandertal odamlari otboynik (vazni 300 gr 0,5 kg bo'lган qayroq toshlar) yordamida uchburchaksimon uchirindilar uchirib olingan. Uchirib olingan uchirindilar o'tkir qirralarga ega bo'lib, ulardan terilarga ishlov berish, yog'ochlarni kesish, randalash kabi ishlarda foydalanganlar. Muste madaniyatiga ya'ni, neandertallarga xos bo'lган bo'lган bunday mehnat quollari Teshiktoshdan boshqa hech qaerda hozirgacha bunchalik ko'p topilmagan. Teshiktoshda topilgan topilmalarning eng qimmatlisi bu Teshiktosh neandertal odamining suyak qoldiqlaridir»

Bular asosan, kalla suyagi, yelka va o'ng son suyagining parchalari, yo'g'on boldir suyagi va deyarli saqlanib qolgan ikkala kichik boldir suyagi, diafizi hamda umurtqa pog'onasining ba'zi bo'laklaridir. A.P.Okladnikov tomonidan topilgan va mukammal ravishda o'rganilgan Teshiktosh yodgorligini muhim ahamiyatlaridan yana biri shundaki, neandertal bolani ko'milgan qabrini o'rab, sanchilgan tog' echkisi shoxlarining topilganligidir. A.P.Okladnikovning xulosasiga ko'ra, ajdodlarimizda ko'mish marosimini o'rta paleolit ya'ni, neandertallar zamoniga kelib paydo bo'lganini tasdiqlaydi. Ko'mish marosimidan dalolat beruvchi bu kabi yodgorliklar jahonning boshqa joylarida ham topilgan bo'lsada, qabrlarni echki shoxlari bilan o'rab qo'yish ya'ni, nimagadir ishonish, e'tiqod qilishni aks ettiradigan neandertallarga xos yodgorliklar bizning O'zbekistonimizdan boshqa jahonning hech bir yerida topilgani yo'q. Shuning uchun yer yuzida e'tiqod qilish, birinchi bo'lib bizning ajdodlarimizda paydo bo'lgan desak bo'laveradi.

Teshiktosh g'oridan topilgan odamning suyak qoldiqlari antropologlarda o'z vaqtida juda katta qiziqish uyg'otgan. Antropolog hulosalariga ko'ra neandertal bolaning bosh suyagini hajmi 1490 3 sm bo'lib, uni qopqog'i pitekontrop va si-nantropnikidan ancha balandroq bo'lgan. (Debes 1940), (Gremyatsiy 1949). Teshiktosh g'orining neandertal odamining suyak qoldiqlarini o'rganishga qiziqish antropologlar tomonidan 1970 yillarda ham davom etdi. Taniqli antropolog olim akademik V.A. Alekseevni antropoliya fanini keyingi yutuqlariga tayangan holda Teshiktosh odamini takroriy o'rganishning natijalari, bu neandertal odamini suyak qoldiqlari, ilgari aytilganidek 8 yashar o'g'il bolani suyak qoldiqlari bo'lmay balki, ayol kishiniki bo'lib, uni inson evolyusiyasining neandertal vazifasiga mansub va Yevropa yoki Old Osiyo guruhiга kirishini ko'rsatdi.

Yuqoridaqaytadan aytilgan fikrlarga xulosa qilib, shuni aytish joizki, yer sharida yashovchi barcha xalqlar o'zlarining tarixiy taraqqiyot yo'llarida neandertal odamni bosqichini o'z boshidan kechirib o'tganlar. Hech qanday oliv irq yoki past irq bo'lman. Dunyoning ko'p joylarida bo'lGAN kabi O'rta Osiyoda ham neandertal yashaganlar. 1938 yilda A.P.Okladnikov tomonidan Teshiktosh odamini topilishining buyuk ahamiyatlaridan yana biri shu bo'ldiki, O'rta Osiyoda insoniyatning qadimdan, ya'ni 80-100 ming yillardan beri yashab kelganliklarini isbotlab berdi. Ilgari bizga ma'lum bo'lman ajdodlarimizni o'rta paleolit tarixining sahfalari har tomonlama dalilli ashyolarga suyanigan holda yoritildi va ilmiy jihatdan asoslab berildi. Bunday holat nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyo xalqlarining qalblarini faxr-iftixon va g'ururga to'ldirdi. Shunday bo'lishi tabiiy edi. Chunki bu bilan O'rta Osiyo xalqlari tarixini ming asrga teng ekanligini isbotlangan edi. Ammo, bu hol ona xalqimizni ilk tarixi haqidagi oxirgi so'z emas edi. Oradan yillar o'tib, o'z milliy kadrlarimizdan yetishib chiqqan mutaxassis arxeolog olimlarimizni tinimsiz izlanishlari va ularni ona- Vatanimiz tarixiga alohida mehr-

muhabbat tuyg‘ulari bilan qarashlari tufayli ajdodlarimiz tarixi arxeologik ma’lumotlarga suyangan holda 100 ming yildan 1 mln yilga yetkazildi.

Bunday ulkan yutuq O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining akademigi, tarix fanlari doktori arxeolog olim O‘. Islomovning Farg‘ona vodiysining Selung‘ur g‘oridan topilgan eng qadimgi ajdodlarimizning makonida uzoq yillar davomida arxeologik qazish ishlарini olib borishi natijasida qo‘lga kiritildi. O‘zining arxeologik topilmalari tufayli juda katta tarixiy axamiyatga molik bo‘lgan bu yodgorlikda O‘. Islomovning ustozи bo‘lgan akademik A.P. Okladnikov uch marotaba ya’ni, 1955, 1960, 1964 yillarda bo‘lib, shu Selung‘ur g‘orini o‘ng tomonida bu makonni qaysi davrga mansub ekanligini aniqlash maqsadida tekshiruv shurfini solgan edi.

Natijada, birinchi marotaba bu g‘orda bir necha uchirindilar topilib, ular paleolitni so‘nggi davri hisoblangan. Yuqori paleolitga mansub deb topilgan edi. A.P. Okladnikovdan so‘ng Haydarxon atroflarida qadimgi ajdodlarimizni ilk bor o‘rnashganliklari tarixi bilan Ya.G‘. G‘ulomov boshchiligidagi Farg‘ona paleolit guruxi katta ishlarni qildi.

1960 yillarda bu gurux tomonidan mezolit davriga oid Obishir I va V topildi. Bulardan tashqari 28 ta g‘or ko‘rib chiqildi. 1980 yillardan boshlab, O‘. Islomov boshchiligidagi O‘zR FA ga qarashli arxeologiya institutining paleolit guruxi Selung‘ur g‘orida qazish ishlарini olib bordi, faqat O‘zbekistonimiz uchun balki, butun O‘rta Osiyo respublikalari uchun ulkan tarixiy ahamiyatta ega bo‘lgan qator yangiliklar yaratildi.

Shuni aytish joizki, so‘nggi yillarda jahondagi ko‘zga ko‘ringan taniqli arxeolog olimlarimizning ko‘pchiligi odamni paydo bo‘lishi va uni tarqalishidek g‘oyat muhim va yuksak ahamiyatga molik bo‘lgan muammoni hal qilishga astoydil kirishdilar. Garchi, bu masala bilan XX asrning 60-yillarda nazariy jihatdan yondoshilgan bo‘lsa ham hozirgi kunlardagidek, amaliy jihatdan tahlil etilmagan edi.

Shuning uchun ham 1970 yillarga qadar barcha darsliklarda va ilmiy risolalarda yer yuzida odamning paydo bo‘lishi bir 1 million yilga teng degan fikr to‘la hukmron bo‘lib kelgan edi. Bunday fikrni yuzaga kelishiga asosiy sabab, Fransiyani Shell va ashell manzilgohlari topilgan insoniyatning qadimgi ajdodlari hisoblangan arxantroplarni (arxantroplar deyilganda quyi paleolit davrida yashab o‘tgan odam zotini ajdodlari tushuniladi) mehnat quollarini ko‘plab topilishi bo‘lgan edi. Bunday mehnat quollarini arxeologiya fanida «Ruchnoe rubilo» (qo‘l chopqisi) deyilgan. Bu xildagi qo‘l chopqilarini arxeologlar bodom va yurak shakliga qiyoslab, sersevidnoe, mindalevidnoe orudiya deb ataganlar. Chunki, ularning tashqi ko‘rinishlari haqiqatdan ham bodomsifat va yuraksifat bo‘lgan.

1960 yillarga qadar arxeologlar bu qo‘l chopqilarini xronologik jihatdan ikki davrga: Shell’ va ashell davriga bo‘lganlar. Shell davriga oid qo‘l chopqilarini 800 - ming yildan 500 ming yilgacha, ashellga oidlarini 500 mingdan 80-100 ming yilgacha ya’ni mustegacha bo‘lgan davr bilan belgilaganlar. Bu xildagi qadimiylar mehnat quollarini davrlarga bo‘lganlarida arxeologlar ko‘proq ularning vazniga e’tibor berganlar. Shell quollarining vaznlari 0,5 kg dan 1 kg gacha bo‘lsa, Ashell quollarining vazni 0,5 kg dan 300 gr gacha bo‘lgan. Ammo ularning yasalish texnikalari asosan bir xil bo‘lgan. Bu boroda juda uzoq yillar davomida tajriba ishlарini olib borganlar. S.A.Semenov (Semenov, 1964)ning fikriga ko‘ra ibridoiy odamlar shell va ashell xildagi qo‘l chopqilarini yasashlaridan oldin, ana shu quollarini yasalishi uchun qulay shaklga ega bo‘lgan tosh parchalarini tanlaganlar. Bunday tosh parchalari ko‘p holatlarda yapaloqroq qiyofaga ega bo‘lganlar. Chunki bu xildagi xom ashyolarning yon tomonlaridan tosh boltalar yordamida urib, uchirib ishlov berish ancha qulay bo‘lgan (tosh bolg‘a deganda og‘irligi 0,5 kg dan oshmagan oddiy qayroq tosh tushuniladi).

Rus tilida bu tosh bolg‘alar otboyniklar deyiladi. Bu xildagi otboyniklar yordamida nafaqat qo‘l chopqilarini yasashda balki, tosh o‘zaklaridan zarb bilan urush natijasida turli hajmdagi uchirindilarni olishda ham keng miqyosda foydalanganlar. Shell va Ashell davrida paydo bo‘lgan mexnat quollarini qo‘l chopqilarini deyishlariga sabab ana shu mehnat quollarini bir tomoni bodomnikiga o‘xshab, to‘mtoq ammo qo‘l bilan ushslash uchun qulay bo‘lgan. Ikkinchи, qarama-qarshi tomoni esa, o‘tkir uchli bo‘lib, bu tomoni kesish, chopish, kovlash

kabi vazifalarni bajargan. Bu mehnat qurollardan kundalik ishlarini bajarilishida, odamning qo‘li dasta rolini ham bajargan.

Shuning uchun ham arxeologlar ularni qo‘l chopqilarini deb atashgan. Bu qo‘l chopqilarining paydo bo‘lishi 800 ming yil bilan belgilangan bo‘lsada, ularni bir million yil deb fanga kiritilishining sababi, yana bulardan ko‘ra qadimiyroq davrga ega bo‘lgan yodgorlik topilib qolishi mumkin, degan mulohaza bo‘lgan. Bunday xulosalarga keligan o‘scha davrda ham Afrika qit’asi mukammal darajada o‘rganilmagan edi. Shuning uchun ham butun yer sharida inson tarixi bir million yil bilan belgilangan edi. Ammo, so‘nggi yillardagi angliyalik arxeolog olimlar tomonidan Afrika qitasini aniqrog‘i, Efiopiya mamlakatining Vest-Gona yodgorligini o‘rganishi bu makon arxantroplarining suyak qoldiqlari hamda mehnat qurollari tarixini ya’ni, inson tarixini uch million yil bilan belgiladi. Bizning O‘rtta Osiyo hududimizda Teshiktosh g‘oridan so‘ng uzoq yillar davomida undan ko‘ra qadimiyroq arxeologik yodgorlik topilmagani tufayli inson tarixi 80-100 ming yildan nariga o‘tmay qolaverdi. Ammo Teshiktosh g‘ori topilganidan so‘ng 50 yil o‘tgandan so‘ng O‘.Islomov tomonidan Selung‘ur g‘orini mukammal darajada o‘rganishi nafaqat O‘zbekistonimiz, balki butun O‘rtta Osiyo xalqlari uchun jahonshumul tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu hududda inson tarixi 80-100 ming yildan 1-1,2 millionga uzaytirildi.

Teshiktosh g‘oridan ko‘ra, qadimiyroq yodgorlikni uzoq yillar davomida topilmagani sababli, O‘rtta Osiyodagi muste davri odamlarini kelib chiqishlarini ko‘proq Old Osiyoga bog‘lovchilar paydo bo‘la boshladi. Bu borada shuni alohida ta’kidlash joizki, tadqiqotchilarining ko‘pchiligi, ayniqsa, O‘rtta Osiyo hududida arxeologik ishlarni olib borgan rus arxeologlari har qanday madaniyatni o‘rganar ekanlar, albatta uni uzlusiz ravishda rivojlanib borishiga shubha bilan qarab, u yoki, bu madaniyatni chetdan ko‘pincha Old Osiyodan kelishganini isbotlashga urinadilar. O‘.Islomovning 1980 yildan 1988 yilgacha Selung‘ur g‘orida olib borgan arxeologik ishlarni eng qimmatli tomonlardan biri shundaki, hozirgi kunda O‘rtta Osiyo hududida yashab kelayotgan xalqlarimiz tarixni qadimiy ildizlarini umumiyligini, uzlusiz ravishda taraqqiy etib kelganlar, Teshiktosh odamlari Old Osiyodan kelib qolgan kelgindilarning avlodlari emasligini balki, azaldan shu O‘rtta Osiyo hududida paydo bo‘lgan arxantroplar, aniqrog‘i, Fergantroplar avlodlari ekanliklarini arxeologik ashyolar asosida isbotlab berilishi bo‘ldi.

Selung‘ur g‘ori Farg‘ona shahridan taxminan janubi-g‘arbda Haydarkonining g‘arbiy chekkasida joylashgan bo‘lib, bu ulkan g‘orning ichkari tomon uzunligi 120 , enining kengligi 34, balandligi esa 25 metrni tashkil etidi. G‘arbda O‘.Islomov tomonidan o‘rtacha qalinliklari 20-40 sm dan iborat 5 ta madaniy qatlamlar aniqlangan. Bu 5 ta madaniy qatlamlarning har biri bironta ham arxeologok topilmaga ega bo‘lmagan toza tabiiy qatlamlar bilan ajratilgan holda saqlangan.

Bu tabiiy qatlamlarning qalinligi 30 sm dan 1 metrgacha bo‘lib, o‘rtacha qalinligi 60-70 smni tashkil qiladi. Demak mazkur g‘ordan ajdodlarimiz o‘z makonlarini 5 marotaba uzoq vaqt mobaynida tark etib yashaganlar. Bunday fikrni to‘g‘ri ekanligini g‘ordagi 5 ta madaniy qatlam bilan birga 5 ta tabiiy qatlamlarning mavjudligi o‘z-o‘zidan tasdiqlaydi. Bu madaniy qatlamlardan topilgan toshdan yasalgan mehnat qurollari: qo‘l chopqisi, to‘mtoq boltalar, pichoqsimon qurollar, ko‘plab qurollar, qush tumshug‘iga o‘xshash qurollar qazib olindi.

Bularning barchasi tabiiy jins parchalari va siniqlardan tayyorlanganliklari aniqlandi. Selung‘ur topilmalari orasida o‘scha zamon hayvonlarining suyak qoldiqlarini ayniqsa odam arxantrop qoldiqlarining boy kolleksiyasini topilishi bu yodgorlikning yanada qimmatini oshirdi.

Chunki bunday holat O‘rtta Osiyo hududida kuzatilmagan yangiliklardan biri hisoblanadi. Selung‘urning 5-qatlamida topilgan qo‘l chopqisi, boshqalari orasida o‘ziga xos xususiyatlari, ya’ni aynan ashell qo‘l chopqilarini yorqin ifodalovchi tomonlari bilan ajralib turadi. Bu qo‘l chopqisi qizil toshdan tayyorlangan bo‘lib, uning yon tomonlardan otboyniklar yordamida bir necha uchirindilarni urib uchirib ishlov berilgan. Natijada bu mehnat quroli o‘zining yon tomonlarida nisbatan yirik uchirindilarni uchirib olinganligidan dalolat beruvchi izlarni qoldirgan.

Mayda uchirindilarni izlari ko‘rinmaydi. Bu xildagi qo‘l chopqilarni tashqi ko‘rinishidagi o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, ularga har ikkala yuzasi tomonidan ishlov berilmay balki, faqat bir tomonidan ishlov berilgan. Bu xildagi qo‘l chopqilari har ikki tomonidan ishlov berilgan. Qo‘l chopqilariga nisbatan, ancha qadimiy hisoblanadi. Shuni aytish kerakki, bu xildagi mehnat quollarini 1960-1970 yillariga qadar shell davrining qo‘l chopqilari, ikki tomonlama ishlov berilib ancha ixchamlashganlarini esa ashell davrining qo‘l chopqilari deyilar edi. So‘nggi yillarda Olduvay davri yodgorliklarining ko‘plab topilganligi natijasida arxeolog olimlar ularni shell va ashell davrlariga ajratmay, endi Olduvay va ashell davriga ajratadigan bo‘ldilar. Selung‘urning 5 ta qatlamidan topilgan, bu qo‘l chopqisi ashell davriga mansub bo‘lib uning shakli nayzasimondir. Bu mehnat quroli O‘rtta Osiyo hududida topilgan birinchi va eng qadimiy ilk ajdodlarimizning ilk bor ishlatgan haqiqiy qo‘l chopqisidir.

Arxeologiya fani uchun juda noyob bo‘lgan boshqa bir tosh qurol Selung‘urning 4 qatlamidan topilgan og‘ir va to‘mtoq tosh boltadir. Uning yasalish texnikasi ancha primitiv bo‘lishiga qaramay unga ishlov berilishi nihoyasiga yetgan mehnat quollaridan hisoblanadi. Unga otboynik yordamida ishlov berilgan ishchi qismida uchirindilardan qolgan izlar yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Bu mehnat qurolining pastki qismiga ishlov berilmagan bo‘lsa-da, uning bir qancha kemtiklari bo‘lib bu uning ajdodlarimiz tomonidan uzoq vaqt mobaynida ishlatilganidan dalolat beradi. Shunday qilib, Selung‘ur g‘or manzilgohini tosh quollari haqida xulosa qilib, shuni aytish kerakki, bu yodgorlikning madaniy qatlamlarida qo‘l chopqilari, qadimiy tosh teshalar hamda qayroq toshlardan bir tomoni urib uchirilib maxsus yasalgan va ishlatilgan chopperlar birgalikda uchraydi. Demak, bularning barchasi bir vaqtida o‘zida ya’ni parallel ravishda ishlatilganlar.

Taniqli fransuz arxeolog olimi F. Bordning fikricha, hind subkontinenti hamda yaqin Sharqda tarqalgan janubiy ashell qadimiy arxeologik paleolit madaniyatidir. Shuni aytish joizki, shu vaqtga qadar Markaziy Osiyo hududida ashellning faqat shimoliy turlarigina uchrab kelgan

Selung‘urning topilmalari esa, ashellning janubiy turiga mansub bo‘lgan ilk yodgorliklar turiga kiradi. Shuning uchun ham Selung‘ur noyob yodgorliklar qatoridan joy oladi. G‘arbiy Germaniyaning Keln shahrida yashovchi arxeolog olim, professor Basinskiyning fikricha, Selung‘ur tipidagi arxeologik yodgorliklarining yoshi Germaniyada 800 ming yil bilan belgilanadi. Selung‘ur g‘oridagi madaniy qatlamlardan jami 5 mingdan ziyod suyak qoldiqlari topilgan. Eng muhim ikinchi madaniy qatlamdan odam bosh suyagi engak qismini bir bo‘lagi hamda to‘rtta tishi topilgan. Uchinchi madaniy qatlamdan esa, yakka holda 10 ta tish va odam yelka suyagining bir bo‘lagi topilgan.

Atropolog olimlarimizni bu qadimiy odam suyaklarini o‘rganilishi, bularni barchasini arxontoplarga ya’ni, ashell odamlariga tegishli ekanligini ko‘rsatadi. Bu suyak qoldiqlarini engak bo‘lagi hamda bosh suyagi kosasining bo‘laklari hozirgi kungacha o‘rganilib kelinmoqda. Hozirgacha bular haqida oxirgi xulosalarga kelingani yo‘q. O‘ylaymizki, bu topilmalarni antropologlarimiz tomonidan hozirgi fan yutuqlari asosida o‘rganilishining yakuni bu arxantoplarni taraqqiyot bosqichida qanday o‘rin tutilishi haqida oxirgi fikrni aytilishiga imkon beradi. Bu yerda topilgan tishlar to‘rtta shaxsga mansubligi aniqlangan. Shulardan biri pastki tish bo‘lib, 40 yoshlardagi ayolni ki bo‘lgan degan fikrga kelinmoqda. Uchta pastki tish uchinchi shaxsga tegishlidir. Harakterli shundaki, topilgan mazkur tishlarning birontasida (karies) tishni chirish ham alomatlari bo‘lmasan. Kezi kelganda shuni alohida ta’kidlash joizki boshqa fanlar qatori antropologiya fani ham shu darajada rivojlanish cho‘qqisiga ko‘tarilganki, hozirgi antropologlar eng qadimgi odamlarning suyak qoldiqlariga qarab u yoki bu suyak qoldig‘ini egasi necha yoshda bo‘lganligi, jinsi ayol bo‘lsa faqat uning bo‘yi-basti haqida emas balki uning nechta tuqqanligigacha ma’lumot bera oladi.

Tishlar tuzilishining tahlili Selung‘ur topilmalarining boshqa qazilma odamlari bilan munosabatlarining aniq hamda ishonchli bo‘lgan manzarasini namoyish etadi. Selung‘ur topilmasini qadimgi odam turi vakillari bilan qiyoslash natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, Selung‘urdagi topilma paleantrop hamda arxantroplar o‘rtasidagi oraliq holatini egallab, bundan taraqkiyotning umumiy yo‘nalishidan ancha chetga chiqqan. Olimlarning fikrlariga ko‘ra bu arxaik tuzilishning saqlanishi selung‘urliklarni dag‘al o‘simlik ozuqasiga tor miqyosida odatlanganliklari bilan bog‘liqligidir.

Selung‘ur odamining o‘ziga xos holati antropolog A Zubovning fikricha, oraliq holati bo‘lib, u arxantropdan hozirgi odamgacha bo‘lgan tadrijiy taraqqiyot yo‘lida turmay chamasi arxantropning ixtisoslashgan mahalliy turidirki, u bir tomondan g‘oyat ko‘hna xususiyatlarini, ikkinchi tomondan esa o‘ziga xos tarixiy rivojlanish yo‘lidan birmuncha ilgarilagan. Mavjudlarning ayrim xususiyatlarini o‘zida saqlab qolgan Selung‘ur topilmalari arxantroplarning tarqalish ko‘lamni nechog‘lik kengligini va uning mahalliy turlari naqadar ko‘pligini yana bir bor namoyish etadi. Selung‘ur topilmalari asosida vujudga keladigan yana bir muhim xulosa shuki, arxantroplar (g‘arbiy va sharqiy) shoxobchalarining tarqalish makonlari o‘rtasidagi geografik uzilish avval taxmin qilinganidek yetarli katta emas ekan.

Biroq, arxeologik ashyolar tahlilidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, paleantroplarning bu turi osiyolik Homo Sapiens hozirgi aqli odamning ajodolaridan biri bo‘lishi mumkin deyishga imkon beradi. Selung‘urdan topilgan odam suyaklarining qoldiqlaridan biri 10 yashar bolaga taalluqli bo‘lib, uni har tomonlama o‘rganilishi va Teshiktosh g‘orini 8 yashar neandertal bolaning suyak qoldiqlari bilan qiyoslanishi Selung‘ur bolasining suyak qoldiqlari anchagina qadimiy ekanligini ko‘rsatdi.

Hozirgi qadar Selung‘ur g‘orining madaniy qatlamlaridan 32 turida sut emizuvchi hayvonlarga taalluqli 5 mingdan ortiqroq suyak qoldiqlari aniqlanib tadqiq etildi. Hayvonot qoldiqlarini ilmiy tadqiq etilishi asosida Selung‘ur hayvonot kompleksini ajratishga muvaffaq bo‘lindi. Bu kompleks morfologik belgilari hamda arxaikligi (moddiy va qadimiyligi) bo‘yicha ilk pleystotsen davri oxirlariga mansub degan fikrdamiz. Selung‘ur kompleksini ilk pleystotsenning birinchi yarmiga mansub bo‘lgan Qozog‘istondagi Qo‘shqo‘rg‘on kompleksi bilan qiyoslash mumkin. Ana shu hayvonot qoldiqlari orasida yirtqich tuyoqli va kemiruvchi hayvonlarning turlari ustunlik qiladi. Bulardan dasht va ochiq landshaftli yerlaridagi turlari ko‘pchilikni tashkil qiladi. G‘or ayig‘i, bo‘ri, g‘or arsloni, giyonasi, karkidoni, bug‘ilari, otlari, pleystotsen eshagi, to‘ng‘iz har turli kemiruvchilarining qoldiqlarini mavjudligi issiq va quruq iqlim bo‘lganligidan dalolat beradi. Binobarin dasht, chala dasht mavjud bo‘lgan qadimiy daryolar o‘zani hamda tog‘ yonbag‘irlari bo‘ylab buta va o‘rmon o‘simpliklari barq urib o‘sgan. Yuqoridagilardan bayon qilinganligidan ko‘rinib turibdiki, Selung‘ur manzilgohining hayvon suyaklari xronologik jihatdan ilk pleystotsen davriga to‘g‘ri keladi. Selung‘ur g‘oridan topilgan barcha topilmalarni mukammal o‘rganish maqsadida imkonimiz qadar barcha mutaxassisliklarni jalb qilishga harakat qildik. Bu borada tuproqshunoslik va agroximiya institutining xodimlari organik moddalarni tadqiq qilish asosida qelishgan xulosalari ham katta axamiyatta ega bo‘ldi. Ularning Selung‘urning beshta madaniy qatlamini o‘rganishlarining natijalari ham bu qatlamni yoshini bir million yil bilan belgilashga olib keldi.

Hozirgi kunda faqat shunday fikr yuritish joizki, O‘rta Osiyo territoriyasi ilk poleolit davrida ibridoiy odamlar tomonidan o‘zlashtirilgan. Agar buni raqamlarga aylantiradigan bo‘lsak bu bizni ajodolarimiz tarixini bir million yil bilan belgilaydi.

Bundan tashqari, xronologik belgilarni aniqlash maqsadida palezoologik izlanishlar natijasi asos qilib odindi. Selung‘ur manzilgohidan topilgan hayvon suyaklarini tadqiqoti natijasida 31 Oloy treokompleksi turlari belgilandi. Natijada bu hayvonlar turlari pliotsentdan pleystotsenga o‘tish davridagi hayvon turlari bo‘lib chiqdi. Shu tadqiqot natijasida qadimgi davr tabiiy sharoitini, ob-havosini xronologik davrini aniqlashga erishildi.

Bu xronologik davrashishga geologik tadqiqot ham juda zarur edi. Shuning uchun ham bor qatlamlar tarkibini qanday paydo bo‘lganini, tektonik strukturasini o‘rganib qator kimyoviy tahlillar o‘tkazdik. Ular geoximik, gronulomotrik, pidologik taxlillar bo‘lib, Selung‘ur manzilgohi yuqorida pliotsent davriga oidligini isbot qilib berdi. Shu qilingan tadqiqotlar natijasi o‘laroq va topilgan tosh qurollar bilan taqqoslash natijasida Selung‘ur manzilgohini yoshi 1 million 200 ming yil bilan belgilash imkoniga ega bo‘lindi.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimizki, birinchidan, nafaqat bizning O‘zbekistonimiz, balki butun O‘rta Osiyodagi ajodolarimizning ilk tarixi 1938 yilda A.P.Okladnikov tomonidan topilgan, neandertal odamlarning makoni bo‘lgan Teshiktosh g‘oridan, ya’ni muste davridan boshlanmaydi, balki Farg‘ona vodiysida joylashgan va quyi paleolit davriga mansub bo‘lgan Fergantroplarning makoni Selung‘ur g‘oridan boshlanadi. Demak, ilk tariximizni tamal toshlari ilk bor ajodolarimiz tomonidan Selung‘ur g‘orida qo‘yilgan bo‘lib uning yoshi XX

asrning birinchi yarmida aytiganidek 80-100 ming yil bilan emas, balki, 10 karradan aniqrog'i 1 million 200 ming yil bilan belgilanadi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, bizning ilk tariximiz paleantropolar davrida emas balki, ilk bor Selung'ur g'orida paydo bo'lgan arxantroplardan boshlanadi.

Ikkinchidan, hozirgi O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlari Old Osiyodan kelib o'mashib qolganlar va so'ng muste davri madaniyatini yaratganlar degan ayrim odamlarning fikrlari mutlaqo noto'g'ri, g'ayri ilmiyidir. O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlari, ilk bor Farg'ona vodiysida paydo bo'lgan va azaldan ularning avlodlari uzlusiz ravishda yashab kelmoqda. Bu borada boshqacha fikrning bo'lishi mumkin emas. Chunki yuqorida bayon qilganimizdek, Selung'ur, Teshiktosh, Samarqand makoni kabi yodgorliklarni rad etib bo'lmas darajada bergen ma'lumotlari bizning fikrimizni to'la tasdiqlaydi.

3.O'rta Osiyodagi etnik guruuhlar (so'g'dlar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, sak va massagetlar) to'g'risidagi dastlabki yozma ma'lumotlar. O'zbek xalqining etnik tarixi ilk ajdodlari yashagan hudud bilan bevosita bog'liq. O'zbek ajdodlari elat bo'lib O'rta Osiyoning markaziy viloyatlari Movarounnahrda (Farg'ona vodiysi ham shuning ichida) Xorazmda, Toshkent vohasida, Yettisuvda, Sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalarida shakllangan. Bu mintaqalar insoniyatning qadimgi madaniyat markazlaridan hisoblanadi. Sopollitepa, Chust, Zamonbobo va Xorazm zaminida olib borilgan arxeologik qazilmalardan topilgan materiallardan ma'lum bo'lishicha, mil. avv. II minginchi yillarda O'rta Osiyoning bir qancha tumanlarida o'troq dehqonchilik mavjud bo'lgan.

Jez davrida O'rta Osiyo va Qozog'istonda, bir-biridan farq qiluvchi ikki tarixiy madaniy region mavjud bo'lган: sug'orish usuli bilan dehqonchilik qiladigan Old Osiyoda keng tarqalgan o'troq aholi madaniyati va jez davrida cho'l joylarida yashovchi qabilalarga taalluqli madaniyat. Bu keyingi madaniyat kishilari chorvachilik bilan bir vaqtida dehqonchilik bilan ham shug'ullanganlar.

Jez davrida cho'l qabilalari mil. avv. II minginchi yillarda janubiy-sharqiy Yevropadan to janubiy Sibircacha bo'lgan keng hududlarda yashaganlar. Bular asosan ikki komponentdan iborat bo'lgan: yog'och band dahmalik qabilalar va Andronovo madaniyati. Janubiy Ural tog' oldi mintaqalari har ikkala komponetlarning etnik va madaniy aloqalari yaqinlashib va mustahkamlanib borayotgan hududlardan biri hisoblangan.

Jez davriga oid cho'l qabilalariga mansub madaniyat namunalarini Zarafshon vodiysida, mil. avv. II minginchi yillarga oid madaniy qatlamlaridan ham topilgan. Mazkur arxeologik madaniyat tarkibida Kopedtog' tog' oldi mintaqalariga xos madaniyat elementlari ham katnashganligi aniqlanadi. Bu ma'lumotlar Amudaryoning quyi oqimlarida hamda Zarafshon vodiysida mil. avv. II minginchi yillarda, janubda mavjud bo'lgan o'troq dehqonchilik madaniyati shimolda yashovchi cho'l qabilalarining jez davriga oid madaniyati bilan uzviy bog'lik bo'lganidan dalolat beradi.

Mil. avv. II minginchi yillarning oxirlariga kelib Tozabog'yob va Andronovalik qabilalarning madaniyati hozirgi O'zbekiston hududiga keng tarqaladi. Bu qabilalarga xos moddiy madaniyat yodgorliklari Farg'ona vodiysidan, Toshkent vohasidan, Zarafshon va Qashqadaryo vohalaridan hamda hozirgi Surxondaryo viloyati hududlarda ham topilgan.

Arxeologlar tomonidan aniqlangan O'rta Osiyoning Markaziy viloyatlaridagi arxeologik madaniyat, jez davridagi kelgindi yog'och dahmali va Andronovalik qabilalarning hamda qisman Old Osiyodan kelib, tub yerli aholi bilan yaqinlashib, qo'shilib ketishi natijasida vujudga kelgan deyishimizga asos bo'la oladi.

Keyinchalik (mil. avv. II minginchi yillarning birinchi choraklarida) temirdan qilingan mehnat qurollari paydo bo'lishi bilan O'rta Osiyoda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati birmuncha taraqqiy etadi. Eng qadimgi yozma yodgorliklardan biri bo'lgan Avestoda bir qancha tarixiy viloyatlar eslatiladi, shularning ichida Marg'iyona (Marv vohasida), Parfiya (Kopedtog'ni shimolida), Xorazm (Amudaryoning quyi oqimlarida), Baqtriya (Amudaryoning o'rta va yuqori oqimlarida) viloyatlari nomlari uchraydi. Farg'ona vodiysi ham o'sha davrlarda madaniyati taraqqiy

etgan mintaqalardan bo‘lgan. Yuqoridagi viloyatlarda yashovchi aholining asosiy mashg‘uloti o‘troq dehqonchilik bo‘lgan. Ularning xo‘jaligida chorvachilik ham muhim o‘rin egallagan.

Mil. avv. VII - VI asrlarda o‘troq aholining jamoa hayotida yirik o‘zgarishlar ro‘y beradi, ibtidoiy urug‘chilik jamoasi yemiriladi, aholining dehqonchiligi bilan bir vaqtda xo‘jaligining boshqa sohalari ham taraqqiy etishiga keng imkoniyat tug‘iladi.

O‘troq dehqonchilikni taraqqiy etib borishi bilan aholining bir yerda doimo o‘troq bo‘lib yashash ko‘payib boradi, mustahkam ko‘rg‘onlar, istehkomlar paydo bo‘ladi. Yashaydigan yirik kishloqlarda, shaharlarda hunarmandchilik (kulolchilik, temirchilik, to‘kimachilik va boshqa) va savdo-sotiq rivojiana boradi. Ishlab chiqarishning turli tarmoqlarining (dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik) mahsulotlarining o‘zaro almashtirish (bozor orqali) tobora kuchayib borishi ayrim patriarxal oilalarning boyishiga olib keladi; sinfiy tengsizlik paydo bo‘ladi. Jamiyat boy va kambag‘al tabaqlarga ajraladi. Urug‘chilik jamoasining yemirilishi (mil. avv. II ming yillikning birinchi yarmida) ilk jamoalar, davlatlar vujudga keladi. O‘troq aholi soni tobora ko‘payib boradi.

Ko‘chmanchilar ijtimoiy tuzumi ko‘p vaqtlardan buyon tadqiqotchilarining diqqat markazida bo‘lib kelgan bo‘lsa hamki, lekin bu masalada hanuzgacha aniq bir fikrga kelingan emas. Tarixchi, arxeolog va etnograf olimlarning fikrlarini hisobga olib, qayd qilish mumkinki, tarix fanining otasi Gerodot sak, massaget deb nomlagan ko‘chmanchi qabilalarining jamoa tuzumi (ibtidoiy bosqich yemirilgan bir davrda) harbiy demokratiya bo‘lgan. Qabilalarni qabila boshliqlari (sarkardalar) boshqargan, bir necha qabilalar birlashib, yirik qabila ittifoqiga uyushib, bunga bosh sarkarda hukmronlik qilgan. Hokimiyat maslahat majlisi bilan chegaralangan.

Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, harbiy demokratiya tuzumi davrida sak, massagetrarning jamoa tuzumi harbiy demokratik bo‘lib, unda sinflar va ekspluatatsiya mavjud bo‘lgan, ammo davlat hali paydo bo‘lmagan edi.

Mil. avv. II ming yillikning o‘rtalarida sug‘orma dexqonchilikning rivojlanishi bilan O‘rtal Osiyoning markaziy qismida bir necha davlatlari vujuga keladi. Marg‘iyona, So‘g‘diyona, Baqtriya, Xorazm va boshqalar yirik markaziy shaharlar paydo bo‘ladi. Marv, Marokanda, Baqtriya shular jumlasidandir.

Qadimgi eron forstilli manbalarda sak yoki skif etnik nomlari uchraydi. Bu etnik nomlar bilan qadimgi eronliklar O‘rtal Osiyoning bepoyon cho‘llarida yashagan qabilalarni aytganlar. Saklar asosan to‘rt qabila uyushmasidan iborat bo‘lgan. Bularning uch qismi, ya’ni xaumarka, tigraxauda va tiayadaraya shakllari Persepol yaqinidagi Naqshi Rustam darasidagi qabr toshlarining yozuvlarida uchraydi, to‘rtinchisi esa «So‘g‘diyonadan keyin, uning narigi tomonida» yashovchi saklar Persepoldagi hamda Ekbatanadagi yozuvlarda ham aks etgirilgan.

4. O‘zbek xalqi to‘g‘risidagi etnografiyaga oid ilk ma’lumotlar. O‘zbek xalqining kelib chiqishi va xalq bo‘lib shakllanishi juda ham ko‘p vaqtlardan buyon tadqiqotchilar orasida o‘zbek xalqining kelib chiqishi to‘g‘risida har xil ayrim hollarda chalkash fikrlar hukm surib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng, bu murakkab va chalkash masalani yechimiga o‘zbekcha, keng va haqiqiy baho berish imkoniyati paydo bo‘ldi. Sobiq sovet davrida ayrim tadqiqotchilar o‘zbek xalqining kelib chiqish tarixini shayboniylar davri istilosи bilan bog‘laydilar.

Ma’lumki, Dashti Qipchoqda tashkil topgan Oq O‘rda va Shayboniy ulusida ya’ni, Sirdaryo Orol dengizi va Volga bo‘ylari oralig‘idagi keng hududda ko‘chib yurgan, XIV asrning o‘rtalaridan boshlab o‘zbeklar deb yuritilayotgan turk-mo‘g‘il qabilalari bilan bog‘lab noto‘g‘ri xulosaga kelindi. Masalan: S.A. Tokarev «Osnovы etnografii» (-M.: 1968), I. Jabborov «O‘zbek xalqi etnografiyasi» (-T.: «Fan», 1964) asarlarida shu fikr ilgari surilgan.

S.A. Tokarev, A.Yu. Yakubovskiy, Ya.G. G‘ulomov, M.G. Vaxobov va boshqalar o‘zbek xalqining boshlang‘ich yadrosi O‘rtal Osiyoda qadimiyl davrida yashagan qadimgi so‘g‘diylar,

xorazmiylar, sak qabilalari va urug‘ aymog‘larini unutgan, keyinroq ko‘chmanchilikdan dehqonchilikka o‘tib, turkiy tilda so‘zlashuvchi chigil, qarluq yag‘mo, argun kabi guruhlardan iborat ekanligini o‘zbek elatning asosi XI-XII asrlarda tugaganligi va XVI asr boshlarida paydo bo‘lgan ko‘chmanchi shayboniy o‘zbek xalqining qadimgi yadrosiga aralashib ketib, faqat o‘z nomigina bergenligini kuchli dalillar, fakt va materiallar bilan isbotlab bergenlar.

O‘rta Osiyo shu jumladan, O‘zbekiston hududida Rossiya Fanlar Akademiyasining va O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining tarix va arxeologiya institutlari tomonidan uyuştirilgan ko‘p yillik samarali ishlar natijasida o‘zbeklarning avlod-ajdodlari qadimdan o‘troq, yirik sug‘orish inshoatlariga asoslangan dehqonchilikka mustaqil o‘ziga xos madaniyatiga ega bo‘lganligi isbot qilindi. Bu holat ba’zi tadqiqotchilarning O‘rta Osiyo xalqlari go‘yo tarixiy xalq emas, ularning madaniyati eron va boshqa mamlakatlarning madaniyatiga tobe, bu go‘zal o‘lkada uzoq o‘tmishda faqat ko‘chmanchi yovvoyi qabilalar yashagan deganlar har xil da‘vatlarni fosh qildi va puchga chiqdi. Holbuki, «nazariya»ni targ‘ib qiluvchi ba’zi olimlarning uzoq ajdodlari ibtidoiy madaniyatiga endi erishgan bir paytda qadimgi Xorazmda Qo‘yqirilgan qal’a, Tuproqqal’a kabi yodgorliklar qazib topilgan ajoyib arxetiktura, san’at hamda yozuv durdonalari Bolaliktepa va Panjikentda kashf etilgan har xil marosimlarni tasvirlovchi rang-barang rasmlar va Varaxshaning go‘zal chang haykal va bezaklari butun antik davr ichida qurilgan xashamatli shahar va qal’alar, dabdabali sug‘orish inshoatlari, bepoyon ekinzorlar, o‘zbek va boshqa O‘rta Osiyo xalqlarining uzoq o‘tmishida nihoyatda zo‘r iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga ega ekanligini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

O‘zbek xalqining avlod-ajdodlari to‘g‘risidagi ba’zi ma’lumotlar qadimgi yozma manbalarda ham uchraydi. Qadimgi O‘rta Osiyo xalqlari haqidagi ma’lumot beruvchi ilk yozma manbalar qatoriga qadimgi eron etnografik yodgorliklari kiradi. Eng qadimgi ajdodlarimiz to‘g‘risidagi ma’lumot beruvchi dastlabki epigrafik yodgorlik Behustun yozuvi hisoblanadi. Behustun yozuvi eronda, Kirmoshoh shahridan 30 km masofada Zagros tog‘idagi tik qoyaga o‘yib yozilgan. Uzunligi 22 km, balandligi esa 7,8 metrni tashkil etadi.

Epigrafik manbalardan yana bir guruhi bu sopolga o‘yib yoziladigan yozma manbalardir. Yana bir manba Persopoldan topilgan mil. avv. 486-480 yillarga mansub bo‘lib, Doro I nomidan undan keyin hukumronlik qilgan Kserks buyrig‘i bilan bitilgan. Shu tariqa eron epigrafik yodgorliklari Vatanimizning eng qadimgi tarixiga oid oz bo‘lsada, nihoyatda qimmatli ma’lumotlar beradi.

Qadimgi xorazmiylar, so‘g‘diy va saklar yoki massagetlar haqidagi ayrim ma’lumotlar antik davr mualliflari miletlik Gekatey Strabon, Geradot, Arrian va butun O‘rta Sharqda tarqalgan muqaddas kitob – «Avesto»da mavjud. Bu kitobda O‘rta Osiyoning qadimgi eroniyzabon xalqlarining turmushi, ijtimoiy tuzumi va ma’naviy dunyosi haqida turfa ma’lumotlar olish mumkin.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, antik mualliflarning birontasi O‘rta Osiyo tarixiga oid alohida maxsus asar yozmagan. Qolaversa o‘sha zamonda «O‘rta Osiyo» degan jug‘rofiy tushunchaning o‘zi ham yo‘q edi. Ammo Yunon va Rim tarixchilari o‘zlarining boshqa mavzulariga bag‘ishlangan asarlarida yo‘l-yo‘lakay qadimgi O‘rta Osipyoga jug‘rofiy, tarixiy va etnografik ma’lumotlar yozib qoldirganlar. mil. avv. II asrdagi Xitoy elchisi va sayyohi Chjan syanning Davon va Kanguyu (Xorazm) davlatlari haqidagi qoldirgan ba’zi ma’lumotlarni ham etnografik jihatdan diqqatga sazovordir. Afsuski, islom dini tarqalguncha ya’ni VII-VIII asrlargacha bo‘lgan davrni yorituvchi uchun mahalliy yozma manbalar yo‘q.

VII-VIII asrlarda turkiy xalqlarining katta qismi Yettisuv, Shosh hamda Farg‘ona vodiysida kamroq qismi Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida yashar edi. Ular turkiylar tilini qabul qilgan tub joy aholidan hamda bu yerga kelib o‘rnashgan ko‘pgina turkiy qabila va urug‘lardan iborat edi. Ayrim so‘g‘diy hujjatlarida kiritilgan ma’lumotlarga qaraganda turkiy aholi o‘rnashgan bu o‘lka VII asrdan boshlab, Turkiston nomi bilan atala boshlagan.

Ayni zamonda Yettisuvda o‘rnashib qolgan so‘g‘diylarning kengayishi va bu savdodan manfaatdor So‘g‘dning V-VII asrlarda olib borgan harbiy yurishlari oqibatida kelib qolgan edilar. So‘g‘dlilarning savdo va hunarmandchilik manzillari Talos va Chu vodiylarida Chimkentdan to ulug‘ Xitoy devorigacha bo‘lgan yerlarga joylashgan.

Uzoq asrlar davomida shakllanib kelgan yuqori darajadagi madaniy zamin bo‘lmaganda, IX-XII asrlarda O‘rta Osiyo shu jumladan O‘zbekistonda fan va madaniyat gurkirab o‘sib, jahonga Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Nasr Farobi kabi fanning ko‘p sohalarini mukammal egallagan ulug‘ siymolarni yetkazib berishi mumkin emas edi.

Mahmud Qoshg‘ariyning «Devoni lug‘at turk» nomli noyob asarida gapiruvchi ajdodlarimizdan biri bo‘lgan chigil qabilalari Iskandar Zulqarnayn yurish qilgan davridayoq ko‘p nufuzli etnografik guruhlardan xisoblangani haqida ma’lumot beradi.

XI asrning yetuk shoiri va olimi Yusuf Xos Hojib tomonidan yaratilgan o‘z davrining zo‘r badiiy asari xisoblangan «Qutadg‘u bilik» ning ana shu chigil qabilalari tili asosida yozilganini va bunday ajoyib asar agar uzoq asrlar davomida iqtisodiy, madaniy birlik negizida dunyoga kelgan umumiylar til bo‘lmagan holda paydo bo‘la olmasligini ham e’tiborga olsak u vaqtida o‘zbek xalqining tili nihoyatda uzoq tarixga ega ekanligiga ishonchimiz komil bo‘ladi.

IX-XII asr mualliflaridan ibn Xurdodbek al-Balxiy, al-Istaxriy, ibn Kavkal, Ma’sudiy Yoqut singari yirik biograf va sayyohchilar mahalliy mualliflardan faylasuf, musiqashunos Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy va buyuk tabib Abu Ali ibn Sino, etnograf, biograf, tarixchi olim Abu Sa’d Abdushari ibn Muhammad Sa’moniy hamda noma’lum muallif yaratgan «Hudud ul-olam» nomli asarlarda O‘zbekiston hududida o‘sha davrda yashagan aholi to‘g‘risida ba’zi etnografik lavhalar keltirilgan.

Yevropa monarxlari va Rim papasi daxshatli, jahonni larzaga solgan Chingizzon bilan savdo, siyosiy va diplomatik munosabatlar o‘rnatishga qiziqishdi. Birinchi bo‘lib «Tatarlar o‘lkasiga» papa Innokentiy IX 1245 yilda fransiyalik Ioanna Plano Kartini boshchiligidagi monarxlardan iborat elchilarni yubordi. Huddi shu maqsad va shu yo‘l bilan 1249-1251 yillarda safar qilgan Plano Kartini vatandosh Vilgelm Rubruk asarida hamda 1271-1295 yillarda sharq mamlakatlariga xususan Xitoya tashrif buyurgan Marko Poloning esdaliklarida ham O‘rta Osiyo o‘lkalari haqida etnografik ma’lumotlar keltirilgan.

5. O‘rta asrlar davri tarixi etnografik ma’lumotlari. Sohibqiron Amir Temur va uning vorislari hukumronlik qilgan davrda O‘rta Osiyo shu jumladan, O‘zbekiston yirik madaniyat markaziga aylanadi va uning boshqa mamlakatlar bilan har tomonlama aloqalari kuchayadi. Bu davrga oid qiziqarli ba’zi etnografik ma’lumotlar ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixoning asarida, rus solnomalarida, mahalliy mualliflar Nizomiddin Shomiy, Abdurazzoq Samarqandiy va boshqalarning asarlarida uchratish mumkin.

Boburning «Voqeatiy Boburiy» yoki «Boburnoma» deb nomlangan asarida etnografiyaga oid ma’lumotlar ham keltirilgan. Mahmud ibn Usmon Ko‘xistoniyning «Tarixi Abdulhaynoma» Kamoliddin Binoiyning «Shayboniynoma» va Abdulhayr Fayzulloh Ruzbehonning «Mehmonnomaiy Buxoro» nomli asarlarida etnografiyaga oid qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Binoiyning «Shayboniynoma» nomli asarida XV asr o‘rtalaridan to XVI boshlarida yuz bergen ijtimoiy-siyosiy voqealarni qisqa lekin aniq bayon etgan. U muhim geografik ma’lumotlar ya’ni, Sirdaryoning o‘rta oqimida joylashgan Sayram, Signoq, Arnuk, O’tror, Turkiston, O‘zgan, Oqqo‘rg‘on va Xorazmga tobe shaharlardan Urganch, Buldumsoz, Adoq va boshqalar haqida ham ma’lumotlar beradi.

Ro‘zbexoning «Mehmonnomaiy Buxoro» asari O‘rta Osiyo va Qozog‘istonning XV asrning II yarmida va XVI asr boshlaridagi tarixni o‘rganishda juda katta ahamiyatga egadir. Asarning biz uchun

qiymati shundaki, unda Dashti Qipchoq, Turkiston va qozoq ulusining geografik holati o'zbek va o'zbeklarning kelib chiqishi, etnik tarkibi, turish-turmushi, urf-odati, shuningdek, zodagonlarning xo'jalikda, qo'l mehnatidan foydalanish hollari haqida benihoya qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Bizga ma'lumki, O'rta Osiyoda xonliklar davrida markazlashgan Rus davlati bilan ular orasida muntazam ravishda savdo va diplomatik munosabatlар о'rnatila boshlandi. 1558 yilda Xitoya O'rta Osiyo orqali savdo yo'lini aniqlash maqsadida Rossiyaga kelgan «Moskva» kompaniyasining vakili Antoni Jenkinson boshlab berdi. U Moskva hukumati yordamida Astraxan va Kaspiy dengizi orqali Xiva va Buxoroga boradi. U o'z maqsadiga erisha olmagan bo'lsa-da O'rta Osiyo haqida anchagina ma'lumotlar to'pladi.

Rossiya bilan O'rta Osiyo o'rtasidagi munosabatlар ayniqsa XVIII asrda Buyuk Pyotr I (1689-1725 yy.) davrida kuchaydi. O'rta Osiyoni o'z ta'siri ostiga olish maqsadida Pyotr I ikkita ekspeditsiya uyuştirgan. Biriga knyaz Aleksandr Bekovich - Cherkasskiyni, ikkinchisiga Ivan Buxgolsni boshliq qilib tayinladi. Bu harakatlar muvafaqiyatsizlikka uchradi. Biroq, 1718 yil Kaspiy dengizini tekshirish uchun yangi ilmiy safar tuzilib, 1720 yil Kaspiy dengizining birinchi xaritasi yaratildi.

Buxoroga rus elchisi bo'lib kelgan, Florino Benevini (1721-1725) Xivaga ham borib, shu mamlakatlar to'g'risida qimmatli geografik ma'lumotlar olib kelgan.

Ko'hna Xorazm aholisining XVIII asr o'rtalaridagi turmushi to'g'risidagi muhim etnografik ma'lumotlarni 1740-1743 yillarda Dmitriy Gladishev va Ivan Muravin boshchiligidagi Orol dengizi va Xiva ilmiy safari hamda 1753 yilda Samara savdogari Daniel Rukovkining Xivaga qilgan sayyohati davrida to'plagan ma'lumotlardan olish mumkin.

1774 yilda Orenburg cho'llarida qozoqlar tomonidan asrga olingan rus zobiti Filipp Yefremov asrlikdan qochib, Qo'qon, Marg'ilon, Qashqar, Yorkent, Tibet, Hindiston va Angliya orqali 1782 yilda Rossiyaga qaytib keladi va ko'rgan bilganlarini yozib qoldiradi.

1781 yilda Buxoroga elchi bo'lib kelgan Mendiyor Bekturik va 1794-1796 yillarda Buxoroga sayyohat qilgan T. Burnashevning hikoyalari ham bor. Shu davrdagi Xiva xonligiga oid tarixiy va etnografik ma'lumotlar xonning taklifi bilan Xorazmga kelgan ko'z doktori, mayor Blankennagelning yozib qoldirgan xotiralari ham mayjud.

6. XIX-XX asrlar madaniyatini o'rganishda etnografiyaning roli. O'zbek xalqi etnografiyasiga oid materiallar to'plash davri XIX asrda boshlanadi. XIX asrning birinchi yarmidan N.N. Muravyov, A.F. Negriy, N.V. Xanikov, P.I. Danilevskiyalar o'tkazgan ishlар O'rta Osiyo xalqlari shu jumladan, o'zbeklar etnografiyasini o'rganishdagi dastlabki qadamlar bo'ldi.

1819-1820 yillarda Xiva xonligiga sayyohat qilgan kapitan N.N. Muravyov o'z taasurotlarini tartibga keltirib nashr qildi. N.N. Muravyov asarining ba'zi boblarida bevosita o'zbeklarning tabiatи, diniy e'tiqodi, uy-ro'zg'or tutumlari, urug'-aymog'i kabi sof etnografik ma'lumotlar keltirilgan. Uning aytishicha, Buxoro tomonidan kelgan o'zbeklar asosan to'rt guruhdan: *qiyot -qo'ngirot - uyg'urnayman, qangli-qipchoq, nukus mang'itdan* iborat: har bir guruh mustakil hokim-inoqqa ega, ammolarning eng kattasi qiyot-qo'ngirot-inoqlaridir.

1820 yilda Buxoroga jo'natilgan A.F. Negriy boshchiligidagi diplomatik missiya katnashchilaridan E.A. Everslin, X. Pander, P. Yakovlev, Budrin va polkovnik P. Midendorflarning kitob va xotiralari boy tarixiy etnografik ma'lumotlarga ega. Turli tillarda tarjima qilingan P. Midendorfning «*Orenburgdan Buxoroga sayohat*» nomli kitobida Buxoro xonligining geografik o'rni, ijtimoiy iqtisodiy ahvoli, davlat tuzilishi va aholi mashg'ulotlari, qishloq xo'jaligi sug'orilishi tarixi, hunarmandchiligi, ichki va tashki savdo, oila va xotin-qizlarning turmushi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bu sohada ayniqsa, 1833-1841 yillarda Orenburg gubernatorining maxsus topshirigiga binoan ishlagan V. M. Dollning berilgan ma'lumotlari diqqatga sazovordir.

1840-1850 yillar ichida Qozog'iston va O'rta Osiyo hamkorligi etnografiyasini ilmiy jihatdan

o‘rganishda aka-uka Nikolay va Yakov Xanikovlarning xizmati katta bo‘lgan.

Yakov Xanikovning 1851 yilda nashr qilingan «*Orol dengizi va Xiva xonligi kartasiga muhokama*» asarida etnografiyaga alohida e’tibor berilgan. N. Xanikov 1843 yilda Buxoro xonligi haqidagi ilmiy asarni nashr qildirishga tuyassar bo‘ladi.

Etnografiyaga oid muhim ma’lumotlar 1843 yilda Xiva xonligiga diplomatiya missiya tarkibida kelgan polkovnik G.N. Danilevskiy, O.N. Baziner asarlarida ham keltirilgan. O’sha yillarda atoqli olim V.V. Grigorev Orenburgda yashagan va u Rossiyada birinchi bo‘lib sharq xalqlari tarixini o‘qita boshladi. Uning 200 dan ortiq ilmiy ishlari orasida O‘rtta Osiyo xalqlari, jumladan o‘zbek xalqlariga tegishli asarlarida ham mavjud. 1851 yilda Orenburgga kelib sayohat kilgan V.V. Velyaminov Zernov ham o‘zbek xalqi tarixiga oid bir qancha qiziqarli tarixiy asarlar yaratgan.

1858 yilda Lomonovskiy N.L. Ignatev boshchiligidagi Xiva va Buxoroga yuborilgan yirik diplomatik missiya ham ancha samarli ish olib borgan. Turk tillarini yaxshi bilgan, mashxur vengir sharqshunos olimi Xerman Vamberi 1863 yili savdo karvonni bilan Xiva, Buxoro, Samarkand va boshqa O‘rtta Sharq mamklakatlariiga sayohat kildi. Bu sayyohning O‘rtta Osiyo haqidagi yozgan asarlarida mahalliy aholi, shu jumladan o‘zbek xalqi inografiyasiga oid kizikarli ma’lumotlar bor. U o‘zbek urug‘lari haqida gapirib, birinchi bo‘lib o‘zbek so‘zining kelib chiqishi haqida mulohaza yuritadi. Ko‘k O‘rda shahrida Volga bilan Orol dengizi orasidagi yashovchi turk mo‘g‘ul qabilalarida juji sulolasidan to‘qqizinch hukmdor bo‘lgan O‘zbekxon misoliga nisbat berib, uzlariiga bir siyosiy kushma nom, o‘zbek nomi bilan kabul kilganlar.

Asar muallifi 32 o‘zbek qabilalarining ro‘yxatini beradi va ularning kiyim-kechaklari, taomlari, o‘yin va musiqa asboblari, urf-odatlari va diniy marosimlari to‘rg‘isida hikoya qiladi. XVI-XIX asr o‘rtalarigacha bo‘lgan davr ichida mahalliy mualliflar tomonidan yaratilgan tarixiy asrlarda ham ba’zi bir muhim etnografik lavhalar bor. Iste’dodli shoir va musiqashunos Hofiz Tanish Buxoriyning «*Abdullahoma*» asari O‘rtta Osiyo, Qozog‘iston, shuningdek, qisman Afg‘oniston va Eronning XVI asrdagi ijtimoiy - siyosiy tarixini o‘z ichiga oladi. Asar etnografik ma’lumotlarga ham boydir. Masalan, o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan urug‘ va qabilalar to‘g‘risida ma’lumot beradi.

Abulg‘ozi ibn Muhammadxon Xorazmiyning bir qancha boy chet tillariga tarjima qilingan «*Shajarai Turk*» va «*Shajarai Tarokima*» kabi asarlar mavjud.

Mashhur o‘zbek tarixchilari Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy va Muhammad Yusuf Bayoniyarning «*Firdavsl-iqbol*», «*Riyozut – davlat*», «*Zubdat ut-tavorix*» nomli, «*Gulshani davla*», «*Shamsul-iqbol*», «*Shajarai Xorazmshoxiy*» kabi asarlarida XVI asrning II-yarmidan to XX asr boshlarigacha Xorazm va qo‘shti hududlarida ro‘y bergen tarixiy voqealar yuksak mahorat bilan tasvirlandi. O‘zining boy mazmuni, iqtisodiy, ijtimoiy ma’lumotlarining ko‘pligi va rang-barangligi bilan ajralib turgan bu tarixiy asarlar o‘sha davrdagi o‘zbek xalqi etnografiyasining o‘rganish uchun muhim manba bo‘la oladi.

O‘zbek xalqining etnografiyasini o‘rganish bilan shug‘ullangan Ostroumov va Likoshin singari tadqiqotchilar mustamlakachilik ma’murlarining xizmatchilari bo‘lib o‘z asarlarida chorizmning mustamlakachilik siyosatini targ‘ib qildilar. Biroq, ularning asarlarida ham shaxsiy jamoalarning turmushi, madaniy hayotiga doir faktlarga asoslangan bir qancha diqqatga sazovor materiallar uchraydi.

A.P. Fedchenko ham o‘z rafiqasi bilan yurib, o‘zbek xalq etnografiyasiga oid juda ko‘p ma’lumotlar to‘plagan va «*Qo‘qon xonlari*» asarini yozgan. Etnografiya materiallarini keng ommaga yetkazish va ularni saqlab qolishda ilmiy jurnallar, statistik boshqarmalarning ma’lumotnomasi (spravochnik) to‘plamlari hamda «*Turkestanskiy vedomosti*» gazetasining xizmatlari katta bo‘ldi.

Shunday qilib, XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida o‘zbek etnografiyasining o‘rganishda ilmiy jihatdan diqqatga sazovor bir qancha ishlar paydo bo‘lib, jiddiy tadqiqotchi olim va

o'lkashunoslar safi kengaydi. Ular o'z asarlarida o'zbek va boshqa Osiyo xalqlari ma'naviy va ma'rifiy turmushining hususiyatlari, urug'-aymog'lari va qabilachilik tuzumi, diniy e'tiqodlari va boshqa etnografik hususiyatlarini ta'riflash bilan birga, ularning ma'nosini ilmiy jihatdan sharhlashga intilganlar, lekin o'z davrining hukmron ideallari ta'sirida bo'lgan bu tadqiqotlar bir muncha nuqsonlardan xoli emas, albatta. Ijtimoiy masalalarni sharhlashda tadqiqotchilarining ojizligi, sub'ektivizmi yirik konsepsiyalarning hukm surganligi ularning ko'p asarlarida ham o'z asosini topgan.

1918 yilda tashkil qilingan Turkiston xalqi universitetida o'zbek etnografiyasidan maxsus kursning o'qitila boshlanishi Turkiston hududida etnografik tadqiqotlar o'tkazishga katta e'tibor berilayotganidan dalolat beradi.

30-yillarga kelib, atoqli olimlardan S.P. Tolstov va L.P. Potapovlar o'zbeklar va O'rta Osiyodagi boshqa xalqlarining etnografiyasini o'rganish ishlarini jonlantirib yubordi.

Xorazmda chorak asrdan ham ko'p vaqtida ish olib borgan S.P. Tolstov rahbarligidagi arxeolog, etnograflarning kompleks ekspeditsiyasi O'zbekiston xalqlarining tur mush va madaniyatini o'rganishda yangi sahifa ochdi. Bu ekspeditsiya, asosan qadimgi Xorazm madaniyati yodgorliklarini o'rganish bilan birga Xorazm vohasidagi o'zbeklaring etnografiyasini ham tekshirdi. II jahon urushidan keyingi davrda ekspeditsiya tarkibida ikki o'zbek etnografiya otryadi tuzildi. Ular shimoliy o'zbeklar etnografiyasini va janubiy o'zbeklar etnografiyasini otryadi edi.

Xorazm ekspeditsiya O'zbekiston hududida yashovchi, lekin inqilobdan ilgari butunlay unutilib qo'ygan Qoraqalpoq xalqlarini o'rganish sohasida ham katta ishlar qildi. Ekspeditsiyaning Qoraqalpog'iston otryadiga atoqli etnograf T.A. Jdanko rahbarlik qildi. Bu olim qoraqalpoqlarning tarixiy etnografiyasiga bag'ishlangan ajoyib asar yozdi. Otryadda mahalliy etnograflardan S. Kamolov, Qusbergenov va Shelekenovlar ishtirok etdilar.

Atoqli tarixchi-etnograflar A.Yu. Yakubovskiy, A.A. Semyonov va P.P. Ivanovlar o'zbek xalqining kelib chiqishi va etnik tarkibi masalalariga o'zlarining chuqur mazmunli asarlarida keng o'rin bergenlar. Bu muhim masalalarni yoritishda R.G. Mukminova va B.A. Ahmedovlar ham ma'lum hissa qo'shganlar. Tarix va arxeologiya sohasida qilingan ilmiy ishlarda keng foydalangan. M.Vaxobov o'zbek xalqi etnografiyasiga oid asarni yaratdi.

Milliy masala har doim dolzarb bo'lib kelgan. Har bir xalqnig milliy shakllanishi, etnik umumiyligi va hususiyatlari, o'zaro yaqinlashuvi kabi masalalarni chuqur tushunish uchun ayrim etnografik guruhlarni har tomonlama o'rganish zarur. O'zbeklarning ayrim qabila va urug'larini tadqiq qilishda etnograflardan V.G. Mashkova, K.L.Zadixina, K.Shoniyozov, T.Fayzievlarning ilmiy ishlari diqqatga sazovordir.

O'zbekiston tarixiga oid ko'p tomli yirik ilmiy asarni etnografiyaga bag'ishlangan bo'limlari fanning so'nggi yutuqlari asosida mutaxassis tadqiqochilar tomonidan yozilgan «Jahon xalqlari» seriyasida bosilib chiqqan ikki tomli «O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari» nomli monumental ilmiy asar deyarli butun etnografik tadqiqotlarining yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan. Asarning «O'zbeklar» nomli bobini yozish va tahrir qilishda mahalliy etnograflardan O.A. Suxareva, M.A. Bekjonova, I. Jabborov va boshqalar qatnashgan.

O'zbek xalqining etnografiyasini o'rganish mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng yangi bosqichga ko'tarildi. Endilikda, o'zbek etnograflarni oldida insoniyatning porloq kelajagi bo'lgan yosh avlodni o'lka tarixiga e'tiborli va muhabbat nuqtai-nazarida bo'lish kabi his tuyg'ularni singdirish ma'suliyati turibdi.

6-Mavzu: Tarixiy o‘lkashunoslikda yozma va arxiv manbalarining ahamiyati. (4 soat)

Reja:

1. O‘lka tarixini o‘rganishda yozma manbalardan foydalanish.
2. O‘lkashunoslik fanini rivojlantirishda arxiv hujjatlarining roli.
3. Muassasa va davlat arxivlari.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivsi.

Tayanch so‘z va iboralar: Arxivshunoslik, arxiv ishi tarixi, yozma manba, yozma manbalarni turkumlash, arxiv hujjatlarini kataloglashtirish, arxeografiya arxiv hujjati, arxiv ro‘yxati, MDAF, DAF.

Adabiyotlar:

- 1.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birlashtirishda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. –T.; O‘zbekiston 2016.
- 2.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.; O‘zbekiston 2017.
- 3.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T. 1997.
- 4.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 2008 y.
- 5.Karamatov H. O‘zbekistonda moziy e’tiqodlar tarixi. 2009 y.
- 6.Nabiev A. Tarixiy o‘lkashunoslik. — T., 1996.
- 7.Ochildev F.B. Tarixiy o‘lkashunoslik. Toshkent. 2008 y
- 8.Vaxidov M.M., Mirzaev Sh.R. Me’morchilik. 1-qism. Me’morchilik tarixi.T., “Tafakkur”.-2010. y.
- 9.Jabborov I. M. O‘zbek xalqi etnografiyasi. — T., 1994.
- 10.Jabborov I. M. Jahon xalqlari etnografiyasi. - T., 1985.
- 11.Asanova G., Nabixanov M., Safarov I. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo‘g‘rofiyasi. — T., 1994.

1. O‘lka tarixini o‘rganishda yozma manbalardan foydalanish. O‘lka tarixini o‘rganishda yozma manbalarning o‘rni beqiyosdir. Yozma manbalar tarixiy manbalarning muhim va asosiy turidir. Insonning ijtimoiy faoliyati, aniqrog‘i kishilarining o‘zaro munosabatining natijasi o‘laror yaratilgan va o‘sha zamonlarda sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni o‘zida aks ettirgan manba sifatida o‘rtas (VI-XIX asrlar) tarixini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Yozma manbalar o‘z navbatida ikki turga bo‘linadi:

1. Oliy va mahalliy hukmdorlar mahkamasidan chiqqan rasmiy hujjatlar (yorliqlar, farmonlar, inoyatnomalar, moliyaviy-hisobot daftarlari, rasmiy yozishmalar). Bunday hujjatlarning 34 turini mutaxassislar aniqlaganlar.

2. Narrativ (*lotin. Narratio* - qissa, hikoya) yozma manbalar. Bunday manbalardan biz tarixiy, geografik va kosmografik, biografik, memuar asarlar, sayyoh va elchilar esdaliklarini ko‘rib chiqamiz.

Aksariyat yozma asarlar nasrda ijod etilgan. Ayrim tarixiy asarlar, jumladan, Abdulqosim Firdavsiyning «Shohnoma», Muhammad Solihning «Shayboniynoma» asari she’riy yo‘nalishda yozilgan.

Ijtimoiy-siyosiy, ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarga oid masalalarni o‘rganishda rasmiy hujjatlar, moliyaviy - hisobot daftarlari va yozishmalarning ahamiyati benihoya kattadir. Rasmiy hujjatlar ijtimoiy-siyosiy hayotni ma’lum yuridik shaklda bevosita va ko‘p hollarda aynan qayd etishi bilan qimmatlidir. Lekin ularning orasida, ayniqsa, rasmiy yozishmalarda sohtalari ham uchrab turadi. Shuning uchun ham ulardan foydalanilganda diqqat-e’tibor va ehtiyyotkorlik talab qilinadi. Hujjatlar ustida ish olib borganda, undan biron ijtimoiy-siyosiy voqealarni yoki faktni talqin etish uchun foydalanish jarayonida, bittasi bilan kifoyalanmasdan, o‘xshash bir necha hujjat, manbalarni qo‘shib o‘rganmoq

zarur, chunki bitta hujjatda faqat bir kelishuv yoki fakt ustida gap boradi. Shuning uchun faqat bir hujjat bilan ma'lum ijtimoiy-siyosiy masala ustida qat'iy fikr yuritib, umumlashtirib qat'iy xulosaga kelib bo'lmaydi.

Boy tarixni o'rganish va o'rgatish deganda, faqat yozma manbalarda mavjud ma'lumotlar to'g'risidagi bilim va tushunchalarni shunchaki mexanik tarzda talabalarga yetkazish emas, balki an'naviy va zamonaviy pedagogik usullarning eng qulay va samarali vositalaridan foydalangan holda, ularda manbalar to'g'risida tushuncha, bilim va ulardan foydalanish malakasini hosil qilish bilan birga, tariximiz to'g'risida mustaqil fikr yuritishga o'rgatishni ham tushunamiz.

Buning uchun esa, yurtimiz tarixini o'rganishda yozma manbalardan foydalanishning ilmiy va metodik asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga tavsiya etish tarix fanining eng muhim va dolzarb muammolaridan biridir. Bu masala juda keng qamrovli bo'lib, yozma manbalarning tadqiq etishni ilmiy metodik asoslarini chuqur o'rganib chiqishni taqozo etadi.

Yozma manbalarni talabalarga tushuntirishning bir necha prinsipi mavjud. Birinchisi maxsus kataloglardagi manbaning tavsif prinsipidir. XIX asr oxirida paydo bo'lgan Yevropa mamlakatlaridagi kataloglar ichida ingliz olimi Ch. Ryoning ko'p tomlik arab, fors va turkiy tillardagi kataloglaridagi yozma manbani tafsiflash prinsipi o'zining mukammalligi va puxta o'ylanganligi bilan alohida ajralib turadi. Quyida til prinsipi asosidagi Ch. Ryoning «Britaniya muzeyidagi turkiy kulyozmalar» (London, 1888, ingliz tilida) (Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum by Rieu Charles.-London: 1888. 432 p.) katalogidagi manba tavsifi prinsipini keltiramiz. Unda yozma manbaning muzeydagagi tartib rakami birinchi bo'lib sarlavxa o'rnda berilib, so'ngra qo'lyozmaning kodikologik xususiyatlari, varaqlar soni, o'lchami, saxifadagi satrlar soni, satr uzunligi, xati, ziynatlari alohida, ixcham tarzda berilgan. So'ngra asar nomi asl nusxada, ya'ni arab alifbosida va uning tarjimasi ajratilib berilgan. So'ngra muallif nomi va asarning boshlanishi va oxiridagi jumlalar aslida, arab alifbosida keltirilgan. Ana undan keyin muallif to'g'risidagi va asar tarkibi, mazmuni bayon etilib, tavsif oxirida asar tarixnavisligi ya'ni o'rganilishi to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.

Qator mavjud kataloglar asosida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti olimlari ham o'zlaricha qo'lyozma manbalarni ilmiy tafsifga olish usulini ishlab chiqqanlar va bu ilmiy usul D.Yu.Yusupova va R.P.Jalilovlar tomonidan tartib berilgan «Sobranie vostochnykh rukopisey AN RUz. Istorya» («Tarix») nomli katalogida foydalanilgan. Ushbu «Tarix» katalogida yozma manbaning quyidagicha tavsifi berilgan: Sarlavha sifatida asar nomi asl nusxada va uning tarjimasi, qo'lyozmaning xazinadagi tartib raqami va ushbu katalogdagi raqami keltirilgan. So'ngra asar muallifi nomi bilan asosiy tafsif boshlanadi. Undan keyin muallif to'g'risida (imkon darajasida to'liq), asar mazmunining tarkibi va qisqacha bayoni (annotatsiyasi) keltiriladi. Tavsif ixcham kodikologik ma'lumotlar-xati, qog'izi, ziynati, xattot nomi, qo'lyozmaning kitobat tarixi, nuqsoni, varaqlar soni, o'lchami va adabiyotlar (bibliografiya) nomlarini keltirish bilan tugallanadi.

Bulardan tashqari, o'lka tarixini o'rganishda yozma manbalarni tafsiflashning qomusiy yoki ensiklopedik prinsipi ham mavjud. Biz uning namunasini «O'zbekiston ensiklopediyasi» va «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» sahifalarida ko'rishimiz mumkin.

Mustaqillik davrida manbashunoslikka oid akademik B.A. Ahmedovning «O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari» (T.: O'qituvchi, 1991) va «O'zbekiston tarixi manbalari» (-T.: O'qituvchi, 2001) asarlari chop etildi. Olim manbalarning yozilgan tillariga qarab va yana huquqiy hujjatlar, yozishmalar, geografiya va kosmografiyaga oid asarlar, biografik, memuar asarlar, sayyohlarning, elchilarining esdaliklari mavjudligini qayd etadi.

B.A.Ahmedov yozma tarixiy manbalarni ikki turga bo'ladi: 1) Oliy va mahalliy hukmdorlar mahkamasidan chiqqan rasmiy hujjatlar (yorliqlar, farmonlar, inoyatnomalar va boshqalar). Ushbu

asarlarda yozma manbalar alohida emas, balki muallif nomi ostida keltirilgan. Bundan tashqari tarixchi har bir tarixiy davrga qisqa ta'rif bergan. Mazkur darsliklarning ijobiy xususiyati sifatida ularda daliliy ma'lumotlarni ko'pliligi, ilmiyligini qayd etish mumkin. Faqat ularda materiallar akademik nashrlar kabi joylashtirilgan va dars o'tish xususiyatlari inobatga olinmagan.

A. Habibullaevning «Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik» (T.: TDShI, 2000) qo'llanmasi va A.A. Madraimov tuzgan «Manbashunoslikdan ma'ruzalar majmuasi» (T.: TDPU, 2001)da yozma manbalar to'g'risida talabalarga ma'lumotlar berish dars jarayoni xususiyatlarini e'tiborga olishga harakat qilingan. Faqat A. Habibullaev qo'llanmasida adabiy manbashunoslikka katta e'tibor berilgan. Unda dars quyidagi tartibda tuzilgan: 1. Mavzu nomi. 2. Adabiyotlar. 3. Dars mazmunining qisqa izohi. So'ngra dars mazmuni bayoni, alohida atamalar va oxirida savollar berilgan.

A.A. Madraimov tuzgan ma'ruzalar matnida dars jarayonining tartibi quyidagichadir. 1. Mavzu nomi. 2. Dars rejasi. 3. Asosiy tushunchalar. 4. Darsning mufassal mazmuni. 5. Materialni mustahkamlash uchun savollar va oxirida adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Ushbu maxsus kataloglar va darsliklardan tashqari qo'lyozma kitob to'g'risida va sharq manbashunosligiga oid to'plam va kitoblar ham mavjud bo'lib, ulardagi muhim yozma manbalarning har biriga alohida e'tibor berilmagan. Lekin ularda eng muhimlari to'g'risida matn orasida ma'lumotlar keltiriladi hamda manbalarning umumiyligi xususiyatlari tadqiq etilgan. Zikr etilgan darslik va qo'llanma, maxsus adabiyotlarning barchasida o'ziga xos foydali ma'lumotlar mavjudligini tan olamiz. Lekin ularning birontasini ilmiy-metodik jihatdan talabalarga manbalar to'g'risida dars berish uchun mukammal namuna deb olish mumkin emas.

Mavjud ilmiy adabiyotlarning tahlili asosida yozma manbalar to'g'risidagi texnik ma'lumotlar va asar mazmuni talabalarga kompleks tarzda tushuntirishning eng samarali va ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqishga harakat qilindi.

Talabalarga manba to'g'risida kompleks tarzda ma'lumot berish kerak. Bu esa yozma manbaning kodikologik ma'lumotlar, muallif va uning yashagan davri, asar tarkibi va mazmuni tahlili, uning tarixnavisligini tushuntirishdan iboratdir. Darsning o'ziga xos xususiyatlari sifatida uning rejasi, mavzuga oid asosiy tushunchalar va qo'shimcha ko'rgazmali qurollardan foydalanishni qayd etish mumkin.

Xullas, bu asarlarda, ya'ni yozma manbalarda xukmron sinfning dunyoqarashi o'z ifodasini topgan, o'sha sinfning maqsad va manfaatlari ifoda etilganligi bilan ajralib turadi.

2. O'lkashunoslik fanini rivojlantirishda arxiv hujjatlarining roli. O'lka tarixini o'rganishda arxeologiya, etnografiya, yozma va moddiy madaniyat yodgorliklari bilan bir qatorda arxivshunoslik, ya'ni arxiv hujjatlaridan foydalanishning ahamiyati benihoya kattadir. Arxiv hujjatlarini qidirib topish, ular ustida ishslash va olingan ma'lumotlarni hayotga tadbiq etish bu juda murakkab ishdir.

Arxiv-lotincha «arxivium»-hukumat binosi so'zidan olingan. Lekin «arxiv» atamasining hozirgi qo'llanish ma'nosi butunlay boshqa. Arxiv-bu idoralar, korxona va tashkilotlar, shuningdek tarixiy shaxslar faoliyatiga oid hujjatlar saqlanadigan muassasa. O'rta Osiyoda arxiv yozuv bilan bir vaqtida paydo bo'lgan. 1948-1950 yillarda professor S.P. Tolstov qadimgi Tuproqqa'l'a xarobalaridan Xorazm shohlarining III va IV asr boshlariga oid qadimgi Xorazm tilida teriga yozilgan 150 ga yaqin hujjatlardan iborat arxiv qoldiqlarini topdi.

So'g'd yozma yodgorliklarining katta guruhi Panjikent shahri yaqinidagi Mug' tog'ida joylashgan qadimgi qasr harobasidan topilgan. Mug' tog'idan so'g'd arxiv deb ataluvchi bu majmua VII asr oxiri VIII asr boshlariga oid 80 ga yaqin noyob hujjatni o'z ichiga oladi. Bu hujjatlar so'g'd podsholigiga tobe bo'lgan panj hokimligi saroyiga tegishli edi. Panjikent hokimi Divashtich 722 yilda arab istilochilar bilan jangdan so'ng Mug' tog'idagi qasrga chekingan va saroy hujjatlarini shu yerga

keltirgan. Arablar mazkur qasrni shturm bilan olgach, uni vayron qilganlar, hujjatlar qasr harobalari ichida qolib ketgan. Ular 1932-1933 yillarda topilgan, hujjatlar jami 79 dona bo‘lib, 74 tasi so‘g‘d, 1 donasi arab, 3 donasi xitoy va 1 tasi turk tilidadir. Ular har xil materiallarga, charmga, taxtaga va qog‘ozga yozilgan. Mazkur hujjatlar so‘g‘dning VIII asrning birinchi choragidagi iqtisodiy-siyosiy va madaniy hayotini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Mug‘ tog‘ida topilgan hujjatlar A.A. Fermon, A.V. Vasilev, I.Yu. Krakovskiy, M.N. Bogolyubov, V.A. Livshits tomonidan o‘rganilgan, o‘zbek olimlaridan so‘g‘d hujjatlarini o‘rganish ularni targ‘ib qilishda t.f.d professor M. Ichqoqovning xizmatlari kattadir.

IX-X asrlarda Somoniylar davlatining poytaxti Buxoroda Abu Ali Ibn Sino foydalangan yirik arxiv kutubxona bo‘lgan. O‘rta Osiyoda arxiv ishi XI-XII asrlarda Qoraxoniylar davlatida, XII-XIII asrlarda Xorazm davlatida, XIII asrdan mo‘g‘illar hukumronligi, temuriylar va ashtarxoniyalar davrida ham mavjud edi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivsi va O‘zbekiston Sharqshunoslik instituti arxivida saqlanayotgan X-XX asrlarga oid vaqfnomalar va boshqa hujjatlar Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarning arxivlari bo‘lganligining guvohidir. To‘xtovsiz o‘zaro feodal urushlari, vayronagarchiliklari natijasida ko‘pgina arxiv hujjatlari yo‘q qilib yuborildi. Ayrim xonliklarda arxiv qoldiqlarigina saqlanib qolgan. Oktabr inqilobigacha Turkistonda davlat arxivsi bo‘lmagan, faqat idora arxivsi bo‘lib, tartibsiz holda, zax binolarda saqlangan. Bu arxiv hujjatlarining yoppasiga yo‘q bo‘lib ketishiga olib kelgan.

Arxivshunoslik ishlari ham faqat 1917 yildan keyin o‘z ravnaqini topdi. 20-yillardan boshlab, arxiv ishlariga katta e’tibor berildi. Hujjatlarni saqlash va ulardan har tomonlama foydalanish maqsadida xalq Komissarlari Sovetining 1918 yil 1 iyunda «Arxiv ishini qayta qurish va markazlashtirish haqida» deb nomlangan dekretiga asosan Moskvada Davlat arxivsi fondi (DAF) tashkil etildi.

Hozirgi vaqtida DAF tarkibiga to‘ntarishgacha bo‘lgan davr, to‘ntarishdan keyin barcha tashkilotlarning faoliyati, muassasalar va ayrim shaxslar shuningdek, tarixiy yozma yodgorliklar, huquq, san’at, adabiyot va hamdo‘stlik davlatlari xalqlarining maishiy ma’naviy madaniyati, kinofoto hujjat fondlari, kinofilm negativlari, fotosur’atlar, ularni to‘ldiruvchi pozitivlar, grammafon, patefon plastinkalari va yozib olingan ovoz materiallari, ilmiy tarixiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa narsalar: illustrasiyalar qo‘lyozma negativlar, shuningdek agitatsiya va propaganda maqsadida nashr qilingan, plakatlar, varaqlar, chaqiriqlar, e’lonlar, mikrofoto hujjatlar kiritilgan.

3. Muassasa va davlat arxivlari. O‘zbekiston Respublikasida juda ko‘p arxivlar mavjud bo‘lib, ularni shartli ravishda 2 guruhga bo‘lish mumkin: muassasa arxivlari va davlat arxivlari. Respublikamiz hududida faoliyat ko‘rsatayotgan markaziy va mahalliy boshqaruv organlari (vazrliklar, hokimiyatlar va boshqalar) turli tashkilotlar, korxona va jamoat tashkilotlari haqida joriy arxivlar mavjud, bunday arxivlar muassasa arxivlari deb ataladi. Muassasa arxivlarida hujjatlar ma’lum muddat saqlanadi. Shu boisdan bu arxivlarda saqlanayotgan hujjatlarning tarkibi o‘zgarib turadi. Belgilangan muddatdan so‘ng muassasa arxivlаридаги hujjatlar davlat arxivlari fondlariga topshiriladi. Hujjatlarning saqlanishi mazkur muassasalar faoliyati bilan bog‘liqidir.

Davlat arxivlari shaxobchalari respublikamizning ma’muriy tuzilishi nizomida tashkil qilingan. Respublika davlat arxivlari zimmasiga quyidagi arxivlar kiradi:

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va davlat arxivlari, hamda ularni joylardagi organlari.
2. Respublika Markaziy davlat arxivlari.

Hozirgi kunda Qoraqalpag‘iston Respublikasi Markaziy Davlat arxivsi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand, Surxandaryo, Sirdaryo, Toshkent, Farg‘ona, Xorazm viloyatlari Davlat arxivlari hamda Toshkent shahar Davlat arxivsi mavjud. Joylarda ularning filiallari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Farg‘ona viloyati Davlat arxivsi fondlari, Farg‘ona viloyat va

Farg‘ona shahar tarixini qisman bir vaqtlar Farg‘ona viloyati tarkibiga kirgan Andijon va Namangan viloyatlari tarixini aks ettiradi. Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlarida Farg‘ona viloyat davlat arxivining organlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Respublika Markaziy davlat arxivlari tizimiga quyidagi uchta arxiv kiradi.

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxiv.
2. O‘zbekiston Respublikasi kino-foto-fono hujjatlar Markaziy Davlat arxivi (1943 y.).
3. O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-texnikaviy va meditsina hujjatlari Markaziy Davlat arxivi (1962 y.).

Toshkentdagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi (O‘zR MDA) saqlanayotgan qimmatbaho hujjatlarning soni va mohiyati jihatidan O‘rta Osiyo respublikalari Markaziy Davlat arxivlari ichida eng yirigidir. Unda XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, to hozirgi kunimizgacha bo‘lgan juda ko‘p sonli hujjatlar saqlanmoqda.

Turkiston general-gubernatorligiga qarashli hozirgi O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston va qisman Qozog‘iston Respublikalari hududidagi viloyatlar, uezdlar, volostlar, muassasalar va korxona faoliyatiga doir barcha hujjatlar mana shu Markaziy arxivda mujassamlashtirilgan.

Arxivda Turkiston o‘lkasidagi Rossiya imperiyasi hukumatining ma’muriy tashkilotlar faoliyatiga doir hujjatlar to‘lig‘icha saqlangan. Bu hujjatlarning ko‘pchiligi chorizmning Turkistondagi mustamlakachilik siyosatiga oid bo‘lib, unda mahalliy aholini ayanchili ahvoli, chorizmning shafqatsiz zulmi, imperiya amaldorlarining xatti - harakatlari, joylarda xalq ommasining milliy ozodlik uchun olib borgan kurashlari, suvsizlik, qurg‘oqchilik, qashshoqlik va huquqsizlikka qarshi kurashlarga oiddir. Arxiv hujjatlari o‘sha davrda tartibli saqlanmagan.

O‘rta Osiyo xonliklari, bekliklari, diniy boshqarmalari faoliyatiga doir hujjatlar deyarli yo‘q bo‘lib ketgan. Ayrim mavjud materiallar esa, o‘lkani Rossiyaning bosib olish jarayonidagi harbiy to‘qnashuvlar davrida yo‘q qilib yuborilgan.

Akademik V.V. Bartoldning so‘zlariga qaraganda, bosib olingen joylardagi hokimlarning kutubxonalari va arxiv hujjatlarini saqlab qolish uchun hech qanday chora tadbir ko‘rilmagan. Umuman ular O‘rta Osiyo xalqlarining madaniyati va tarixiy yodgorliklarini saqlab qolishga yetarli ahamiyat bermaganlar. Tarixchi A.I. Dobrosmislovning yozishchiga, yerli arxiv ishlari nazoratsiz qolgan, faqat birgina general-gubernator kanselyariyasi arxivni ko‘ngildagidek olib borilgan, xolos.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, 1917 yilgacha arxiv ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan. Undan keyin saqlanib qolgan hujjatlar esa O‘zbekiston Markaziy davlat arxivining maxsus bo‘limlarida arxiv qoidasiga muvofiq saqlanmoqda.

XIX asrning boshlarida oldingi arxiv fondlari saqlanayotgan hujjatlar uchun tuzilayotgan ko‘rsatkich 8 bo‘limdan iborat. Ular:

1. Bo‘lim «Davlat ma’muriy boshqaruv organlari» deb ataladi.
2. «O‘z-o‘zini boshqarish tashkilotlari va oliy martabali muassasalar» deb nomlangan. Unda Toshkent shahar dumasi, shahar boshqarmasi, Samarqand va Yangi Marg‘ilon xo‘jalik boshqarmasi tashkilotlariga doir hujjatlar markaziy arxivning 718, 37, 472, 473, 277, 286, 79 fondlarida joylashgan.
3. Sud va prokuror fondlari. Bu bo‘lim o‘z navbatida 3 bobdan iborat, ya’ni viloyat sudlari, okrug sudlari va uezd sudlaridan iborat, sud ijrosi, janjalli ishlar komissiyasi, xalq sudlari, qozilar, notariuslar haqidagi hujjatlar (127, 134, 353, 178, 122) va xokazo fondlardan iborat.
4. Xo‘jalik-iqtisodiy tashkilotlar, muassasalar va korxonalar deb ataladi. 47 bobdan iborat.
5. «Ilmiy moddiy muassasa va tashkilotlar» deb nomlangan.
6. «Jamoat tashkilotlari» deb nomlangan va bu bo‘limga tegishli hujjatlar 596, 27, 81, 268, 611, 34, 8, 595, 76, 490, 279 fondlarida saqlanmoqda.

7. «Diniy nazorat» fondi deb nomlangan va bu haqidagi ma'lumotlar arxivning 182, 85 fondlarida saqlanmoqda.

8. «Kartoteka va adabiyotlar» ni tashkil etadi.

O'zbekiston Markaziy Davlat arxivida saqlanayotgan bu beba ho hujjatlar XIX asrning ikkinchi yarmida to XX asrning boshlarigacha bo'lgan O'rta Osiyo shu jumladan o'zbek xalqlari tarixini, ayniqsa o'lka tarixini o'rganishda katta manba bo'lib xizmat qiladi.

1931 yil 20 mayda O'zbekiston Markaziy Ijroiya qo'mitasining qaroriga asosan O'zbekiston SSR Markaziy Davlat arxivni tashkil etdi. O'sha paytgacha 20-30 yillarga doir hujjatlar O'zbekiston SSR Markaziy arxivni ishlari boshqarmasining har xil seksiylarida saqlanib kelinar edi.

1924 yili O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi o'tkazilishi munosabati bilan Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm sovet xalq Respublikalari tugatilib, ularning o'rnida O'zbekiston SSR tashkil topgach soha arxivlaridagi barcha hujjatlar O'zbekiston Markaziy Davlat arxiviga topshirildi va arxiv fondlari shu hujjatlar hisobiga boyitildi. Shundan so'ng O'zbekiston SSRning barcha tashkilotlaridagi hujjatlar muntazam ravishda Markaziy arxivga kela boshladi.

O'zbekiston SSR Ministrler Sovetining 1958 yil 20 noyabrdagi 750-sonli qaroriga asosan Markaziy Davlat arxivni qayta tuzilib, uning fondlari asosida o'lkani industrlash bo'limi tashkil qilindi. 1959 yilning 1 yanvariga kelib, bu bo'limdagi fondlar soni 1527 taga va undagi hujjatlar soni 503604 taga yetdi. Bu esa O'zbekistonda arxiv ishlarini nihoyatda rivojlanib ketayotganligidan darak beradi. Markaziy arxiv fondlaridan joy olgan bu hujjatlar faqat o'zbek xalqining tarixigina emas, balki turkman, tojik, qirg'iz, qozoq va boshqa qardosh xalqlar tarixini har tomonlama o'rganishda katta ahamiyatga egadir.

«O'zbekiston xalqlari tarixi»ning uch jildini yaratishda ham arxiv hujjatlaridan keng foydalanganlar. Nashrdan chiqqan ko'pgina yirik ilmiy ishlar shu arxiv hujjatlaridan foydalangan holda maydonga keldi. O'tgan davrda o'zbek xalqi erishgan yutuq va kamchiliklar haqida ma'lumotlar olishda arxiv materiallaridan juda ko'p foydalaniladi va yirik ilmiy ishlar qilindi.

Arxiv hujjatlardan foydalanishni osonlashtirish uchun «Ko'rsatkich» (Putevoditellar) nashr qilingan. Bular esa arxivda saqlanayotgan fondlarning ma'no va mazmunini ochib beradi, hujjatlarni o'rganuvchilarga qulaylik tug'diradi. Ko'rsatkich 8 bo'limidan iborat bo'lib, ular tarmoqlar va sohalarga moslashtirilgan. Har bir bo'lim va boblarda voqealar tartib bilan tafsivlangan va xronologiyaga asoslangan «Ko'rsatkich»da ayrim fondlarning ilmiy jihatdan muhimligini aks ettiruvchi individual xarakteristika 4 qismdan, ya'ni fondning nomi, fond haqidagi spravka-ma'lumotlar, fondning tashkil qilingan vaqt, va materiallarning saxifalari, fond materiallari haqida anotatsiya qismlardan iborat. Ma'lumotlardan fondning raqami, fondi saqlanayotgan ishning hajmi, hujjat yozilgan yil, ilmiy axborot apparatlarining hammasi ko'rsatkichga kiritilgan. Annotatsiyalar fond materiallarining asl mohiyatini, qisqacha mazmuni, faolligini ochib beradi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, respublikamizning hamma tumanlarida va viloyatlarida tuman va viloyat davlat arxivlari mavjud. Tuman arxivlari o'z qo'l ostidagi barcha muassasa va tashkilotlardagi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni yig'ib oladi va ma'lum muddatdan so'ng ularni viloyat davlat arxivlariga, ular esa o'z soha va tarmoqlari bo'yicha respublika arxivlariga yoki boshqarma yo vazirliklarga, ular ham o'z navbatida bir qancha muddat saqlanganlardan so'ng Markaziy davlat arxivning qonun-qoidalariga rioya qilgan holda hujjatlarni tayyorlab so'ng Markaziy Davlat arxiviga topshiradi O'zbekiston Markaziy Davlat arxividagi hujjatlar o'z ahamiyatiga qarab, bir umr yoki bir necha yil saqlanadi va yoki akt qilib qo'yib tashlanadi.

O'lkashunoslikning asosiy manbalaridan biri hisoblangan arxivshunoslik Vatan tarixini shu jumladan o'z o'lka tarixini har tomonlama va chuqur o'rganishda talabalarga katta yordam beradi.

Arxiv hujjatlari har bir darsning g'oyaviy siyosiy tomonlarini faktik materiallar bilan

boyitishdan tashqari, uning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi, yosh avlodni esa vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.

5-Mavzu:Toponimik manbalar o‘lka tarixini o‘rganishdagi ahamiyati. O‘lka tarixini o‘rganishda toponimik ma`lumotlarning o`rni va roli. (2 soat)

Reja:

1. Toponimika fani va uning mohiyati.
2. O‘zbekiston toponomikasiga oid atamalarning yozma manbalarda qayd etilishi.
3. O‘lka tarixini o‘rganishda toponimik material to‘plash va ulardan foydalanish.
4. Farg‘ona vodiysidagi qishloq shahar nomlarining kelib chiqish tarixini dars jarayonida o‘rganish.

Tayanch so‘z va iboralar: Toponomika, mikro toponomika, makro toponomika, toponomiya, toponom, topotermin, Marg‘ilon shahri toponomikasi, Farg‘ona shahri toponomikasi, Qo‘qon shahri toponomikasi, Farg‘ona vodiysidagi joy nomlari, Farg‘ona nomini ma’nosi, Andijon shahri toponomikasi.

Adabiyotlar:

- 1.Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. T.,1988.
- 2.Alimov I., Ergashev F., Butaev A. Arxivshunoslik. - T1997.
- 3.Rustamov M. O‘zbek etnografiyasi. — T., 1990.
- 4.Xujayov T. Qadimgi ajdodlarimiz qiyofasi. — T., 1992.
- 5.Xujayov T. Xujayova G. O‘zbek xalqining antropologiyasi vaetnik tarixi. — T., 1995.
- 6.Sagdullaev A.S. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda.T., 1996.
- 7.Sagdullaev A.S. Qadimgi O‘rta Osiyo tarixi. T., 2002.
- 8.Suleymanov R.X. Drevniy Naxshab. T., 2000.
- 9.Z.Choriev, T.Annaeva boshqalar. Al-Hakim At- Termiziy. 2008 y.
- 10.Tarixiy o‘lkashunoslik. O‘quv-uslubiy majmua. Universtitet. 2011.

1. Toponimika fani va uning mohiyati. Toponimika fani geografik nomlarning kelib chiqishini o‘rganadigan fan sifatida maydonga keldi. Toponimikani «Zamin tili» deb ataladi. Toponimik termin lotin tilidan olingan bo‘lib, «topon» joy «anoma» yoki «onima» umuman joy nomini o‘rganadigan fan degan ma’noni bildiradi. Geografik nomlar va zamin qarida o‘rganilmay yotgan nomlar insonlarga qo‘ylgan ismlar, toponimikani o‘rganish manbai hisoblanadi.

Toponimika ikki ob’ektdan: mikro va makro toponimikalardan iborat bo‘lib, mikro toponomika-grammatik jihatdan mayda, ob’ektlarni, ya’ni «turdosh otlarni», mikro ob’ektlarning nomlarni, makrotonomika esa atoqli otlarni, ya’ni yirik ob’ektlarning nomlarini tadqiq qiladi. Hozirgi vaqtida toponimika faqat katta va yirik ob’ektlarning tog‘lar, o‘rmonlar, vodiylar, vohalar, shaharlarning nomlarigina emas, balki kichik ob’ektlarning-mahallalar, daralar, jarliklar, anhorlar, daryo irmoqlari, ariqlar va ko‘llarning nomlarini ham o‘rganmoqda.

Toponimika fani – qanday ob’ektlarning nomlari ekanligiga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Gidronimlar-daryolar, soylar, ko‘llar, okeanlar, dengizlar, botqoqliklarning atoqli otlari;
2. Oronimlar-tog‘lar, cho‘qqilar, tepaliklar, daralar, jarlar, soyliklarning atoqli otlari;
3. Oykonimlar-shaharlar, qishloqlar, ovullar, xutorlar, va boshqa aholi punktlarini atoqli otlari.

Toponimikaning tilshunoslik, tarix, geografiya, arxeologiya va boshqa fanlarga aloqadorligi uning muhim hususiyatlaridir. Toponimikaga oid tekshirish natijalariga ayniqsa, arxeologiyaga oid tekshirish natijalariga suyangan holda ish ko‘rish zarur.

Geografik nomlar ijtimoiy xodisa bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti bilan mustahkam bog‘liqdir. Ma’lum bo‘lishicha, har bir tuman toponomikasi murakkab tarixiy jarayon bilan bog‘liq bo‘lib, yer

ostida ko‘plab madaniy qatlamlar mavjudligi uni sinchiklab tadqiq qilishni talab etadi. Toponimika metodologiyasiga muvofiq uni fan sifatida o‘rganish uchun toponimlarning paydo bo‘lishi doir ma’lumotlardan foydalanish, nomlarning mavjud bo‘lgan barcha formalarini aniqlash, nom va atamalarini o‘sha joy bilan bog‘liq holda tanlash va eng muhimlarini o‘rganish zarur.

Toponimik asoslarga vaqt, manbalar va yo‘nalishlar bo‘yicha joylarga aholini ko‘chishini o‘rganish kiradi. Toponimlar, aniq tarixiy jarayon bo‘lib, u aholining ko‘chishi, madaniy-iqtisodiy va til munosabatlari bilan vujudga keldi, so‘ng tarqala boshladi. Toponimika jamiyatning muomala vositasi bo‘lgan tilni, uning iqtisodiyotini, madaniyatini va tarixiy taraqqiyotini o‘rganish jarayonida o‘sib, rivojlanib boradi.

Toponimikada ham, moddiy va madaniy yodgorliklar o‘rganilganidek, oddiydan murakkabga ya’ni, bugungi kundan asrlar ichkarisiga kirib borish zarur. Bilimi murakkab dealektik jarayonidir. Chunki, bu usul bilan madaniy qatlamlarning eng qadimiysidan boshlab, to navqironigacha nomlarning manbai asta-sekinlik bilan ochiladi va nomlarning «yoshi» aniqlanadi. O‘z navbatida toponimik nomlar tarix uchun ham bebaho manbadir. Geografik nomlar uzoq muddatli bo‘lib, ma’lum hududdagi u yoki bu xalqning tili haqida guvohlik beradi.

Nomlar ma’lum bir aholining hamjihatligi yoki tarqoqligiga ham bog‘liqidir. Dialektologiyadan farqli o‘laroq, toponimikaga oid ma’lumot to‘plashda, joylarning nomlarini o‘rganishda aholidan yoppasiga so‘rash uslubi qo‘llaniladi. Faqat shunday uslub bilangina turli daralar kichik soy va anhorlar, jarliklar, ko‘llar va boshqa shunga aloqador bo‘lgan nomlarning miqdorini aniqlash mumkin xolos. Toponimikaning eng katta xizmati shundaki, u hujjatxona hujjatlarini sinchiklab o‘rganish, xalq og‘zaki ijodi asosidagi ayrim tomonlar va nihoyat hech qanday manbalarda aks ettirlgan noma’lum joylarni bizga ma’lum qiladi.

Toponimikaga oid ma’lumotlar yig‘ishda va joy nomlarining kelib chiqishini o‘rganishda etnografiya ham katta rol o‘ynaydi. Hozirgi vaqtida toponimistlar joy nomlarini faqat etimologik va semontik jihatidangina emas, balki so‘z yasalishi jihatidan ham tahlil qilmoqdalar.

Antropoponim kishining ismi, familiyasi, laqabani (Masalan: Mahmud Qoshg‘ariy, Munis Xorazmiy), antropoponimika kishi ismi, shahar, qishloq, ovul va shu kabi joylarning nomidan toponimlarni (Masalan: Toshkentboy, Qo‘qonboy) etnotoponim esa qabila urug‘-aymoq nomiga qo‘yilgan nomlarni (Masalan: qozoqboy, o‘zbekboy, qirg‘izboy).

Shunday qilib toponimika uch prinsipga asoslanadi:

1. Toponimlarni paydo bo‘lish tarixini o‘rganish;
2. Toponimlarni geografiyaga oid ma’lumotlarni aniqlash;
3. Asosiy qadrlanayotgan toponimlarning, barcha nomdagilarni ilmiy asosda alohida o‘rganib, xulosa chiqarish.

2. O‘zbekiston toponimikasiga oid atamalarning yozma manbalarda qayd etilishi. Geografik nomlarini, ularning kelib chiqishi va tarixi bilan bog‘liq holda o‘rganish, ularni klassifikatsiya qilish nisbatan yaqin vaqtarda boshlangan. Bu sohada atoqli toponimikachi A.X.Vostokovning xizmati kattadir. U Rossiyadagi daryo nomlarini, ularning oxirgi qo‘shimchalariga qarab guruhlarga bo‘ladi va bu qo‘shimchalar hozir biror ma’noni anglatmasa ham qadimgi xalqlar tilida ma’lum ma’noni bildirgan bo‘lsa kerak, deb to‘g‘ri xulosaga keladi. A.X.Vostokovning fikri XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ba’zi bir toponimikachilarining asarlarida o‘z rivojini topdi.

XX asr boshlarida toponimik tadqiqotlar ancha keng quloch yoydi. Ikkinci jahon urushidan oldingi davrda olimlardan A.I. Sobolevskiy, N.Ya. Marr, S.V. Veselovskiy, V.V. Bartold, V.P. Semyonov-Tyanshanskiy, V.G. Shostakovich toponimika sohasida ayniqsa samarali ishlar qildilar.

O‘rta Osiyo jumladan, O‘zbekiston toponimikasini o‘rganish sohasida V.V. Bartoldning xizmatlarini alohida qayd qilib o‘tish kerak. Bartold (Vasiliy Vladimirovich 1869-1930 yy.) rus

sharqshunosi, akademik (1913) Peterburg universiteti Sharq tillari fakultetini tamomlagan (1891). 1901 yilda professor unvonini olgan. 1910 yilda Fanlar Akademiyasining muxbir a'zosi qilib saylandi. Yaqin, O'rta Sharq, ayniqsa Markaziy Osiyo va Arab xalifaligi, islom tarixi, turk, mo'g'ul xalqlari tarixi, filologiyasi va etnografiyasi, Afg'oniston, Eron, Kavkazorti (Zakavkaze) va qisman Xitoy tarixiga oid asarlar yozgan. Uning nashr qilgan 685 asaridan, 320 tasi O'rta Osiyo tarixiga bag'ishlangan.

V.P. Semyonov-Tyanshanskiyning «Aholi punktlarining mahalliy nomlarida geografik manzara qanday aks etadi» asari toponomik jihatdan o'quvchida katta qiziqish uyg'otadi. Bu asarda muallif geografik nomlarning paydo bo'lishida tabiiy sharoitning ta'siri haqida yozgan.

Urushdan keyingi yillarda toponimika rivojida katta bir o'sish davri bo'ldi. Endilikda toponimika sohasida ayrim olimlargina emas, balki butun-butun olimlar jamoasi ish olib bormoqdalar.

Endilikda o'l kamizda toponimik tadqiqotlar avj oldirilmoqda. Toponomikaga, uning nazariyasiga doir ko'pgina asarlar yaratildi. Bir necha yosh olimlar ham toponimika sohasida samarali ishlar olib borilmoqda. Jumladan, T. Nafasov «Qashqadaryo toponimikasi», Sh. Qodirova «Toshkent mikrotoponimikasi», E. Begmatov esa antropontoponimika – kishi nomlarini o'rganish sohasida ish yuritishmoqdalar.

O'rta Osiyo jumladan, O'zbekiston toponimikasini o'rganish ham uzoq tarixga ega. O'zbekiston toponimikasini o'rganishda mashhur rus sharqshunos olimlari hamda tarixchilari: V.L. Vyatkin, N.F. Sityakovskiy, L.N. Sobolev, V.V. Bartold, S.P. Tolstov, P.P. Ivanov, M.Ye. Masson, O.A. Suxareva va boshqalar bu sohada juda katta ishlarni amalga oshirdilar.

Respublika joy nomlarining kelib chiqish tarixini va millat, qabila, ellat urug'-aymoq nomlarining kelib chiqish tarixini hamda geografiyaga oid atamalarni o'rganishda Ya.G'. G'ulomov, R.N. Nabiev, A.R. Muxammadjonov, F. Abdullaev, S. Ibrohimov, O'zbekistonda birinchi kartoteka tuzishda ishtirok etgan X.T. Zarifov; etnonimlar – E. Fozilov, geograflardan X. Xasanov, S. Qoriev kabilarning ishlari diqqatga sazovordir.

O'zbekistonda toponomikani rivojlantirishda X.X. Xasanovning (1919-1985) xizmatlari katta. Uning toponimikaga oid fikr, mulohaza va ma'lumotlari «O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan» (1965), «Geografik nomlar imlosi» (1962), «Yer tili» (1977), «Geografik nomlar siri» (1985) asarlarida va ko'pdan-ko'p maqolalarida o'z aksini topgan. Bu olimning toponomikaga oid kitoblarining ikkinchi qismi izohli lug'atlardan iborat bo'lib, bu mazkur asarlarning qiyimatini yana ham oshiradi.

O'zbekiston toponimlarini tadqiq etgan yana bir tadqiqotchi S. Qorievdir. Bu tadqiqotchi toponimlarning etimologiyasiga oid ancha ish qilgan. U toponimlarni, xususan etnotoponimlarni chuqur o'rgangan. Uning ilmiy xulosalari «Geografik nomlar ma'nosi» (1978), «Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi?» (1970), «Toshkent toponimlari» (1991) kitoblarida bayon etilgan.

3. O'lka tarixini o'rganishda toponomikaga oid ma'lumotlar to'plash va ulardan foydalanish. Toponomikani o'rganish ma'lumot to'plashdan boshlanadi. Bu ish odatda o'lakashunoslik bo'yicha tadqiqot olib borilayotgan maxalla, qishloq, ovul, hududlarida keyinchalik ma'muriy tuman hamda viloyat va nihoyat o'lka miqiyosida amalga oshiriladi.

Toponimik ma'lumot yig'ish ishini boshlashdan avval, ish rejasi va dasturini ishlab chiqarish zarur. Dalada tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida aholidan eshitgan hikoya, afsona, o'tmish haqidagi suhabatlarini hamda boshqa materiallarni muntazam yozib boradigan maxsus daftar bo'lishi shart. Shundan so'ng surishtirish va suhabat natijasida olingan ma'lumotlarni tadqiq qilishda toponimik toifalar bo'yicha maxsus kartotekalar tuziladi. Keyin shu asosda lug'atlar tuziladi. Tadqiq qilingan va to'plangan toponimik ma'lumotlar o'lakashunoslik muzeylarida aniqlanadi. Shuningdek, bu ma'lumotlar maxsus kutubxonalarda alohida bo'lim qilib saqlanadi.

Toponimik ma'lumotlar to'plash ko'pincha shu o'lka tarixini o'rganish ishi bilan parallel holda

olib boriladi. Turistik sayohatlarda va poxodlarda, ilmiy safarlarda qatnashgan, shuningdek, muzeylar, arxeologik yodgorliklar, tarkibiy obidalar va arxitektura yodgorliklariga borgan o'lkashunoslar arxeologik, etnografik ma'lumotlar bilan bir qatorda toponimik ma'lumot ham to'playdilar.

V.A. Nikonorovning «Vvedenie v toponimiku» (M.: 1965) asarida toponimika bo'yicha tadqiqotlar qanday olib borish, uni nimalardan va qachon qaerdan boshlanishining uslubi va usullari aniq ko'rsatib berilgan.

Toponimlardan nom olgan buyumlar, o'simliklar, hayvonlar shu qadar ko'pki, ba'zan hatto ularning etnomologiyasi to'g'risida o'ylab ham o'tirmaymiz. Qo'qon arava, Buxoroi qovun, Chust pichog'i kabi so'zlarda o'sha joy nomlari hamon esga kelishi mumkin.

Akademiya (Afrika yaqinidagi changalzor), Vulkan (Turrin dengizidagi Vulkano orol nomidan), Jersi (Normandiyadagi shahar), Kafe (Afrikadagi Kaffa o'lkasi nomidan), Olimpiada (Gresiyadagi eng baland Olimp tog'i nomidan) kabi so'zlar ham toponimlar guruhiga kiradi.

Toponimlar minerallar orasida ayniqsa ko'p uchraydi. Buni quyidagi misollardan ko'rish mumkin: avstralit mineral (Avstraliya) agat (o'zbek tilida ariq deyiladi) qimmatbaho tosh, alebastr-oq chips (Misrdagi Alebastr shahri va tog'i nomidan) tuya tuyunit-meniral (Farg'ona vodiysidagi tuya mo'yin koni).

Gazlamalarda ham toponim nomlar bor: Jersi-Normandiya, Fransiya qirg'og'i yaqinidagi Saropta degan nomdan kelib chiqqan.

Oziq-ovqat nomlari. Lag'mon (xitoycha) «lag» uzun, «man» xamir, uzun-xamir degan ma'noni bildiradi. Buterbrod (nemscha) «go'sht» va «non» yoki «non va yog» degan ma'nolarni bildiradi. Pirog – qoraqalpoqdalarda «burek», tatarlarda esa «cheburek» har ikkisida ham «go'shtli pirog» degan ma'no bor. Bu so'zning o'zagi «bur» o'ramoq, chulg'amoq ma'nolarini bildiruvchi fe'lidan yasalgan, ruscha so'zdan pirog so'zi shundan kelib chiqqan.

Suv bilan bog'liq nomlar (gidronimlar). Okean, dengiz, daryo, ko'l, muzlik, buloqlar nomlari gidronimlar deyiladi. Gidronimlar ham suvning xususiyatlariga ko'ra turlicha bo'ladi. Daryo, ko'l, buloq va quduqlar suvining rangi, sho'rligi, toza (tiniq)ligi, chuqurligi va boshqa xususiyatlariga qarab xar xil.

Yer osti suvlaridan, sizot suvlardan xosil bo'lgan daryolar Qorasuv, Qoradaryo deb, tog'lardagi qor va muzlardan suv oluvchi daryolar ko'pincha Oqdaryo deb, suvi tiniq, toza bo'lsa Ko'ksuv deb, loyqa suvli daryolar Sarisuv, Xuanxe (Sariq daryo) deb nom olgan. Tiniq va toza suvli ko'llar Oynako'l, Ko'kko'l, loyqa suvli bo'lsa Ayronko'l, sho'r bo'lsa Sho'rko'l, Achchiqko'l, Achchiko'l deb nomlanadi.

O'simliklarga bog'liq nomlar (fitonimlar). O'simliklarga bog'liq holda paydo bo'lgan joy nomlari mamlakatimizda xam, boshqa mamlakatlarda ham ko'p uchraydi. O'simliklar bilan bog'liq nomlar ba'zan aniq miqdorini bildiradi. O'rikzor, Bodomzor, Chilonzor, Terakzor, Qatortol nomlari o'sha joylarda shu tur o'simliklarning ko'p tarqaganligini bildirsa, Yakkatut, Qo'shchinor, Qo'shtut kabi nomlar bu tur o'simliklar kamligini bildiradi. Yong'oq, Ko'kterak, Toldiqo'rg'on, Bukovina, Beryozovka, Archaqishloq kabi nomlarda noaniqliklar bor. Shu joyda yong'oq littami yoki ko'pmi aniq emas. O'simliklar bilan bog'liq paydo bo'lgan nomlarga Yevropadagi Shvarsvald (qora o'rmon), Afrikadagi Drakon tog'lari (drakon-daraxt nomi), Amerikadagi Florida (o'simlik, ko'klamzor), Osiyodagi Kokos orollari nomlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. O'simliklar bilan bog'liq joy nomlari mikrotoponimlarda ayniqsa ko'p uchraydi. Toshkentdaggi Olmazor, Sebzor, Qoraqamish, O'rikzor, Bodomzor, Olchazor, Olchali, Qoratol, Yettiterak, Bog'ko'cha, Chilonzor shular jumlasidandir.

Hayvonlarning nomi bilan bog'liq joy nomlari (zoonimlar). Dunyo xaritasida hayvonlarga bog'liq holda vujudga kelgan nomlar ko'p uchraydi. Hozirgi vaqtida mavjud bo'lgan bunday nomlarni

taxlil qilish bilan qadimda ayrim xayvonlar tarqalgan joylarni ham aniqlash mumkin. Amudaryo bo‘yida Termiz yaqinidagi Maymunto‘qay, Toshkent viloyatidagi G‘azalkent (g‘izol-kiyik), Bog‘iston (aslida bug‘iston so‘zidan), So‘qoq (oq kiyik), Ilonlisoy, Kaptarxona, Kurkuldak (qush), Toshkent shahridagi Bo‘rijar, Qurbaqaobod va boshqalar mazkur joylarda qadimda shunday hayvonlar ko‘p bo‘lganidan dalolatdir.

Aholining kasb-xunaridan olingan nomlar. Kasb-hunar bilan bog‘liq xolda paydo bo‘lgan geografik nomlar o‘rta va ayniqsa kichik (mikro) toponimlar orasida ko‘p uchraydi. Moskva yaqinidagi Ximki shaharchasi, Sirdaryo viloyatidagi Paxtakor tumani, Qashqadaryodagi Chiroqchi, Dehqonobod shaharlari, Buxoro viloyatidagi Qoravulbozor shahri shular jumlasidandir. Toshkentda Egarchi, O‘qchi, Pichoqchilik, Zargarchilik, Choponbozor, Qalandarxona, Shifokorlar shaharchasi va boshqalar bor. O‘rda, Xonaqo, Mahkama, Qoziko‘cha kabi toponimlar ma’muriyatga tegishli tashkilotlar nomidan paydo bo‘lgan.

Shaxslarning ism-shariflari, taxalluslariga qo‘yilgan geografik nomlar (antroponimlar). Dunyo xaritasida bunday nomlar tilga kirganda sayyoh va geograflar, yangi yer ochuvchi, noma’lum o‘lkalarga borib, jonini garovga qo‘ygan tadqiqotchi olimlar, ularning qilgan ishlari, yozilgan asarlari, qaxromonliklari haqida ko‘p bilib olardik. Afsuski, xaritalar gapirmaydi. Lekin bunday toponimlarda ana shunday kishilarning nomlari mangu saqlanadi. Ana shuning uchun ham joy nomlarini o‘zgartirganda shu nomlar egalarining kimligini bilmasak, ko‘p shoshamsligimiz zarur. Dunyo xaritasidagi Kuk, Bering, Magellan, Kolumb, Gudzon, Livingston, Mikluxo-Maklay, Barens, Laptevlar, Bass, Flinders, Shokolskiy nomlari ana shunday nomlardandir. Jahon fani, madaniyati, ma’naviyati taraqqiyotida buyuk xissa qo‘shgan allomalarining, vatan ozodligi, mustaqilligi uchun kurashgan, jonini fido qilgan vatanparvarlarning nomlari ham joy nomlarida mangu saqlanadi. Bunday nomlarga Beruniy, Navoiy, Ulug‘bek, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Al-Farg‘oni, Forobi, Pushkin, Vashington, Jaloliddin Manguberdi kabi nomlarni kiritish mumkin.

Bulardan tashqari respublikamizning barcha ovul, qishloq, posyolka, vodiylari va vohalari hamda viloyatlari nomlari ham toponimlar bo‘lib ularning ko‘philigi hali to‘la o‘rganilmagan.

4. Farg‘ona vodiysidagi qishloq, shahar nomlarining kelib chiqish tarixini dars jarayonida o‘rganish. Ko‘pgina ko‘hna va yangi qishloqlar, tumanlar va shaharlarning nomlari shu joylarning o‘rtasi yoki yonidan oqib o‘tuvchi ariq, kanal, soy va daryolar nomini olganligi azaldan ma’lum. Masalan: Shahrixonsoy Farg‘ona vodiysining deyarli ko‘p qismi suv bilan ta’minlaydi.

Bu soy bir qancha shahar va tumanlarning ekin maydonlarini sug‘oradi. Ana shu ulkan soy sohilida qad ko‘targan shahar Shahrixon shu soy nomi bilan ataladi. Quvasoy ham shu vodiyning, xususan Farg‘ona viloyatining ko‘pgina tumanlarini sug‘oradigan suv arteriyalaridan biridir.

Bu soy sohilida bunyod etilgan shahar ham shu soy nomi bilan Quvasoy shahri deb nomlangan. Bunday toponim nomlar juda ko‘p bo‘lib, eng muqobil bo‘lgan ayrim nomlarinigina toponimikasiga to‘xtalib o‘tamiz:

Andijonning Andijon deb nomlanishi xuddi shahar tarixi singari moziyning eng olis qatlamriga borib taqaladi. Uning nima uchun bunday deb atalishi barchani birdek qiziqtirishi tabiiy, albatta. Keling, dastlab Andijon nomining kelib chiqishini asrlar osha tildan-tilga o‘tib kelgan afsona va rivoyatlar asosida ko‘rib chiqsak, so‘ng yozma manbalarga, tarixchi olimlarimizning ilmiy xulosalariga e’tiborni qaratsak.

Yuqorida aytganimizdek, xalq orasida Andijon atamasining kelib chiqishi bilan bog‘liq ko‘plab afsona va rivoyatlar mavjud. Ular turli davrlarda yaratilgan bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib, asl mohiyatini yo‘qota boshlagan. Ana shunday afsonalardan birida Andijon nomining kelib chiqishi afsonaviy Turon podshosi Afrosiyobga borib taqaladi. Uning og‘ir xastalangan qizi Odinajon Taxti Sulaymon etagidagi tog‘li vodiya kelib darddan xalos bo‘ladi. Qizining shifo topgani sharafiga

Afrosiyob O'sh soyining quyi oqimidaga ushbu mo'zikor go'shada o'rda barpo etib, atrofini bog'u-rog'lar bilan o'raydi. Odinajonni uzoq muddat bu diyorda qoldirgan Afrosiyob «Qoldi anda jonio mening» degan ekan. Keyinchalik Odinajon ismi xalq tilida Andijon atamasiga aylanib qolgan degan tushuncha mavjud.

Yana bir rivoyatda Andijon topominining kelib chiqishi qadimda bu yerda yashagan «And» qabilasi, ya'ni hindlar bilan bog'lansa, boshqa bir rivoyatda shahar nomi unga ilk poydevor qo'ygan shaxs-Andi ismidan kelib chiqqan deyiladi.

Turli davrlarda tarixchi olimlar, mutafakkirlar, geograflar tomonidan Andijon topomikasining kelib chiqishi bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, chorizmning O'rta Osiyoga qilgan xarbiy yurishlarida qatnashgan rus tarixchisi Vladimir Petrovich Nalivkin «Andijon» so'zi hozirgi shahar hududida yashagan «andi» qabilasi nomidan olingan deb ko'rsatadi. U «Andi» so'ziga «gon» qo'shimchasining qo'shilishi bilan «Andigon» yasalgan va keyinchalik bu Andijonga aylanib ketgan degan naqlni keltiradi. Biroq 92 ta o'zbek urug'i ro'yxatida «Andi» deb nomlangani uchramaydi.

Andijon ilk bor yozma manbalarda arab sayyoohlari Ibn Xavqal va Muqaddasiy asarlarida Andukan shaklida qayd etilgan. Jumladan X asrda yashab o'tgan arab geografi va sayyohi Ibn Havkal Andijon shahri to'g'risida shunda yozgan: «Dehqonchiligi rivojlangan shahar, iqtisodiy va siyosiy jihatdan ham rivojlangan, katta hunarmandlar shahri Andukan».

Demak, Andijon arab xalifaligi davrida Andukan deb atalgan. Andijon shahrining qadimiyligi va uning toponimi xususida Ibrat yuqorida qayd etilgan «Tarixi Farg'ona» asarida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: «Andijon avvalda Andigon bo'lib, arabiya olganda Andijon bo'lur, chunonchi, «qofi» forsiy arabda «jim» o'qilur. Mana, farangi lafzi arabda afranji, bangni banch. Kofi forsi arabda «j» bo'lib, Andigon arab lafzalarida Andijon bo'lgan bo'lsa kerak. Ozarboygon arabda Ozarbayjon yoziladur va o'qiladur. Shunga o'xshash Andijon lafzi asli Andigon bo'lsa kerak.»

Mashhur tarixchi, sharqshunos, akademik Vasiliy Vladimirovich Bartold ko'plab qo'lyozma asarlarni chuqur tahlil qilib Andijon haqida shunday yozadi: «XII asr oxiri - XIII asrda Farg'ona vodiysining yangi poytaxti Tuva va Haydu tomonidan bunyod etilgan Andijondir. Shahar arab geograflari tomonidan Andukan deb nomlanib... boshqa bir uyg'ur hujjatida Sulton Umarshayx davrida Andigan deb nomlangan».

Yana bir taniqli tarixchi olim A. Nabiev o'z tadqiqotlarida IV asrdan V asrgacha Andukan, XII asrdan to XIX asrgacha Andijon deb yuritiladi, degan xulosaga kelgan.

O'rta asrlar (IX-XVI) davri tarixini yorituvchi bir necha yozma manbalar bor. Shahar nomi X asrda keyingi yozma manbalarda «Andukan», «Andugan», «Andigan», «Andikan» ko'rinishlarida uchraydi. Andijon toponomikasi xususida ko'plab fikr va mulohazalar bor. Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'at ut-turk» asarida «Azg'ish(Adg'ish)» joy nomi deyilgan. Bularning barchasida «ad» o'zagi bo'lib, u «adoq», «azoq» ma'nosidagi o'zbeklarning 92 urug'idan birining qadimgi turkcha nomidan kelib chiqqan, deb yoziladi. Taniqli tilshunos olim, Andijon farzandi professor Sobirjon Ibroximov 1967 yili «Fan» nashriyotida chop etilgan «O'zbek tilining Andijon shevasi» (Fonetika va morfologiya) birinchilardan bo'lib Andijonning nomlanishini haqida shunday yozgan: «Mahmud Qoshg'ariy Qadimgi Farg'ona, jumladan, O'zgan shahrida yashovchi turkiy aholining etnik tarkibi chigillardan iboratligini yozganda O'zgand va unga yaqin Azg'ish shaharlarida arg'ular ham yashashlarini ko'rsatgan. U davrlarda O'zgandga yaqin shaharlar O'sh va Andugon edi. Azg'ishning O'sh bo'lishi mumkin emas. Shayxi Sulaymoni Buxoriy o'zning («Lug'oti chig'atoysi va turki usmoni») nomli lug'atida (1881 yil) Adoq so'ziga: «Turkistonda voqi' Andijon shahrining nomi qadimiysidir» deb izoh bergen. Professor S. Ibroximov shunday yozgan: «Toponomik nomlarda bunday fonetik o'zgarish ko'p uchraydi: Guruch mozor (asli Gurof nomli bir rus mutaxassisining qabri), Hakan (Xoqon), Jalavek (Jalolbek), Olamaydon (Alimaydon) kabi. Bular Andijon atrofidagi

qishloq, joy nomlaridir...» S.Ibroximov shunday yozadi: «Bunda Adoq bilan Azg‘ish, Adg‘ishning Ad o‘zaklari bir-biriga munosabatli ko‘rinadi. Shunga ko‘ra Mahmud Qoshg‘ariy aytgan Azg‘ish shahri Andijon (Andugon bo‘lmog‘i, A(n)dgon) A(n)di yoki A(n(du)gon o‘sha Az(Ad)g‘ishning fonetik varianti bo‘lishi mumkin.»

Oradan 26 yil o‘tib tarix fanlari nomzodi, Andijon davlat universiteti fahriy professori S.Jalilov 1993 yili «Bobur va Andijon» risolasida, 38 yil o‘tib esa 2005 yilda «XV-XVI asr boshlarida Farg‘ona va Andijon. Madaniyat va ma’naviy hayot» kitobida aynan S.Ibroximov fikrlarini takrorlagan. Masalan, S.Jalilov: «Shaharning Andijon yoki Andigon deb atalishi masalasiga qaytsak, bu atama qabila, urug‘ nomidan olinmay, balki boshqa biron qadimiyoq joyning yoki ma’lum kasbdagi kishilar guruxining nomi bo‘lishi mumkin, degan mulohazada jon bor» – deya shunday yozadi: «1881 yili Istanbul shahrida Shayx Sulaymon Afandi O‘zbakiy-Buxoriyning «Lug‘oti chig‘atoyi va turki usmoni» nomli lug‘ati nashr etilib, unda «Adoq» so‘ziga shunday ta’rif berilgan: «Adoq–Turkistonda voqe’ Andijon shahrining nomi qadimiysiadir».

So‘ng ushbu so‘z ta’rifiga quyidagi she’riy misol keltirilgan.

Yuz-ikki yuzcha kishi birla qazoq,

Ki biri Xorazm erdi, biri Adoq.

Mahmud Qoshg‘ariyning «Devoni lug‘atit turk» asarida «Azg‘iz»(yoki «Adg‘ish») joy nomiga izoh berilib, u O‘zganning g‘arb tomonida, deyiladi. Til tarixi tadqiqotchilar bu so‘zlarning barchasida bitta ad o‘zagi bo‘lib, u adoq, adg‘ish, azg‘ish ma’nosida urug‘ nomini bildirishini ma’lum qilishgan.

«Tuhfat at tavorixi xoni» nomli qo‘lyozma asarida keltirilgan 92 ta o‘zbek urug‘i ro‘yxatida azoq nomi bor. Ushbu urug‘larning Sergey Abramzon tuzgan ro‘yxatida esa adoq(azoq) deb berilgan. Tilning fonetik qoidasiga ko‘ra, so‘z talaffuz etilayotganda uning ayrim harflari o‘zgarishi, almashinib ketish xodisasi bor. Chunonchi;

adoq-azoq-ayoq,

azg‘in-arg‘in,

qadoq-qazoq,

quzuq-quduq kabi.

Shunga ko‘ra S.Jalilov fikricha, Andijonning hozirgi nomi aslida Andigon bo‘lib, ad o‘zagiga keyincha talaffuzda k va.n harfi qo‘shilgan. So‘ngra A(n)dgon yoki A(n)digon shakliga kelib qolgan. Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining mashhur «Devoni lug‘at ut-turk» asarida Andijon shahriga qadimda Alp El Arslon asos solgan, degan ma’lumotni keltirgan .

Endi e’tiboringizni O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi Abdulaxat Muhammadjonovning «Buyuk ipak yo‘li va «Farg‘ona» gidrotoponimining etimologi haqida»gi ilmiy maqolasiga qaratsak. Ushbu maqola olimning 2004 yili «Buyuk ipak yo‘li va Farg‘ona vodiysi» mavzuida o‘tkazilgan respublika ilmiy-amaliy anjumanida o‘qilgan ma’ruzasidan olingan bo‘lib, unda Farg‘ona shahri bilan bir qatorda Andijon toponimini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilib bergen. Agar yana tarixiy yozma manbaalarga murojaat qiladigan bo‘lsak, arab geograf olimi Ibn Havqal 977-78 yillarda yozgan «Kitob suratal-Ard (Yerning sur’ati kitobi)» kitobining «Mavarounnah» qismidagi «Farg‘ona viloyatlari» bo‘limida boshqa shaharlar bilan bir qatorda Andukan ham tilga olingan. Arab tilidan tarjima qilgan va izohlarni tuzib chiqqan professor Sh.S. Kamoliddinov Andukonni sharhlab va izohlاب shunday yozgan: Andukon–XII asrda qishloq sifatida qayd etilgan (as-Sam’oni 1:364; LACUT) So‘nggi asarlarida uning nomi Andijon (Bobur-name: 29,30,40,153,206;Mahmud ibn Vali), tangalarda esa Andikon yoki Andigon shaklida qayd etilgan (Shpeneva 1991: 207; To‘xtiev 2006:68). Bu shahar nomining ikkinchi qismi eroniy kon (gon) jon -»suv», «daryo» so‘zidan yasalgan. Uning birinchi qismi haqida bir nechta fikrlar aytilgan. Bir fikrga ko‘ra, u turkiy andi/andu etnonimidan (Obzor, 1901: 42:) Xasanov 1965: 43; Istorya 1980:7) yoki andi–»orol» so‘zidan yasalgan (Turg‘unov

1987: 130-136). Boshqa fikrga ko‘ra «do‘st tutunish», «aka-uka tutunish» (Ahmadaliev 1997:24) yoki «suv bo‘yidagi shahar» ma’nosini bildiradi (Muhammadjonov 2002: 23). Yana bir fikrga ko‘ra bu nom lug‘dcha—»hind» so‘zidan yasalgan bo‘lishi mumkin (Lure 2004:69). Bu shahar hozir ham o‘zining qadimgi nomini saqlab qolib, Andijon deb ataladi (Abdulg‘ozieva 1990: 91-96; Abdulgazieva, Abdullaev, Matboboev 2002: 4-12; Abdulg‘ozieva 1994: 28-29) u haqda yana qarang: al-idrisi; 707; Voroyekina 2002: 37; Bartold 1965: 326.

Zahriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» kitobida «Andijon» deb uch xil shaklda yozilgan. Ko‘rinib turibdiki, «Andijon» toponimi ikki o‘zakli so‘z bo‘lib, «Anda» so‘zi qadimgi turkmo‘g‘ul tilida «yaqin», «do‘st», «tutingan birodar» kabi ma’nolarni bildiradi. Keyingi bo‘g‘indagi «jon» leksemasi «daryo» yoki «soy» ma’nosini anglatadi.

Shunday qilib, soy bo‘yi ma’nosini anglatgan Andijon shahri qadimda «hindular» deb talqin etilgan «andi»lar tomonidan emas, Andijonsoy bo‘ylaridan suv chiqarib o‘z muzofotini obod etgan tub joy, andijonliklarning asriy mehnati bilan bino qilingan va Andijonsoy bo‘yi deb ma’nodor nom bilan ulug‘langan.

Jahon tamaddunida ulkan o‘rin egallagan «Buyuk ipak yo‘li» yo‘nalishidagi Andijon shahri qadimgi davrdan, bundan deyarli 2,5 ming yildan beri tarix sahnasida o‘z o‘rniga, boy va ko‘rkam o‘tmishiga ega bo‘lgan, kelajagi porloq va buyuk azim shahardir. U bilan o‘zini andijonlikman deb bilgan har bir inson har qancha fahrlansa, g‘ururlansa arziydi.

Farg‘ona-antik davr yunon olimlari bu viloyatdan deyarli bexabar qolganlar. Makedoniyalik Iskandarning Xo‘jandgacha kelgani aniq. Ammo undan Sharqqa Farg‘onaning ichiga o‘ta olmagan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, yunoncha kitoblarda qadimiy Farg‘onaning tavsifi yo‘q. U tomonda «Yaksart» orqasida alla qanday o‘troq aholi borligining qayd etilgan xolos. Faqat ilk o‘rtal asr adabiyotidagina Farg‘ona nomining ma’nosni shu choqqacha aniqlangan emas. Lekin bu haqida bir qancha izoh, tahlil va mulohazalar bor: Gerodotning yozishicha, qadim zamonlarda O‘rta Osiyoda Parikan nomli qabila bo‘lgan, sanskrit tilida parkana deb kichik viloyatga aytildi; parixona ya’ni «go‘zallar yurti» degan ma’nosni ham bor. Forscha parand (arabcha farand) – «shoyi», «ipak» so‘zlaridan kelib chiqqan (farandxona, ipakxona); qadimiy fors-tojikchada pargona – «tog‘ oralig‘idagi vodiyo» demakdir. Bu so‘zni mahalliy qabilalar o‘rganib olib, o‘z yurtlarini Farg‘ona deb atay boshlaganlar; Farg‘ona «Har xona» so‘zlaridan olingan ham deyiladi. Bu yerning yaxshilagini bilib, har joydan turli qavmlar ko‘chib kelgan, ekinzor barpo qilib, turg‘un bo‘lib qolgan. Xonadaonlari har joyda tillari ham har xil bo‘lgan. Ularni «Harxon» deganlar. Bu so‘zlar iste’molda Farg‘ona bo‘lib ketgan deydi Nojib Bakron (XIX asr boshlari) o‘zining «Jahonnoma» kitobida. Buni Yoqut Hamaviy boshqacharoq izohlaydi: har xonadan bittadan kishi ko‘chirilib keltirilgan, shundan «az har xona» (har xonadan) deyilgan, keyinchalik bu so‘z Farg‘ona bo‘lib qolgan, deydi u: Tojikiston tog‘lari (Turkiston, Zarafshon tizmalari) Falg‘or deb atalgan. Bu so‘zning «Tog‘ etagi» degan ma’nosni ham bor.

Shundan Farg‘ona nomi yasalgan deydi N.G.Malliskiy: parkana qadimgi tojik tilida «berk vodiyo» degan so‘z Pomirdagi rushon shevasida parkana deb «har tarafi tog‘, bir tomoni ochiq bo‘lgan vodiyo aytildi» deydi professor M.S.Andreev.

Zahiriddin Muhammad Bobur Farg‘ona viloyatini tasvirlar ekan M.S.Andreev aytgan rushoncha iborani o‘zbekcha bayon etgan: «Girdogirdi tog‘ voqe’ bo‘libtur. G‘arbiy tarafidan tog‘ yo‘qtur. Ushbu janubtin o‘zga hech jonibtin qish yog‘i kela olmas». (Boburnoma).

Antik davr tarixchilarining ma’lumotlariga ko‘ra, parfiyaliklar (Janubiy Turkmaniston) bir zamonlar skiflar orasidan quvilgan qabila edilar, parf so‘zi skiflar «quvilgan kishilar demakdir... ularning kiyimi tiniq (ipak) va burmalardir... ko‘pgina ot minib yuradilar... prafiliyaliklarning birdan bir kuchli otliq askarlardir».

Davan (Parkana) bilan Ansi (Parfiya) shevalari o‘rtasida ancha farq bo‘lmasada, ularning tili

xiyla o‘xshash va ular gaplashganda bir-birini tushunadilar. Parf qabilasining ko‘p xususiyatlari Farg‘onada ham bor: yaxshi otlar, ipak kiyimli, til o‘xshashligi. «Farg‘ona» nomi parfiyona-Parfona-Farg‘ona tarnsforamatsiyasi bo‘lmanligini, degan fikr ham hayolga keldai.

Ammo yuqoridagi 10 ta izohning birortasini ham qat’iy deb aytala olmaymiz. Faqat shunisi aniqliki, bu viloyatning eng dastlabki nomi Farg‘ona yoki parfona bo‘lganligini yirik Sharqshunos V.A. Livnits isbotlab bergen.

Namangan-Farg‘ona vodiysining go‘zal shaharlaridan biri. Namangan soy, Yangi ariq va Shimoliy Farg‘ona kanalidan suv ichadi. Namangan haqidagi dastlabki ma’lumotlar Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» kitobida tilga olinadi. Namangan qishlog‘i «tuz koniga» yaqinligidan «Namak kon» deb atalgan. Keyinchalik bu nom o‘zgarib Namangan bo‘lib ketgan. Novmakon (yangi joy) degan rivoyat ham bor.

Shaharning vujudga kelishiga qadimgi Axsikent shahridan ko‘chib kelgan aholi ham ta’sir qilgan bo‘lsa kerak. Axsikent shahri Namangan yaqinida Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida bo‘lgan. U 1620 yilgi zilziladan yakson bo‘lib ketgan. Namangan shahrining rivojlanishida Norin daryosidan 1819-1822 yillarda o‘tkazilgan Yangi ariq kanali katta rol o‘ynaydi. Bu yerda hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanadi. 1842-1845 yillarda shahar yangi devor bilan o‘raladi. Farg‘ona viloyati tuzilgach, Namangan uning uezd shaharlaridan biri bo‘lib qoldi. 1877 yili yangi shahar qurilishi boshlanadi. Bu yerda dastlab Andijon va Farg‘ona shaharlaridagi singari qo‘rg‘on qurilgan, yangi shahar uchastkasida harbiy mashqlar o‘tkaziladigan maydon shahar bog‘i va bozor uchun joy ajratilgan.

1894-1895 yillarda shahar aholisi 60 ming kishidan ko‘proq bo‘lgan. XX asr boshlarida Namangan temir yo‘l orqali Qo‘qon bilan bog‘lanadi. Shundan keyin paxta va yog‘ zavodlari paydo bo‘ladi.

Qo‘qon - bu so‘zning etimologiyasi haqida ham turli - tuman ma’lumotlar bor. Aytishlaricha shahar joylashgan hudud botqoqlik, qamishzorlardan iborat bo‘lgan va u yerlarda ho‘k (yovvoyi cho‘chqa)lar juda ko‘p bo‘lgan. Shuning uchun u yerlarni cho‘chqalar ya’ni to‘ng‘izlar makoni-xo‘kkon deb atashgan. Keyinchalik bu so‘z Qo‘qon deyilgan. Ammo bu sohtadir. Akademik Kononov «Ho‘» so‘zi «shamol» ma’nosida keladi va Qo‘qon (Xo‘kand) «Shamol shahri», yershish ma’nosida bo‘lishi mumkin deb ta’kidlaydi.

Dastlab «Hudud ul olam»da Xo‘kan, Xuvakand-xalq zich yashaydigan shaharcha deyilgan. Ibn Havqal Muqaddasiy asarlarida Xo‘kand (Xuvakand) shakllarida qayd qilingan. «Boburnoma» da Xo‘qon viloyati deb tilga olingan. Hozirgi Qo‘qon shahri tarixiy Xo‘kand o‘rnida XVIII asrda o‘zbeklarning ming urug‘ boshlig‘i Shohruxbiy tomonidan barpo etilgan. V.V.Bartold shahar nomini adabiy jihatdan shakli Xo‘kand bo‘lib, Qo‘qon jonli tilda talaffuz etilishidir deb hisoblaydi. Yuqoridagi olimlarning turli izohlaridan qat’iy nazar hozirgi kunga qadar Qo‘qon so‘zining etimologiyasi ilmiy asosda o‘rganilgan emas.

7-Mavzu: Muzeylarning o‘quv-tarbiyaviy ishlarda tutgan o‘rni. (2 soat)

Reja:

1. O‘zbekiston muzeylarida o‘zbek xalqi tarixini yoritilishi.
2. Andijon viloyati adabiyot va san’at, o‘lkashunoslik muzeyi eksponatlarida o‘lka tarixini aks ettirilishi.
3. Mustaqillik yillarida o‘lka tarixini o‘rganishda muzeylar va muzey ishi.
4. Tarixiy o‘lkashunoslikda muktab muzeyi va uning o‘rni. Muktab muzeyi sohasini tanlash.

Tayanch so‘z va iboralar: Muzey, muzey ishi, muzey fondi, muzey eksponati, ko‘rgazma materiallari, Davlat muzey fondi, muzey predmetini o‘rganish, muzeyshunoslik tadqiqoti, IKOM,

o‘zbek muzey, maktab muzeyi.

Adabiyotlar:

- 1.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. –T.; O‘zbekiston 2016.
- 2.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.; O‘zbekiston 2017.
- 3.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T. 1997.
- 4.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 2008 y.
- 5.Karamatov H. O‘zbekistonda moziy e’tiqodlar tarixi. 2009 y.
- 6.Nabiev A. Tarixiy o‘lkashunoslik. — T., 1996.
- 7.Ochildev F.B. Tarixiy o‘lkashunoslik. Toshkent. 2008 y
- 8.Vaxidov M.M., Mirzaev Sh.R. Me’morchilik. 1-qism. Me’morchilik tarixi.T., “Tafakkur”.-2010. y.

1.O‘zbekiston muzeylarida o‘zbek xalqi tarixini yoritilishi. Tarixiy o‘lkashunoslik manbalari orasida haqiqiy ilmiy va madaniy oqartuv muassasaga aylanib qolgan muzeyning o‘rni va ahamiyati benihoyat kattadir. O‘lkashunoslik moddiy va ma’naviy, madaniy yodgorliklarni arxeologik tomonidan materiallarini yig‘adi, ularni tahlil qiladi va natijalarini ekspeditsiya jihatidan ommalashtiradi.

Muzey-yunoncha museion-muzalarga bag‘ishlangan joy, tarixiy moddiy va ma’naviy yodgorliklarni to‘plash, saqlash, o‘rganish va tashviq qilish ishlarni bajaruvchi ilmiy, ilmiy-ma’rifiy muassasalardir.

Siyosiy, ilmiy, madaniy, iqtisodiy ehtiyojlarni qondiruvchi muzeyning paydo bo‘lish tarixi uzoq qadimga borib taqaladi. Muzeyning o‘tmishdoshlari tabiat va ijtimoiy hayotdan olingan asl buyumlarni xo‘jalik maqsadlarida va moddiy boylik sifatida emas, balki memorial guvohnoma va estetik qimmatli asl narsalar sifatida saqlana boshlagan davrda yuzaga kelgan. Kritdag Knos saroy xazinasi (mil. avv. XVI asr), Vanlar saroyi va ink kohinlarining arxivi (mil. avv. XIII – XII asrlar, Xitoy), Nineviya saroy kutubxonasi (mil. avv. I-ming yillik) va boshqalar shular jumlasidandir. Qadimdan ibodatxona, keyinroq xususiy to‘plamlarda (mil. avv. III asrdan) asosan san’at asarlari jamlangan (Varres, Sulla galereyaları, Serviliy, Krass, Lukull, Pompey, sezar va boshqa to‘plamlari). Vizantiya sobor va monastirlarida, keyinroq Fransiya. Italiya, Germaniya va boshqa mamlakatlar soborlarida turli xil to‘plamlar saqlangan. Yevropada ilmiy vazifalar yuklatilgan. Muzeyning paydo bo‘lishi buyuk geografik kashfiyotlar amalga oshayotgan davr - Uyg‘onish davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda hayvonot va o‘simgilik dunyosi namunalari minerallar, geodeziya va astronomiya asboblari, etnografik ahamiyatga ega narsalar jamlangan. Tabiiy, ilmiy, etnografik va tarixiy-badiiy noyob narsalar jamlangan saroy to‘plamlari (kunstkameralar, myuns-kabinetlar va boshqalar) shuhrat qozongan. Dastlab muzey va ular haqidagi dastlabki tavsiflar shuningdek, muzeishunoslik haqidagi nazariy asarlar ham shu davrda paydo bo‘ldi. Florensiya (L. Medichi. XV asr), Rim (Vatikan muzeyi, XVI asr), Dresden (Avgust Saksonski, XVI asr) va boshqa joylardagi antik davr yodgorliklari to‘plamlari shu davrga mansub. Londondagi Britaniya muzeyi (1753), Parijdagi Luvr muzeyi (1793), G‘arbiy Yevropadagi ilk ommaviy muzeylar, Jahondagi yirik muzeylar, asosan XIX paydo bo‘ldi. Madriddagi Prado muzeyi (1890, Moskvadagi tarix muzeyi (1873), Leningraddagi hozirda Sank-Peterburg Ermitaj (1852), Nyu-Yorkdagi Metropolitik muzey (1870) shular jumlasidandir.

O‘zbekistonda muzeylar XIX-asrning II-yarmida tashkil etila boshlagan. XX-asr boshida O‘zbekistonda faqat 3 muzey - Toshkent o‘lkashunoslik muzeyi (1876 yil, hozirgi O‘zbekiston tarixi muzeyi). Samarkand xalq muzeyi (1896, hozirgi A. Ikromov nomidagi O‘zbekiston xalqlari madaniyati va sanati tarixi muzeyi). Farg‘ona xalq muzeyi (1899, hozirgi Farg‘ona viloyat o‘lkashunoslik muzeyi)

bor edi. Ularning kolleksiyalari ham, ekspozitsiyalarining ko‘pi tasodify materiallardan tashkil topgan.

1975 yil sobiq O‘zSSR da 34 davlat muzeyi, 60 dan ortiq xalq muzeylari ish olib borgan. O‘zbekiston madaniyat va san’at tarixi Respublika muzeyi (1955) deb nomlangan muzeyga 1968 yilda Akmal Ikromov nomi berildi. Muzeyda o‘zbek xalqini eng qadimgi davrdan to hozirgi kungacha bo‘lgan madaniyati haqida hikoya qiluvchi nodir eksponatlar bor.

O‘rta Osiyoda ilk tashkil etilgan badiiy muzey 1888 yil aprel oyida ochilib, Toshkentda yashagan Knyaz N.K. Romanovning saroyidagi shaxsiy kolleksiyasi asosida vujudga keldi. Dastlab xalq universiteti muzeyi, keyinroq Toshkent markaziy badiiy muzeyi deb nomlangan. Muzey fondini katta qismini O‘zbekiston tasviriy san’ati asarlari tashkil qiladi. Shuningdek, muzeyda Rossiya, Italiya, Ispaniya, Germaniya, Niderlandiya, Finlyandiya, Gollandiya, Fransiya, Angliya rassomlik san’ati asarlari, haykaltaroshlik, grafika, amaliy san’at namunalari qatorida Sharq san’at (Hind, Yapon, Xitoy, Vietnam) namunalari bor.

O‘zbekiston tabiat muzeyi 1876 yil 12 iyulda ochilgan. 1918 qadar Toshkent muzeyi, 1921 yilgacha Turkiston xalq muzeyi, 1922 yilgacha O‘rta Osiyo muzeyi, 1935 yilgacha O‘rta Osiyo tabiat muzeyi deb ataldi. 1935 yil iyundan hozirgi nomi bilan ataladi. Zoologiya, botanika, geologiya va madaniy oqartuv bo‘limlari bor. Muzeyda 400 mingdan ortiq eksponat saqlanadi. 1979 yildan muzey o‘lkashunoslik va muzeyshunoslik masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi.

Respublikamiz hududida 3 turdagи muzeylar mavjud bo‘lib, birinchi turdagи muzeylarga ilmiy tadqiqot va madaniy ma’rifiy ishlarni olib boradigan muzeylar kiradi. Ular bir vaqtни o‘zida ilmiy tadqiqot va madaniy va ma’rifiy hamda ta’lim-tarbiyaviy ishlarni olib boradi.

Ikkinchи turdagи muzeylarga faqat bir soha bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib boradigan muzey laboratoriyaliga ega bo‘lgan maxsus muzeylar (Masalan, O‘zR Fanlar Akademiyasi qoshidagi bakterologiya va mineralogiya muzeyi) kiradi. Bunday muzeylar tarmoq muzeylari deb ataladi.

Uchinchi turdagи muzeylarga faqat o‘quv turidagi yoki bo‘lmasa me’morial muzeylar kiradi. Me’morial muzeylar, muhim tarixiy voqealar, atoqli arboblarga bag‘ishlanadi.

Muzey turlari ko‘p jihatdan unda saqlanayotgan kolleksiya fondlarining xarakteriga va faoliyatining yo‘nalishiga bog‘liqdir.

Muzey faoliyati, ishi muzey fondi asosida yuritiladi. Bu ishning amalga oshirish va qimmati muzey xodimlarining manba to‘g‘risidagi bilimlarini, manbaning madaniy qimmati, xissiy ta’siri, tarixiy jarayoni haqidagi ma’lumotlarni aniqlash va oydinlashtirish yo‘lidagi sa’yi harakatlari bilan belgilanadi. Manbani sotib olish, saqlash, tadqik etish, uni ilmiy va ta’lim-tarbiya ishiga tadbiq etish esa yanada muxim vazifa hisoblanadi. Muzey fondi o‘tmishi, hozirgi zamon va kelajakni bog‘lovchi, uygunlashtiruvchi manbadir. Muzey fondining arxiv va kutubxona fondlaridan farqi shundaki, u tarixiy jarayonni kompleks hujjatlashtiradi. Muzey uchun ma’lumotning hajmi va mundarijasi, predmetning joylashishigina predmetning tabiat, uning qaysi maqsadda qachon va qanday yig‘ilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar xam muximdir. Predmetning tabiatiga, uning ma’lumot berish imkoniyatiga ko‘ra tarixiy manbalar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- a) moddiy manbalar;
- b) tasviriy manbalar;
- v) yozma manbalar;
- g) fonooyozuv va kinofilmlar.

Moddiy manbalarga moddiy madaniy yodgorliklar, mehnat qurollari, harakatlantirish moslamalari, maishiy predmetlar, qurollar v.b.lar kiradi. Moddiy manbalar faqat predmetning tarkibidangina ma’lumot bermay, uning shakli, qurilishi, o‘lchovi, og‘irligi, rangi v.b.lar

haqida ma'lumot beradi. Ular yana o'sha davr tarixiy jarayon, madaniyati, ilmiy yutuqlar haqida xam ma'lum ma'noda tasavvur xosil qiladi. Moddiy manbalar mavxum tushuncha emas, balki aniq tushunchalar xosil qilish imkoniyatini beradi.

Tasviriy manbalar turli buyoq, figura, belgi v.b. narsalar vositasida yaratilib, ular musavvirlik ishlari, grafika, haykaltaroshlik, badiiy plakatlar va fotografiya mahsulotlari kiradi. Bu tasviriy manbalar voqealar haqida, portretda aks etgan shaxslar haqida, plan va kartalar esa aniq geometrik shakl, o'lchov hamda geografik joylashuv haqida ilmiy ma'lumotlar beradi.

Yozma manbalar so'z va belgilar yordamida ma'lumot berib, ularga yilnomalar (letopis), solnomalar, qonunlar majmui, siyosiy partiyalar hujjatlari, statistika materiallari, ilmiy ishlar, adabiyotlar, publitsistik asarlar, nodir kitoblar v.b.lar kiradi. Yozma manbalar turfa va keng ma'lumot berish imkoniyatiga ega. Ularni 3 guruxga bulib o'rganiladi:

- a) ilmiy va ish yuritish haqida ma'lumot beruvchi(qonunlar, siyosiy va statistik hujjatlar, ilmiy izlanishlar);
- b) estetik manbalar (badiiy adabiyotlar);
- v) umumiyl ma'lumot beruvchi manbalar (publitsistik asarlar, memuarlar, yilnomalar va solnomalar).

Fonoyozuv va kinofilmlar muzey predmetlari orasida muxim o'rinn tutadi. Fonoyozuvlarda musika, ma'lum shaxsning nutqi, qurilish ishi shovqini, o'qishdagi ma'lum talaffuz yoki san'atkorlarning ijro etgan kuylari aks etgan bo'lishi mumkin. Kinofilmlar ovozli va ovozsiz bo'lishi mumkin. Fonoyozuv va kinofilmlar muzey fondining maxsus, sermaxsul guruxi xisoblanadi.

Shuningdek, turli fan sohalariga bo'lingan muzeylar ham bor. Bu muzeylar orasida ko'proq ma'lum bo'lganlari yoki faqat o'sha soha mutaxassislarigagina ravshan bo'lgan ma'lum tarmoqni aks ettiruvchi muzeylar ham mavjud. Masalan, Toshkentdag'i Oybek nomli O'zbekiston tarixi muzeyini, tasviriy san'at muzeyini, Alisher Navoiy nomli adabiyot muzeyini, Turkiston Harbiy Okrugi muzeyini, tabiatshunoslik muzeyini ko'pchilik yaxshi biladi. Ammo arxeologiya, etnografiya, harbiy-tarixiy, me'morial, regional, san'atshunoslik, texnik muzeylarni ko'proq o'sha soha mutaxassislar biladilar. Bulardan tashqari yana Toshkentda murakkab va kompleks sohali muzeylar ham mavjud. Toshkentdag'i mavjud muzeylar o'zbek va boshqa qardosh xalqlar tomonidan tashkil etilgan turlituman sohalarning uzoq o'tmishidan to hozirgi kunga qadar bo'lgan rivojlanishni ko'rsatish bilan bir qatorda, O'rta Osiyo xalqlarining, shu jumladan o'zbek xalqining ibtidoiy jamoa, o'rta asrlar davridagi hamda 1917 yilgacha bo'lgan davrdagi hayot yo'lini aks ettiruvchi eksponatlar bilan birga to'ntarishdan keyingi Turkistonda Sho'rolar hokimiyatini o'rnatilishiga doir fuqarolar urushi xalq xo'jaligini qayta tiklash, mamlakatda elektrlashtirish rejasini amalga oshirilishga doir materiallar ham muzey eksponatlari ichida joy olgan.

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek nomidagi O'zbekiston tarixi muzeyi Turkistonning mashhur olimlari va jamoat arboblarining harakati bilan 1876 yilda birinchi bo'lib tashkil etilgan. Bizga ma'lumki, XIX asrda osori atiqalar ustida arxeologik kuzatishlar, qidiruv ishlari olib borilgan. Bu sohada P.I. Lerx, N.I. Veselovskiy, V.A. Jukovskiy, V.V. Bartold, M.S. Andreev, V.L. Vyatkin, A.A. Divaev, A.A. Zimin, V.A. Kallaur, A.M. Kun, N.P. Ostroumov to'plagan materiallari, O'zbekistonning qadimiy yodgorliklarini hisobga olib, ta'riflash va tekshirish ilmiy muassasalari, imperator arxeologiya komissiyasi, Rus arxeologiya jamiyatining Sharq bo'limi, shuningdek 1903 yilning aprel oyida tashkil qilingan O'rta va Sharqiy Osiyo tarixiy arxeologiyasi, lingvistika va etnografiya jamiyatlarining qimmatbaho materiallari hamda rus havaskor kolleksiyanerlari Barshcheveskiy, Vyatkin, Dobrosmislov, Kostalskiy, Komarov va boshqalar to'plagan ko'pdan-ko'p

ajoyib materiallari bu muzeyning asosiy fondlarini tashkil etadi. Muzeyni tashkil etishda Fedchenko faol ishtirok etgan. U tibbiyot, antropologiya va etnografiyaga oid materiallar to‘plagan. Bu materiallar dastlabki eksponat sifatida muzeyga qo‘yilgan. Fedchenko vafotidan so‘ng uning ishini Mushketov, Sversev, V.F.Oshanin kabi rus olimlari davom ettirib, o‘zlarini munosib hissalarini qo‘shdilar. Birinchi mahalliy arxeolog Akrom polvon Asqarovni xizmatlari ham katta bo‘ldi. Umuman bu muzeyni ochilishi, o‘lka madaniy hayotida muhim voqeа bo‘ldi. Muzey eksponatlari xalqaro ko‘rgazmalarida namoyish qilindi, unda tuzilgan kataloglar esa hozirgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

1920 yillardan keyin bu muzey haqiqiy ilmiy, madaniy va ma’rifiy muassasaga aylanib qoldi. Muzey fondi respublikaning hamma viloyatlariga yuborib turiladigan arxeologiya, etnografiya ilmiy safarlarining materiallari bilan doimiy ravishda boyitib beriladi.

Hozirgi vaqtida muzeyda 50 mingdan ortiq arxeologiyaga oid eksponatlar, 54 ming qadimgi pul nusxalari, 10 mingdan ortiq turli tuman etnografiyaga oid buyumlar, 2 mingdan ortiq noyob yodgorlik buyumlar mavjud. Muzey fondidagi materiallar orasida qo‘shni respublikalar Turkmaniston, Tojikiston va Qирг‘изистонга taalluqli ma’lumotlar ham ko‘p.

Eksponatlar orasida noyob narsalar ko‘p bo‘lib, 1917 yildan keyingi davr xronologik ravishda 1965 yilgacha ko‘rsatilgan. Muzey 1967 yilda XIX asrning me’morchilik yodgorliklaridan biri hisoblangan binoga ko‘chdi, ya’ni bu bino 1919 yilda butun Rossiya Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va RSFSR Xalq Komissarlari Sovetining Turkiston ishlari bo‘yicha Komissiyasi (Turk komissiya) ishlagan edi. 45 ta zal bo‘lib ularda 7 mingdan ortiq eksponat joylashtirilgan.

2. Andijon viloyati adabiyot va san’at, o‘lkashunoslik muzeyi eksponatlarida o‘lka tarixini aks ettirilishi. Andijon viloyat Adabiyot va san’at muzeyi O‘zSSR Vazirlar Kengashining 1989 yil 1 sentabr kungi № 274 - sonli qarori bilan viloyat o‘lkashunoslik muzeyining Adabiyot filiali hamda Tasviriy va amaliy san’at bo‘limlari ba’zasida tashkil etilgan.

Muzeyda hozirgi kunda Adabiyot, Xalq amaliy san’ati, Zahiriddin Muhammad Bobur yodgorlik muzeyi, Abdulhamid Cho‘lpon» yodgorlik muzeyi, tasviriy san’at, ta’mirlash va Mulla Alixon oxund Oraziy yodgorlik muzeyi bo‘limlari mavjud.

Andijon viloyat adabiyot va san’at muzeyi viloyatda adabiyot, xalq amaliy va tasviriy san’at hamda qo‘lyozmalarni yig‘ish, asrash ularni tarixi, nazariyasi va rivojlanish jarayonlari bo‘yicha ilmiy tadqiqot va targ‘ibot olib boruvchi ilmiy madaniyat maskanidir.

Muzeyda 2013 yil 1 yanvar xolatiga 71 ta shtatlar birligi bo‘lib, hozirgi kunda 65ta xodimlar ishlab kelmoqda. Ulardan 20 tasi ilmiy xodim va sayrbonlarni tashkil etadi. Hozirda muzey jamg‘armasida jami 15872 ta eksponat mavjud.

Muzeyning Adabiyot va xalq amaliy san’ati bo‘limlari Andijonning eski shahar hududida joylashgan Jome’ me’morchilik majmuasining sharqiy qismida faoliyat yuritadi. Jome’ me’morchilik obidasi 1882 - 1892 yillar Markaziy Osiyodagi yirik me’morlar sulolasinshg yetakchi usta Isaxon loyixasi asosida bunyod etilgan. Jome’ oliy diniy ta’lim muassasasi darajasidagi maqomga ega bo‘lib 122 ta xujra, minora (36,5 metr) maxobatli masjid binolaridan tashkil topgan. Majmuuning umumiyy maydoni 2,5 hektarni tashkil etgan. 1959-1960 yillarda majmuuning janubiy tomonidagi xujralar o‘rniga Volodarskiy nomli tikuvchlik fabrikasi qurilgan. 1989 yil muzey binosi diniy jamoaga o‘tkazilgan va majmuuning shimoliy tomonida yerto‘lali qo‘shimcha bino qurilishi boshlangan, hozirgi kunda bitkazilmagan xolatda.

1995 yil shahar hokimligi tomonidan adabiyot filiali joylashgan qismi yana adabiyot va san’at muzeyiga qaytarib berildi. Hozirgi kunda majmuaga adabiyot va xalq amaliy san’ati bo‘limlari joylashgan. Jome’ me’moriy majmuasi 1973 yilda respublika ahamiyatidagi ma’daniy meros ob’ekti sifatida davlat muxofazasiga olingan. Majmuada so‘nggi bor 1970-1974 yillarda kapital ta’mirlash ishlari amalga oshirilgan. Majmuuning asosiy qismi, minora va masjid binolari bugungi kunda deyarli

foydanilmaydi. Sobiq fabrika binosi «Navro‘z» savdo korxonasi ixtiyoriga berilgan.

Muzeyga yil davomida 17-18 ming tomoshabinlar bevosita tashrif buyuradi, shuningdek, muzeyda va muzeydan tashqarida 10 ga yaqin ko‘rgazmalar tashkil qilinadi. Muzey xodimlari tomonidan joylarda 75-80 dan ko‘proq ma’ruzalar, 50 ga yaqin yilning muhim sanalariga bag‘ishlangan turli tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar, badiiy kechalar o‘tkaziladi.

Muzeyda 20 nafar ilmiy xodim va sayrbonlar bo‘lib, ular tomonidan adabiyot, san’at, me’morchilik va madaniy meros yodgorliklari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi, mavzular bo‘yicha nodir eksponatlar va turli hujjatlar yig‘iladi va jamg‘arma boyitib boriladi, Shuningdek, muzey xodimlari ommaviy axborot vositalari orqali: televideniya hamda matbuot saxifalarida o‘z chiqishlari va maqolalari bilan faol qatnashadi.

Muzey dastlab ikkita: adabiyot va san’at bo‘limlaridan iborat bo‘lgan. Adabiyot bo‘limi Xazrati Navoiy va Bobur davridan boshlanib, asrlar davomida Nodira, Pirim Qori, Oraziy, Habibiy, Cho‘pon, Anisiy, Sayfij, Sulton Jo‘ra, Vosit Sa’dulla, Saida Zunnunova, E’tibor Oxunova, Muhammad Ali, Muhammad Yusuf, To‘lan Nizom kabi o‘nlab betakror so‘z san’atkorlari ijodida sayqal topgan va o‘zbek adabiyotining tarkibiy qismiga aylangan Andijon adabiy muhitni vakillarining benazir adabiy merosi tarkibida mujassam topgan. Bo‘lim jamg‘armasida mazkur adabiy muhitning yuzdan ortiq iste’dod sohiblari shoир, yozuvchi, dramaturg, adabiyotshunos olimlar xayoti va ijodiy faoliyati bilan bog‘liq qimmatli ashyolar, hujjatlar, fotolar, nashr etilgan asarlari, hali dunyo yuzini ko‘rmagan o‘z tadqiqotchilarini kutib yotgan qo‘lyozmalari va boshqa tarixiy - madaniy ahamiyatga ega besh mingdan ziyod ilmiy-adabiy meros manbalari saqlanadi. Shuningdek, ikki mingga yaqin XVIII-XX asr boshlariga oid arabiy, forsiy va turkiy tillarda arab alifbosida bitilgan qo‘lyozma va toshbosma kitoblarda ham o‘zbek mumtoz adabiyoti, falakiyot, jug‘rofiya, tabiatshunoslik, aljabr, tafsir, fiqh, tasavvuf va boshqa dunyoviy hamda diniy ilmlar, ajdodlarimizning kitobat, xattotlik san’atlarini nodir namunalari mavjud.

San’at bo‘limi respublikamiz, asosan viloyatdagi o‘ziga xos, betakror xalq amaliy, tasviriy va teatr san’ati maktablari, ularning yetuk namoyondalari haqida xikoya qiladi. O‘zbek xalq amaliy san’atida an’anaviy Andijon san’at maktabining ham o‘z o‘rnini bor. Ekspozitsiyadan joy olgan va qadimiy tepaliklardan topilgan 2-2,5 ming yillik nafis sopol buyumlar, uch yuz yillik sulola an’analarini o‘zida mujassam etgan sariq va moviy ranglar, «tumor», «belbog‘», «charxpalak», «oshiqcha» kabi faqat shu sulolagagina xos naqshlar uyg‘unligida sayqal berilgan Andijon kulolchilik maktabi, ayniqsa xalqaro toifadagi YuNESKO sertifikati sohibi, sulolaning 14 - vakili M. Abduvaxobovning turli kattalikdagi tovoq, kosa va ko‘zachalari o‘z muzeyning nodir ashyolari tarkibiga kiradi. Ikki yuz yillik an’anaga ega usta Eshon buva, uning avlodlari va shogirdlari qalb qo‘ri bilan sayqal topgan Shahrixon pichoqlari, Asqar pichoqsoz sulolasini nomi bilan bog‘liq Qorasuv pichoqlari milliyligi, tabiiyligi, keskir va go‘zalligi bilan o‘nlab dunyo mamlakatlari ishqibozlarini ko‘nglini zabit etgan.

Muzey xazinasida Samarqand, Toshkent, Urgutning qadimiyligi palaklari, «non nusxa», «ko‘za», «patnis», «yetti og‘ayni», «to‘qqiz og‘ayni», «bo‘g‘ma» gullari mato sathi bo‘ylab xonavor joylashtirilgan vodiylari ruhiyatidagi, hususan, Andijonga xos yorqin sariq, qizil, yashil, kuk, sapsar, oq, qora ranglar mutanosibligidagi mahorat bilan tikilgan kashtalarining o‘nlab nus’halari saqlanadi. Kashtalar muzey xodimlarining viloyatning Izboskan tumanidagi Maygir, Jalaquduq, Qo‘rg‘ontepa, Xo‘jaobod tumanlaridagi bir qator qishloqlarga qilgan tadqiqotlari va ekspeditsiyalari natijasida yig‘ilgan. Ekspozitsiyaga ulug‘vorlik baxsh etib turgan «qo‘chqaroq», «chayon» nusxadagi xidirsha gilamlari oq, to‘q qizil va ko‘k ranglar uyg‘unligida mutaxassislar tomonidan yuksak san’at darajasida e’tirof etilganligi shundaki, gilamning gullari asos, asosi esa naqshlar ko‘rinishida jilovlanadi. Bu gilamlar XVIII asrdan buyon Andijon viloyati chegara hududlarida yashab kelayotgan ko‘chmanchi

qirg'izlarning Xidirsha urug'i to'quvchilariga mansub bo'lib, ular allaqachon o'troqlashib, o'zbeklashib ketgan. 1909 yil Germaniyadagi Xalqaro va 1960 yil Moskvadagi VDNX (Vyistavka Dostijeniy Narodnogo Xozyaystva - Qishloq xo'jaligida erishilgan yutuqlar ko'rgazmasi) ko'rgazmalarida namoyish etilgan Xidirsha gilamlari o'zbek - qirg'iz xalqlarining asrlar davomidagi qardosh-qondosh ekanligini anglatadi.

Tarixiy manbalar XIX asr oxiri XX asr boshlarida andijonlik; misgarlik yasagan va ayrim namunalari bo'limda saqlanayotgan «bodomcha» nomli bejirim choydishlar, oftoba, chilobchip, choynak, piyola, kosalarga ko'pincha Qo'qon va Marg'ilonlik kandakori ustalari tomonidan naqsh bitilgan. Ular savdo karvonlari orqali xonlik hududidan, tashqarilarga olib ketilgan. Zargarlikni esa baldoqsozlik, uzuksozlik, bilakuzuksozlik kabi ixtisoslashgan bir qancha turlari rivojlangan. Ayniqsa, Andijon, Asaka baldoqlarining dovrug'i mashhur bo'lgan.

Andijonlik Odil zargar, asakalik Mamarayim zargarlar tomonidan yuksak mahorat bilan kumush va tilla rang berish, ya'ni savdogarlik usulida tayyorlangan pichoq, xanjar, qilichlar uchun qimmatbaxo tabiiy qinlarning ishqibozlari, xaridorlar xorijlarda ham ko'p bo'lgan. Odatda jamiyatda ma'lum bir nufuzga ega shaxslar tomonidan foydalaniladigan bunday tig'lar oliv navli qadimiyy «isfaxon» yoki «bayza» po'latlaridan, dastalari esa «dandon» (fil tishi) yoki «kark» (karkidon shoxi)dan tayyorlangan. Muzeyning zargarlik xazinasida Andijon taqinchoqlari, «dahana-poynak» deb nomlanuvchi kumush qinli naqshinkor pichoqlar muxlis e'tiborini tortadi. Shuningdek, bo'limda naqqoshlik va yog'och o'ymakorligi, adres, atlas, alak, zarbof kabi badiiy matolar, milliy musiqa asboblari kabi xalq amaliy san'atining boshqa turlari kolleksiyalari yig'ilgan.

XIX asr oxirlarida Rossiya imperiyasi askarlari uchun mahalliy aholidan o'z-o'zini himoya qilish maqsadida kazarma sifatida qurilgan «Qal'a» me'morchilik yodgorligining bir qismigina saqlanib qolgan bo'lib, obida sayyoqlik yo'naliishiga kiritilgan. Qal'ada muzeyning tasviriy san'ati galereyasi joylashgan jamg'armada respublika va viloyat rassomlarining rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik kolleksiyasi mavjud. Galereyada 1970 yillarda viloyat respublika tasviriy san'ati ko'rgazmalari direksiyasi tomonidan taqdim etilgan o'zbek tasviriy san'ati namoyondalaridan O'. Tansikboev, Ch. Axmarov, A. Abdullaev, V. Fadeev, R. Axmedov, N. Qo'ziboev, A. Mirzaev. Q. Basharov, M. Kagarov kabi o'nlab taniqli ijodkorlarning asarlari nafaqat muzey, balki mustaqil O'zbekiston san'atining bebaxo boyligi hisoblanadi. Muzey ekspozitsiyasidan Najmiddin Kaziev, O'zbekiston xalq rassomi Nizomiddin Holiqov, Obidjon Bakirov, musavvirlardan Ulug'bek Boltaboev, Erkin Vorobyov, Ubaydullo Boymurodov, Shuhrat Toshboy, Qambarali Yusupov kabi ijodkorlarning asarlari XX asrning 60-70 yillaridan shakllana boshlagan Andijon tasviriy san'ati maktabining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Andijon o'zbek teatrining beshiklaridan biri hisoblanadi. Viloyat teatri O'zbekiston xalq artistlari Asad Ismatov, Abduvahob Azimov, Lutfixonim Sarimsoqova, Abbas Ibrohimov kabi o'nlab sahna san'ati darg'alari kamolotga yetgan ulug' dargoh. Bu dargoxda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi sahna rassomi Viktor Ligay 50 yildan ziyod faoliyat yuritdi. Muzey kolleksiyalaridan qariyb yuz yillik tarixga ega Andijon teatr san'ati maktabi haqida noyob ashyolar, tarixiy hujjatlar, benazir rasmlar sahna bezaki eskizlari va manbalari o'rinn olgan.

Mustaqillikning birinchi yillaridanoq, milliy qadriyatlarimizni, madaniy, me'rosimizni tiklash, targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratildi. Shu yili buyuk hamyurtimiz Zahiriddin Muhammad Boburning qomusiy asari «Boburnoma»ning 460 yilligi keng nishonlandi. Yangi faoliyat boshlagan Adabiyot va san'at muzeyi tomonidan mazkur muzey joylashgan va Bobur davrining guvohi bo'lgan XIV asrga oid Ark ichi (Xojar Noyib) madrasasi me'moriy obidasida bu muhim sanaga bag'ishlab ko'rgazma tashkil qilindi. Muzeysiga YuNESKO tomonidan uyushtirilgan «Buyuk ipak yo'li» xalqaro sayyoqlik yo'naliishidagi Xindiston, Eron, Turkiya, Pokiston, Afg'oniston, Rossiya, Olmoniya kabi

xorijiy mamlakatlardan jamlangan tarixchi, etnograf, boburshunos olimlar tashrif buyurdilar. Mazkur ko‘rgazma keyinchalik Bobur yodgorlik muzeyini barpo etilishiga asos bo‘ldi.

1993 yil hukumatimiz qarori bilan Zaxiriddin Muxammad Bobur tavalludining 510 yilligi respublika bo‘ylab keng nishonlandi. Yubiley markazi Andijonda Boburning mahobatli otliq haykali, Bog‘i Bobur va Bobur muzeyi buniyod qilindi. Ko‘xna Andijon markazi Xojar Noyib madrasasi va uning atrofidagi hunarmandchilik rastasida keng ko‘lamdag‘i ta‘mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Bobur muzeyining tashkil qilish asosan Adabiyot va san‘at muzeyi jamoasi zimmasiga tushdi tadqiqot va yig‘uv ishlari bo‘yicha ilmiy ishchi guruh tuzildi. Andijon Davlat universiteti professorlari G‘anijon Abdullaev, tarixchi-boburshunos Sayfiddin Jalilov va boshqa olimlar jalb etildi. Ilmiy ekspeditsiyalar uyuştirildi. Toshkentdagi Sharqshunoslik va qo‘lyozmalar institutlari, tarix va adabiyot muzeylari, Xindistonning O‘zbekistondagi elchixonasi (elchi Dalip Mexta), boburiylar davri bilimdonlari Sabohat Azimjonova, Fozila Sulaymonova, Boburiylar haqidagi triologiya muallifi O‘zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov va boshqa olimlar hamda bir qancha muassasalar bilan aloqa o‘rnatildi. «Boburnoma», Bobur va boburiylar davri chuqr o‘rganildi. Mavzular bo‘yicha iqtidorli rassomlarga buyurtmalar berildi. Yil davomida olib borilgan yig‘uv tadqiqot ishlari yaxshi samara berdi. Yangi muzey uchun yetarli darajada ashyolar, adabiyotlar, fotolar, tasviriy va amaliy san‘ati asarlari va boshqa manbalar yig‘ildi. Bular orasida Xindistonning Boburiylar avlodni Tusiyalar haqidagi manbalar ayniqsa qimmatlidir. Muzey xodimlari tomonidan mavzular bo‘yicha ekspozitsiya rejsasi tuzildi va yangi ekspozitsiya dunyoga keldi.

Muzey ekspozitsiyasi asosan uch qismdan iborat bo‘lib, unda Boburning xayoti, ijodiy faoliyati, qudratl temuriylar sultanatini tiklash, Farg‘ona davlatini mustahkamlash uchun qilgan harakatlari, harbiy yurishlari, Qobuldag‘i hayoti, Hindistonni zabit etishi, 332 yil hukmdorlik qilgan Boburiylar imperiyasi, ularning umumjahon madaniy sivilizatsiyasiga qo‘shgan ulkan hissasi, ular buniyod etgan beqiyos madaniy meros hamda jahon boburshunosligi natijalariga hamda Bobur nomini abadiylashtirish mavzulariga alohida e’tibor qaratilgan. Bugungi kunda bo‘limda yangi ekspozitsiya ustida ish olib borilmokda.

1997 yil respublikamizda Cho‘lpon yili bo‘ldi. Andijonliklar o‘zining sheryurak, jasur o‘g‘lonining 100 yilligini nishonladi. Abdulhamid Cho‘lpon xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risidagi O‘zR Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Andijonning qadimiy Soyguzar hududida Cho‘lpon nomli madaniyat va istirohat bog‘i, bog‘ning markaziy maydonida she’riyat og‘ushidagi shoirning bronza haykali (haykaltarosh J. Mirtojiev) va adabiyot va san‘at muzeyining bo‘limi sifatida Cho‘lpon xotira muzeyi qad rostladi.

Qatag‘on qurboni Cho‘lpon haqida muzey kolleksiyasida shoirning tarjimai xoli va bir nechta fotosuratlargina bor edi. Muzey qoshida ilmiy ishchi guruxi tuzilib, yig‘uv va tadqiqot ishlari bo‘yicha ekspeditsiya tashkil qilindi. Filologiya fanlari doktori Hamidillo Boltaboev ilmiy maslahatchi qilib olindi. Ekspeditsiya «Cho‘lpon» dramasing mualif shoir To‘lan Nizom ijodxonasida, Qo‘qon Adabiyot muzeyida, Toshkentdagi Adabiyot, Davlat tarix va milliy teatr muzeylarida, davlat arxivida, milliy davlat kutubxonasining nodir kitoblari xazinasida, cho‘lponshunos olimlar filologiya fanlari doktori Ozod Sharafutdinov, Naim Karimov, teatrshunos Sirojiddin Axmedov, shoirni yaqindan bilgan, u bilan ko‘rishgan ayrim insonlar xonardonlarida bo‘lib, juda boy manbalar bilan qaytdi. Andijonda Cho‘lponning yakinlari, qarindoshlari singlisi Foyiq aya va jiyanlari, ayrim keksa ziyorolar bilan muloqot qilindi. Natijada muzey jamg‘armasiga Cho‘lpon hayoti va faoliyatiga oid qimmatli ashyolar, hujjatlar, kitoblar, fotolar va boshqa manbalar bilan boyitildi. Muzey xodimlari tomonidan tuzilgan reja asosida barpo etilgan va istiqlol g‘oyalari bilan sug‘orilgan muzey ekspozitsiyasi o‘zida Cho‘lpon shajarasi, jadidchilik harakati, Cho‘lpon-shoir, adib, dramaturg, tarjimon, jurnalist, tanqidchi, jamoat arbobi va cho‘lponshunoslik mavzulari muzeyshunoslik talablari

asosida to‘lik ifodasini topgan.

2009 yilda viloyat hokimining qarori, tuman hokimligining tashabbusi bilan o‘zbek mumtoz adabiyotining vakili shahrixonlik ma’rifatparvarlar shoir Mulla Alixon Oxund Oraziy tavalludining 140 yilligini nishonlab, Shahrixonda shoirning xotira muzeyi ochildi. Adabiyot va san’at muzeyining bo‘limi bo‘lgan muzey ekspozitsiyasi o‘lkashunoslik muzeyining Shahrixon tumani filiali bilan hamkorlikda qilindi. Oraziyning ota kasbi kulolchilik bo‘lib, she’riyat bilan birga maktablar ochilishida, teatr studiyalar tashkil qilishda, mehnat artellarida faol ishtirok etgan, insonlarga, mehnatga mehru-muhabbat, xalollik, ma’rifat, e’tiqod ruhiyatidagi she’rlari shu kungacha taniqli xofizlar tomonidan kuylanib kelindi.

2012 yildan boshlab muzey zahirasidagi ashyolarning «ZKM-pshgeu» elektron katalogini tuzishga kirishildi. Buning uchun asosiy eksponatlar ilmiy o‘rganilib, ro‘yhatdan o‘tkazilib, ularga ilmiy pasportlar yozilmoqda. Shu kungacha 5000 dan ortiq asosiy ashyolar ilmiy ro‘yhatdan o‘tkazilgan. Muzey bo‘limlari me’moriy yodgorliklarda joylashganligi bois, muzey xalqaro madaniy turizm talablari asosida xorijiy sayyohlarga xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yan. Toshkentda o‘tkazilib kelinayotgan «Buyuk ipak yo‘li» xalqaro turizm yarmarka- anjumanlarida o‘zining reklama targ‘ibot vositalari bilan muntazam qatnashib keladi. Tasviriy san’at galereyasida muzey xazinasidan va mahalliy ijodkorlar asarlari ko‘rgazmalarini tashkil qiladi. Viloyat va respublika madaniy hayotida faol ishtirok etadi.

3. Mustaqillik yillarda o‘lka tarixini o‘rganishda muzeylar va muzey ishi. Mustaqil Vatanimizda milliy o‘zlikni tiklashga alohida e’tibor berilmoqda. Zero, bizning yurt ajdodlarining tarixda ko‘rsatgan buyuk xizmatlarini xolis o‘rganish va targ‘ib etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Sovet davrida faqat «Qizil imperiya» mafkurasiga xizmat qilgan muzeylar endilikda milliy o‘zlikni anglashga xizmat qilishi lozim.

Mustaqillik davrida muzeylar ishiga aloxida e’tibor berilmoqda. Buning bir qancha omillari bor:

Birinchidan, mustamlakachilik yillarda ongimizdan o‘chirib tashlangan milliy tuyg‘ularni qayta tiklash;

Ikkinchidan, milliy g‘urur, milliy ongni yuksaltirish uchun unutilgan tariximizni qayta tiklash;

Uchinchidan, ajdodlar xurmatini joyiga qo‘yish, yosh avlodni ajdodlar nomi va merosi bilan faxrlanishga o‘rgatish, milliy g‘ururini yuksaltirish, buyuk an’analarning davomchisi etib tarbiyalash;

To‘rtinchidan, milliy qadriyatlarimiz bizga demokratik, xuquqiy, qudratli O‘zbekiston davlatini barpo etish uchun «O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat» g‘oyasini ro‘yobga chiqarish uchun kerak;

Beshinchidan, milliy qadriyatlarimiz mamlakatimizning jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallashi, kelgusi avlodlarga ozod va obod Vatan qoldirish uchun kerak.

Ushbu yo‘nalishlarga Islom Karimov asarlarida qayta - qayta to‘xtalib o‘tilgan. Ana shu maqsadlar hukumat siyosiy tadbirlarida o‘z ifodasini topmoqda. 1998 yil 12 yanvarda «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida» O‘zR Prezidentining Farmoni e’lon qilindi. Farmonda asosan O‘zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimining shakllangan muzeylar tizimini, yanada takomillashtirish, ularning xalqning ma’naviy - axloqiy kamolotida tutgan o‘rnini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelayotgan xalqimizning boy tarixini mustaqilligimizning odimlarini aks ettiruvchi, noyob, nodir eksponatlarni avaylab asrash, o‘rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va

targ‘ib qilish, ulardan xalqimizning ongida milliy g‘urur va iftixor, istiqlol va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kuchaytirish yo‘lida keng foydalanish, muzeylarning zamon talablariga mos yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minalash, moddiy - texnika bazasini mustaxkamlab, jahon muzeyshunosligi tajribalarini qo‘llashga zarur sharoitlar chora tadbirlar - madaniyat ishlari vazirligi qoshida muzeylarni qo‘llab quvvatlovchi «O‘zbekmuzey» jamg‘armasi tashkil etildi. Bu jamg‘arma muzeylar fondlarida yillar davomida saqlanib kelayotgan xalqimizning boy tarixidan guvoxlik beruvchi noyob nodir eksponatlarni avaylab asrash, ularni ilmiy tomonlarini o‘rganish, ta’mirlash, yangi eksponatlarni bilan muzey zallarini boyitish bilan shug‘ullanmoqdalar. Bugungi kunda mamlakatimiz hududidagi turli muassasalar, korxonalar, qurilish tashkilotlari, qishloq, jamoa boshqaruvi xo‘jaliklari qoshida, shahar, tuman, viloyat markazlarida, xalq ta’limi tizimida 1200 dan ortiq muzeylar bo‘lib, ularning eng yiriklari poytaxtimizda joylashgan. Shu bilan birga, o‘nlab yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar va mashhur san’at arboblari uy muzeylari mavjud.

Bu muzeylar xalqimizning uzoq tarixidan xikoya qiluvchi, moziydan sado beruvchi ma’naviyat maskanlari bo‘lib, milliy mafkura va tafakkurni rivojlantiruvchi, yoshlarda milliy g‘urur va iftixorni yuksaltirishda ulug‘ qadamjolar bo‘lib qolmoqda.

O‘zR Vazirlar Mahkamasining «Muzeylar faoliyatini tubdan qo‘llab quvvatlash masalalari to‘g‘risi» dagi 5 mart 1998 yil 98 sonli qarori «O‘zbekmuzey» jamg‘armasiga, O‘zbekiston muzeylar jamoatchilik kengashining xalqaro muzeylar kengashi - IKOMga a’zo bo‘lganligini hisobga olib, O‘zbekiston muzeylariga har tomonlama yordam ko‘rsatish vazifasi topshirildi. Ushbu qarorda mamlakat muzeylarini ta’mirlash, zarur texnik vositalar va zamonaviy asbob - uskunalar bilan jihozlash hamda mablag‘ bilan ta’minalash vazifalari yuklatilgan.

Mazkur qarordan ilxomlangan «O‘zbekmuzey» xodimlari qator ishlarni amalga oshirmoqdalar. Mavjud barcha o‘zbek muzeylari fondidagi eksponatlarni yagona ro‘yxatini tuzish, eksponatlarni doimiy himoya qilish sharoitlarini yaxshilash, saqlanayotgan eksponatlarning qat‘iy nazoratini ta’minalash, ilmiy konsepsiylar ishlab chiqish, xorijiy mamlakatlardagi muzeylarda saqlanayotgan tariximizga va ma’naviy boyligimizga oid osori atiqalarni, shuningdek, qadimiyo qo‘lyozmalarni ro‘yxatga olish, ularni xalqimizga tanishtirish, shuningdek, muzeylardagi nodir eksponatlarni dunyoga olib chiqish, jahon xalqlariga tanishtirish soxasida tegishli tashkilotlar bilan hujjatlar ishlab chiqish shartnomalar tuzish ishlarini olib bormoqdalar. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ijtimoiy va ma’naviy muxitni yanada sog‘lomlashtirish to‘g‘risida»gi hamda «Ma’naviy va ma’rifiy isloxtlarni samaradorligini yanada oshirish chora tadbirlari to‘g‘risi»dagi qarorlariga javoban qator tadbirlar ishlab chiqildi. Shunga ko‘ra, mamlakatdagi barcha muzeylarda har oyning bir kuni «Ochiq eshiklar kuni» deb e’lon qilindi. Shu kuni muzeylarga o‘quvchilar, talabalar va boshqa tomoshabinlarga muzey xodimlari bepul xizmat ko‘rsatmoqda. Shuningdek, tariximizning yorqin iz qoldirgan allomalarga bag‘ishlab, muzeylarda «Barhayot siymolar» mavzusida adabiy kechalar, «Istiqlol, ma’naviyat va muzey» mavzusida tadbirlar o‘tkazilib kelmoqda. Ayniqsa, Imom Buxoriy, Axmad al - Farg‘oniy, Kamoliddin Bexzod, Jaloliddin Manguberdi, Ogahiy va boshqa allomalarga bag‘ishlab muzeylarimizda o‘tkazilayotgan tadbirlar yoshlarni ajdodlar me’rosiga sadoqat ruhida tarbiyalashda muxim ahamiyat kasb etmoqda.

Tarixdan ma’lumki, Turon Movarounnaxr, Turkiston deya atab kelingan, «Buyuk ipak yo‘li»da joylashgan O‘zbekiston Sharq bilan G‘arbni bog‘lovchi, ularni iqtisodini, madaniyatini, san’atini, taraqqiyotini bog‘lab turadigan bir makon bo‘lgan.

«Buyuk ipak yo‘li»ning vorisi sifatida O‘zbekistonga ko‘plab mamlakatlar AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya va Italiya kabi

davlatlar juda katta qiziqish bilan qaramoqda. Ular ajdodlarimiz me'ros qilib qoldirgan muzeylarimizda saqlanayotgan noyob osori - atiqalarni ko'rish, qadimiylari - tariximiz, boy madaniyatimiz bilan tanishish istaklarini bildirmoqdalar.

«Amerika Qo'shma Shtatlarda qadimiylari «Buyuk ipak yo'li» da joylashgan, uyg'onish davrida xam, o'rta asrlarda xam jahon taraqqiyotining, ilm - fan rivojining o'chog'i, buyuk allomalar makon topgan, boy tarixi, madaniyatga ega bo'lgan bugun ham katta ilmiy - iqtisodiy taraqqiyot imkoniyatlariga ega bo'lgan sizning O'zbekiston Respublikangizga xurmat, qiziqish juda kattadir» - deb yozibdi Islom Karimovga yo'llagan xatida AQShdagisi Markaziy Osiyo muzeyi direktori, Pensilvaniya universitetining professori, doktor Fredrik T. Xiberg.

Shu mazmundagi xatlar Yaponiyadan, Fransiyadan, Germaniyadan, YuNESKO dan, Xalqaro muzeylar tashkiloti IKOMdan tez - tez kelib turibdi. Gap shundaki, xammasi xam o'z mamlakatlarida muzeylarimizdagi eksponatlarni ko'chma ko'rgazmasini tashkil etishni taklif etmoqdalar. Mustaqillik davrida yurtimizda buyuk tarixiy siymolarga atalgan haykal va muzeylar soni ko'payib bormoqda.

Mustaqillik davrida buyuk tarixiy siymolarga atalgan haykal va muzeylar qurildi. 1993 yilda Amir Temur xiyoboni o'tasida Soxibqiron Amir Temurga Suvoriy haykal o'rnatildi. 1996 yilning 18 oktabr kuni mamlakatimiz poytaxti Toshkentda buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurga atab sharq milliy me'morchiligining noyob va mo'jizaviy namunasi sifatgida bunyod etilgan Temuriylar tarixi davlat muzeining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Birinchi Prezident Islom Karimov muzey ochilish marosimida so'zlab «Bugun zo'r shodiyona - bilan ochilayotgan Temuriylar tarixi davlat muzeyi soxibqiron shaxsiga nisbatan yurtimizdagi tarixiy adolat tantana qilganing yana bir amaliy isbotidir.

Aytish mumkinki, Amir Temur hiyoboni go'zal bir uzuk bo'lsa, bu muzey shu uzukning yoqut ko'zidir. Muzeyni ziyorat qilgan xar bir inson mening bu so'zlarim shoirona tashbex yoki mubolag'a emasligiga ishonch xosil qiladi. Bu muzeyda bizning o'tmishimiz xam, bugungi kunimiz va buyuk istiqbolimiz ham bamisolni ko'zguda aks etgandek namoyon bo'ladi. Kimki, o'zbek nomini, o'zbek millatini kuch qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini eslash kerak.

Amir Temurning bashariyat oldidagi o'lmas hizmatlarini ma'rifatli jahon munosib baholanmoqda. Sohibqiron yubileyining YuNESKO tomonidan xalqaro miqyosida keng nishonlanganligi ana shu e'tirofnинг yorqin dalilidir.

Shunday quvonchli va hayajonli damlarda Amir Temurdek buyuk zot mansub bo'lgan millat farzandlari ekanimizni, tomirlarimizda Amir Temur shijoati jo'sh urayotganini o'ylasak, anglasak, qalbimizni chinakam iftixon tuyg'ulari qamrab oladi.

Amir Temur hayotining mazmuni, betakror faoliyatining asosiy ma'nosi - Vatan ozodligi, vatanga muxabbat degan oliy qadriyatlardan iboratdir. Umumiy maydoni besh ming kvadrat metrni tashkil ettan bu muzey 6 oy davomida qurilib bitkazildi. Muzey qurilishida butun mamlakat mutaxassislari ishtirok etdilar.

Toshkentlik qo'li gul quruvchilar, chinnisozlik va keramika, «Mikond» korxonalarining mohir hunarmandlari, «Usta» birlashmasi, Yugoslaviyaning «Torevik» firmasi va boshqa o'nlab mehnat jamoalari bu ishga munosib hissa qo'shdilar. 1996 yil 1 sentabrda davlatimiz mustaqilligining 5 yillik to'yida Toshkentda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov va Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (XOQ) raisi X.A. Samaranch Olimpiya shon-shuhrat muzeyining tantanali ravishda ochdilar. Muzeyni ochish marosimida sportchilar, murabbiylar, jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi, O'zbekiston Olimpiya qo'mitasi, sport klublari, va jamiyatlar vakillari ishtirok etishdi.

Muzeyni bezash ishlarida eng iqtidorli rassomlar va haykaltaroshlar, O'zbekiston xalq

ustalari qatnashdilar. Muzeydagи eng asosiy mavzu - hozirgi zamon Olimpiya o‘yinlari. Eksponatlardagi Olimpiya harakati qachon paydo bo‘lgani, O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasining barpo etilganligi, mamlakatimizda olimpiya g‘oyalarining taraqqiy etganligi, Olimpiya o‘yinlarining o‘tkazilishi va shu o‘yinlarda g‘olib sovrindor bo‘lib chiqqan O‘zbekiston sportchilarining ishtirok etayotganligi haqida hikoya qilinadi. Muzeyga tashrif buyurganlar XX asr Olimpiya o‘yinlarining shonli tarixida o‘z nomlarini qoldirgan bir qator sportchilar bilan tanishadilar. G. Shamray (gimnastika), S. Babanova, N. Ustinova (suzish), V. Duyanova, L. Pavlova (voleybol), R. Kazakov, A. Fadzaev, aka - uka Xadartsevlar (kurash), R. Risqiev (boks), S. Ro‘ziev (qilichbozlik), R. Gataulin (langar cho‘p bilan sakrash), L. Axmedov, A. Xan (chim ustida xokkey), R. Yambulatov (miltiqdan otish), N. Muxammadiyorov (og‘ir atletika), O. Chusovitina, R. G‘aliev (gimnastika), L. Cheryazova (fristayl), M. Abdullaev (boks), H. Do‘stmatov (boks), R. Nuriddinov (og‘ir atletika), F. G‘obnazarov (boks), Sh. Zoirov (boks), B. Meliqo‘ziev (boks), Sh. G‘iyosov (boks) shular qatoridan o‘rin olgan.

Ekspozitsiyalarda mustaqil O‘zbekiston terma jamoasining 1996 yili Atlanta shahrida (AQSh) Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etgani to‘g‘risidagi qiziqarli ma’lumotlar alohida o‘rin tutadi.

Xorijiy mutaxassislarning e’tirof etishlariga ko‘ra mamlakatimizning sportchilarining musobaqalarda birinchi marta ishtirok etganliklari muvaffaqiyatli chiqqan; A. Bagdasarov (dzyudo) kumush medaliga, K. To‘laganov (boks) bronza medaliga sazovor bo‘lishdi, O. Chusovitina (gimnastika), R. Galiev (yengil atletika), R. Islamov, A. Ochilov (kurash) o‘z yuksak mahoratlarini qo‘rsatishdi.

Har qanday muzeyda bo‘lgani kabi, katta qiziqish uyg‘otadigan eksponatlar bu yerda ham mavjud. Bu avvalo, O‘zbekiston Prezidenti I.A. Karimov taqdirlangan Olimpiya oltin nishoni va Osiyo Olimpiya Kengashi nishoni, shuningdek, turli xil boshqa mukofotlar, sovrinlar, medallar, fristayl bo‘yicha jahon championi L. Cheryazovaning shaxsiy sport jihozlari, Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi Prezidenti X.A. Samaranchning muzey ochilishida topshirgan esdalik sovg‘alari, rang - barang nishonlar, ayniqsa, diqqatga sazovardir.

Olimpiya shon-shuhrati muzeyi faqatgina o‘z faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, balki O‘zbekiston jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi, hamda O‘zbekiston Olimpiya Qo‘mitasi bilan xam yaqindan hamkorlik qildi: matbuot konferensiyalari, anjumanlar o‘tkazish, sportchilarni musobaqalarga kuzatish, har xil turnirlar va musobaqalarning g‘oliblari bilan uchrashuvlar uyuştirish kabi tadbirlarni amalga oshiradi. Ko‘pincha, aynan ana shu uchrashuvlardan keyin sportchilar o‘zlari qo‘lga kiritgan sovrin va kuboklarni mukofot tariqasida muzeyga topshirib ketadilar.

Muzey zamonaviy video texnikasi bilan jihozlangani tufayli, bu yerda Toshkentda bo‘lib o‘tadigan turli xil sport musobaqalari shuningdek, muzeyda o‘tkaziladigan matbuot konferensiyalari, anjumanlar, qutlovlarni tasvirga tushirish va kengin ommaga namoyish etish imkoniyati yaratilgan. Bu lavhalardan sport mutaxassislari, televiedenie va ommaviy axborot vositalaridan sport taxririyatlari foydalanadilar. Muzeydagи texnik jihozlar, eksponatlar va jamg‘armalar, video mahsulotlari, mahsus adabiyotlar har xil sport turlari mutaxassislari, O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti talabalari, malaka oshirish kurslari tinglovchilarining ilmiy, uslubiy tadqiqotlar o‘tkazishlariga katta imkoniyatlar yaratib beradi.

Muzey Lozannadagi XOQ MOK bosh qarorgohi huzuridagi Olimpiya Shon - Shuhrati muzeyi bilan aloqalar o‘rnatish va hamkorlik qilish to‘g‘risidagi ikki tomonlama shartnomasi imzolagan, ekspozitsiyalar va adabiyotlar soni shu yo‘l bilan ham ko‘payib boradi.

Olimpiya Shon-Shuhrati muzeyi xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi Prezidenti X.A. Samaranch tomonidan yuksak baholangan, u muzeyga «Muzey jahonda ikkinchi o‘rinda turadi», baho

bergan edi.

Mustaqillik yillarida muzeylar rivojlanib bormoqda. «O‘zbekiston xalqlari tarixi» muzeyining yangicha asosda qurilishi, uning ekspozitsiyalarining qaytadan ko‘rilib chiqishi, shuningdek shahidlar xotirasiga bag‘ishlab alohida muzey tashkil etilishi fikrimizning isbotidir.

4. Tarixiy o‘lkashunoslikda maktab muzeyi va uning o‘rni. Maktab muzeyi sohasini tanlash. Maktab muzeyi sohasini tanlab olishda maktab yoshlar tashkilotlari va o‘qituvchilar jamoasi hamda ota-onalar kengashi uning g‘oyaviy-siyosiy va ta’lim-tarbiyaviy vazifalarini hisobga olishlari kerak.

Maktab muzeyiga asosiy soha qilib madaniyat obidalari va tarixiy joylar tanlab olinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda bevosita yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, o‘z o‘lkasidagi mavjud tarixiy, moddiy va ma’naviy yodgorliklarni qidirib, u yerlardan muzey uchun yaroqli bo‘lgan arxeologiya, etnografiya, toponimikaga oid topilmalarni muzey fondiga topshirish va shu yo‘l bilan eksponatlar sonini ko‘paytirish mumkin.

Bunda o‘lkashunos rahbar-o‘qituvchi ma’lum hududni tanlab olishi va tadqiqot olib boradigan mahalla, qishloq, tuman va shaharlarni aniq chegaralab qo‘yishi zarur. Ayrim hollarda maktab muzeyi faqat maktab tarixini o‘rganish bilangina chegaralanib qoladi. Bunda, albatta, maktabning qadimgi hayoti, arxeologiyasi, etnografiyasi va toponomikasiga oid materiallari bilan ham qiziqish kerak. Shu bilan birga o‘sha hududda yashab mehnat qilgan, hozirda ham ishlab turgan xalq qaxramonlarining va mehnat qaxramonlarining, fuqarolar urushida va ikkinchi jahon urushida qatnashgan kishilarning faoliyatiga oid materiallar muzey fondlaridan joy olishi lozim.

Muzeyning xronologik davri yoki ramkasi ham har xil bo‘lishi mumkin. Muzey o‘rganish ob’ekti qilib olgan hududning eng qadimgi davridan to 1917 yilgacha bo‘lgan davrini o‘rganish ham mumkin, undan keyingi davrdan to 1991 yil mustaqilikkacha bo‘lgan davrni yoki mustaqillik davrini o‘rganish mumkin. Juda ko‘pchilik maktablar o‘lkashunoslik sohasini tanlab to‘g‘ri qiladi. Bu narsa birinchidan, maktab muzeyini tashkil etishda va turli-tuman materiallar to‘plashda qulaylik tug‘dirsa, ikkinchidan, bu sohada muzey uchun istalganicha o‘quvchilarning bevosita yordamida o‘z o‘lkalarining madaniyat tarixini, ya’ni arxeologiyasi, etnografiyasi, toponomikasi va arxiv hujjatlarini yig‘ish imkonini beradi. Uchinchidan, bu ishga o‘quvchilarning hoxishlari va istaklari katta bo‘ladi. To‘rtinchidan, u boshqa fanlar bilan, ya’ni tarix, inson va jamiyat, geografiya, adabiyot, tilshunoslik fanlari bilan yaqin aloqada bo‘ladi, bu esa muzey materiallarini ko‘p miqdorda topishga imkon beradi.

Mabodo maktab sharoiti uchun qadimgi davrni o‘rganish qiyinchilik tug‘dirgundai bo‘lsa yoki material topilmasa, oshkoraliq, demokratiya, tarixni ro‘y-rost yoritish keng avj oldirilgan hozirgi davrni o‘rganish va shu haqda material to‘plash, mana shular asosida muzey tashkil qilish ham mumkin.

Shunday qilib, maktabda tashkil etilgan tarix va o‘lkashunoslik muzeyi va unga qo‘yilgan eksponatlar maktab o‘quv ta’lim-tarbiya talablariga to‘liq javob berishi kerak.

Maktab muzeyi yuqorida aytilgandek, avvalo yoshlar hamda o‘qituvchilar jamoasining, o‘qituvchilar va keng jamoatchilikning faol ishtirokida tashkil etiladi. Muzey tashkil etish uchun avvalo materiallar yig‘ish, hujjatlar to‘plash va ularni o‘rganish zarur. Muzey tashkil etish ishining tashkilotchisi o‘lkashunos-tarixchi o‘qituvchi bo‘lishi shart. Maktab o‘lkashunosligini avvalo o‘quvchilarning o‘zlarini tashkil etadi. Shuning uchun ham bu ish jamoatchilik asosida boshqariladi.

Maktab muzeyini tashkil etish uchun avvalambor quyidagi tashkiliy ishlarni amalga oshirish lozim: muzey sohasi maktab o‘qituvchilari majlisida muhokama qilinib, unga rahbar tayinlanadi; muzey tashkil qilish masalasi yuqori sinf o‘quvchilari yig‘ilishlarida muhokama qilinadi. Yig‘ilishlarda o‘qituvchilar majlisida tayinlangan rahbar muzey tashkil qilish yuzasidan axborot beradi; o‘quvchilar yig‘ilishida muzey kengashi saylanadi. Ular vaqtı-vaqtı bilan muzey ishlari

qanday borayotganligi haqida o‘quvchilar yig‘ilishida axborot berib turadi.

Ko‘pincha o‘lkashunoslik to‘garagi aa’zolari bu ishning tashabbuskori bo‘lishib, ular tarix va o‘lkashunoslik bo‘yicha tashkil qilingan sayohat va ilmiy safarlarda to‘plangan kolleksiyalari, arxeologiya, etnografiya, toponomiyaga oid materiallarni maktab muzeyiga eksponat sifatida topshiradilar. Bu materiallar muzey fondiga aylanadi. Muzey kengashi har yili saylanadi. Uning tarkibida 10-13 kishidan iborat faqat a’lo o‘qiydigan va shu ishga juda qiziqadigan jamoatchi a’zolari bo‘ladi. Bular o‘rtasida ishlar quyidagicha taqsimlanadi:

1. *Muzey kengashi raisi*. U o‘quvchining bevosita rahbarligida kengashning ish rejasini tuzadi, rejaga asosan ishlarni taqsim qiladi. Kengashning tashkiliy masalalarini hal qiladi, material to‘plash, ekspozitsiya tuzish, muzeydagagi navbatchilik jadvalini tuzish bilan bu ishlarning bajarilishini kuzatadi.

2. *Muzeyning katta saqllovchisi*. U muzeydagagi barcha materiallar va eksponatlarning saqlanishiga va o‘rni-o‘rniga qo‘yilishiga javob beradi. Muzey materiallarini hisobga olish daftari yuritadi va muzey materiallarining asl nusxalariga kartotekalar tuzadi.

3. *Muzey kengashining kotibi*. U sayohatlar va ilmiy safar ishlarning yakuniga bag‘ishlab o‘tkaziladigan va muzeydagagi barcha ishlarni bo‘yicha o‘tkaziladigan yig‘ilishlar qarorlarini muntazam yozib boradi. Barcha olib borilgan ishlarni hisobga olib boradi.

4. *Muzey kengashi a’zolari*. Ular ekspozitsiya tuzishga, material to‘plashga, ekspozitsiyalarni bezash ishlariga javobgar shaxslar tayinlaydi, maxalla fuqarolar yig‘ini oqsoqollari va ikkinchi jahon urushi faxriylari bilan uchrashuvlar tashkil qiladi va hakazolar. Bundan tashqari, Kengash a’zolari muzeyga materiallar yig‘ish, ilmiy safar va sayohatlar uyushtirish, muzeyshunoslikka oid bo‘lgan adabiyotlarni o‘qish, jamoat o‘lkashunosligi xodimlari va kolleksionerlar bilan suhbatlar, uchrashuvlar o‘tkazish bo‘yicha aniq reja tuzib chiqadilar.

Muzey kengashi yaqinroqda joylashgan tuman yoki viloyat o‘lkashunoslik muzeyi xodimlaridan ekspozitsiyalarni to‘g‘ri va ilmiy ravishda o‘rganish va joylashtirishda muntazam maslahat olib turishlari kerak.

Maktab muzeyi o‘zining asosiy fondida bo‘lgan materiallar haqida o‘lkashunoslik muzeylariga quyidagi shaklda ma’lumot berib turishi kerak: 1. Muzeydagagi topilmalarni tartib raqami. 2. Eksponatlarning inventar raqami. 3. Topilmalarning nomi. 4. Topilmaning topilgan joyi. 5. Topilmaning kim tomonidan topilib, muzeyga qachon topshirilgani.

Muzey Kengashining asosiy vazifalaridan yana biri o‘quvchilarining muzey ishiga doimiy faolligini oshirishdan, ya’ni material to‘plash, ekspozitsiya tayyorlash, muzeyni bezash, navbatchilik qilish kabilardan iborat. Maktab muzey kengashi tarkibiga ota-onalar qo‘mitasi a’zolaridan kiritish ham maqsadga muvofiqdir.

Maktab muzeyi fondiga quyidagilar: tarixiy va madaniy yodgorliklarning yoki topilmalarning asl nusxalari, moddiy topilmalar, yozma tarixiy manbalar, tasviriy san’at yodgorliklari, moddiy va ma’naviy manbalar, etnografiya va toponimikaga oid materiallar kiradi. Shuningdek, tuman yoki viloyat o‘lkashunoslik muzeylaridagi mavjud eksponatlardan ko‘chirmalar, fotosuratlar, har xil materiallardan o‘shanga o‘xshatib yasalgan maketlar ham kiradi.

Maktab muzeyini doimo materiallar bilan boyitib borish maqsadida quyidagi ishlar amalgalashiriladi: o‘rganilayotgan soha bo‘yicha muntazam ravishda material yig‘ib borish; buning uchun tartibli ravishda sayohat va ilmiy safarlar uyushtirib borish; muzey materiallarini boyitish maqsadida aholi qo‘lidagi mavjud topilmalarni yig‘ib olish va ularni ham bu ishga jaib qilish.

Maktab muzeyi fondi quyidagicha bo‘limlarga bo‘lib qo‘yilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Asosiy bo‘limlardan oldin maktab muzeyi tarixi haqida va uni tashkil etuvchilar to‘g‘risida, undagi eksponatlarning soni va undan o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘z faoliyatlarida qanday

foydalananayotganliklari haqida qisqacha ta’rif beriladi, so‘ng asosiy bo‘limlarga va ularda joylashtirilgan materiallarga ta’rif berish boshlanadi. Masalan, birinchi bo‘limni «Ibtidoiy jamao davri» deb nomlash mumkin. Bu bo‘limga asosan o‘z o‘lkasidan yoki o‘rganayotgan hududidan (agar shunday manbalar bo‘lsa) topilgan arxeologiyaga oid materiallar, masalan, Teshiktosh g‘orining yasama ko‘rinishi, M.M. Gerasimov tomonidan qayta qilingan 8-9 yashar neandertal bolaning darslikdagi haykalining tasviri, arxeologiyaga oid qazilmalar natijasida topilgan tosh davriga oid turli xil mehnat qurollari, sopol idishlarning siniqlari, xullas, paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza va temir davriga oid qurollardan namunalar, asl nusxalari bo‘limgan holda ularning yasama ko‘rinishlarini yoki ko‘chirma nusxalar qo‘yish mumkin.

Muzey uchun yig‘ilgan materiallar hajmiga qarab ikkinchi bo‘limni «O‘rta asrlar davri» deb nomlash va bu bo‘limga o‘rta asrlar davrida yaratilgan tarixiy va madaniyat yodgorliklaridan Samarqand, Buxoro va Xivadagi me’morchilik yodgorliklarini aks ettiruvchi fotosuratlar va Vatanimiz hududlaridan topilgan arxeologiyaga oid har xil topilmalar va sopol idish-tovoqlar (asl nusxasi bo‘lmasa rasmlari yoki yasama ko‘rinishlarini qo‘ysa ham bo‘ladi), o‘sha davrga doir tanga-chaqa pullardan namunalar qo‘yish mumkin. Uchinchi bo‘limni «O‘lkamiz Rossiya imperiyasi davrida» deb nomlash mumkin. Bunda Rossiya imperiyasi zulmidan mahalliy omma va jafokash, to‘rt devor ichida tutqinlikda huquqsiz kun kechirgan Sharq xotin-qizlari, jumladan, o‘z o‘lkasi xotin-qizlari hayotiga taalluqli bo‘lgan materiallardan qo‘yilsa, Qo‘qon xoni o‘rniga kelgan Rossiya imperiyasi hukumati zulmidan huvillab qolgan qishloqlar haqidagi ma’lumotlar muzey materiallarida aks ettirilsa o‘quvchilar ko‘z o‘ngida o‘tmish aniq tasvirlanadi va chorizm siyosatiga nisbatan qahr-g‘azab, mehnatkash ommaga nisbatan mehr-muhabbat uyg‘otadi.

To‘rtinchchi bo‘lim «Hozirgi davrda jonajon o‘lkam» deb nomlansa maqsadga muofiq bo‘ladi. Bu bo‘limda O‘zbekiston Respublikasining o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritib, unda yashayotgan xalqlar o‘z tarixi, madaniyati, o‘zligini anglagan, xorijiy davlatlar bilan ham iqtisodiy, ham madaniy aloqalar kun sayin yaxshilanayotgan hozirgi davrgacha bo‘lgan o‘z o‘lkasining iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotini isbotlovchi dalillar muzey eksponatlari qatoridan joy olsa, muzey o‘shandagina maktabning haqiqiy muzeyiga aylanadi va uning ta’lim-tarbiya ishlariga qo‘shayotgan hissasi yanada oshadi.

Xulosa qilib aytganda, viloyat va tuman o‘lkashunoslik muzeylarida saqlanayotgan materiallardan foydalananmay turib Vatanimiz tarixini ro‘y-rost yaratish mumkin emas. Shuning uchun «Maktab muzeyi» deb nomlangan mazkur mavzuni o‘rganishda tarix, inson va jamiyatdan dars berayotgan o‘quvchilar o‘z viloyat yoki tumanidagi o‘lkashunoslik muzeylarida saqlanayotgan materiallardan o‘rinli va unumli foydalanishlarini tavsiya etamiz. Shundagina biz maktab muzeyi materiallaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yan hamda o‘quvchilarning bu materiallardan o‘z vaqtida samarali foydalanishlariga erishgan bo‘lar edik.

4-SEMESTR

1-Mavzu: O‘rta Osiyo shaharlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi. (2 soat) **Reja.**

1. Shaxar tarixiy tushunchasini anglashdagi ilmiy uslubi yondashuvlar.
2. Qadimgi Sharq shaxar markazlarini paydo bo‘lishining asoslari va shart-sharoitlari.
3. O‘zbekiston xududlarida ilk shaxarlarning paydo bo‘lish xususiyatlari.

Tayanch so‘z va iboralar: Shahar, shahar tushunchasi, Qadimgi Sharq, Hind, Karappa, Jarqo‘ton, sivilizatsiya, madaniyat, davlatchilik, urbanizatsiya, bronza, ilk temir, moddiy madaniyat, arxeologik yodgorlik, arxeologiya.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
3. Asqarov A. Eng qadimgi shahar. T., 2000.
4. Asqarov A.A., Shirinov T.Sh. Rannyaya gorodskaya kultura epoxi bronzy Sredney Azii. Samarcand. 1993.
5. Asqarov A.A., Shaydullaev Sh..B. Baqtrianing bronza va ilk temir davri madaniyatlari xronologiyasi // O'zbekiston tarixi moddiy madaniyat va yozma manbalarda. – Tashkent: Fan, 2005.
6. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. –Toshkent.: "O'ZBEKISTON". 2015. 670 b.
7. Sagdullaev A.S. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi, 1996.
8. Sagdullaev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. O'quv qo'llanma. T., 2004.
9. Shamsutdinov R.,Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. T., «Akademnashr», 2019.-B.568.
10. Matbabaev B.X.,Mashrabov Z.Z. Andijon tarixi.(Qadimgi davrlardan XX asr boshlarigacha) – Toshkent: "Sharq".2014.-B.280.
11. Matbooev B.X. O'zbek davlatchiligining ilk bosqichlarida Farg'ona // O'zbek davlatchiligi tarixida qadimgi Farg'ona. – Namangan, 2001.
12. Eshov.B. sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. – Toshkent: Zar qalam, 2004; 126 b.
13. Eshov B.J. O'rta Osyoning qadimgi shaharlari tarixi. Darslik. Toshkent. 2008.
14. Eshov B.J. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. - T.: Yangi asr avlod, 2012.-B.556.

O'rta Osiyo sivilizatsiyasi jahon tarixi taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, mintqaq ilk shaharlari Qadimgi Sharqning madaniy, iqtisodiy va siyosiy shahar markazlari bilan uzviy aloqada o'ziga xos yo'nalishda taraqqiy etgan. Jumladan, O'zbekiston hududlaridagi ilk shaharsozlik va davlatchilik jarayonlari ham Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining muhim bo'g'inini tashkil etgan. O'rta Osiyo hududlarida eng qadimgi davrlardan boshlab turli tarixiy-madaniy jarayonlar taraqqiy topgan. Mintqaq qulay geografik joylashuvga ega bo'lib, Sharq va G'arb mamlakatlarini iqtisodiy va madaniy aloqalar tizimida bir-biriga bog'lab turgan.

Urbanizatsiya jarayonlarini tadqiq etish jahon tarixi fanining muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Qadimgi shahar madaniyati zaminida o'zbek davlatchiligining asosiy omillari va poydevori yotadi. Shaharsozlik va davlatchilik tarixi masalalarini o'rganish zaruriyati Respublika Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan maxsus ta'kidlab o'tildi.

Ilgarigi davr tarixiy adabiyotlarda kam hollarda «O'rta Osiyo sivilizatsiyasi», «Turon-Movarounnahr sivilizatsiyasi» tushunchasi ishlatalilar edi. «O'zbekiston sivilizatsiyasi» degan so'z esa umuman tilga olinmagan edi. So'nggi yillarda turli shaharlarning yubileyлari munosabati bilan o'tkazilgan maxsus ilmiy-tadqiqotlar va yangi kashfiyotlar natijasida O'rta Osiyo urbanizatsiyasi muammolariga qiziqish yanada kuchaydi va turli qadimgi shaharlarning tarixi yoritildi. To'plangan ilmiy ma'lumotlar, fanga joriy etilgan dalillar O'rta Osiyo shaharlari tarixini yangi asoslarda tadqiq etish, ilmiy yondashuvlar va konsepsiyalarni umumlashtirishni dolzarb vazifalardan biriga aylantirdi.

Yurtimizda ilk shaharsozlik asoslarining paydo bo'lishi, shakllanish bosqichlari asosan yozuvsız davrlarga to'g'ri keladi. Bu o'rinda arxeologik ma'lumotlarning ahamiyati nihoyatda ulkan bo'lib, ilk shaharlar tarixini tadqiq etishda, ulardan asl manbalar sifatida foydalanish dolzarbdir.

Mashhur arxeolog olim B.A.Ribakovning fikricha, arxeologyaning tarixiyligi nafaqat tarixning turli davrlaridagi voqealarni tashqi bog'lanishi va izchilligiga qarab tasvirlabgina qolmasdan, balki qator muhim tarixiy muammolar: xo'jalik tarixi, ijtimoiy rivojlanish tarixi, din va san'at, etnogeneze va

qadimgi qabilalar migratsiyasi tarixi, davlatchilikning paydo bo‘lishi masalalari, antik yoki o‘rta asrlar shaharlari masalalari, savdo-sotiq tarixi, madaniyatlarning o‘zaro almashinuvi kabi masalalarni o‘rganish bilan izohlanadi.

Haqiqatan ham, moddiy madaniyat-tarixning eng qadimgi bosqichlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanib, jamiyatnng olg‘a qarab rivojlanish xususiyatlarini va qonuniyatlarini ko‘p miqyosli turli-tuman materiallar orqali ochib berishga imkoniyat yaratadi.

Ayni paytda, haqiqiy tarixni ochib berish maqsadida arxeologik manbalarni tahlil qilish va gayta ishslash talab etiladi. Ushbu uslubiy yondashuv to‘laligicha shahar madaniyatining dastlabki bosqichlari uchun ham xosdir. Bu jarayonni o‘rganish uchun tarixiy va arxeologik o‘rganish uslublarining tahlili o‘ta muhimdir.

O‘rta Osiyoning qadimgi va o‘rta asrlar shaharlari va shahar manzilgohlarining o‘rganilish tarixi 100 yildan ziyodroq vaqtini o‘z ichiga oladi (bu jarayon xazina izlovchilar va havaskorlar qazishmalaridan boshlanib, ko‘p hollarda ilmiy uslubga rioya qilinmagan). Bu davrda ko‘p sonli maqolalar va to‘plamlar, mintaqaning ma’lum viloyatlari (Parfiya, Marg‘iyona, Xorazm, Baqtriya, So‘g‘d, Farg‘ona va Choch) shahar madaniyati tarixiga bag‘ishlangan monografiyalar bo‘limlari nashr yuzini ko‘rdi.

O‘rta Osiyoda ilk shaharlarning taraqqiyot bosqichlari mavzusi bo‘yicha bugunga qadar amalga oshirilgan tadqiqotlar orasida mintaqada shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi tarixini to‘la holicha qamrab oluvchi ilmiy tadqiqotlar juda kam. Ular asosan alohida shaharlар va tarixiy-madaniy viloyatlardagi shaharsozlik madaniyatiga bag‘ishlangan. Antik va o‘rta asrlar davri shaharlар taraqqiyoti haqida ko‘pdan-ko‘p ishlar amalga oshirilgan. Ammo mintaqada ilk shaharsozlik tarixi butun mintaqaga miqyosida ilmiy tadqiqot sifatida etarli darajada o‘rganilmagan.

Ayniqsa, qadimgi shaharlarning iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy va hududiy funksiyalari, ularning bir-biriga ta’siri va aloqadorligi haqida yoritilgan ma’lumotlar kam bo‘lib, ushbu dolzarb mavzu maxsus tahlilga muxtoj. Mavjud manbalar va ma’lumotlar qadimgi shaharlarni ishlab chiqarishning turli sohalari markazlari, iqtisodiy va texnologik yangiliklar maskanlari sifatida chuqurroq o‘rganilishiga imkon beradi.

Qadimgi shaharlар tarixini o‘rganishning eng asosiy xususiyatlaridan yana biri shundaki, sivilizatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan yangi shaharsozlik madaniyati markazlarining turli hududlarda paydo bo‘lishi o‘zining ahamiyatiga ko‘ra, jamiyat rivojlanishining o‘zaro aloqalari va umummadaniy an’analarida ham kuzatiladi. Masalaning kam o‘rganilgan ushbu jihatlarini tadqiq etish muhim vazifadir.

Ilk shaharlар tarixida ro‘y bergen madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni, ilk shaharlар taraqqiy etishining asosiy omillari va sabablarini zamonaviy yondashuvlar asosida aniqlash maqsadidan kelib chiqib, darslik oldiga quyidagi asosiy vazifalar qo‘yildi:

-qadimgi O‘rta Osiyo shahar madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi tarixi mavzusida tarixiy mazmunga ega maxsus tadqiqotni yaratish jarayonida arxeologiya ma’lumotlarini tarixiy manba sifatida umumlashtirish hamda arxeologik ma’lumotlarni tarixga yo‘naltirishning beqiyos ahamiyatini ko‘rsatib berish;

-«shahar»ni tarixiy tushuncha sifatida izohlash haqidagi turli konsepsiylar va yondashuvlarni ko‘rib chiqish va ushbu tushuncha bo‘yicha qilingan ilmiy tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib, ilk

shaharlар haqidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar hamda konsepsiyalarni o‘zaro qiyosiy taqqoslash asosida ilmiy xulosalar chiqarish;

-ilk shaharlар paydo bo‘lish shart-sharoitlari va o‘ziga xos xususiyatlarini, asosiy omillarini arxeologik ma’lumotlar asosida qiyosiy va umumlashma holatda o‘rganish;

-Qadimgi Sharq va jahon tarixidagi ilk shaharsozlik madaniyati taraqqiyoti qonuniyatlarini tahlil etish, urbanizatsiya jarayonlarining yangi tarixiy-madaniy viloyatlar paydo bo‘lishidagi ahamiyatini

ko'rsatib berish;

-bronza va ilk temir davri O'rta osiyoda shahar madaniyati rivojlanishining xarakterli jihatlari, o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini qiyosiy tahlillar orqali ochib berish,

-mintaqadagi urbanizatsiya jarayonlari davrlashtirilishiga aniqliklar kiritish;

-janubiy Turkmaniston va O'zbekistondagi ilk shahar markazlarini izohlash, O'rta Osiyo shahar madaniyati rivojlanishining umumiy va o'ziga xos jihatlarini tahlil etish;

-O'rta Osiyo hududlarida ilk davlatchilikning paydo bo'lish asoslarini ko'rib chiqish va bu jarayonda shaharlarning ahamiyatini, ularning iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy va hududiy funksiyalarini yangi ma'lumotlarga tayangan holda tadqiq etish;

-Ahmoniylargacha bo'lgan davr qadimgi Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm va Farg'ona shaharsozlik madaniyati tarixini umumlashtirilgan holda o'rganish va xulosalar chiqarish;

-Ahmoniyalar davri shaharsozlik madaniyatini arxeologik va yozma manbalarni qiyosiy taqqoslagan holda tadqiq etish.

Tarixiy hodisalar va voqealarning tarixiy aniqligida, tarixiy-madaniy taraqqiyot bosqichlarida shunday jihatlar borki ularni bir-biri bilan mantiqan taqqoslash, qiyosiy solishtirish asosida o'rganish, qo'yilgan masalaga ko'pgina oydinliklar kiritishi tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgan. Chunonchi, O'rta Osiyo, umuman dunyo tarixida ro'y bergen urbanistik (shaharsozlik) jarayonlar xususida turli davrlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalarini tahlil etish va qiyoslash bu jarayonni chuqur va har tomonlama ta'riflash imkonini beradi. Shuning uchun ham ilk shaharlar tarixini haqiqiy manbalar – arxeologik va yozma ma'lumotlar asosida tahlil etish – jamiyatda ro'y bergen qadimgi tarixiy-madaniy jarayonlarni anglab etishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Ko'p hollarda "urbanizatsiya jarayoni" deyilganda turli davrlardagi tarixiy-madaniy bosqichlarda va shart-sharoitlarda turli vazifalarni bajargan shaharlarning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayonlari tushuniladi.

Jamiyatda ro'y bergen urbanistik jarayonlar va taraqqiyot darajasining asosiy omillari xususida tadqiqot ishlari olib borgan ko'pchilik tadqiqotchilar «ilk shahar» yoki «shahar» tushunchasini bir-birlariga bog'liq bo'lмаган holda turlicha talqin qilishlariga qaramay, ko'p hollarda ular tadqiqotlari xulosalarining bir-biriga ancha yaqinligini kuzatishimiz mumkin. Shunisi diqqatga sazovorki, ko'pchilik tadqiqotchilar (V.Masson, B. Litvinskiy, V.Sarianidi, I.Dyakonov, A.Asqarov, T.Shirinov, B. Udemurodov, I. Masimov va boshq.) O'rta Osiyodagi urbanistik jarayonlarning asoslari eng qadimgi davrlarga borib taqalishini ta'kidlagan holda, uning boshlanishini eneolit-bronza davri bilan belgilaydilar va o'z xulosalarini dalillar bilan isbotlashga xarakat qiladilar.

Avvalo shunga e'tibor berish lozimki, tarixiy, ilmiy va sotsiologik adabiyotlarda ko'plab uchraydigan «urbanizatsiya» («shaharlashish», «shaharlashuv», «shaharlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi» yoki «shaharsozlik madaniyati») tushunchasining mohiyat va mazmunini tadqiqotchilar turlicha talqin etadilar hamda bu borada ular orasida aniq bir fikrga kelinib, yagona konsepsiya yaratilmagan.

Ushbu yo'naliш bo'yicha tadqiqot ishlari olib borgan mutaxassislarini shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lishimiz mumkin:

– xorijlik tadqiqotchilar. Ular o'z ilmiy ishlarida urbanizatsiyaning jamiyat taraqqiyotida etakchi o'rinda turishini ta'kidlagan holda, qishloqlar va shahar atroflarining ham shahar qulayliklaridan keng foydalanganligini e'tirof etadilar (Soberg, Trigger, Kristaller, Oppenxeym, Veber va boshq.);

– sobiq ittifoq davridagi tadqiqotchilar. Ular ushbu yo'naliшdagи tadqiqotlarga turli hududlarda shaharlar sonining ortib borishi hamda shahar aholisining ko'payib borishini asosiy mezon qilib olgandilar (V. Masson, B. Litvinskiy, M. Dyakonov, E. Rtveladze, A. Sagdullaev va boshq.);

– ushbu guruhdagi toifaga kiruvchi tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlariga migratsiya (ma'lum hudud

aholisining shaharlarga ko‘chishi va orqaga qaytishi) qadimgi yo‘llar va xalqaro aloqalar jarayonlarini asosiy mezon qilib olishgan. (V.Sarianidi, A.Asqarov, T.Shirinov va boshq.).

Ibtidoiy turmushdan jamiyat rivojlanishining nisbatan yuqori pog‘onasiga o‘tishning umumiyl manzarasini tadqiq etish hozirgi kunda uslubiy yondashuvni yanada chuqurlashtirish hamda ushbu tadqiqotlarda aniq yo‘nalish ishlab chiqishni talab etmoqda. SHu nuqtai nazardan ham shaharlarni urbanizatsiya jarayonining asosiy mezoni sifatida talqin etish masalasi nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Metodologik jihatdan shaharni faqat yangi shakldagi jamiyat toifasiga kiruvchi hodisa emas balki, muhim va asosiy omil deb hisoblash ham nihoyatda muhimdir. Fikrimizcha, bu jihatdan shaharlarning paydo bo‘lishini tuzumdagi yangi ijtimoiy belgilarning yuzaga kelishi va shakllanayotgan tuzum aloqalari hamda munosabatlari bilan emirilayotgan ibridoij jamiyat o‘rtasidagi qarama qarshilikni bartaraf etuvchi jarayon sifatida ta’riflash maqsadga muvofiqli.

Dastlabki shaharlar markazlarining tuzilishi va o‘ziga xos xususiyatlarni tahlil etish shaharlar tarixini o‘rganish uchun nihoyatda muhimdir. Ijtimoiy-iqtisodiy tahlil jarayonida foydalaniladigan tushuncha nuqtai nazardan qadimgi shaharlar-aholi bir erda zich joylashgan joy, ishlab chiqarish qurollari va vositalari markazlashgan hudud, madaniy va mafkuraviy imkoniyatlar markazi, o‘ziga xos hunarmandchilik va savdo-sotiq vazifalarini bajaruvchi yirik punktlar sifatida izohlanadi.

Turli tarmoqlar markazlashgan hudud sifatida shaharlarning ahamiyati avvalo, zich qurilgan inshootlar va mahobatli me’morchilikning rivojlanishi bilan izohlanadigan shakli xususiyatlarda o‘z aksini topadi. Ma’lumki, ibridoij jamoa munosabatlari emirilishi bilan me’morchilikda, odatda, shahar markazlarida joylashadigan nufuzli inshootlar – qal’a, saroy va ibodatxonalar majmularining o‘ziga xos qurilish uslublari ishlab chiqiladi. Aholi joylashuvining miqdoriy belgilari turli xo‘jaliklardagi, birinchi navbatda, dehqonchilik tizimidagi aholi zichligi bilan mos tushmog‘i lozim. Ma’lum hududni yoki manzilgohni (qishloqni) shahar sifatida izohlashda tashqi miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan birga ichki sifatiy va tuzilishga oid o‘zgarishlar ham nihoyatda muhimdir.

I.Shifmanning fikricha, shahar erkin aholining ijtimoiy tashkilot shakli sifatida o‘zining ichki va tashqi ishlarida mustaqil hokimiyatni u yoki bu darajada amalga oshiradigan fuqarolar jamoasini o‘zida aks ettiradi. Ijtimoiy uyushma sifatida shahar hokimiyat organlarining ma’lum tartibiga ega bo‘ladi. SHahar uyushmasi uchun mustahkamlangan markaz va markazdan chetda bo‘lib, unga bo‘ysunuvchi fuqarolarning turli inshootlardan iborat turar joylari mavjudligi ham xosdir. SHahar qishloq jamoalaridan paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Fikrimizcha, shaharlarning qishloq jamoalardan farqi shundaki, u o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlardan tashqari davlatga xos bo‘lgan xususiyatlarni ham o‘zida mujassamlantiradi.

O‘z xususiyatiga ko‘ra «shahar»ni ta’riflash turlicha bo‘lishi mumkin. Shaharlar uchun faqat bir narsa – ular bir-biriga tutash (nisbatan bo‘lsa ham) manzilgohlarni, aholi yashash hududini, bir yoki bir nechta alohida joylashgan turar joylarni o‘zida aks ettirishi umumiydir. Odatda, «shahar» deyilganda bu atamadan boshqa yana bir miqdoriy belgi – shahar katta manzilgoh ekanligi ham nazarda tutiladi. Bizningcha, ushbu atama o‘z ma’nosiga deyarli mos tushadi. Xususan, O‘rta Osiyo, umuman dunyo tarixidagi eng qadimgi shaharlarning shakllanishi va rivojlanishini tahlil etganimizda ushbu fikrning to‘g‘riliyi ayon bo‘ladi.

Sotsiologik nuqtai nazardan «shahar» – bir-biriga tutash uylardan iborat aholi zich joylashuvi turar joylari sifatida izohlanadi. Bunday ta’rifdan so‘ng katta qishloqlarni «shaharlar» deb hisoblash bilan kifoyalanish ham mumkin. Fikrimizcha, ushbu ta’rifning haqiqatga qanchalik yaqin ekanligi va ob’ektivligi umumiyl tarixiy-madaniy shart-sharoitlarga (paydo bo‘lish shart-sharoitlari, aloqalari, joylashuvi va boshq.) bog‘liqidir.

Iqtisodiy nuqtai nazardan shaharni aholining katta qismi qishloq xo‘jaligi emas, balki, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi hudud sifatida ta’riflash mumkin. Bizning

fikrimizcha, shunga o‘xhash barcha hududlarni ham «shaharlar» deb atash maqsadga muvofiq emas. Tarixiy adabiyotlarda odatda, viloyat va tumanlarning madaniy, xo‘jalik va ma’muriy markazlari bo‘lgan yirik manzilgohlar «shaharlar» sifatida talqin etilib, ular haqiqatdan ham, tom ma’nodagi hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Arxeologik tahlil paytida ishlataladigan tushuncha nuqtai nazaridan qadimgi shaharlar – aholi markazlashib yashaydigan yirik hududlar, ishlab chiqarish va madaniy markazlar, muntazam savdo-sotiq va hunarmandchilik vazifalarini bajaruvchi o‘ziga xos markazlar sifatida kuzatiladi va talqin etiladi. Qadimgi manzilgohlarning paxsa uylardan iborat zinch qurilgan inshootlarini hisobga olgan tadqiqotchilarining fikricha, ularning muhim ahamiyatga ega bo‘lgan miqdoriy chegara o‘lchamlari ilk shahar markazlari shakllanib rivojlangan Mesopotamiya va qadimgi Baqtriya uchun 6-7 gektardan iboratdir. Tadqiqotchilar aynan shunga o‘xhash, ya’ni maydoni 6-7 gektardan ortiq barcha manzilgohlarni «shaharlar» deb e’tirof etadilar. Shuningdek, O‘rta Osiyoning janubidagi ilk shaharlarning minimal maydonining shartli chegarasi 3-6 gektar bo‘lishi mumkin degan fikr ham bor. Bu o‘rinda shaharlar uchun xos bo‘lgan boshqa ko‘pgina xususiyatlarni ham hisobga olish o‘ta muhimdir. Fikrimizcha, ichki, sifatiy va rejaviy xususiyatlar ham nihoyatda muhimki, ular tashqi va miqdoriy o‘zgarishlar bilan bir qatorda ayrim manzilgohlar guruhini «shaharlar» deb ta’riflash uchun imkoniyatlar yaratadi.

Bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchi bir jamiyatga o‘tish davrida shaharlarning paydo bo‘lish jarayoni ham muammoli masala hisoblanadi. Bu davrda «shahar tuzilmalari» ilk dehqonchilik qabilalarining ilgari mavjud bo‘lgan tuzilmalari asosida o‘sib boradi. Ayrim tadqiqotchilarining fikricha, bu jarayonni «shaharsozlik inqilobi» deyish mumkin. «Shaharsozlik inqilobi» deganda, ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaladigan va mehnatning ikkinchi yirik taqsimoti (bronna davrida hunarmandchilikning boshqa xo‘jalik turlaridan alohida ixtisoslik sifatida ajralib chiqishi) bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan hamda qadimgi sivilizatsiyalar iqtisodiy va madaniy shakllanishiga olib keladigan aniq tarixiy jarayonni tushunish lozimdir.

«Shahar» tushunchasini turli tadqiqotlar asosida tahlil etib talqin qilar ekanmiz, shunga alohida e’tibor berish lozim bo‘ladiki, bu tartibda asosiy belgi shaharning o‘zi hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda «shahar» tushunchasini har tomonlama izohlash nihoyatda muhimdir. Demak, bu boradagi ayrim tadqiqotchilar qarashlarini qiyoslaymiz. I.M. Dyakonov «shaharni» atrof manzilgohlar unga tutash markaz, Shuningdek, ixtisoslashgan hunarmandchilik, mahsulot va boshqa turdagি almashuvlar hamda zahiralari markazi deb hisoblaydi. V.M. Masson esa, anchagina umumiyligini va ko‘pchilikka ma’lum ushbu izohga «yirik markaz» tushunchasini ham qo‘shish lozim⁴ degan fikrni bildiradi. V.I. Ionesovning fikricha, «ilk shahar» sivilizatsiyasi paydo bo‘lishi va rivojlanishi yo‘nalishidagi ijtimoiy-madaniy jarayonlar avvalo, bo‘linib ketish va alohida birlashish yo‘llari orqali takomillashib, rivojlanib boradi.

Juda ko‘plab arxeologik materiallar tahlili asosida xulosa chiqargan T.Shirinovning fikricha, bronna davri O‘rta Osiyoning ilk shaharlari qishloq xo‘jalik atrof hududlar markazi, vohalarning hunarmandchilik, ma’muriy va diniy markazi edi.

Ma’lumki, o‘tgan asrning o‘rtalarida ingliz olimi G.Chayld boshqa belgilardan tashqari aholisi 5000 va undan ortiq bo‘lgan aholi yashash hududlarini «shahar» deb hisoblash mumkinligi haqida taklif kiritgan edi. Bu holat, misol uchun dehqonchilik aholisining zinchligi yuqori bo‘lgan Mesopotamiya uchun xos bo‘lishi mumkin. Ammo boshqa hududlardagi aholisi ancha kam bo‘lgan kichik shaharlarni ma’lum bir toifalarga yoki guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Tuzilish-vazifaviy tahlil nuqtai nazaridan qadimgi shaharlar yagona bir butun tizim sifatida izohlanishi mumkinki, bunda asosiy belgilari (reja, o‘lcham, ishlab chiqarish markazlari, me’moriy inshootlar, shahar madaniyati va boshqalar) bir-biriga munosabat nuqtai nazaridan tashqi ob’ektlarni

emas, balki shu munosabatlar tufayli butunlay yangi sifat oladigan mazkur tizimning o‘zaro bog‘liq qismini o‘zida aks ettiradi.

Shahar tushunchasini anglash va uni ishlab chiqishdagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar haqida gap ketar ekan, I.M. Dyakonov va V.A. Yakobsonlar mil. avv. III ming yillik qadimgi Shumer misolida shahar-davlatlar shakllarini aniqlovchi ayrim belgilarini ajratadilar. Bular - unchalik katta bo‘limgan hudud, bir hududiy jamaa yoki bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘lgan bir nechta jamaa chegarasida joylashuv, tabiiy chegaralar: tog‘lar, atrof vohalar, dashtlar, sug‘orish kanallari o‘rab turgan kengliklar, bosh xudo ibodatxonasi va uning atrofida ma’muriy xo‘jalik hamda hunarmandlar ustaxonalari joylashgan markazlar, bu hududni o‘rab turgan devorlardir. Fikrimizcha, ushbu konsepsiya, «ilk shahar» tushunchasining ko‘pgina jihatlarini o‘zida mujassamlantiradi va bu jarayonni izohlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Shuningdek, Dyakonov – Yakobson konsepsiyasiga ko‘ra, qadimgi Sharq ilk shaharlari asosan ma’lum bir butun vohalarning iqtisodiy-siyosiy markazlari sifatida, butun vohada etishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini markazlashtirish va qayta taqsimlash vazifasini bajargan. YA’ni bu funksiya ilk davlatchilik tizimi kuchi bilan amalga oshirilib uning markazi ilk shahar tuzilishida mujassamlashgan: ma’muriy hokimiyat – saroyda, diniy-mafkuraviy hokimiyat esa ehromlarda, ya’ni Sharqda ilk shaharlarning asosiy vazifasi shakllanayotgan ilk davlatlarning iqtisodiy hayotini boshqarib uni taraqqiyot sari yo‘naltirgan.

Bu konsepsiya haqiqatga ancha yaqin bo‘lib ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilgan. Fikrimizcha, uni ko‘p hollarda mil.avv. III ming yillikdayoq tom ma’nodagi davlatchilik shakllana boshlagan Misr va Mesopotamiyaga nisbatan qo‘llash mumkin. O‘rtal Osiyoning janubidagi Oltindepa, Namozgoh, Sopolli, Jarqo‘ton kabilar ma’lum davlatlarning markazlari emas edi. Chunki, bu davrda hali davlatlar paydo bo‘limgan edi. Boshqa hududlarda esa bu jarayon nisbatan kechroq boshlangan.

V.V.Bartold tomonidan ishlab chiqilgan shahar haqidagi konsepsiya O‘rtal Osiyo shaharsozligi masalalarini tadqiq etish jarayonida nisbatan ko‘proq yoyilgan bo‘lib, tadqiqotchi bu konsepsiyasida IX-XII asrlar shaharlari uchun uch qismli tuzilish (ark, shahriston, robot) xususiyatli deb hisoblaydi. Ammo shunga e’tibor berish lozimki, ushbu xususiyat faqat o‘rtal asrlar shaharlarga xos bo‘lib, yanada qadimgiroq davr shaharlari tuzilishi ko‘p hollarda bundan mustasno.

So‘nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ilk shaharlari rivojlanishida yagona reja yo‘qligi va uch qismli shahar tuzilishi O‘rtal Osiyoning barcha shaharlari uchun xos emasligi tasdiqlanmoqda. Fikrimizcha, ushbu holat, tabiiy-geografik shart-sharoitlar va albatta, ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy-siyosiy omillar bilan izohlanadi.

T.Sh.Shirinovning fikricha, «shahar» tushunchasini izohlayotgan paytimizda izohlanayotgan shahar qaysi davrga oid ekanligi nihoyatda muhimdir. Chunki, dastlabki shaharlari, antik davr yoki o‘rtal asrlar shaharlari tuzilishi va bajargan vazifasi nuqtai nazaridan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, qadimgi manzilgohlarni o‘rganishda gektarlarda aks etadigan hududiy (yoki o‘lchovga oid) yondashuv «shahar» tushunchasini ifodalash uchun unchalik ham ishonchli emas. Ammo bu yondashuvni butunlay inkor etib ham bo‘lmaydi. Bu holatni ayniqsa, O‘rtal Sharq sug‘orma dehqonchilik madaniyati manzilgohlarni o‘rganish jarayonida kuzatish mumkin. O‘lchamlari nuqtai nazaridan «shahar» tushunchasi izohlanayotgan paytda ilk shaharning shartli chegara maydoni 3-6 hektar bo‘lishi mumkin. SHunday o‘lchamga ega bo‘lgan manzilgohlarning ichki tuzilishini hisobga olgan holda ularni shaharlari safiga kiritish mumkin.

Tadqiqotchilar «shahar» tushunchasini ularning vazifaviy holati nuqtai nazaridan ham ifodalaydilar. Bu borada tadqiqotchilarning bir-birini inkor etuvchi turli fikrlari mavjud. Ayrim xorijlik olimlar manzilgohlarning bosqichma-bosqich rivojlanishida siyosiy jihatdan ustun mavqega ega bo‘lgan har qanday manzilgohni shahar deb e’tirof etadilar.

Boshqa bir guruh olimlar esa aholisi dehqonchilik bilan shug‘ullanmaydigan manzilgohlarning barchasini shaharlar qatoriga kiritishni taklif etadilar. Yana bir guruh olimlar esa faqat siyosiy markaz vazifasini bajargan manzilgohlarni shaharlar deb hisoblaydilar.

O‘rta Osiyoning ilk shaharlari dastavval, xo‘jalik hamda ma’lum dehqonchilik vohalarining markazlari bo‘lib, ulardagi aholi geografik sharoitlardan kelib chiqib, ko‘p hollarda atrof hududlarda dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ochilgan ko‘p sonli moddiy madaniyat buyumlari shundan dalolat beradiki, bronza davri O‘rta Osiyoning ilk shaharlari atrof qishloq xo‘jalik markazlari, ma’muriy va diniy markazlar hisoblangan. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, ilk shaharlar vazifaviy holatida savdo-sotiq, harbiy, siyosiy va madaniy jarayonlar ham muhim o‘rin egallagan.

O‘rta Osiyoda urbanizatsiya jarayonlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi masalalari hali ko‘plab tadqiqotlar talab etishiga qaramay, tadqiqotchilarning turli fikrlarini umumlashtirib tahlil etganimizda shu narsa aniq bo‘ladiki, dastlabki, eng qadimgi shaharlarga hozirgi «shahar» tushunchasi nuqtai nazaridan yondoshish maqsadga muvofiq emas. CHunki, paydo bo‘lish va shakllanish nuqtai nazaridan, hamda asosiy shaharsozlik belgilari va bajargan vazifasi nuqtai nazaridan ilk shaharlар hozirgi, hattoki, o‘rta asrlar shaharlaridan ham keskin farqlanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar shunday xulosa chiqarish imkonini beradiki, dastlabki shaharsozlik madaniyati dunyoning turli hududlarida turli davrlarda shakllanib rivojlanganligi kabi, shaharlar paydo bo‘lgan ilk davrida yoki rivojlangan davrida turli vazifalarni bajargan va turli bosqichlarda taraqqiy etish jarayonida turli davrlarni boshdan kechirgan bo‘lishi mumkin.

Shaharlar tarixini tahlil etish jarayonida markaziy poytaxt shaharlaridan tashqari, shahardavlatlar, agrar (dehqonchilik) shaharlar, savdo shaharlari (ayrim hududlarda port shaharlar) va shu kabilar bo‘lganligini kuzatishimiz mumkin. Tadqiqotchilarning fikricha, har bir tarixiy davrda o‘sha davr tarixiy-madaniy jarayonlari, o‘ziga xos xususiyatlari va taraqqiyotidan kelib chiqib o‘ziga xos «shahar» tushunchalari bo‘ladi. Misol uchun, «ilk shaharlar», «antik davr shaharlari», «o‘rta asr shaharlari» va hokazo. Shuning uchun ham urbanizatsiya jarayonining turli davrlardagi o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib shaharlarni eng qadimgi, qadimgi, o‘rta asrlar va zamonaviy shaharlarga bo‘lishimiz mumkin. Bu o‘rinda ular o‘sha davrda bajargan vazifalarini hisobga olish ham nihoyatda muhimdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shahar – odamlarning nisbatan qadimgi va shu bilan birga eng zamonaviy hududiy joylashuv shakli bo‘lib, uning taqdiri va gullab-yashnashi bilan unda yashovchi har bir fuqaro qiziqishi tabiiyidir. Shaharlarning paydo bo‘lishi, mavjudlarining rivojlanishi atrof-muhitning o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq bo‘lib bu jarayon ijtimoiy tuzum taraqqiyoti va xususiyatini o‘zida aks ettiradi. Shuningdek, har bir tarixiy davr shaharsozligining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

Shahar – bu insoniyat tomonidan tabiiy yaratilgan hayotiy zarurat bo‘lib, uning har tomonlama faoliyat ko‘rsatishi uchun o‘ta muhimdir. Jamiyat taraqqiyoti natijasida shahar shakllanadi, rivojlanadi va kengayib boradi. Shahar – me’morchilik va qurilish faoliyatining nisbatan yuqori va murakkab ko‘rinishidir. Aynan Shuning uchun ham shaharlarning paydo bo‘lishi me’morchilik inshootlarining qad ko‘tarishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shahar – bu rejali, murakkab tuzilishga ega hudud bo‘lib bu erda ishlab chiqarish kuchlari, madaniy an'analar, ixtisoslashgan hunarmandchilik kabilalar markazlashadi. Shaharlarning taraqqiy etishi ko‘plab omillar, avvalo, aholining o‘sishi va uning mehnat faoliyati hamda turmush tarzi bilan bevosita bog‘liqdir.

Jamiyatdagi ma’lum bo‘g‘in sifatida ilk shaharlarning paydo bo‘lishi butun jamiyat hayotidagi chuqur sifatiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu tarixiy-madaniy rivojlanish natijasida shaharlar qishloqlardan kelib chiqadi. Ushbu jarayon natijasida ikkala qarama-qarshilik birlashuviga asoslangan jamiyat rivojlanishining davr taqozo etgan o‘ta muhim yangi qonuniyatlarini ma’lum tuzum sifatida

o‘rnataladi. Muhim yangi ijtimoiy jarayon sifatida shaharlar shakllanishidagi dastlabki shart-sharoitlar ilg‘or va nisbatan jadal rivojlangan (ma’lum tarixiy va tabiiy sharoitlarda, albatta) jamiyatda, ko‘p qirrali mehnat taqsimoti jarayonining doimiy chuqurlashuvi natijasida paydo bo‘ladi.

Ilk shaharlarning paydo bo‘lish asoslari va omillari masalalari bo‘yicha turli yillarda V.M. Masson, B.A.Litvinskiy, A.A.Asqarov, V.I. Sarianidi, E.V.Sayko, I.M.Dyakonov, G.E.Areshyan, T.Sh.Shirinov, E.V.Rtveladze, A.S.Sagdullaev hamda qator xorijlik olimlar tadqiqot ishlari olib bordilar. Ularning turli hajmdagi maqolalari va monografiyalarida ilk shaharlar paydo bo‘lish asoslari, omillari va shart-sharoitlar, dunyo tarixidagi qadimgi shaharlar bilan qiyosiy tahlil masalalari ko‘rib chiqildi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, kammahsul mehnat va ishlab chiqaruvchi kuchlarning nisbatan past darajasi sharoitida mehnat taqsimoti jamiyat rivojlanishining yagona asosi edi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, doimiy tabaqlanish jarayoni va ishlab chiqarish faoliyatining ixtisoslashuvi mehnatning umumiyligi hajmi va qo‘sishma mahsulot o‘sishini ta’minlab, ehtiyojlardan tartibining murakkablashuviga olib keladi. Fikrimizcha, bu jarayon esa o‘z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-maishiy munosabatlarning keyingi tabaqlashuvi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga qaraganda, sivilizatsiyaning eng qadimgi o‘choqlarida dastlabki dehqonlarning mehnat sharoitlari hamda ta’moti, mehnatning tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tobora o‘ziga xos bo‘lib borayotgan tashabbuskorlik, bonyodkorlik, harbiy va diniy vazifalarning alohida bo‘lishiga olib keladi (2-jadval). Ayni paytda, dastlab tabaqaviy tengsizlik ko‘rinishida bo‘lgan ijtimoiy tabaqlanish bo‘lib o‘tadi. Shuningdek, mulkiy tengsizlik va shaxsiy qaramlikning paydo bo‘lishi uchun imkoniyatlar yuzaga keladi.

Siyosiy jamiyatdagi ijtimoiy tabaqlanishning xususiyatlari va darajasini izohlash paytida, turli munosabatlarni emas, balki urug‘ jamoasining ustunlik qilishini hisobga olgan holda, qadimgi ko‘mish marosimlari, turar joylar va boshqalardan tabaqlanish haqidagi arxeologik ma’lumotlarning tarixiy tahliliga ehtiyyotkorlik bilan yondashuv talab etiladi. Ko‘p qirrali mehnat taqsimotining umumiyligi tartibda ajralishi va turli ko‘rinishdagi boshqaruv vazifalari manzilgohlar turlarining o‘lchamlariga ko‘ra hamda jamoat ishlarining tashkiliy ahamiyatiga qarab tabaqlanishga imkoniyat yaratdi.

Demak, quyidagi shart-sharoitlar ilk shaharlar paydo bo‘lishi uchun asosiy va muhim o‘rinda turadi:

1. Qishloq (manzilgoh)larning aholi soniga qarab kengayib borishi.
2. Qishloq (manzilgoh)larda aholi tabaqlanishining boshlanishi.
3. Mehnatning markazlashuvi va mehnat faoliyatining chuqurlashib borishi.
4. Mehnatning yangi ehtiyojlarni qondirishdagi zaruriy shart sifatida ixtisoslashuvi (3-jadval).

Bronza davridagi mehnatning ikkinchi yirik taqsimoti ilk shaharlar shakllana boshlanishi uchun muhim imkoniyat yaratibgina qolmay, bu jarayonning asosiy iqtisodiy omili ham bo‘ldi. Ushbu mehnat taqsimoti natijasida hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi. Bu jarayon natijasida jamiyatda ishlab chiqarish bo‘g‘inlarining xususiyatlari va uning tuzilishida o‘zgarishlar bo‘lib o‘tadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatdagi ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning rivojlanishi va ijtimoiy mehnat taqsimoti ilk shahar madaniyati paydo bo‘lishining dastlabki shart sharoitlari hisoblanadi. Tarixiy-madaniy va ijtimoiy-tarixiy tadqiqotlar urbanizatsiya jarayoni shakllana boshlangan davrdagi ishlab chiqaruvchi iqtisod darajasi va ijtimoiy mehnat taqsimoti shakllarini aniqlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning mavjud darajasi alohida boshqaruv ittifoqi va ijtimoiy hayotni boshqarishga bo‘lingan jamiyat tashkilotining anchagina tabaqlashgan shakliga mos tushadi. Dastlabki shaharlarning ijtimoiy hayotdagi sifatiy yangilik darajasi o‘ziga xos bo‘lib, u har tomonlama qishloq jamoalari turmush tarzidan keskin farqlanadi.

Ilk shaharning paydo bo‘lishida ko‘plab ijtimoiy-madaniy xususiyatdagi omillar sabab bo‘lishiga qaramay, turli sharoitlarda u yoki bu guruh nisbatan ustunlik qiladi. Fikrimizcha, aniq tarixiy-madaniy sharoitlarda shahar madaniyatining shakllanishi ijtimoiy-iqtisodiy (hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi), harbiy-siyosiy (mudofaa inshootlariga bo‘lgan ehtiyoj) va boshqaruv (boshqaruv tizimining ajralishi) tartiblarining mavjudligi bilan uzviy bog‘liqdir.

Mehnat taqsimotini shaharlar paydo bo‘lishidagi asosiy sabablardan biri sifatida ko‘rib chiqayotgan paytimizda bu jarayonning dastlabki davrda nisbatan tor hudud doirasida yuz berishini ham alohida qayd etish zarur. Shahar madaniyatining shakllanishi xo‘jalik-madaniy tiplar o‘rtasidagi mehnat taqsimoti rivojlanib, ayrim jamoalar o‘rtasidagi mehnat taqsimotiga aylanish darajasiga mos keladi.

Ilk shahar madaniyatining muhim ko‘rinishlaridan biri – aholining turli qatlamlari yashovchi turli shakldagi aholi punktlarining paydo bo‘lishi va o‘zaro munosabatlari hisoblanadi. Bu o‘rinda shunga alohida e’tibor berish lozim bo‘ladiki, shahar madaniyatining shakllanishi etnogenetik jarayonlarda sifatiy yangi bosqich boshlanganligidan dalolat beradi.

Mil. avv. IV ming yillikning oxiri – III ming yillikning boshlariga kelib O‘rta Osiyoning ko‘pgina hududlarida o‘troq dehqonchilik iqtisodiyoti va aholining o‘sishi natijasida yirik aholi manzilgohlari – oziq-ovqat zaxirasi, hunarmandchilik faoliyati, jamoa ibodatxonalari hamda hokimiyat organlari markazlashgan hududlarga – qishloq xo‘jalik viloyatlari yoki vohalarning markazlariga aylanib boradi.

Ilk shaharlarning vazifaviy holati hamda ularning ichki tuzilishi o‘ziga xos xususiyatlarga, o‘z rivojlanish shakliga ega. Shuni alohida ta’kidlash joizki, bronza davri O‘rta Osiyo shaharsozligining shakllanishida sug‘orma dehqonchilik asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, O‘rta Sharqning ayrim ilk shaharlari bundan mustasno (misol uchun, Afg‘onistonidagi Mundigakning shakllanishida lojuvard-tranzit yo‘li katta ahamiyatga ega bo‘lgan).

Jahon tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, urbanizatsiya jarayonlari barcha hududlarda bir xil kechmagan va bu jarayon bir necha davr va bosqichlardan iborat. Misol uchun, mil. avv. IV ming yillikning ikkinchi yarmida Misrda Enxab (Nexen) va Buto shaharlari poytaxt shaharlar sifatida mavjud bo‘lgan bo‘lsa, mil. avv. III ming yillik boshlarida Mesopotamiyada Kish, Uruk, Lagash, Umma, Larsa kabi yirik shaharlar bor edi.

Qadimgi Elam va Erondag‘i dastlabki yirik shahar markazlari Suza, Anshan, SHahri So‘xta kabilar ham mil.av. III ming yillikning boshlariga oid.

Aynan mana shu davrda Hindistonda Mohenjodaro, Xarappa va Kalibangan kabi yirik shahar markazlari taraqqiy etadi. Dunyo tarixidagi ushbu ilk shahar markazlarining rivojlanish bir necha davrlarni o‘z ichiga oladi.

Dastlabki shaharlar o‘sha davr (ya’ni bronza davri - B.E.) uchun jiddiy ko‘rinish bo‘lib, ular boshqaruv va turli marosimlar markaziga aylanadi. Ularda hunarmandchilik ishlab chiqarish, aholi ehtiyojlari uchun xizmat qiladigan manzillar, hukmdor va uning ma’muriyati, diniy marosimlar vakillari, Shuningdek, atrof qishloq xo‘jalik tumanlarida ishlovchilar mayjud edi. Ishlab chiqarishdagi iqtisodiyotning tashkil topishi, sug‘orma dehqonchilik va uy chorvachiliginining rivojlanishi, dastlabki metallning (mis, bronza) o‘zlashtirilishi hamda ulardan mehnat, jangovar, uy-ro‘zg‘or buyumlarining tayyorlanishi va nihoyat, dastlabki shaharlarning paydo bo‘lishi insoniyat tarixida, jumladan, O‘rta Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixida juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bronza davriga kelib O‘rta Osiyoning har bir tarixiy-madaniy vohasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va rivojlangan dehqonchilik asosida ilk shahar markazlari paydo bo‘la boshlaydi. O‘zida ilk shaharsozlik belgilarini aks ettiruvchi markazlarga hozirgi kunda Janubiy Turkmanistondagi Oltindepa, Namozgohdepa, Ulug‘depa, Gonur I, Janubiy O‘zbekistondagi Sopollitepa, Jarqo‘ton,

Shimoliy Afg'onistondagi Dashli 3, Janubiy Afg'onistondagi Mundigak, Janubi-Sharqiy Erondagi Shahri So'xta, Shimoliy Erondagi Hisor kabilarni kiritish mumkin.

Jamiyatdagi mavjud shart-sharoitlar va omillar mil. avv. III ming yillikning oxiri – II ming yillikning boshlariga kelib yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'rta Osiyo hududlarida o'zida shaharsozlik madaniyati belgilarini aks ettiruvchi aholi manzilgohlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Dastlabki shaharlarda aholining turli ishlab chiqarishdan kelgan qo'shimcha mahsuloti, yirik inshootlar – saroylar, ibodatxonalar, mudofaa inshootlari kabi qurilishlarda, madaniy va iqtisodiy aloqalarda o'zining moddiy aksini topdi.

Jamiyat hayotida mehnatning ikkinchi ijtimoiy taqsimoti yuz berishi natijasida ixtisoslashgan hunarmandchilik taraqqiy etadi. Arxeologik ma'lumotlar ko'hna shaharlarda hunarmandchilikning turli sohalari-kulolchilik, metallga ishlov berish, zargarlik kabi sohalari ancha rivojlanganligidan dalolat beradi. O'rta Osiyodagi dastlabki shahar markazlari ulardagi yirik qurilish inshootlari (saroylar, ibodatxonalar va boshq.) ko'plab hunarmandchilik ustaxonalarining mavjudligi mavqeい bilan qishloqlardan ajralib turadi.

Shaharlarni jamiyat taraqqiyotining etakchi omili sifatida yuzaga kelishi insoniyat rivojlanishi tarixidagi muhim voqeа bo'lib, bu jarayon ibridoiy turmushdan sivilizatsiyaga, urug'chilik tuzumidan davlatchilikka o'tishning bosh va asosiy belgisidir. Tadqiqotchilarning ko'pchiligi e'tirof etganlaridek, sivilizatsiya – insoniyat taraqqiyoti bo'lib o'tayotgan jamiyat hayotining ma'lum davrida paydo bo'ladi. Sivilizatsiyaning paydo bo'lishi va yuksak darajada rivojlanishida shaharsozlik madaniyatining ahamiyati beqiyosdir. (2-jadval) Chunki, aynan ilk shahar markazlarida sivilizatsiya rivojini ta'minlovchi ko'pgina tarixiy-madaniy jarayonlar bo'lib o'tgan.

Olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilish va solishtirish shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyo jumladan, O'zbekiston sivilizatsiyasi ham Sharqdagi dastlabki sivilizatsiyalar Mesopotamiya va Hindistonning Xarappa madaniyati bilan uzviy aloqada shakllangan va rivojlangan. Bu ikkala mashhur sivilizatsiyalar oralig'ida joylashgan O'rta Osiyo qadimgi Sharq xalqlarining yagona iqtisodiy va madaniy tizimga birlashuvida hamda ular o'rtasidagi turli aloqalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

YUqorida ta'kidlaganimizdek, mil. avv. III ming yillikka kelib O'rta Osiyo daryo vohalarida o'lchamlari jihatdan kattagina bo'lgan jamoat inshootlari, dushmanidan himoyalanish vositasi bo'lgan mustahkam devorlar paydo bo'lishi dastlabki shaharsozlik madaniyati belgilari edi. III-II ming yilliklarga kelib esa, O'rta Osiyo jamiyatida sodir bo'lgan iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari ilk shaharlarning keyingi rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ilk shaharlarning paydo bo'lishi dastlabki davlatchilik shakllanishidagi eng muhim va asosiy omil bo'lib, bu ikkala jarayon uzviy bog'liq holda kechgan.

O'ziga xos qonuniyatga ko'ra shaharsozlik madaniyati uzoq va bosqichma-bosqich davrlarni bosib o'tgan. Xususan, A.Asqarov va T.Shirinovlarning O'rta Osiyoning janubidagi ilk shahar madaniyatiga bag'ishlangan maxsus monografiyasida ta'kidlanishicha, O'rta Osiyo jamiyatni taraqqiyotidagi urbanistik jarayonlarning boshlanishi uzoq vaqt antik davr, deb hisoblanib, yanada qadimgi yodgorliklar nazardan chetda qolgan. Vaholanki, O'rta Osiyoning shahar madaniyati qisqa muddatli tarixiy hodisa bo'lmasdan, chetdan kirib kelmagan. Bu holat uzoq davom etgan urbanistik jarayonlarning natijasi bo'lib, janubiy hududlarda bronza davridayoq boshlangan edi.

Demak, ayrim tadqiqotchilarning ilk shaharlar bosqichlari va taraqqiyot davrlari haqidagi ma'lumotlarini tahlil etamiz. O'tgan asrdagi ingliz olimi V.Tarnning fikricha, O'rta Osiyoda grek-makedon bosqiniga qadar mustahkamlangan manzilgohlar – shaharlar bo'lmagan. Tadqiqotchi ushu fikrini Pompey Trog va Chjan Szyan bergen ma'lumotlariga tayanib Baqtriya va Farg'onaning ko'p sonli shaharlari Grek-Baqtriya podsholarining ma'lum siyosati tufayligina paydo bo'lgan deya asoslaydi.

Ammo S.P.Tolstov ko‘pgina ma’lumotlarga asoslanib, O‘rta Osiyoning ahmoniylargacha ham, undan keyinroq, ellinizm davriga oid bo‘lgan mustahkamlangan manzilgohlarining istehkomlarida hamda ularning ichki rejaviy tuzilishida grek madaniyatining ta’siri sezilmaydi, degan fikrni ilgari surdi.

E.V.Rtveladzening fikricha, S.P.Tolstovning bu fikri bir tomondan to‘g‘ri. Chunki, ahmoniylargacha bo‘lgan davrda O‘rta Osiyo shaharlari tuzilishi o‘ziga xos bo‘lib, ularda tashqi ta’sir kam bo‘lgan. Ikkinchisi tomondan esa o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlab Baqtriya va Parfiya hududlarida olib borilayotgan ko‘p sonli arxeologik tadqiqotlar ma’lumotlari O‘rta Osiyoning ellinistik va kushon-parfiya davri me’morchiligi va shaharsozligida ellinizmning ta’siri kuchli bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga bu o‘rinda shuni ham alohida ta’kidlash joizki, O‘rta Osiyoda hozirgi kunga qadar butunlay ellinizm shaharsozligi an’analariga asoslanib bunyod etilgan shaharlar aniqlanmagan (Oyxonim qo‘hna shahri bundan mustasno).

O‘rta Osiyo shaharsozligi madaniyati qadimgi davrlarga borib taqalishi ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilgan. B.A.Litvinskiy O‘rta Osiyo qadimgi shaharsozligi madaniyatini quyidagi bosqichlarga bo‘ladi:

1. Dastlabki shaharmonand (protogorod) qishloqlar (mil. avv. III-II ming yilliklar).
2. Eng qadimgi shaharlar (mil. avv. II ming yillikning oxiri –I ming yillikning birinchi choragi).
3. Antik davr shaharlarining shakllanishi (mil. avv. VI-IV asrlar).
4. Shaharsozlik dualizmi va O‘rta Osiyo ellinistik aralashuvning boshlanishi (mil. avv. IV – II asrlar).
5. O‘rta Osiyo-Ellinizm-Hind madaniyati umumlashuvi va O‘rta Osiyo qadimgi shaharlarining nisbatan rivojlanishi (mil. avv. I – milodiy III – IV asrlar).

V.M.Masson esa O‘rta Osiyo urbanizatsiya jarayonini quyidagi ikki davrga bo‘ladi:

- 1). qadimgi Sharq (mil. avv. III ming yillikning oxiri mil. avv. I ming yillikning o‘rtalari):
- 2). antik davr (mil. avv. III – milodiy IV asrlar):

T. Shirinovning fikricha, tadqiqotchilar tomonidan taklif etilayotgan urbanizatsiya jarayonlarini davrlashtirish juda mushkul. Qolaversa, har bir tadqiqotchining o‘rtaga tashlagan fikri o‘sha tadqiqotchini o‘z materiali va ish uslubidan kelib chiqqan holda yaratiladi. Urbanizatsiya jarayonlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi qay darajada echilishiga qaramay, tadqiqotchilar bir narsaga umumiy fikr bildiradilar: Markaziy Osiyoda shaharlar boshqa joylarga nisbatan ancha oldin paydo bo‘lgan.

YUqoridagi qadimgi shaharlar rivojlanish bosqichlari va davrlari asosan O‘rta Osiyoning janubiy hududlariga xosdir. Chunki, O‘rta Osiyoning Shimoliy va xususan, Shimoliy-Sharqiy hududlarida shaharlarning rivojlanishi shakllanishning o‘zgacha yo‘llarini aks ettiruvchi boshqacharoq tarixiy-madaniy sharoitlarda bo‘lib o‘tgan. Fikrimizcha, O‘rta Osiyoning turli tarixiy-madaniy viloyatlaridagi shaharlari ma’lum umumiylukka ega bo‘lish bilan birga paydo bo‘lishi va rivojlanishi, me’moriy tuzilishi, moddiy va badiiy madaniyati hamda shahar hayoti nuqtai nazaridan bir-biridan keskin farqlanadi. Bu o‘rinda, butun O‘rta Osiyo uchun xos bo‘lgan, bir necha asr mavjud bo‘lib keyin inqirozga uchragan ko‘hna shaharlar uchun turli bosqichlar va davrlarni boshdan kechirish mustasnodir.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar fikrlarini qiyosiy va umumlashma tahlili asosida, qadimgi O‘rta Osiyodagi urbanistik jarayonlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishini quyidagi to‘rtta asosiy davrga bo‘lish mumkin:

- 1). Janubiy Turkmaniston hududlaridagi eneolit davrining nisbatan rivojlangan dastlabki dehqonchilik manzilgohlari (mil. avv. IV-III ming yilliklar):
- 2). O‘zbekistonning janubi, Zarafshon vohasi, Shimoliy Afg‘oniston, Janubiy Turkmaniston hududlaridagi bronza davrining rivojlangan qishloqlari va ularning shaharlarga aylanishi (mil. avv. III

– II ming yillikning oxirlari):

- 3). Baqtriya, So‘g‘diyona, Farg‘ona vodiysi, Toshkent vohasi va Xorazm hududlaridagi ilk temir davrining dastlabki shaharlari (mil. avv. I ming yillikning boshlari va ikkinchining choragi):
- 4) O‘rtta Osiyo hududlaridagi ellistik-antik davr shaharlari (mil. avv. III – milodiy III asrlar).

Iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar shaharlari belgilari uchun asosiy hisoblanadi. Undan tashqari shaharsozlik uchun tabiiy-geografik omillar ham muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, shaharning geografik joylashuvi hududi, suv bilan ta’minlanganligi, qazilma boyliklari mavjudligi, savdo-madaniy aloqalari (karvon yo‘llari), diniy inshootlar ham muhimdir (4-jadval). Demak, ko‘pchilik tadqiqotchilar «shahar» deb e’tirof etadigan yirik aholi yashash makonida barcha shart-sharoitlar, ya’ni shu hududda aholining uyushib yashashi uchun kerak bo‘ladigan barcha dunyoviy, diniy va iqtisodiy uyushmalarning bir butun, yaxlit tashkiloti qaror topadi.

So‘nggi yillarda ilk shaharlар masalalari bilan shug‘ullanayotgan T.SH.Shirinov doktorlik dissertatsiyasida bronza davri O‘rtta Osiyo ilk shaharlarining quyidagi arxeologik belgilari ro‘yxatini keltiradi:

1. Yuqori tabaqa vakillari, hokim yashaydigan saroy tizimi.
2. Toat-ibodat qilinadigan joylar – ibodatxona, topinish va sig‘inish bilan bog‘liq inshootlar mavjudligi.
3. Himoya devorlari bilan o‘ralgan qal’a-arkning alohida bo‘lishi, uning ichida hukmdor va uning yaqinlari yashaydigan uy-joylarning bo‘lishi.
4. Turar – joylar va boshqa jamoat mahallalari, zinch qurilishlar bilan band bo‘lgan hududning katta (3-6 gektardan kam bo‘lmagan) maydoni, ishlab chiqaruvchi kuchlarning bir erga to‘planishi, sug‘orma dehqonchilik vohasining markazi.
5. Hunarmandchilik ishlab chiqarishining yuqori darajasi, hunarmandchilik dahalari – kulolchilik, zargarlik, metallchilik, to‘quvchilik, qurilish, toshga va teriga ishlov berish kabilarning alohida bo‘lishi.
6. «Yo‘lboshchilar» dahmalarida qimmatbaho buyumlar, ajralib turuvchi muhr-ramzlar va boylikning mavjudligi;
7. Mahobatli qurilishlarning (saroy, ibodatxona va boshq.) tashqi ko‘rinishi, rejaviy tuzilishi va xonalari ishlanish-jixozlash uslublari jihatidan boshqa turar-joylardan keskin farqlanishi;
8. Keng savdo-almashinuv jarayonlaridan darak beruvchi va o‘scha hudud madaniyatiga xos bo‘lmagan sopol, suyak, tosh, metall buyumlar va qimmatbaho toshlarning mavjudligi.
9. Toshga naqsh o‘yish san’ati (gliptika), balki, ibridoiy yozuvning mavjudligi.

Tadqiqotchinga ta’kidlashicha, yuqorida arxeologik belgilardan birinchi, ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi, beshinchi va ettinchi belgilarni asosiy bo‘lib qolganlari ikkinchi darajali hisoblanadi.

Tadqiqotchilar fikrlarini umumlashtiridigan bo‘lsak, bronza davriga kelib O‘rtta Osioning keng dehqonchilik vohalari hududlarida aholining joylashuvi tizimi shakllanadi. Bu jarayon o‘z navbatida o‘zida ilk shaharsozlilik belgilarini aks ettiruvchi aholi manzilgohlarining paydo bo‘lishi va keyingi rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Fikrimizcha, ushbu imkoniyatlar quyidagi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog‘liq edi:

- o‘troq dehqonchilikning paydo bo‘lishi natijasida aholining ma’lum hududlarga to‘planishi hamda bu joylarda boshqa hududlarga nisbatan zinch joylashuvi;
- mehnatning ikkinchi yirik ijtimoiy taqsimoti, ya’ni hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi natijasida ayrim aholi manzilgohlarida ixtisoslashgan ishlab chiqarishning paydo bo‘lishi;
- ijtimoiy tabaqlanish jarayonlarining chuqurlashuvi hamda mavjud jamiyatdagi boshqaruva tizimining yanada murakkablashuvi (yirik aholi manzilgohlarida boshqaruva tizimi shakllanadi va markazlashadi);

– eng qadimgi yo‘llarning rivojlanishi natijasida hududlar o‘rtasida madaniy va iqtisodiy munosabatlar, xususan, savdo-sotiq aloqalarining taraqqiy etishi (mil. avv. IV – III ming yilliklarda yilg‘an bo‘lgan bo‘lsa, mil.avv. III ming yillik o‘rtalariga kelib esa tuyaga, ba’zan, ho‘kizga qo‘sib ishlataligini aravalari paydo bo‘ladi). Transport vositalarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi qishloq xo‘jaligi hududlarining markazi hamda kundalik zaruriy va qo‘sishimcha mahsulotni taqsimlovchi markaz vazifasini bajarish imkonini yaratadi.

Shaharlar paydo bo‘lishining dastlabki bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy omillardan tashqari diniy, harbiy-strategik va tabiiy-geografik omillar ham nihoyatda muhimki, fikrimizcha,ular quyidagilardir:

- e’tiqod, diniy-mafkuraviy qarashlarning taraqqiy etishi natijasida ibodat inshootlarining shahar markazlarida qad ko‘tarishi (shaharlar diniy markaz sifatida);
- qal’alarning paydo bo‘lishi va ularda mustahkamlangan manzilgohlarning qo‘rg‘onlar hamda shaharlarning muhim belgisi sifatida shakllanishi;
- o‘z davridagi harbiy-siyosiy vaziyat (atrof ko‘chmanchilarning hujumlari va o‘zaro urushlar) tufayli qal’alarning qo‘rg‘onlarga aylanishi va himoya inshootlari bilan o‘rab olinishi;
- ekologik va geografik shart-sharoitlar (dastlabki shaharlarning yashash uchun qulay bo‘lgan daryo vohalari va tog‘ oldi hududlarida paydo bo‘lishi) mavjudligi.

Shaharlar taraqqiyotining keyingi bosqichlarida shaharlarning ayrim tuzilish belgilari o‘zgarishiga qaramay shaharsozlik ko‘rinishining asosiy mohiyati hisoblangan hamda o‘zida ijtimoiy va madaniy-maishiy belgilarni mujassamlashtirgan uch qismlik (qal’a – hokim maskani; shaharning hunarmandchilik ishlab chiqaruvchi, savdo-sotiq hamda turar joylar mavjud bo‘lgan qismi; shahar oldi – diniy ko‘mish marosimlariga oid va ishlab chiqaruvchi qism) aslida o‘zgarmasdan avvaligicha qoladi.

Demak, asoslari eneolit davriga borib taqaluvchi O‘rta Osiyo shaharsozligining o‘ziga xos tarqqiyot yo‘li va rivojlanish bosqichlari hamda davrlari mavjud. Ushbu jarayonni davrlashtirishda asosan arxeologik ma’lumotlarga tayanganimiz tufayli u og‘ir kechadi hamda ko‘p hollarda mukammal emas. Binobarin, bu masala hali to‘liq echimini topgan emas va hali yana ko‘plab tadqiqotlar talab etiladigan masala hisoblanadi.

Jahon sivilizatsiyasining ma’lum davrlarida urbanizatsiya jarayonlari jamiyatning har tomonlama taraqqiy etishida nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Shuning uchun ham jamiyatning rivojlanishini shaharlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Qisqa qilib aytadigan bo‘lsak, shaharlarning rivojlanishi ikkita-tartibsiz bunyod etiladigan inshootlar va bir hududda joylashgan manzilgohlar o‘sib shahar uyushmalariga aylanishi, Shuningdek, ma’lum davrlarda jamoat, turar joy, mudofaa inshootlari, ko‘chalar va maydonlar kabi omillarning o‘zaro ta’siri natijasida bo‘lib o‘tadi. Shaharlar paydo bo‘lishi uchun yuqorida eslatilgan turli-tuman omillar sabab bo‘lganidek, shaharlarning o‘zi ilk davlatchilikning asosiy va muhim omili sifatida shakllanadi.

O‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab butun dunyo hududlarida keng miqyosda olib borilayotgan arxeologik qazishmalar hamda tadqiqotlar dunyo tarixidagi ilk shahar markazlarini o‘rganish masalalariga ko‘plab aniqliklar kiritish va yangi ma’lumotlar olish imkoniyatlarini yaratdi. Bu borada, dunyo tarixidagi ilk shahar markazlari paydo bo‘lishining asosiy-ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy omillari haqidagi yangi ilmiy ma’lumotlar ayniqsa diqqatga molikdir.

Hozirgi kunga qadar mavjud bo‘lgan ilmiy-tarixiy adabiyotlarni qiyosiy-tarixiy tahlil etish asosida shunday xulosa chiqarish mumkinki, jamiyat hayotida mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, o‘troq dehqonchilikning taraqqiy etishi, ixtisoslashgan hunarmandchilik hamda ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning rivojlanishi kabi omillar jahon tarixidagi ilk shaharlar paydo bo‘lishi uchun ham xosdir.

2-Mavzu: Janubiy Turkmaniston shaxarlari urbanizatsiyasi. (2 soat)

Reja

1. Bronza davri O‘rta Osiyo shaxarsozligining vujudga kelishi.
2. Janubiy Turkmanistonda ilk shaxarsozlik madaniyati va uning rivojlanishi.
3. Antik davr Janubiy Turkmaniston shaxarlari
4. Ilk va o‘rta asrlarda Janubiy Turkmaniston xududidagi shaxarsozlik madaniyati.

Tayanch so‘z va iboralar: O‘rta Osiyo, antik davr, janubiy, Janubiy Turkmaniston, Turkmaniston, ilk o‘rta asrlar, shaharsozlik, shahar, shahar tushunchasi, Qadimgi Sharq, Hind, Xarappa, Jarqo‘ton, sivilizatsiya, madaniyat, davlatchilik, urbanizatsiya, bronza, ilk temir, moddiy madaniyat, arxeologik yodgorlik, arxeologiya.

Adabiyotlar:

- 1.Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.
3. Asqarov A. Eng qadimgi shahar. T., 2000.
4. Asqarov A.A., Shirinov T.Sh. Rannyaya gorodskaya kultura epoxi bronzi Sredney Azii. Samarqand. 1993.
5. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. –Toshkent.: “O’ZBEKISTON”. 2015. 670 b.
6. Sagdullaev A.S. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘qituvchi, 1996.
- 7.Sagdullaev A.S. Qadimgi O‘rta Osiyo tarixi. O‘quv qo‘llanma. T., 2004.
8. Shamsutdinov R.,Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. T., «Akademnashr», 2019.-B.568.
- 9.Eshov.B. sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. – Toshkent: Zar qalam, 2004; 126 b.
10. Eshov B.J. O‘rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. Darslik. Toshkent. 2008.
11. Eshov B.J. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. - T.: Yangi asr avlod, 2012.-B.556.

O‘rta Osiyoda dastlabki metallning paydo bo‘lishi Janubiy Turkmaniston hududlari bilan bog‘liqdir. Bu hududlarda mil.avv. IV-II ming yilliklarga oid arxeologik yodgorliklar ko‘p bo‘lib, ushbu arxeologik yodgorliklarning xronologiyasi butun O‘rta Osiyo neolit-eneolit-bronza davri majmularini tadqiq etish va ularagini topilmalarini sanalashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Janubiy Turkmaniston arxeologik topilmalarining stratigrafik ustuni (kolonka) R.Pampellining Anovda qazishmalar o‘tkazgan ekspeditsiyasi paytida tuzib chiqilgan edi. Bu jarayonda birin-ketin bir-birini almashtiruvchi to‘rtta – Anov I–IV majmualari ajratilgan edi. Ushbu davrlashtirish tadqiqotchilar tomonidan ko‘plab munozaralarga sabab bo‘lishiga qaramay o‘tgan asrning o‘rtalariga qadar undan foydalanib kelindi. 1949-50 yillarda B.A.Litvinskiyning Namozgohtepadagi qazishmalarini tufayli ushbu yodgorliklar ko‘lami yanada kengaydi.

1952 yilda B.A. Kuftin Kopetdog‘ tog‘ oldi hududlaridagi yodgorliklar xronologik tartibini tuzish uchun maxsus tadqiqot ishlari olib bordi. Asosiy stratigrafik ishlari shu hududlardagi yirik, madaniy qatlami 34 metr bo‘lgan Nomozgohtepada olib borildi. Ushbu tadqiqotlar natijasida tadqiqotchi ketma-ket keluvchi oltita majmuani-Nomozgoh I–VI ni aniqladi. Uning fikricha, Anov I va Nomozgoh I ilk eneolit, Nomozgoh II o‘rta eneolit, Nomozgoh III so‘nggi eneolitga, Nomozgoh IV, V, VI esa ilk, rivojlangan va so‘nggi bronza davrlariga oiddir.

1956 yilda V.M.Masson ushbu majmular topilmalarini qo‘shti Erondagi topilmalar bilan qiyosiy tahlil asosida quyidagi xronologiyani taklif etdi: Joytun va Anov I-mil.avv. V ming yillik, Nomozgoh I, II-mil.avv. IV ming yillik, Nomozgoh III-IV- mil. avv. III ming yillik, Nomozgoh V-mil.avv. II ming yillikning birinchi yarmi, Nomozgoh VI-mil avv. II ming yillikning ikkinchi yarmiga

oiddir.

Shuningdek, V.M.Massonning fikricha, Janubiy Turkmanistonning ilk eneolit majmui Anov I ning paydo bo‘lishi Kopetdog‘ tog‘ oldi hududlaridan turli qabilalar guruhlarining kirib kelishi bilan bog‘lanadi. Tadqiqotlar tahlillaridan xulosa chiqarar ekanmiz, O‘rtal Osiyo janubidagi kishilik jamiyatida bu davrdagi yangilik shundan iborat ediki, aholi turmush tarzida mis va xom g‘isht paydo bo‘lib manzilgohlar aniq rejaviy tuzilishga ega bo‘ladi, sopol idishlarning sifati yaxshilanib naqshlarida yangi uslublar shakllanadi hamda to‘qimachilik rivojlana boshlaydi.

Bu davrda Kopetdog‘ tog‘ oldi tekisligining eng yirik manzilgohlari Nomozgohdepa (50 gektardan ziyod) va Oltindepa (25 gektar) edi. Tadqiqotchilarining taxminicha, asosiy xususiyatlari ko‘ra ular so‘nggi eneolit davrida shakllanib bo‘lgan edi. Shuningdek, Ulug‘depa (20 gektar), Qoradepa (15 gaktar), Geoksyur (12 gektar) kabi yirik markazlar ham mavjud edi. Eneolit davrining oxirlariga kelib manzilgohlarning ba’zilarida hayot to‘xtaydiki, bu holat ekologik sabablar hamda alohida yirik markazlarning taraqqiy etishi bilan izohlanadi.

Mil. avv. II ming yillikka kelib Murg‘ob daryosi havzasi hamda Amudaryoning o‘rtal oqimi hududlarida yuqori darajada rivojlangan o‘troq dehqonchilik madaniyatları shakllanadi. Keyinchalik qadimgi Baqtriya va Marg‘iyona tarkibiga kirgan bu hududlardan hozirgi kunga qadar 200 dan ziyod bronza davri yodgorliklari topib o‘rganilgan. Ular orasida nisbatan yaxshi o‘rganilganlari Gonur, Dashli, Kelleli, Sopollitepa, Jarqo‘ton, To‘g‘oloq, Mullali kabilar bo‘lib, ko‘pchilik tadqiqotchilar Baqtriya va Marg‘iyona ushbu davr manzilgohlarini ikkita asosiy guruhga: istehkomli manzilgohlar va istehkomsiz manzilgohlar guruhlariga ajratadilar.

YUqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, O‘rtal Osiyoda eng qadimgi o‘troq dehqonchilik madaniyati Janubiy Turkmaniston hududlarida paydo bo‘ladi. Ushbu hududlardi ilk shaharsozlik madaniyati va uning asoslari masalalari bo‘yicha turli yillarda V.M. Masson, V.I. Sarianidi, G.F. Korobkova, L.B. Kircho, B.A. Litvinskiy, G.N. Lisitsina, I.S. Masimov, I.N. Xlopin, B. Udeumurodov kabi tadqiqotchilar ilmiy izlanish ishlari olib bordilar. Ushbu uzoq yillik tadqiqotlar natijasida Turkmaniston hududlarida ilk dehqonchilik qishloqlarining shakllanishi va rivojlanishi, dastlabki shahar markazlarning paydo bo‘lib taraqqiy etishi, manzilgohlar va yirik markazlarning o‘zaro aloqalari masalalariga ko‘pgina anqliklar kiritish imkoniyati paydo bo‘ldi. Olingan ko‘p sonli ma’lumotlar O‘rtal Osiyo, hech bo‘lmaganda uning janubiy viloyatlari Qadimgi Sharqning boshqa hududlarida bo‘lgani kabi ilk dehqonchilikdan dastlabki sivilizatsiyagacha bo‘lgan rivojlanishning an’anaviy jarayonlari bo‘lib o‘tgan mustaqil qadimgi madaniyat o‘chog‘i degan fikrlarni yana bir marta isbotlaydi.

Mil. avv. IV ming yillikning boshlari va o‘rtalariga kelib Janubiy Turkmanistonning Tajan daryosi havzasi va tog‘ oldi hududlarida joylashgan o‘troq jamoalar barqaror sug‘orma dehqonchilik taritibini shakllantiradilar. Bu holat ixtisoslashgan ishlab chiqarish, avvalo, metalga ishlov berishning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratadi. Bu davrga oid yodgorliklardan (Namozgoh II) misdan tayyorlangan mehnat qurollari kam topilg an bo‘lsada, tosh qurollarning deyarli uchramasligi ishlab chiqarishda metalga ishlov berishning ustunlik qila boshlagandan dalolat beradi. Yirik markazlarga ega bo‘lgan manzilgohlar tartibining paydo bo‘lishi ijtimoiy hayotning ham murakkablashganligini ko‘rsatadi. O‘scha davrdagi jamiyat aniq madaniy rivojlanish bo‘sag‘asida bo‘lib, bu jarayon mil.avv. IV ming yillikning so‘nggi choragi-III ming yillikning boshlarida bo‘lib o‘tadi.

Bronza davrining yirik ilk shahar markazlaridan biri hisoblangan Oltindepa xarobalari Turkmanistonning janubidagi Miyona yonida joylashgan. Ushbu yodgorlikda 1965 yildan 80-yillarning oxirlariga qadar muntazam qazishma ishlari olib borilgan. Olib borilgan qazishmalar natijasida umumiy maydoni 25 gektar bo‘lgan Oltindepadan 500 ga yaqin terrakota haykalchalar, 150 ta qadimgi muhrlar, 550 ta dafn inshootlari, ko‘plab turar-joy qoldiqlari va boshqa moddiy madaniyat

buyumlari topib o'rganilgan.

Oltindepaning yuqori qatlamlari bronza davriga oid bo'lib, Nomozgoh V ko'rinishidagi materiallar bilan o'xshashlik topadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra (radiokarbon tahlillar asosida) bu davr mil. avv. III ming yillikning oxiri-II ming yillikning bиринчи choragini o'z ichiga oladi. Aynan mana shu davr Mesopotamiyada Urning III sulolosi inqirozga uchragan, Misorda zaiflashgan fir'avnlar hokimiyati o'rta podsholik davriga kirgan, Xuanxe daryosi vohasida esa dastlabki Xitoy sivilizatsiyasi bo'lган Shan-In shakllanishi uchun shart-sharotlar paydo bo'layotgan davr edi. Oltindepa qazishmalari bu davrda O'rta Osiyoning janubida mahalliy shaharsozlik madaniyatining shakllanish jarayoni jadallik bilan borayotganligini ko'rsatadi.

Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, Oltindepa faqat oddiy turar-joy va xo'jalik xonalaridan iborat bo'libgina qolmay, balki, o'ziga xos murakkab ichki tuzilishni ham aks ettiradi. Ammo, ko'hna shaharning janubiy qismida hech qanday inshootlar bunyod etilmagan hudud mavjud bo'lib, bu er ko'hna shaharning markaziy maydoni bo'lган bo'lishi ham mumkin. Bu maydonga yodgorlikning janubida joylashgan maxsus chiqish yo'li orqali chiqilgan. Qazishmalarning ko'rsatishicha, bu chiqish yo'li bo'yab 6,2x3 metr o'lchamdagisi mahobatli minoralar qurilgan. Chiqish yo'lining umumiyligi eni 15 metr bo'lib, bo'ylama devor bilan 4-5 metr enlikdagi o'ziga xos bosh ko'chaga bo'lingan. Ushbu ko'chalar aftidan aravalarga mo'ljallangan bo'lsa kerak.

Alohibda ta'kidlash joizki, Oltindepaning baland tepalik ustida joylashganligi ko'hna shaharning himoyasi uchun qulay shart-sharoitlar yaratgan. Undan tashqari tepalikning tik yon-bag'irlari pishiq g'ishtdan o'ziga xos qoplama bilan qoplangan. Qiyalikka boradigan nishablik esa devor bilan to'silgan. Devorlarning tuzilishi va qalinligi qurilish xususiyati va sharoitiga qarab belgilangan. Ko'hna shaharga kirish joyida devor maksimal qalinlikda, boshqa joylarda aylana devor 1-2 metr saqlanib qolgan. Ayrim joylarda kvadrat rejali minoralar ham bor.

Ko'hna shaharning Shimoliy chekkasidagi 2 gektarga yaqinroq maydon muhim tarkibiy qismlardan bo'lган. Bu erdag'i ko'plab sopol pishiruvchi xumdonlarga qarab bu er hunarmandlar mahallasi deb ataladi. Murakkab tuzilishga ega bo'lган ikki yarusli xumdonlarda 1000-1200⁰S da yupqa devorli nafis sopol idishlarni ham pishirish mumkin bo'lган. Ko'hna shaharning shu qismida toshni qayta ishslash faoliyati bilan bog'liq izlar topilgan. Bu erdag'i turar-joylar kichik uylardan, umumiyligi oshxonasi va umumiyligi xo'jalik xonalaridan iborat bo'lib ulardagi topilmalar ham unchalik boy emas. Ochib o'rganilgan qabrlar topilmalari ham unchalik ko'p emas. Bularning barchasi hunarmandlar mahallasi aholisining turmush tarzi unchalik yuqori bo'lмаганligidan dalolat beradi.

Qazishmalar natijasida topilgan ko'p sonli topilmalar Oltindepa madaniyatini har tomonlama yoritish uchun muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, ushbu topilmalar shaharsozlik masalalarini yoritish uchun ham qimmatli ma'lumotlar beradi. Topilmalar orasida sopol buyumlar ko'pchilikni tashkil etadi. Nafis va nozik shakllarda shakllangan sopolchilik buyumlarida qandaydir naqshlar yoki bezaklar uchramaydi. Faqatgina diniy marosimlar uchun mo'ljallangan va o'yma naqshlar bilan bezatilgan idishlar bundan mustasno.

Oltindepa ko'hna shahri hunarmandchiligidagi metallni qayta ishslash ancha rivojlangan edi. Buyumlarning katta qismi misdan tayyorlangan. Shuningdek, qalay va qo'rg'oshin aralashtirib ishlangan buyumlar ham uchraydi. Undan tashqari, temir pichoq va xanjarlar, irg'itiladigan o'q uchlari va boshqa buyumlar ham topilgan. Metall buyumlar orasida kumush buyum topilmalari ham ko'pchilikni tashkil etadi. Aftidan, aynan kumushdan ishlangan buyumlar shaharliklarning asosiy boyligi hisoblangan.

Tadqiqotlar natijalari tahlilidan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Oltindepaning ichki tuzilishi ham, yuqori darajada rivojlangan madaniyati ham ibtidoiy arxaik munosabatlar darajasidan chiqib ulgurgan edi. Eng qadimgi shaharlar dastlabki birlashmalar yoki uyushmalarning asosiy qismi

hisoblanib ayrim hollarda tadqiqotchilar ularni shahar-davlatlar deb ataydilar. Chunki, aynan ilk shaharlarda dastlabki hokimiyat organlari markazlashib, ma'muriy boshqaruv tizimi shakllanadi.

Oltindepa aynan mana shunday ilk shahar ko'rinishini o'zida aks ettiradi. Shuningdek, yodgorlikda ilk dehqonchilik jamoalari manzilgohlariga qaraganda shaharning o'ziga xos vazifalari nisbatan aniqroq ko'rindi. Bu vazifaviy belgilari hunarmandlar mahallasi va diniy inshootda o'z aksini topgan bo'lsa, «aslzodalar mahallasi» va uning yonidagi qazishmalar esa ko'hna shaharning ijtimoiy tabaqalanishi bilan bog'liq bo'lган shahar hududining tabaqalarga bo'linganligidan dalolat beradi. Ko'hna shaharning ushbu tarkibiy belgilari va qazishmalar paytida topilgan turli -tuman topilmalar Oltindepani atrof dehqonchilik hududlarining hunarmandchilik, qisman savdo va mafkuraviy markaz sifatida izohlashga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga Oltindepaning harbiy yoki himoya vazifasini bajarganligi haqida ma'lumotlar kam. Chunki ko'hna shahar darvozalaridagi minora-pilonlar himoya xususiyatidan ko'ra ko'proq savlatli manzara berish uchun qurilgan. Qazishmalar paytida topilgan harbiy qurol-yarog'lar juda kam. Qabrlardan topilib antropologlar tomonidan har tomonlama o'rganilgan suyaklarda harbiy jarohatlar izlari uchramaydi. Fikrimizcha, bu holat aniq tarixiy shart-sharoitlar bilan bog'liq bo'lib, bu erda harbiy san'at rivojlanishi past darajada edi. CHunki, Oltindepa o'sha davr Old Osiyoni larzaga keltirgan harbiy yurishlar va qarama-qarshiliklardan chetraqda joylashgan edi.

Janubiy Turkmaniston hududlarida Oltindepa ko'hna shahri madaniyati fanga ma'lum bo'lidan so'ng Old Osiyoning ko'hna shaharlarida tadqiqot ishlari boshlanib ketdi. Bir tomondan Mesopotamiya va ikkinchi tomondan Qadimgi Hind sivilizatsiyasi Xarappa oralig'ida joylashgan Sharqiy Eron, Afg'oniston va Pokiston hududlarida bronza davri ilk shahar sivilizatsiyaning bir butun zonasi mavjud edi. Ushbu zonada bir-biri bilan uzviy savdo va madaniy aloqalar o'rnatilgan bir nechta viloyatlar bo'lib, shulardan birining markazi Janubiy Turkmanistondagi Oltindepa ko'hna shahri edi.

O'rta Osiyo qadimgi xalqlari iqtisodiy va madaniy aloqalarini Oltindepadan ochilgan san'at yodgorliklarida aniq kuzatish mumkin. Mesopotamiya an'analari bilan aloqalar, dastavval, me'morchilikda yaqqol ko'zga tashlanadi. Qurilish uslublaridan tashqari, terrakota haykallari ishlanish uslublari (buqaning oltin boshi) jihatidan ham o'xshashliklarni kuzatishimiz mumkin. Bu o'rinda, Oltindepaning Hind madaniyati bilan aloqalar, ko'p hollarda aniqroq ko'rindi. Xususan, Oltindepada fil suyagidan ishlangan buyumlar ko'plab uchraydi. Bu buyumlarning turli qatlamlardan topilishi ular o'rtasida uzoq vaqt doimiy aloqalar bo'lганligidan dalolat beradi. Undan tashqari ayrim sopol va metall buyumlarda ham aynan Xarappa madaniyati ta'sirini kuzatish mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan xulosa chiqaradigan bo'lsak, Oltindepa tabaqalarga qarab hududiy bo'linishi, o'ziga xos ichki tuzilishi nuqtai nazaridan - ilk shahar tuzilmasi, atrof qishloq xo'jalik hududi markazi, hunarmandchilik markazi, Shuningdek, mafkuraviy vazifasi nuqtai nazaridan esa shahar markazi sifatida izohlanadi. Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bronza davriga oid Oltindepa-o'troq dehqonchilik jamiyatni negizida shakllangan shahar uyushmasi evolyusiyasini o'zida aks ettiradi. Bu jamiyatning qo'lga kiritgan madaniy yutuqlari ham yuqori darajada bo'lib, turli-tuman buyumlardan tashqari ayniqsa, mahobatli me'morchilik (rejali uylar, ibodatxonalar va boshq.) ushbu jarayonlardan dalolat beradi.

Janubiy Turkmaniston bronza davri urbanistik tuzilmasi qadimgi Sharqning ilg'or markazlarida shakllangan mahalliy ilk dehqonchilik tizimlari asosida paydo bo'lib rivojlanadi. SHu bilan birgalikda O'rta Sharqning bronza davri ayrim yodgorliklaridagi topilmalarda Janubiy Turkmanistonga xos madaniy jihatlar mavjudligini kuzatish mumkin. Misol uchun, Seyistondagi yirik markaz Shahri So'xta ko'hna shahri pastki qatlamlardan topilgan naqshli sopollar, Shimoliy Balujistonning, Kvett yodgorligidagi muhrlar va terrakotalar, kam bo'lsa-da janubiy Afg'onistondagi Mundigak va Saidqal'a yodgorliklari topilmalarida ham Janubiy Turkmaniston madaniyati ta'siri aniqlangan.

Demak, Janubiy Turkmaniston bronza davri madaniyati chetdan bo‘lgan tashqi ta’sirni qabul qilibgina qolmay, chetdagi boshqa madaniyatlar rivojiga ham sezalarli ta’sir o‘tkazgan, degan xulosalar ilmiy jihatdan asoslidir. Eng muhim, ushbu hududlardan olingen ma’lumotlar ilk dehqonchilikdan murakkab jamiyatga o‘tish davri rivojlanish jarayonlari hamda urbanistik taraqqiyot haqidagi tasavvurlarimizni ancha boyitadi.

Axamoniylar davriga oid qishloq va ko‘hna shaharlar me’morchiligi Janubiy Turkmanistonda nisbatan ko‘proq o‘rganilgan. Bu hududlardagi eng yirik ko‘hna shahar Marvdagi Govurqal'a hisoblanadi. Govurqala o‘lchamlarining yig‘indisi 7,5 km.ga teng. Ahamoniylar davri Marvning markazi Govurqal'a Shimoliy tomonining markazida joylashgan Erkqal'a istehkomi bo‘lgan. Mil. avv. I ming yillik o‘rtalarida ushbu istehkom baland loy devor bilan o‘rab olinadi. Erkqal’aning markazida yirik me’moriy inshootlar-hukmdor saroyi va diniy majmua qad ko‘taradi. Istehkom xom g‘ishtdan bunyod etilgan mustahkam poydevor ustiga qurilib, yagona darvozasi shahar tomonga qaratilgan.

Marv vohasining qadimgi markazida ahamoniylar davriga oid Yoztepa manzilgohi ochib o‘rganilgan. Yoztepa birmuncha ilgariroq davrda paydo bo‘lgan bo‘lib, mil. avv. I ming yillik o‘rtalarida o‘zining avvalgi harbiy-ma’muriy ahamiyatini yo‘qota boshlaydi. Ammo, Yoztepa manzilgohi butunlay yo‘qolib ketmaydi va qazishmalar natijasida bu erdan to‘g‘ri burchakli g‘ishtlardan qad ko‘targan devorlar, inshootlar qoldiqlari aniqlangan.

Kopetdog‘ning tog‘ oldi hududlaridan mil. avv. VI-IV asrlarga oid yirik ko‘hna shahar Elkendepe xarobalari ochib o‘rganilgan. Tadqiqotchilarining fikricha, Elkendepe Shimoliy Parfiyaning harbiy-ma’muriy markazi bo‘lib, bu erga ahamoniy podsholari kelib turgan. Ko‘hna shahar noto‘g‘ri-notekis shaklda bunyod etilgan bo‘lib uzunligi 500 metr, eni 300 metrga yaqin. Shahar o‘rnidagi dastlabki manzilgoh to‘g‘ri burchakli yirik g‘ishtlardan qad ko‘targan mustahkam devor bilan o‘rab olingen. Markazda istehkom qad ko‘targan.

Biz O‘rta Osiyo hududlarida Makedoniyalik Iskandar uchta: Oks Iskandariysi, Iskandariya Eskata (Chekkadagi Iskandariya) va Marg‘iyonadagi Iskandariya shaharlariga asos solganligi haqida ma’lum ma’lumotlarga egamiz. Bu ma’lumotlarni qisqacha tahlil etamiz.

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra Oks (Amudaryo) bo‘yidagi Iskandariya turli sharoitlarni hisobga olib bunyod etilgan. Ushbu ko‘hna shahar Sharqiy Baqtrianing muhim markazlaridan biri bo‘lishi lozim edi. Shahar bir tomondan, bu hududlardagi grek-makedon hokimiyatining tayanch nuqtasi bo‘lib, serhosil Baqtriya tekisligini Badaxshondagi tog‘liklardan (Sharqiy yo‘nalishda) himoya qilsa, ikkinchidan, tog‘li vohalar orqali shimoli-Sharqdan keluvchi ko‘chmanchilardan himoya qilgan. Undan tashqari, Oksdag‘i Iskandariya foydali qazilmalarga nihoyatda boy bo‘lgan (temir, mis, oltin, lojuvard va b.) Badaxshonga ketuvchi yo‘lni ham nazorat qilib turgan.

Shaharga asos solinishi uchun ikkita daryoning qo‘silish (Amudaryo va Ko‘kcha) joyi bo‘lgan qulay joy tanlangan. Bu joyda baland tabiiy tepalikning borligi ham muhim bo‘lib, uning ustiga shahar akropolini qurish imkoniyati bor edi. Shuningdek, shaharni qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan ta‘minlab turuvchi juda katta serhosil tekislik (10.000 gektarga yaqin)ka tutashib ketganligi ham iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlar edi.

Ko‘hna shahar tekislikda ham, daryo bo‘ylab ham mustahkam devor bilan o‘rab olingen. Akropol (yuqori shaharda)da turar-joylar yo‘q. Bu erda aftidan o‘lchamlari jihatdan uncha katta bo‘lмаган 2 ta qal’a, garnizon harbiylari uchun kichik va oddiy binolar va eroniylarga xos altar joylashgan. Barcha turar-joylar va jamoat inshootlari pastki shahar hududida joylashgan. Tadqiqotchilar shahar qiyofasini belgilab beruvchi quyidagi omillarni ajratadilar: shahar paydo bo‘lishining «mustamlakachilik» xususiyati, chunki shahar grek-makedonlar Baqtriyani bosib olishi natijasida paydo bo‘lgan edi; unda podsho qarorgohining mavjudligi; shaharning yirik viloyat markazi sifatidagi o‘rni. Umuman olganda, ko‘hna shahar tuzilishi va saroy me’morchiligi grek uslublarini

elsatsada, aslida uning tuzilishida qadimgi Sharq an'analari ustunlik qiladi.

Qadimgi Farg'ona va Ustrushona chegaralarida, Sirdaryo bo'yida, hozirgi Xo'jand hududlarida mil. avv. VI-V asrlarda manzilgoh paydo bo'ladi. Bu erdan himoya devorlari va shahar qurilishining qoldiqlari olib o'r ganilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, keyinchalik bu shahar Iskandar tomonidan bosib olinadi va uning o'rniga CHekkadagi Iskandariya buniyod etiladi.

Ko'hna shaharning qal'asi paxsadan qad ko'targan alohida devor bilan o'rab olingan. Ko'hna shahar antik davr an'analari asosida qad ko'targan. Shaharning pastki qatlamlarida qurilish izlari yaxshi saqlanmagan. Mil. avv. IV-III asrlar qatlamlarida turar-joylar, xo'jalik xonalari, harbiylar boshpanalari olib o'r ganilgan. Bu shahar Iskandarning Sirdaryo bo'ylaridagi tayanch nuqtasi bo'lgan bo'lishi mumkin.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ahmoniyalar davridayoq «Marg'iyona shahri» mavjud edi. Bu davrda Marv vohasidagi Erkqal'a maydoni 1800x500 metr bo'lgan shahar tipidagi manzilgoh bo'lgan. Govurqal'a hududlari ham aynan mana shu davrda o'zlashtiriladi.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bu manzilgoh o'sha davrdayoq shahar xususiyatiga ega bo'lib, butun vohaning markazi edi. Davr oxirlariga kelib ko'hna shahardagi hayotning faolligi kuchayadi. Govurqal'a ko'hna shahri hududining shimoli-Sharqiy va markaziy qismlaridagi madaniy qatlamlar jadallik bilan to'lib boradi. Tadqiqotchilarning fikricha, aynan mana shu aholi punkti makedoniyalik Iskandar yurishlari davrida grek-makedon qo'shinlari tomonidan egallanadi. Kursiy Rufning Iskandar, «Ox va Oks daryosidan o'tib Marg'iyona shahriga keldi», degan xabari aynan mana shu aholi punktiga taaluqli deb hisoblanadi. Arxeologik ma'lumotlar natijalariga ko'ra, ushbu shaharning bo'ysundirilishi tinchlik xususiyatiga ega bo'lib, urbanizatsiya jarayonlariga ta'sir etmagan. Aynan mana shu shahar qayta nomlanib Iskandariya nomini olgan.

Tadqiqotlar natijalaridan xulosa chiqaradigan bo'lsak, Iskandar tomonidan asos solingen punktlar – shaharlar yoki mustahkamlangan manzilgohlar bo'lgan. Iskandar shahar manzilgohlarida aholini aralashtirish siyosatini izchil amalga oshirgan. Ular ayrim hollarda polis tuzilishiga ega bo'lsada – shaharni giparx yakkaboshchilik asosida boshqargan. Uni podshoning o'zi tayinlagan va amaldan tushirgan. Umuman olganda bu ko'hna shaharlar O'rta Osiyo urbanizatsiya jarayonining rivojlanishiga katta turtki bergenligini e'tirof etgan holda, Iskandar yurishlariga qadar ham bu hududlarda yuksak shaharsozlik madaniyati mavjud bo'lganligini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Marg'iyonaning poytaxti Marv shahrining ham ko'pgina madaniy qatlamlari ham grek-baqtriya davriga oiddir. Iskandar Marv mudofaasini bir-biriga yaqin masofada joylashgan oltita chegara qal'alari bilan mustahkamlangan. Ayrim tadqiqotchilar, tepaliklarda joylashgan bu qal'alar Iskandar davrida qurilmagan, balki mustahkamlangan bo'lsa kerak, degan fikrni bildiradilar. Marvning mudofaa qudrati Selevka I va Antiox I davrida mustahkamlanadi. Iskandarga o'xshab, ular ham eski devorlarni mustahkamlaganlar, yangi mustahkam devorlar barpo etganlar va Marvni o'z nomlari bilan nomlaganlar.

Antiox I shaharni ham o'z ichiga olgan butun Marv vohasini uzun devor bilan o'ragan. Ahmoniyarning aynan qaysi - qal'asi – Erkqal'ami yoki Govurqal'ami, Iskandarning nomi bilan nomlangani aniqlanmagan. Nima bo'lganda ham, Selevka I va Antiox I davrlarda Marv vohasi to'liq devor bilan o'ralganligi aniq. Bu devorning qoldiqlari hozirgacha qisman saqlangan. Ta'kidlash joizki, o'z vaqtida S.A.Vyazigin ham bu erda juda katta mudofaa tizimi barpo etilganini ta'riflagan edi.

3-Mavzu: Amudaryo va Surxondaryo vohasi shaharlari urbanizatsiyasi. (2 soat)

Reja.

1. Amudaryo va Surxondaryo voxasidagi qadimgi davr shaxarlari.
2. Antik davr Amudaryo va Surxondaryo voxasi shaxarlari.

3. O'rta asrlarda Surxondaryo voxasi shaxarlari.

Tayanch so'z va iboralar: O'rta Osiyo, antik davr, Amudaryo, Surxondaryo, ilk o'rta asrlar, o'rta asrlar, qadimgi shahar, shaharsozlik, shahar, shahar tushunchasi, Qadimgi Sharq, Jarqo'ton, sivilizatsiya, madaniyat, davlatchilik, urbanizatsiya, bronza, ilk temir, moddiy madaniyat, arxeologik yodgorlik, arxeologiya.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
3. Asqarov A. Eng qadimgi shahar. T., 2000.
4. Asqarov A.A., Shirinov T.Sh. Rannyaya gorodskaya kultura epoxi bronzsi Sredney Azii. Samarqand. 1993.
5. Asqarov A.A., Shaydullaev Sh.B. Baqtriyaning bronza va ilk temir davri madaniyatlarini xronologiyasi // O'zbekiston tarixi moddiy madaniyat va yozma manbalarda. – Tashkent: Fan, 2005.
6. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. –Toshkent.“O'ZBEKISTON”. 2015. 670 b.
7. Sagdullaev A.S. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi, 1996.
8. Sagdullaev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. O'quv qo'llanma. T., 2004.
9. Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. T., «Akademnashr», 2019.-B.568.
10. Eshov.B. Sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. – Toshkent: Zar qalam, 2004; 126 b.
11. Eshov B.J. O'rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. Darslik. Toshkent. 2008.
12. Eshov B.J. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. - T.: Yangi asr avlod, 2012.-B.556.

Surxondaryo viloyati - 1941 y. 6 martda tashkil etilgan (1925 yil 29 iyundan Surxondaryo okrugi bo'lgan). 1960 y. 25 yanvarda Qashqadaryo viloyati bilan qo'shilgan. 1964 yil fevralda qaytadan tashkil qilindi. Respublikaning janubiy-Sharqida, Surxon-SHerobod vodiysida joylashgan. Janubdan Amudaryo bo'y lab Afg'oniston, shimol, shim-Sharq va Sharqdan Tojikiston, jan-g'arbdan Turkmaniston, shim-g'arbdan Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 20,1 ming km². Aholisi 1874,7 ming kishi (2004). Tarkibida 14 qishloq tumani (Angor, Bandixon, Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Muzrabot, Oltinsoy, Sarosiyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Sho'rchi, Qiziriq, Kumqo'rg'on), 8 shahar (Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Termiz, Sharg'un, Sherobod, Sho'rchi, Qumqo'rg'on), 7 shaharcha (Angor, Do'stlik, Kakaydi, Sarosiyo, Sariq, Elbayon bekti, Hurriyat), 114 qishloq fuqarolar yig'ini bor (2004). Markazi — Termiz shaxri.

Termiz — Surxondaryo viloyatidagi shahar. Viloyat markazi. Amudaryoning o'ng sohilida, O'zbekistonning janubiy qismida, Afg'oniston chegarasiga yaqin, o'rtacha 310 m balandlikda joylashgan. Toshkentdan 708 km. Maydoni 27,8 km². Aholisi 119,6 ming kishi (2004).

Termizda islom dini arboblaridan Hakim at-Termiziy, SHaxobuddin So-bir Termiziy, Muhammad ibn Hamid Termiziy, Abu Bakr Varroq Termiziy kabi olimlar yashab o'tishgan. Termizda 1999 yilda Algomish dostonining 1000 yilligi, 2002 yilda xalqaro miqyosda Termiz shahrining 2500 yillik yubileyi o'tkazildi.

Amudaryoning o'rta va yuqori oqimi shimoli hamda janubida joylashgan erlar «Avesto» ning qadimgi qismlarida Bahdi, fors podsholari mixxatlarida Baqtrish, grek-rim tarixchilari ma'lumotlarida Baqtriyada yoki Baktriyona, hind manbalarida Baxlika, milodning boshlariga oid xitoy manbalarida Daxya yoki To-xo-lo o'lkasi sifatida eslatib o'tiladi. Zamonaviy tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Baqtriyada erlari bu -Afg'onistonning Shimoliy Sharqiy qismini, Janubiy Tojikiston va O'zbekistonning janubidagi (Surxon vohasi) erlarni o'z ichiga olgan. Undan tashqari zamonaviy tarixiy adabiyotlarning

barchasi hozirgi kunda Surxondaryo viloyati, Tojikistonning Ko‘lob va Qo‘rg‘ontepa viloyatlarini o‘z ichiga olgan erlarni Shimoliy Baqtriya sifatida e’tirof etadilar.

Shimoliy Baqtriya xududlaridagi aholining o‘troq manzilgohlari bu erda Hisor madaniyati keng yoyilgan davrda, ya’ni neolit davrida paydo bo‘ladi. Ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda bu davrga kelib «hisorlik» ovchilar kichik va yirik daryolar vohalarini, Boysuntog‘ va Kuhitanggacha bo‘lgan tog‘ va tog‘ oldi hududlarini o‘zlashtiradilar. Bronza davriga kelib esa bu hududlarda boshqa ko‘rinishga ega bo‘lgan hamda o‘ziga xos xo‘jalik shaklidagi yangi madaniyatlar shakllana boshlaydi.

Ushbu madaniyat sohiblari yashagan manzilgohlardan biri Sopollitepa bo‘lib, bu yodgorlik Surxondaryo viloyati Sherobod tumani hududida, Kuhitangtog‘dan oqib tushuvchi kichik daryoning qadimgi irmog‘i bo‘yida joylashgan. Sopollitepa paydo bo‘lgan soy mahalliy aholi orasida Ulonbuloqsoy deb ataladi. Sopollitepa Uzbekiston hududlarida hozirgi kunga qadar aniq bo‘lgan eng qadimgi o‘troq dehqonchilik qishlog‘i bo‘lib, tadqiqotchilarning fikricha, ushbu madaniyat quyidagi beshta asosiy bosqichga bo‘linadi:

1. Sopolli bosqichi -mil. avv. 1700-1500 yy.
2. Jarqo‘ton bosqichi -mil. avv. 1500-1350 yy.
3. Ko‘zali bosqichi -mil. avv. 1350-1200 yy.
4. Molali bosqichi - mil. avv. 1200-1050 yy.
5. Bo‘ston bosqichi - mil.avv. 1050-900 yy.

Ushbu bosqichlarning sanalari tadqiqotchilar tomonidan maxsus tahlil etilib ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotlar tahlilidan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, Shimoliy Baqtrianing qadimgi shaharlari uzoq davom etgan tarixiy jarayonlar va turli: ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va tabiiy-geografik omillarning ta’siri natijasida shakllanib kelgan. Qadimgi Sharq va mahalliy ko‘rinishdagi urbanistik madaniyatning uyg‘unlashuvi qadimgi Baqtriya shaharsozligining asosini tashkil etadi. Keyinroq esa o‘ziga xos bo‘lgan shahar madaniyati mustaqil ravighda rivojlanadi.

Mil. avv. II ming yillikning ikkinchi choragida Amudaryoning o‘ng qirg‘ogida aniqrog‘i, uning g‘arbiy qismida Sopollitepa ko‘rinishidagi dastlabki mustahkam qishloqlar paydo bo‘ladi. Ushbu qishloqlar bu hududlarda rivojlangan butunlay yangi ko‘rinishdagi qishloqlar bo‘lib, neolit davri (Hisor madaniyati) manzilgohlaridan ajralib turadi.

Sopollitepada tadqiqotlar uzoq yillar olib borgan A.Asqarovning fikricha, yodgorlik mustahkam asosda qad ko‘targan bo‘lib, quyidagi ajralib turuvchi belgilarga ega: ikki qismli tuzilish - mustahkam markaziy qism va uning atrofida mustahkamlangan manzilgoh, uncha katta bo‘lmagan maydon, asosiy qismning aniq rejaviy tuzilishi, sakkizta ko‘p xonali turar-joylar qismlarining markazlashuvi va ularning yo‘laklar bilan ajralib turishi, bo‘lma (otsek)lari bo‘lgan himoya devorlari. Undan tashqari, kulolchilik va metallga ishlov berish hunarmandchiligi hamda dehqonchilikning etakchi mavqega ega bo‘lishi ham Sopollitepa uchun xosdir.

Jarqo‘ton yodgorligi Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi Sherobod daryosining ko‘hna o‘zani Bo‘stonsoy yoqasida joylashgan. Ushbu yodgorlikda 1973 yildan boshlab uzlusiz olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida bu hududlarda ro‘y bergen urbanizatsiya jarayonlariga ko‘plab aniqliklar kiritish imkoniyati paydo bo‘ldi. Xususan, Jarqo‘tondag 100 hektardan kam bo‘dmagan hududdan arki a’lo, shahriston, ulkan ibodatxona qoldiqlari, metall erituvchi pechlar, 20 hektarli qabriston, ko‘plab moddiy madaniyat buyumlari topib o‘rganildi. Undan tashqari Jarqo‘ton hududida olib borilgan tadqiqotlar ko‘hna shaharning paydo bo‘lib rivojlangan sanasini aniqlash hamda ushbu hududlarda yuz bergen tarixiy-madaniy Isarayonlarni bir necha bosqichlarga ajratib o‘rganish imkoniyatini berdi.

Ushbu tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Jarqo‘tondagи qadimgi shahar hayoti uch bosqichga, ya’ni, Jarqo‘ton (mil. avv. 1500-1350 yillar), Ko‘zali (mil. avv. 1350-1200 yillar) va Mo‘lali (mil. avv. 1200-1000 yillar) bosqichlariga bo‘lindi. Keyinroq, Jarqo‘tonning qarama-qarshisida, Bo‘stonsoyning o‘ng sohilida o‘rganilgan yodgorliklardagi tadqiqotlar natijasida Mo‘lali bosqichini ikki fazaga, ya’ni Mo‘lali (mil. avv. 1200-1000 yillar) va Bo‘ston (mil. avv. 1000-900 yillar) fazalariga bo‘lib o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Olib borilgan tadqiqotlar tahlilidan shunday xulosa. chiqarish mumkinki, mil. avv. II ming yillikning o‘rtalariga kelib Jarqo‘ton o‘sha hududlardagi dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi qabilalari uyushmalarining mustahkam istehkomiga aylanadi. Aftidan, aynan mana shu istehkom orqali Hisor tog‘ oldi vohalari va janubiy Tojikistonning g‘arbiy hududlariga shimoldagi aholining ko‘chishlari bo‘lib o‘tadi. Aynan mana shu hududlardan topilgan yodgorliklar topografiyasи va ularni davrlashtirish ushbu jarayon izchillik bilan bo‘lib o‘tganligini ko‘rsatadi. Undan tashqari yana shu narsa ham ma’lumki, bu jarayonning rivojlanishi mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi Amudaryoning o‘ng qirg‘ogidagi o‘troq dehqonchilik turmush tarzi kechiruvchi aholi manzilgohlarida aholi sonining o‘sishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti uchun ham keng imkoniyatlar yaratdi.

Bronza davri Janubiy O‘zbekiston shaharlari haqida gap ketar ekan shuni ta’kidlash joizki, bu davr yodgorliklari faqat arxeologik tadqiqotlar orqaligina o‘rganilib, bu davrdagi siyosiy-ma’muriy tuzilmalar hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlар esa yozma manbalarsiz, qiyosiy taqqoslash asosida o‘rganiladi. Aynan mana Shuning uchuN ham tadqiqotchilarning ushbu jarayonlar xususidagi xulosalari ko‘p hollarda-taxminlardan iborat. Masalan, A.Asqarov va B.Abdullaevlar bronza davri rivojlanishining Jarqo‘ton bosqichini (mil. avv. II ming yillik o‘rtalari) ibridoiy jamoa tuzumi emirilish davriga, ko‘zali va molali bosqichlarini (mil. avv. II ming yillikning oxirlari) esa mulkiy tengsizlik munosabatlari paydo bo‘lishi davriga oid deb hisoblaydilar. V.I.Sarianidi esa, aksincha, mil. avv. II ming yillikning oxiri I ming yillikning boshlarida davlatchilik munosabatlari shakllana boshlagan Baqtrianing umumiy ijtimoiy rivojlanish darajasini oshirib yubormaslikni taklif etadi.

T.SH. Shirinovning fikricha, Jarqo‘tonni Mesopotamiyadagi «chifdom» va «nom»ga o‘xhash kichik davlatning ma’muriy markazi bo‘lgan deb taxmin qilish mumkin. Ammo, Mesopotamiyadagi davlatlardan farqli o‘laroq, u beqaror siyosiy birlashma bo‘lgan. Mil. avv. II ming yillikning oxiri -I ming yillikning boshlarida O‘rta Osiyoning janubida bir necha kichik davlat uyushmalari vujudga kelgan bo‘lib Dashli 3, Gonur T, To‘g‘oloq1, Ulugtepa, Namozgohtepa, Oltindepa kabi Jarqo‘ton ham ulardan birining markazi bo‘lgan.

Ko‘pchilik olimlarning e’tirof etishlaricha, O‘rta Osiyoning janubida ilk shaharlar va davlat uyushmalarining paydo bo‘lish jarayoni V.M.Masson tomonidan nisbatan aniqroq izohlangan. Tadqiqotchi bu jarayonda ikkita asosiy bosqichni ajratadi: 1) ma’lum vohalarda shahar-davlatlarning paydo bo‘lishi; 2) ular asosida yirik ijtimoiy-siyosiy tartibning shakllanishi.

So‘nggi yillardagi tadqiqotlar natijalarini umumlashtirgan A.Asqarov Jarqo‘tonni, umumiy maydoni 100 gektardan kam bo‘limgan shahar-davlat sifatida izohlaydi. Shuningdek, E.V.Rtveladze o‘zining so‘nggi yillardagi ishlaridan birida O‘zbekiston hududidagi ilk davlatchilik masalalariga to‘xgalib, mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi-O‘zbekiston janubida embrional shaklda davlatga o‘xhash tuzilma qaror topadi, davlatning bunday namunasi Jarqo‘tonda o‘z aksini topgan deyish mumkin degan fikrni ilgarn suradi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Jarqo‘ton ko‘rinishidagi manzilgohlar majmuini nom davlatlar bilan qiyoslash uchun etarli qator umumiy belgilar bor. Jumladan, Mesopotamiyadagi nom davlatlar uchun xos bo‘lgan yozuv namunalari Jarqo‘tondan ham topilganligi katta ilmiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Xususan, yaqinda Sh.Shaydullaev O‘zbekistonning janubidan topilgan piktografik belgi - yozuvlar

haqidagi maqolasini matbuotda e'lon qildi. Tadqiqotchining ma'lumotlariga ko'ra, Jarqo'ton yodgorligidan soppollarga bitilgan 47 belgidan iborat yozuvning topilishi ajdodlarimizning bronza davrida piktografik yozuvni yaratgani va o'z fikrini turli belgilarda ifodalaganini ko'rsatadi. Shuningdek, SHeroboddagi G'oz qishlogi yonidagi ilk temir asriga oid yodgorlikdan tosh o'g'ir (keli) topilgan bo'lib uning sirtida umumiyligi soni 14 ta bo'lgan piktografik belgi-yozuv mavjud. Tadqiqotchi bu belgini misr ieroglifi-kasy bilan solishtirib ulardan biri "haqiqat", yana biri esa dunyoning aylanishi ya'ni, "charxpalak" deb o'qilishi mumkinligini taxmin qiladi.

Yuqoridagilardan xulosa yasab aytish mumkinki, bronza davri Janubiy O'zbekiston hududlarida yashagan o'troq dehqonchilik jamoalari jamiyat taraqqiyotining yuqori pog'onasida bo'lib, ibtidoiylikning so'nggi bosqichidan sivilizatsiyaga o'tadilar. Ushbu sivilizatsiyaning boshlanishi shaharmonand (protogorod) belgilarni o'zida aks ettingan Sopollitepa bo'lgan bo'lsa, Jarqo'ton aynan yirik shahar belgilarini o'zida mujassamlantirgan markaz edi. Fikrimizcha, aynan Jarqo'tonning o'zi Uzbekiston hududlaridagi ilk shaharlarning yorqin misoli edi. Sherobod vohasidagi shu davrga oid Jarqo'ton majmuiga kiruvchi manzilgohlar guruhini esa shahar-davlat yoki nom davlatlar sirasiga kiritishimiz mumkin. YOKi hech bo'lmaganda, mil. avv. II ming yillikning so'nggi choragida Shimoliy Baqtriya hududlarida yirik va mustahkamlangan markazlarga ega bo'lgai, nom yoki voha ko'rinishidagi davlatlarning boshlanish bosqichida bo'lgan hududiy-siyosiy birlashmalar shakllana boshlagan degan g'oyani ilgari surishimiz mumkin.

Shunday qilib, Surxon vohasi nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyo hududlarida ilk urbanistik markazlardan biri hisoblanib, ushbu hududlarda urbanizatsiya jarayonlarining boshlanish sanasi 4000 yildan kam emas deyishga jiddiy ilmiy asoslar bor.

Mil. avv. VI-VI asrlarda Baqtriya hududlarida himoya devorlari bilan o'rabi olingan shaharlar shakllana boshlaydi. Oltindilyor (Aorn), Baqtra, Qiziltepa kabilalar bu hududlardagi yirik shaharlar edi. Ahamoniylar davri Shimoliy Baqtriya haqida to'g'ridan-to'g'ri yozma manbalarda ma'xgumotlar berilmasa ham arxeologik tadkiqotlar bu masalaga ko'pgina aniqliklar kiritadi. Tadqiqotchilarning fikricha, Baqtriya Kir II ning mil. avv. 539-530 yoki 547-539 yillardagi yurishlaridan so'ng ahamoniylar davlatiga buysundiriladi. Ayrim tadqiqotchilar bu davrda Baqtriyaning shimoli-g'arbiy chegaralaridagi Temir darvoza atroflarida Sisimifr qal'asi bo'lgan deb hisoblaydilar. I.V.Pyakovning fikricha, bu erda Baqtriya va So'g'diyona o'rtasidagi chegarani belgilaydigan hamda katta yo'lni nazorat qilib turadigan punkt joylashgan bo'lishi mumkin.

Ammo, bu taxminlar arxeologik tadkiqotlar bilan tasdiqlanmaydi. Shu bilan birga Amudaryodan kechuv joyida va bu kechuvga keluvchi yo'llar ustida mil. avv. I ming yillik o'rtalarida qal'alar (Sho'rtepa, Talashkan I, Termiz, Xirmontepa) bunyod etiladi. Bu jarayon ahamoniylarning Baqtriyadan So'g'diyonaga o'tuvchi barcha yo'llarni qat'iy nazorat ostiga olganlaridan dalolat beradi.

Ahamoniylar davriga kelib, Baqtriya shaharsozligida sezilarli o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Ko'plab rivojlanish jarayonlari: temir qurollarning keng yoyilishi, sug'orma dehqonchilik va hunarmandchilikning takomillashuvi, manzilgohlar sonining ortishi, ular maydonining kengayishi, yangi belgilar qo'shilgan holda tuzilishining murakkablashuvi aynan mana shu davr uchun xosdir. Shuningdek, bu davrga kelib aholi punktlarining turli shakllari paydo bo'ladi.

Bu davrga kelib manzilgohlarning ilgarigidan ko'plab belgilari bilan farqlanuvchi Qiziltepa ko'rinishidagi yangi shaharsozlik shakli ham paydo bo'ladi, ko'pchilik tadqiqotlarning fikricha, Qiziltepa: qal'a, shahar, «shahar oldi» va atrof hududlar qismlardan iborat. Maydoni 2 hektar, balandligi 14-15 metr tepalik ustiga joylashgan qal'aning g'arbiy yarimi baland sun'iy poydevor ustiga qad ko'targan hokimning saroyi bo'lgan katta qurilishlardan iborat. Qal'aning Sharqiy yarimi g'arbiy qismidan kagga hovli yoki maydon bilan ajratilgan bo'lib, bu erda xo'jalik turar-joy majmuasi joylashgan va bu majmua ko'plab turli davrlarga oid xonalardan iborat.

Qiziltepada olib borilgan stratigrafik tadqiqotlar natijasida ko‘hna shahar o‘zlashtirilishining uchta asosiy davri (Qizil I, II, III) aniqlangan. Qizil III davri aynan ahmoniylar davriga (mil. avv.VI-IV asrlar) oid bo‘lib bu davrda ko‘hna shaharning janubi-Sharq tomonida shahar oldi shakllanadi, Uning ichida va qal’ada ayrim uchastkalar qayta qurilib, ayrim yangilari paydo bo‘ladi. Bu davrning oxirlariga kelib shahar inqirozga uchray boshlaydi. Himoya devorlarida chiqindi to‘plamlari paydo bo‘ladi va qal’aning yuqori xonalari xo‘jalik chiqindilarining qalin qatlami bilan qoplanadi.

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ilgarigi davrdagi barcha manzilgohlarga nisbatan Qiziltepada mutlaqo yangi tuzilish va rejaviy belgilar paydo bo‘ladi. Xususan, ko‘pqismililik, vazifaviy farq va har bir qismning alohidaligi, qo‘rg‘onning qal’aga aylanishi, mustahkamlanmagan kismning manzilgohga aylanishi, shahar oldi va atrof hududlarning ajralishi kabi belgilar Qiziltepa uchun xosdir. Shuningdek, Qiziltepaning himoya inshootlari ham ilgarigi manzilgohlardan sezilarli farqlanadi. Himoya devorlari, keng va chuqur xandaqlar ko‘hna shaharni o‘rab turgan.

Antik davr mualliflari ahmoniylar davri Baqtriyasini ko‘p sonli katta shaharlari bo‘lgan o‘lka sifatida ta’riflaydilar. Ular orasida nisbatan yiriklari Baqtra-Zariasp, Aorn, Drapsak yoki Daraska - Adraska va Kariatid bo‘lgan. Baqtrada juda balandlikda qal’a qurilib pastda shaharni qalin devor o‘rab turgan. Shuningdek qal’a, akropolda ham mavjud edi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ahmoniylar davrida Baqtra Bolo Hisor hududlarini (120 hektar) va uning janubi g‘arbidagi pastki shaharning bir qismini egallagan. Aorn esa Balxdan 35 km shimolda joylashgan Oltindilyortepaga qiyos qilinadi.

Qadimgi mualliflar Baqtrianing poytaxti Baqtra-Zariaspani bir necha marta tilga olganlar. Baqtra Mozori Sharyf shahridan 21 km g‘arbda, daryo (Baqtr, Zariaspa) bo‘yidagi vohada joylashgan. Fransuz arxeologlari bu erdagisi Bolo Xisor tepaliklaridan devorlar bilan o‘ralgan, minoralar ko‘garilgan, xandaqlar qazilib, suv bilai to‘ldirilgan aylanashimon qal’ani topdilar. Shaharning bir qismi shahar devorlaridan tashqarida, Bolo Xisorning janubi-Sharqida, Tepai Zargaronda joylashgan. Umumiy maydoni 120-150 metr bo‘lgan bu shahar oldingi davr qatlamlaridagi er osti sizot suvlari ahmoniylar va selevkiylar davridagi hayotning madaniy darajasini to‘liq o‘rganish imkonini bermadi.

Shahar markazidan atrofga tarqalgan ko‘chalar devor tashqarisida magistral yo‘llarga: shimoli-garbdagi Kalif, Sharqda Mozori Sharif, janubi-g‘arbda Oqsu, janubda Hoji Piyad yo‘llariga tutashgan. O‘rtaer dengizidagi yirik Efes portidan Balxga tomon ahmoniy podsholarining xizmat ko‘rsatuvchi bo‘lgan yo‘li cho‘zilib ketgan. O‘z davrining madaniy va iqtisodiy markazi, savdo yo‘llari kesishgan joyda joylashganligi sababli antik davr mualliflari Baqtrani «eng katta shahar» deb ataganlar.

Kushon davri Shimoliy Baqtriy shaharlari. Mil. avv. I - milodiy III asrlar Shimoliy Baqtriy shaharlarining gullab-yashnagan davri bo‘ldi. Aynan mana shu davrda tipologik jihatdan turlicha bo‘lgan, turli vazifalarni bajargan shaharlari paydo bo‘ladi. Baqtriyadagi siyosiy va iqtisodiy barqarorlik, ayniqsa, bu hududlarning Kushon davlati tarkibiga kirishi bu jarayonga imkoniyat yaratgan edi. Baqtrianing ko‘pgina shaharlari muhim karvon yo‘llari bo‘ylarida, daryordan o‘tish joylarida, savdo yo‘llari chorrahalarida paydo bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, ularning shakllanishi turli yo‘llar bilan bo‘lib o‘tgan. V. M. Massonning fikricha, Shimoliy Baqtrianing kushon davri shaharlari ikki xil yo‘l bilan paydo bo‘lgan. Ularning ayrimlari aholining asta-sekin ko‘payishi natijasida o‘zo‘zidan paydo bo‘lgan bo‘lsa, ayrimlari esa doimiy reja asosida markaziy hokimiyatning markazga intilish siyosati natijasida paydo bo‘lgan.

Kushon davri Shimoliy Baqtriy shaharlarining shakllanish jarayoni, ularning tarhi va tuzilishi ko‘p hollarda uning asosiga, ilgari aholi yashagan manzilgohga bog‘liq bo‘lgan. Bu holatni arxeologik ma’lumotlar asosida o‘rgangan. E.V.Rtveladz o‘z asoslari bilan farqlanuvchi shaharlarning quyidagi uchta guruhini ajratadi:

1. Ahmoniyalar davriga borib taqaladigan, qadimgi asosga ega bo‘lgan ko‘p qatlamlı shaharlar (Jondavlattepa, Qalaimir, Hayitobodtepa va balki Termiz);
2. Grek-Baktriya ski Selevkiylar davriga borib taqaladigan shaharlar (Dalvarzintepa, Kayqubodshoh, Saksonoxur, Termiz, Shahrinav(?), Xolchayon);
3. Yuechji yoki Kushon davrida paydo bo‘lgan shaharlar. Kichkina shaharlarning asosiy qismi va Budrach, Zartepa, G‘arov-qal‘a (Yavan), Kallaminor (Denov yonida), Shohtepa va boshq,

Kushon davri shaharlarining kelib chiqishi va shakllanish jarayonini Dalvarzintepa nisbatan yaxshi aks ettiradi. Uning dastlabki asosi mil. avv. III asrda ko‘hna shaharning janubi-Sharqiy qismida, ikki tomondan qadimgi irmoq o‘tib turgan balan tepalikda paydo bo‘ladi. Bu irmoqlardan xandaq sifatida foydalanilgan. Keyinroq, grek-baqtriyal davrida bu bo‘lak 2 metrdan oshiq qalinlikdagi paxsa devor bilan o‘rab olinadi va maydoni 3 gektardan ziyod kal‘aga aylanadi. Uning shimolida esa tarqoq rejaga ega mustahkamlanmagan manzilgoh paydo bo‘ladi..

Aftidan, mil. avv. I asrning ikkinchi yarmi yoki milodiy I asr boshlarida dastlabki markaz o‘rnida qalinligi 7 metrli devor va xandaq bilan o‘rab olingen mustahkam qal‘a shakllanadi. Mustahkamlanmagan manzilgoh shaharga aylanadi. Bu shahar aniq to‘g‘ri burchakli rejasi va shu reja asosidagi devorlari bilan ajralib turadi. Uning ichida jadallik bilan qurilishlar olib boriladi. Shu davrdan boshlab Dalvarzintepa tarixida yangi davr - shahar davri boshlanadi. Dalvarzinning keyingi rivojlanishi Kushon davriga to‘g‘ri keladi. Ya’ni, hashamatli turar-joy inshootlari, ibodatxonalar, ishlab chiqarish mahallari barpo etilib, devorlar mustahkamlanadi. Shuningdek, bir tomonida diniy va dafn marosimlariga oid inshootlar, ikkinchi tomoniga qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq mulklar markazlashgan kagtagina shahar oldi qismi shakllanadi. Dalvarzintepa umumiy hududining 34 foizini mudofaa inshootlari, 41 foizini asosiy istiqomat qismi, 7 foizini maydonlar va ko‘chalar, 18 foizini boshqa binolar egallagan deb taxmin qilinadi. Bu erdan ibodatxonalar, shahar aholisining uylari, ishlab chiqarish ustaxonalar, shahar maydonlari va hovuzlar, suv tarmoqlari tizimi, ko‘cha tarmoqlari qazib ochilgan va o‘rganilgan.

4-Mavzu: Qashqadaryo voxasi shaxarlari urbanitsaziysi. (2 soat)

Reja

1. Qashqadaryo voxasidagi eng qadimgi shaxarlar Erqo‘rg‘on va Uzunqir.
2. Ilk o‘rta asrlarda Kesh shaxri.
3. Amir Temur va Temuriylar davrida Shaxrisabz markaziy shaxar sifatida.

Tayanch so‘z va iboralar: O‘rta Osiyo, antik davr, Qashqadaryo, Zarafshon voxasi, ilk o‘rta asrlar, o‘rta asrlar, qadimgi shahar, shaharsozlik, shahar, shahar tushunchasi, Jarqo‘ton, sivilizatsiya, madaniyat, davlatchilik, urbanizatsiya, moddiy madaniyat, arxeologik yodgorlik, arxeologiya, Amir Temur, Temuriylar, Kesh, Nautaka, Shaxrisabz, Qarshi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.
3. Asqarov A. Eng qadimgi shahar. T., 2000.
4. Asqarov A.A., Shirinov T.Sh. Rannyaya gorodskaya kultura epoxi bronzasi Sredney Azii. Samarqand. 1993.
5. Asqarov A.A., Shaydullaev Sh.B. Baqtriyaning bronza va ilk temir davri madaniyatlarini xronologiyasi // O‘zbekiston tarixi moddiy madaniyat va yozma manbalarda. – Tashkent: Fan, 2005.
6. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. –Toshkent. “O’ZBEKISTON”. 2015. 670 b.

- 7.Sagdullaev A.S. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘qituvchi, 1996.
- 8.Sagdullaev A.S. Qadimgi O‘rtta Osiyo tarixi. O‘quv qo‘llanma. T., 2004.
- 9.Sagdullaev A.S., Aminov B.B., Yakubov B.S. Qashqadaryo tarixidan lavxalar. Qarshi. 1997.
- 10.Suleymanov R.X. Drevniy Naxshab. T., 2000.
- 11.Qadimgi Kesh-Shaxrisabz tarixidan lavhalar. –T., 1998.
- 12.Eshov.B. Sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. – Toshkent: Zar qalam, 2004; 126 b.
13. Eshov B.J. O‘rtta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. Darslik. Toshkent. 2008.
14. Eshov B.J. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. - T.: Yangi asr avlodi, 2012.-B.556.

Qashqadaryo viloyati - (1943 yil 20 yanvarda tashkil etilgan) maydoni 28,6 ming kvadrat kilometr bo‘lib, 2378,5 ming kishi yashaydi. Viloyat xududida 13 ta qishloq tumani (Dexqonobod, Kasbi, Kitob, Koson, Mirishkor, Muborak, Nishon, Chiroqchi, Shaxrisabz, Yakkabog', Qamashi, Qarshi, G'uzor), 12 ta shaxar (Beshkent, Kitob, Koson, Muborak, Tallimaron, Chiroqchi, Qamashi, G'uzor, Yakkabog', Yangi Nishon, Shaxrisabz) va 4 ta shaxarcha mavjud. Viloyat markazi Qarshi shaxridir.

Nautaka (Qadimgi davr)-Kesh (o‘rtta asrlar)-Shaxrisabz deb atalgan. YUNESKO Bosh konferensiyasining 32-sessiyasida Shahrisabz shahrining 2700-yilligini nishonlash haqida qaror qabul qilindi. Shu munosabat bilan e’lon qilingan O‘zbekiston Respublikasining Birinchi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Shahrisabz shahrining 2700-yilligi nishonlashga tayyorgarlik to’g’risida” (2002-yil 29 mart) qarorlari jahon tarixi va madaniyatida alohida o’rin tutgan Shahrisabz shaxrining yubiley tadbirlariga tayyorgarlik ishlarni jadallashtirib yubordi.

O‘rtta Osiyodagi urbanizatsiya jarayonlari faqat ichki tabiiy-geografik va ijtimoiy-siyosiy sharoitlar hamda qo‘shni jamoalardagi madaniy ta’sir bilan bog‘liq bo‘lmasdan, avvalo, Yaqin va O‘rtta Sharqdagi jahon urbanistik markazlari bilan ham chambarchas bog‘liq edi. Zarafshon va Qashqadaryo vohalarini o‘z ichiga olgan qadimgi So‘g‘diyona manzilgohlari rivojlanish tizimidagi jarayonlar ham qo‘shni hududlar bilan o‘zaro bog‘liq holda kechdi. Bugunga qadar olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tahlili shundan dalolat beradiki, So‘g‘diyona va unga qo‘shni bo‘lgan Baqtriyahududlarida dastlabki shaharlarning tarixiy-madaniy asosi bo‘lgan o‘troq dehqonchilik madaniyatini Janubiy Turkmaniston va Afg‘onistondagi qadimgi dehqonchilik markazlari bilan uzviy bog‘liqidir. Chunonchi, Zarafshonning yuqori oqimlarida ochilgan Sarazm manzilgohining eng pastki qatlami topilmalari Geoksur I topilmalariga juda o‘xshash ekanligi eneolit davridayoq So‘g‘diyonaning tog‘ oldi hududlari qadimgi dehqonchilik o‘chog‘laridan biri ekanligining dalilidir.

So‘nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Qashqadaryo vohasi (Janubiy So‘g‘d) qadimgi shaharlarini o‘rganish masalalariga ham ko‘pgina aniqliklar kiritdi. Asrimizning 60-yillarida M.E.Masson Erqo‘rg‘on ko‘hna shahrida tadqiqot ishlari olib borib uning yirik ko‘hna shahar ekanligi, bir necha madaniy qatlamlar rivojlanish jarayonidan dalolat berishini ta’kidlasa ham, uning shakllanishi va rivojlanishi dastlabki bosqichdagiligi aniq sanasini bermagan. Keyingi tadqiqotlar esa Erqo‘rg‘on ko‘hna shahrining shakllanishi va rivojlanishi, shaharsozlikning paydo bo‘lishi, moddiy madaniyat va iqtisodiy tarixi, xronologiya va davrlashtirish masalalariga ko‘pgina aniqliklar kiritish imkonini berdi.

Erqo‘rg‘on ikki qator mustahkam himoya devorlari bilan o‘ralgan bo‘lib, tashqi devorning hududi 150 hektarga yaqin, ichki devorning hududi esa 40 hektarga yaqin. Mil. avv. IX-VIII asrlarda Erqo‘rg‘on o‘rnida o‘troq aholi manzilgohi paydo bo‘ladi. So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra u mudofaa inshootlari bilan muhofaza etil-gan bo‘lishi mumkin. Erqo‘rg‘on qazishmalarining ko‘pqatlamliligi miloddan avvalgi VII-VI asrlarda ko‘hna shahar hududi jadallik bilan o‘zlashtirilib borilganidan dalolat beradi.

Erqo'rg'onning ijtimoiy-o'troqlashish rivojlanishi uning sug'orish tarmoqlari bilan uzviy bog'liq holda kechgan. Tipologik klassifikatsiya va statistik ma'lumotlarning tahliliga qaraganda, yashash makonlari o'z o'lchamlariga ko'ra ierarxik tizim ostida tarqalgan va ushbu qadimgi So'g'diyona jamoasi tizimining eng cho'q-qisida Erqo'rg'on ko'hna shahri turgan. Shuningdek, mahalliy ahamiyatga molik bo'lgan kichik shaharlar ham mavjud bo'lgan.

Erqo'rg'on topilmalari hamda bu erda ochilgan hokim saroyi, shahar ibotxonasi, daxma va maqbaralarni boshqa hududlardagi topilmalar bilan solishtirib va qiyoslab shunday xulosa chiqarish mumkinki, qadimgi So'g'd shaharlari me'morchiligi - qadimgi Sharq shaharsozligining ko'plab usullari, xususan qo'shni Baqtriya va Marg'iyonanining bronza va ilk temir asriga oid boy bunyodkorlik merosi bilan uyg'unlashib, o'ziga xos yo'nalishda davom etadi.

FA Arxeologiya institutining so'nggi yillardagi tadqiqotlariga ko'ra, Erqo'rg'onning pastki qatlamlaridan mil.avv. IX-VII asrlarga oid madaniy qatlamlar aniqlandi. Shuningdek, Erqo'rg'onda to'rtta qurilish davri mavjud bo'lganligi hamda birinchi qurilish davriga oid eng qadimgi himoya devori mil.avv. VIII-VII asrlarda bunyod etilganligi kuzatildi. Demak, so'nggi tadqiqotlar ham Erqo'rg'oni O'rta Osiyoning boshqa shu davrga oid yodgorliklari qatori (Qiziltepa, Marv, Boloi Hisor, Uzunqir, Afrosiyob va boshq.) urbanistik markazlar safiga kiritish mumkinligini yana bir marta isbotlaydi.

Sharqiy Qashqadaryo (Kitob-Shahrisabz vohasi) hududlaridan so'nggi yillarda mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmi va o'rtalariga oid shaharsozlik madaniyati haqida yangi ma'lumotlar olindi. Bu hududlardagi Sangirtepa va Uzunqir yodgorliklari Qashqadaryo o'rta oqimidagi Sho'robsoy daryosi bo'yida vohaning eng yirik va qadimiy madaniy-xo'jalik hududida joylashgan.

Sangirtepadagi arxeologik-stratigrafik tadqiqotlar natijasida yodgorlikning shakllanish tarixi, uning o'zlashtirilishi va tashlandiq holga kelish bosqichlari aniqlangan. Yodgorlikning ilk shakllanish davri mil. avv. IX-VIII asrlarga oiddir. Ushbu davrda bu erda mustahkam paxsa devor bilan o'ralgan yirik inshoot qad ko'taradi.

Uzunqir ko'hna shahrining dastlabki tashqi devori bo'rtib chiqqan, to'g'ri burchakli burjlarga, burjichi xonalariga, yarim ustunlarga, jangovar va «soxta» shinaklarga ega bo'lgan. Bunday tuzilishiga ega bo'lgan devorlar Janubiy O'zbekistonning mil. avv. VIII-VI asrlarga oid birorta yodgorligida uchramaydi (ular boshqa yodgorliklarda biroz keyingi davrlarda paydo bo'ladi). Lekin, Old Osiyo yodgorliklari bilan ko'pgina umumiyligi jihatlarga ega. Masalan, Bobilning (mil. avv. VII-VI asrlar) va ba'zi Mesopotamiyadagi boshqa yirik shaharlarning mudofaa devorlari burjlar bilan mustahkamlanib, yarim ustunlarga ega bo'lganki, bu hol Uzunqir me'morlari tomonidan Old Osiyo an'analarini qo'llanilganidan dalolat beradi.

Uzunqirdagi arxeologik tadqiqotlar uning hududida hayot mil. avv. I ming yillik boshlarida paydo bo'lganligidan dalolat beradiki, yodgorlik markazi qismidagi shurfdan topilgan va qadimiy manzilgoh bo'lganligidan dalolat beruvchi mil. avv. VIII asrga oid sopol siniqlari majmuasi shuni ko'rsatadi. Mil. avv. VII asrga kelib esa manzilgoh mustahkam mudofaa devorlari bilan o'rab olinadiki, bu shaharsozlikning yorqin namunasidir.

Uzunqir shaklidagi ilk shaharlarning paydo bo'lishini O'rta Osiyodagi eng qadimgi davlatlarning vujudga kelishi jarayoni bilan bog'lash mumkin. Ilk temir davrida So'g'diyona hududlari qadimgi Baqtriya tarixiy-madaniy viloyati tarkibiga kirgan. Shuning uchun ham So'g'diyonanining yirik shahar markazlari (Afrosiyob, Ko'ktepa, Buxoro, Uzunqir, Erqo'rg'on) va aynan Baqtriya markazlarining (Baqtr, Oltindilyor, Qiziltepa) me'morchiligi, hunarmandchiligi va moddiy madaniyati bir-biriga ancha yaqin bo'lib, umumiyligi tarixiy madaniy jarayonlar ta'sirida rivojlangan.

Keshda Qaynarsoy tizmasi buloqlari asosida shakllangan Sho'robsoyning quyi oqimida Uzunqir, Sangirtepa, Podayotoqtepa bir-biriga yaqin joylashgan.

So‘nggi yillarda Sangirtepada taddiqot ishlarini davom ettirgan M.Xasanov xulosalariga ko‘ra, Sangirtepada mil.avv.IX-VIII asrlardan V-IV asrlargacha bo‘lgan Baqtriyadagi Kuchuktepa uchala davri (I-II-III) sopol majmualari kuzatiladi. Shuningdek, bu erdan So‘g‘d hududlarida birinchi bo‘lib zardo‘shtiylik ibodatxonasining markaziy zali ochildi.

Fikrimizcha, So‘g‘diyona vohasidagi dastlabki shaharlar qishloqlardan iqtisodiy, siyosiy va madaniy mavqeい bilan ajralib turgan. Tadqiqotlar natijalarining tahliliga qaraganda eng qadimgi shaharlar asosan aholisi sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullangan vohalarda, qadimgi savdo yo‘llari bo‘ylarida, hukmdorlar qarorgohlari atroflarida paydo bo‘lgan. Bunday shaharlar o‘zлari joylashgan vohalarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy va harbiy markazlari vazifasini bajargan bo‘lishi shubhasizdir.

So‘g‘diyona shaharsozligining paydo bo‘lishi va rivojlanishi masalalariga xulosa yasab shuni aytish mumkinki, ilk shaharsozlikning shakllanishi jamiyat taraqqiyotidagi rivojlanish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayon uzoq va bosqichma– bosqich davrlarni o‘z ichiga oladi. So‘g‘diyona shaharsozligining shakllanishi va rivojlanishi bunga yorqin misol bo‘lishi mumkin.

So‘nggi yillarga qadar O‘zbekiston hududlarida ilk shahar madaniyatining shakllanishi miloddan avvalgi I ming yillikning o‘rtalari deb kelinar edi. Asoslari neolit va eneolit davrlariga borib taqaladigan So‘g‘diyona shaharsozligi miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi choragidayoq shakllana boshlaydi. Afrosiyob, Ko‘ktepa, Erqo‘rg‘on, Uzunqir kabi ko‘hna shaharlar mil. avv. I ming yillik o‘rtalarida mustahkam mudofaa inshootlariga ega edi. Tadqiqotlar natijalariga qaraganda ularning yoshi 27 asrdan kam emas. Bu ko‘hna shaharlar yuqori darajada rivojlanib ko‘p hollarda dehqonchilikka asoslangan vohalarda shakllandi va taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tdi. Shuningdek, bu ko‘hna shaharlarda hunarmandchilik, o‘zaro almashinuv va savdo-sotiқ gurkirab rivojlanadi. Xillas, So‘g‘diyona O‘zbekistonda dastlabki shaharsozlik madaniyati paydo bo‘lgan hududlardan biri deyishga jiddiy ilmiy asoslar bor.

Qashqadaryo vohasi mil. avv.VI-IV asrlar yodgorliklari So‘g‘diyonaning boshqa hududlariga nisbatan yaxshiroq o‘rganilgan. Vohadagi ko‘hna shaharlardan biri Erqo‘rg‘on mil. avv. VIII-VII asrlarda shakllanadi va ahamoniylar davriga kelganda hududlari ancha kengayib, to‘rtburchak shaklda devorlar bilan o‘rab olinadi. Undan tashqari bu davrga kelib ko‘hna shahar atrofida alohida qishloq manzilgohlari paydo bo‘ladi. Bu davrda dehqonchilik vohalari atroflarining o‘zlashtirilishi shaharlar bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zlashtirilgan hududlar shaharlarga vositachi yoki tayanch vazifani bajargan. Bunday kichik qishloqlarning bir qismi shahar aholisining shahar tashqarisidagi erlari bo‘lgan bo‘lishi ham mumkin. Mil. avv. VI-V asrlar voha va shahar yagona jamoadan iborat bo‘lib yaxlit So‘g‘d o‘lka-satrapiyasini tashkil etgan bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotlar natijalaridan xulosa chiqarib, ahamoniylar davriga oid Janubiy So‘g‘ddagi quyidagi inshootlar shakllarini belgilash mumkin: rejaviy tuzilishi to‘g‘ri burchakli va ikki qator devor bilan mustahkamlanib maydoni 3 hektar bo‘lgan alohida qal‘a qo‘rg‘oni (Sangirtepa); qishloq xo‘jalik vohasi aholisi uchun harbiy boshpana vazifasini bajaruvchi va maydoni 34-70 hektar bo‘lgan yirik qal‘alar (Erqo‘rg‘on, Uzunqir); paxsa-xom g‘ishtlari bo‘lmagan hamda maydoni 2 hektargacha bo‘lgan yarim erto‘la va erto‘lalardan iborat qal‘alar (Qo‘rg‘ontepa, Somontepa, Ko‘zatepa, To‘rtburchaktepa va boshq.); tabiiy-geografik qurilishlarga asoslanib, alohida turar-joylarga ega bo‘lgan manzilgohlar (Daratepa, Qorovultepa); qishloq uy-qo‘rg‘onlari (Saroytepa, SHo‘rob, CHoshtepa). Vohadagi eng yirik yodgorliklardan biri bo‘lgan Uzunqir ko‘hna shahri ahamoniylar davrida o‘zida barcha himoyalanish belgilarini aks ettiruvchi mustahkam devor bilan o‘rab olinadi. Uzunqir va uning atroflaridagi me’morchilik va himoya inshootlari (70 hektarga yaqin) yuqori darajadagi shaharsozlik madaniyatidan dalolat beradi.

Mil. avv. VI-IV asrlarda So‘g‘diyona hududlarida ko‘plab shahar va qishloqlar bo‘lib, ular fors

podsholariga katta-katta soliqlar to‘lab turar edilar. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Zarafshon va Qashqadaryo vohalaridan bu davrga oid Uzunqir, Erqo‘rg‘on, Daratepa, Sangirtepa, Lolazor, Ko‘ktepa, Afrosiyob, Xo‘ja Bo‘ston kabi 50 dan ziyod ko‘hna shahar va manzilgohlar olib o‘rganilgan. So‘g‘diyona hayotida dehqonchilik katta hamiyatga ega edi. SHunisi muhimki, dehqonchilik sun‘iy sug‘orishga asoslangan bo‘lib, bu haqda yozma manbalar ham ma’lumotlar beradi.

5-Mavzu: Samarqand. O‘rta Zarafshon shaxarlari urbanizatsiyasi (4 soat)

Reja:

1. Afrosiyob eng qadimgi shaxar madaniyati.
2. Ilk o‘rta asrlarda Maroqonda. O‘rta asr Zarafshon shaxarlari.
3. Samarqand Amir Temur va temuriylar davrida.

Tayanch so‘z va iboralar: O‘rta Osiyo, antik davr, Samarqand, Zarafshon voxasi, ilk o‘rta asrlar, o‘rta asrlar, qadimgi shahar, shaharsozlik, shahar, shahar tushunchasi, Afrosiyob, sivilizatsiya, madaniyat, davlatchilik, urbanizatsiya, moddiy madaniyat, arxeologik yodgorlik, arxeologiya, Amir Temur, Temuriylar.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va ollyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.
3. Asqarov A. Eng qadimgi shahar. T., 2000.
4. Asqarov A.A., Shirinov T.Sh. Ranniyaya gorodskaya kultura epoxi bronzy Sredney Azii. Samarqand. 1993.
5. Asqarov A.A., Shaydullaev Sh.B. Baqtriyaning bronza va ilk temir davri madaniyatları xronologiyasi // O‘zbekiston tarixi moddiy madaniyat va yozma manbalarda. – Tashkent: Fan, 2005.
6. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. –Toshkent. “O’ZBEKISTON”. 2015. 670 b.
7. Sagdullaev A.S. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘qituvchi, 1996.
8. Sagdullaev A.S. Qadimgi O‘rta Osiyo tarixi. O‘quv qo‘llanma. T., 2004.
9. Sagdullaev A. va boshq, O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent. Akademiya, 2000.
10. O‘ljaeva Sh. Amir Temur va temuriylar davrida milliy davlatchilikning rivojlanishi, Toshkent. Fan. 2005.
11. Eshov.B. Sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. – Toshkent: Zar qalam, 2004; 126 b.
12. Eshov B.J. O‘rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. Darslik. Toshkent. 2008.
13. Eshov B.J. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. - T.: Yangi asr avlod, 2012.-B.556.

Samarqand viloyati - (1938 yil 15 yanvarda tashkil etilgan) maydoni 16,8 ming kvadrat kilometr bo‘lib, 2867,1 ming kishi yashaydi. Viloyat xududida 14 ta qishloq tumani (Bulung‘ur, Jomboy, Ishtixon, Kattaqo‘rg‘on, Narpay, Nurobod, Oqdaryo, Payariq, Pastdarg‘om, Paxtachi, Samarqand, Toyloq, Urgut, Qo’shrobod), 11 ta shaxar (Bulung‘ur, Jomboy, Juma, Ishtixon, Kattaqo‘rg‘on, Nurobod, Oqtosh, Payariq, Samarqand, Urgut, CHelak) va 12 ta shaxarcha mavjud. Viloyat markazi Samarqand shaxridir.

Samarqand Rim shahrining tengdoshi, tarixda o‘zining asliy poydevorida barqaror kamol topgan, jahondagi eng qadimgi umri boqiy shaharlardan biri, Amir Temur Sohibqiron davlatining poytaxti, Moturidiy, Ulug‘bek, Abdurazzoq Samarqandiydek qator nomdor olimu fuzalolarni voyaga etkazgan,

ilm-fan va ma'rifat markazining nomidir. Tarixda Samarqand nomi bilan shuhrat topgan bu sharofatlari maskan yozma manbalarda qator turli shakl va shamoyillarda qayd etiladi.

Mug' tog'idan topilgan so'g'diy hujjatlarda shahar Samarkand qadimgi Yunon va Rim mualliflari asarlarida Marakanda, Marganda va Margandi shakllarida qayd etiladi. Arablar esa uni Samaroy deb ataganlar Italiyalik sayyoh va adib Marko Polo (1254-1324 y.)ning kitobida shahar Samarqan, Sarmakan va Sanmarkan shakllarida tilga olinadi. Forschada Samarqand deyilgan

Xitoyning qadimgi va o'rta asr yilnomalarida Samarqand shahar, viloyat va ularning hukmdorlari ham Kan yoki Samogan, Limogan, Sivingin va Saymaerkan shakllardagi atamalar bilan ta'riflanadi Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida Samarqand "Semirqand" ya'ni "semiz shahar" ma'nosini bildiradi, degan fikr bayon etilgan. Bobur mazkur shaharni ta'riflar ekan, "Mo'g'ul va turk ulusi Semirqand (Semizkand) derlar" deb yozadi (Bulardan tashqari, turli davrlarda bitilgan tarixiy manba va kitoblarda shahar nomi Samariana, Saramanka, Sakanna, Sanmangan, Samakiyon, Sumron, Shamarkan, Samaroy, Simroyat kabi shakllarda ham qayd etiladi Bu atamalarning asosi, shubhasiz, o'tmishda tarixan mazmundor ma'lum bir ma'noni anglatgan. SHu boisdan, fanda Samarqand toponimining yuzaga kelishi va semantikasi borasida turli xil naql hamda fikr va mulohazalar keltirilgan.

So'nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqodlar natijasida ochilgan manzilgohlar, qo'hna shaharlar va ulardan topilgan topilmalar hamda ushbu ma'lumotlarni yozma manbalar bilan solishtirish natijasida O'rta Osiyo ilk davlatchiligi paydo bo'lishi muammolariga biroz anqliklar kiritildi. Bu o'rinda So'g'diyona davlatchiligi masalalariga bag'ishlangan Sh.Odilovning so'nggi ilmiy tadqiqodlari ayniqsa diqqatga sazovordir.

Tadqiqotchi So'g'diyonada, xususan Buxoro va Zarafshon vohalarida topib tekshirilgan ilk temir davriga oid arxeologik ma'lumotlarni boshqa hududlar bilan solishtirib chuqur tahlil etadi. Buxoro hududlaridan topilgan «ahmoniyalar davri» yodgorliklari uncha katta bo'lmagan hududlarda joylashgan bo'lib, bu erlarni keng hududlarga yoyilgan etno-madaniy viloyat tarkibiga kiritish lozimki, ilk temir davrida bu hududlarda tashqi ko'rinishi bir xil bo'lgan dehqonchilik madaniyati shakllanadi. Bu etno-madaniy viloyat dastavval Amudaryo vohasi (Xorazm, Marg'iyona, Baqtriya-Toxariston), Janubiy So'g'd, Markaziy So'g'dning bir qismi, Buxoro So'g'dining shimoli-g'arbiy va shimoli-Sharqiy hududlari, Shuningdek, Ustrushana kabi tarixiy viloyatlarni o'z ichiga olgan.

Qadimgi Baqtriya hududlaridan ko'chib borish bevosita Amudaryo, Sirdaryo, Qashqadaryo suv havzalari va ularning irmoqlari orqali bo'lib o'tgan. So'nggi bronza davridayoq Qashqadaryo yuqori oqimlarida mavjud bo'lgan madaniyat sohiblari tog'lar orqali Markaziy So'g'd (Samarqand) hududlariga etib keladilar. Zarafshon vohasiga kelsak, Sh.Odilovning fikricha, Markaziy So'g'dning kattagina qismi (bir tomondan Afrosiyob ko'hna shahri atroflari va Ko'ktepadan, ikkinchi tomondan, Sarmishsoy va Konimex yodgorliklarigacha) so'nggi bronza va «ahmoniyalar davri»da (miloddan avvalgi IV asrning boshlarigacha) umuman o'zlashtirilmagan edi. Ammo, bizning fikrimizcha aynan mana shu davrda Janubiy So'g'dning kattagina qismi o'troq dehqonchilik aholisi tomonidan o'zlashtirilib daryo vohalari va tekisliklarda sug'orma dehqonchilik va ixtisoslashgan hunarmandchilik gurkirab rivojlanayotgan edi. Qo'shi Qadimgi Baqtriyaning kattagina hududlarida ham aynan mana shu holatni kuzatishimiz mumkin.

M.X.Isomiddinovning so'nggi yillardagi xulosalariga ko'ra, mil. avv. VIII-VII asrlarga oid Samarqand va janubiy So'g'd arxeologik materiallari Baqtriya materiallari bilan yaqin o'xshashlik topadi. Bunday o'xshashlik Buxoro So'g'dida hozircha aniqlanmagan. So'g'd hududlarida davlat uyushmasi bu hududlar Ahmoniyalar davlati tarkibiga kirgunga qadar faqat Janubiy va Samarqand So'g'dida mavjud bo'lgan. Chunki So'g'd hududlaridagi jamiyat taraqqiyoti darajasi bu hududlardagi yirik ko'hna shaharlar - Erqo'rg'on, Afrosiyob, Ko'ktepa va Uzunqir kabilarning tashkil topishi va

davlatchilik rivojlanishi uchun keng imkoniyatlар yaratgan edi.

Arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi va ixtisoslashgan hunarmandchilik natijasida bronza davridayoq O'rta Osiyo hududlarida ijtimoiy tabaqlanish va mulkiy tengsizlik paydo bo'ladi. Janubiy hududlardagi bu jarayon faqat ichki sabablarga bog'liq bo'lmay, Yaqin Sharqdagi yuqori darajada rivojlangan an'anaviy tarixiy-madaniy aloqalarga ham bog'liq edi. Har bir jamoaning rivojlanishi uning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqsa ham, dastlabki markazlardan kelib chiqqan tashqi ta'sir chetdagi viloyatlarning taqdirida katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin edi.

Chelak shahridan 5 km janubi-Sharqda, Shamot va Chandir qishloqlari oralig'ida, Bulung'ur kanalining o'ng qirg'oq yuqori trassasida Ko'ktepa ko'hna shahri xarobalari joylashgan. Ko'hna shahar qazishmalarining asosiy ishtirokchilaridan biri bo'lgan M.X.Isomiddinov yodgorlikni uchta davrga ajratib shartli ravishda Ko'ktepa I, II, III bilan belgilaydi. Ko'ktepa I davri 2 bosqichga bo'linadi. Olimning fikricha, bиринчи bosqichda ko'hna shahar aholisi erto'la yoki yarim erto'lalarda yashab, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar hamda sopol idishlarni maxsus xumdonlarda pishirganlar. Ikkinci bosqichning oxirlarida ko'hna shahar markazida diniy inshoot bunyod etiladi. Ko'ktepa II davrida urbanistik jarayonlarda sezilarli o'zgarishlar bo'lib, aftidan hokimning qarorgohi bo'lgan yirik inshoot paydo bo'ladi. Bu inshoot ahmoniyalar davrida ham mavjud bo'lgan. Ko'ktepa III davrida asosan himoya inshootlari bunyod etilib, bu davr ellinizm davriga oiddir.

So'g'dyonaning yirik madaniy markazi va poytaxti bo'lgan Afrosiyob ko'hna shahri bu davrda ayniqsa gullab-yashnadi. Bu davrga kelib umumiyl maydoni 219 hektar bo'lgan Afrosiyob markazi va yirik shahar sifatida ancha rivojlanib, bu erda shahar hayotining rivojlanishi So'g'diyona va butun O'rta Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy hayotning yuksalishi hamda inqirozi bilan muvofiq tarzda kechgan.

M.X.Isomiddinovning fikricha, So'g'dning Ahamoniylar davlati tarkibiga kirishi bilan shaharsozlik an'analari tubdan o'zgaradi. Bu an'analarning muhim belgisi mudofaa inshootlari me'morchiligi hisoblanadi. Aynan mana shu davrdan boshlab shaharning ichki va tashqi tomoniga qaratilgan shinaklarning yo'lak-galereya tartibi paydo bo'la boshlaydi. Ahamoniylar davridagi Samarqand So'g'di xo'jalik hayoti va madaniy taraqqiyot haqida Lolazor, Laylaqo'ytepa, Ko'ktepa, To'rtko'ltepa kabi yodgorliklardan topilgan topilmalar ham qimmatli ma'lumotlar beradi. Bu topilmalarga qarab (jangovar va mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, taqinchoqlar, qurilish uslubi va hokazo). Samarqand va uning atroflaridagi hududlarda mil.avv. I ming yillikning o'rtalarida yashagan aholi xo'jalikning dehqonchilik, chorvachilik, uy hunarmandchiligi va ixtisoslashgan hunarmandchilik turlarini anchagina rivojlantirganlar degan xulosa chiqarish mumkin.

Bu davrdagi yirik shaharlardan yana biri Maroqanda (Samarqand) bo'lib bu erdag'i mustahkam qal'aga ahmoniyalar davrida (Afrosiyob) asos solingen. Ahmoniyalar va elli davrida Afrosiyob mustahkam himoya devorlari bilan o'rab olinadi. Bu devorlar makedoniyalik Iskandar qamaliga ham dosh bergen edi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra Afrosiyobning umumiyl maydoni 219 hektar bo'lib, Kursiy Ruf Maroqandaning mudofaa devorlari uzunligini 70 stadiy (taxm. 12 km.) deb ma'lumot beradi. Bu O'rtaer dengizi va Qora dengiz qirg'oqlaridagi oddiy grek shaharlarining o'rtacha kattaligidan ikki-to'rt baravar kattadir. Mustahkam qal'aga ega va mudofaa devorlari bilan o'ralgan shahar hududlaridagi mil. avv. IV-III asrlarga oid madaniy qatlamlardan ko'plab topilmalar, jumladan, elli sopol idishlari topib o'rganilgan.

YUNON-Baqtriya davrida gullab-yashnagan shaharlardan yana biri Kir asos solgan va manbalarda Kiresxata, Kuru[sh]kada, Kiropol deb eslatiluvchi shahardir. Ko'pchilik tadqiqotchilar bu shaharni O'rtepa o'rnida desalar, ayrimlari Nurtepa o'rnida joylashgan bo'lishi ham mumkin degan fikrni ilgari suradilar.

Qadimgi Xo‘jand va uning atroflarida olib borilgan arxeologik qazish ishlari ma’lum natijalar berdi. Xo‘jand qal‘asidagi ko‘p sonli shurflardan birida mil. avv. IV asrga oid paxsa devor qoldiqlari topilgan. Ushbu devor yirik to‘rtburchak g‘ishtlardan qad ko‘targan. Ko‘hna shahardagi asosiy madaniy qatlamlar mil. avv. IV-II asrlarga oiddir. Sirdaryo bo‘ylarida amalga oshirilgan ko‘p yillik qidiruv va qazish ishlari natijasida makedoniyalik Iskandar davriga mansub boshqa shahar markazlari topilmaganligi tufayli, tadqiqotchilar bunday shahar markazlari faqat hozirgi Xo‘jand shahri o‘rnida bo‘lishi mumkin, degan xulosaga keldilar.

Qiyosiy tahlil uchun solishtirib ko‘radigan bo‘lsak, S.P.Tolstovning yozishicha, O‘rta Osiyo shaharlari o‘sib chiqadigan boshlang‘ich asos bir tomondan – refugium (lotincha, mustahkamlangan, xavf tug‘ilgan paytida aholi panagohi) va ikkinchi tomondan – bozor hisoblanadi. E.E.Nerazikning ta’kidlashicha, qal‘a atrofida shaharlarning shakllanishi Xorazm uchun rivojlanishning eng tarqalgan usullaridan biri edi. Parfiya va Marg‘iyonaning ham ko‘pgina shaharlari asosini mustahkam qism - qal‘a tashkil etgan.

Janubiy So‘g‘diyonaning antik davrga oid qator ko‘hna shaharlari - Qal’ai Zahoki Maron, Shulluktepa, Ko‘hna Fazli, Kindiklitepa kabilarning ham dastlabki asosini mustahkamlangan qal‘a va minoralar tashkil etgan.

Demak, O‘rta Osiyoning boshqa hududlarida bo‘lgani kabi, Shimoliy Baqtriyada ham shaharlarning shakllanishi asosan qal‘adan boshlangan. Shuning uchun ham, kushon davri barcha shaharlarda ilgarigi mustahkamlangan manzilgoh asosi bo‘lgan qal‘alar mavjudligi tasodifiy hol emas, deb xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir. Bu holat qurilish uslublaridagi mahalliy an‘analar antik davrda ham davom etganligidan dalolat beradi.

Turonda markazlashgan davlatni Afrosiyob, ya’ni turkcha ismi Alp Er To‘nga eramizdan avval VII asrda (uni eroniylar Afrosiyob deb ataganlar) tashkil etgan va unga rahbarlik qilgan. Afsuski ana shu davlat haqida huquqshunoslar hukmron hozirga qadar biron-bir ilmiy izlanishlar olib borilmasdan qolmoqda. Bu davlatning xarobalari hozirgi Samarcand shahri hududida saqlanmoqda.

Alp Er To‘nga va uning davlati haqida M.Qashg‘ariyning «Devonu lug‘atu turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», A.Navoiyning «Tarixi muluku ajam», «Tarixi Tabariy», Firdavsiyning «Shohnoma», N.Rahmonovning «Turk xoqonligi», A.Abdurahmonovning «Alp Er To‘nga», Xasan Ato Abushiyoning «Turkiy qavmlar tarixi», Rafiq Uzdekning «Turklarning oltin kitobi; Abulg‘oz-Buhodurxonning «shajarai turk», Zie Go‘kalpning «Turkchilik asoslari», «Materialy po etnicheskoy istorii tyurkiskix narodov sentralnoy Azii» va boshqalarga asoslandik. Alp Er To‘nga qadimgi manbalarga binoan, shu jumladan, A.Navoiyning tarixiy asari - «Tarixi muluki ajam» ya’ni (Ajam davlati tarixi)ga binoan Peshdodiylar sulolasiga tegishli bo‘lgan. U Eronga qarshi urushlar olib borib, Eron davlatini (Manuchehr davlatini) bo‘ysindirgan edi. Alp Er To‘nga Eronda o‘n ikki yil hukmronlik qilgan. Uning o‘g‘li esa Arijasp Kayoniylar davrida shohlik qilgan.

Eroniyarning mashhur qahramoni Rustam bilan bo‘lgan janglar tarixi «Shohnoma»da bayon qilingan. Eron shohining o‘g‘li Siyovushning Turonga kelishi va uni Afrosiyobga kuyov bo‘lishi hamda Turkistonga hokim etib tayinlanish tarixi ham Alp Er To‘nga faoliyati bilan bog‘liqidir. «U turk beklarining sarasi edi, deb yozadi Yusuf Xos Hojib, oti Alp Er To‘nga edi, ovozi olamni tutgan edi. Alp Er To‘nganing bilimi ulug‘, hunari talay edi. Uning tengi topilmas edi.» Haqiqatdan ham o‘sha zamonda Sharq va Farb mamlakatlarda uning tengi yo‘q edi. U o‘ta dono, tadbirkor davlat arbobi bo‘lganligi uchun miloddan avvalgi VII asrda O‘rta Osiyo, janubiy Sirdaryo, Enasoy va Irtish daryolari bo‘ylarida yashovchi, Farbda esa Eron, Iroq, Suriya kabi mamlakatlarni birlashtirib katta imperiyaga asos soldi. U turkiy qabilalarni birlashtirgan birinchi turk markazlashgan davlatining asoschisidir. Tarixda bu Sak-Iskit (Iskiflar) nomi bilan ham tanilgan davlat edi.

Alp Er To‘nganing olib borgan siyosati va madaniy ishlari bilan turk xalqining madaniyatini

rivojlanishida o‘zining salmoqli hissasini qo‘sghan. Masalan, Xorazmda Zardushtiylik dinining kitobi “Avesto” yozilishi, Shuningdek, keyinchalik Xunlar imperiyasining rivojlanishiga muqaddas asosiy turtki bergen desak xato bo‘lmaydi.

Alp Er To‘nga, Aleksandr Makedonskiydan ham oldin dunyoga hukmronlik qilgan Eron shohlaridan ham avval juda katta markazlashgan davlat yaratishga muvaffaq bo‘lgan johongir shohlarning birinchilaridan hisoblanadi.

Alp Er To‘nga davlati yakka hokimlik – monarxiya davlati bo‘lib, u davlatni idora qilishda qat’iy qonun-qoidaga, tartib –intizomga, kengash va tadbirlarga katta e’tibor bergen. Davlat tepasida yakka hukmdor bo‘lib turgan bo‘lsa-da, Turonda o‘z siyosatida, o‘rnatgan qonun-qoidalarida ko‘pchilik raiyatning manfaatlarini himoya qilgan.

U davlatni idora qilishda olimlar, shoirlar, saroy ayonlar mutaxassislar bilan kengashgan, maslahatlashgan holda ish yuritganlar. Qadimgi Sharqda xukmdorlarning ana shu fazilatlariga qarab ularni ma’rifatparvar, adolatl shoh yoki aksincha u ko‘proq o‘z manfaatini o‘ylab xalqqa zulm-zo‘rlik siyosatini olib borgan bo‘lsa adolatsiz shoh deya fikr yuritganlar.

Hokimiyat masalasida shuni aytish kerakki, Sharqda bugungi Farb davlatlaridek demokratiya bo‘lgan emas. Ushbu masalalarda matbuotda “Farb demokratiysi”, “Sharq demokratiysi” deb yozayotganlar ham yo‘q emas. Bizning fikrimizcha, demokratiyani Sharq yoki Farb, yana qandaydir amerikacha deya ajratib ko‘rsatishga urinish to‘g‘ri emas.

Sharqda azal- azaldan hokimiyat aniqrog‘i shoh va shahzodalarga tegishli bo‘lgan. Toji-taxt otadan bolaga meros binoan o‘tgan. Saylovlar yoki siyosiy partiyalarga ehtiyoj bo‘lмаган. SHu sababdan ham davlat boshlig‘i shohning tarbiyasi, xulq-atvoriga katta e’tibor qaratilgan. “Avesto”, “Zafarnoma”, “Shohnoma” “Qobulnoma”, “Xamsa” kabi ko‘plab asarlarda shohlarga qo‘yiladigan talablar, davlat va qonunning inson uchun uning hayotida adolat qilish uchun, zarurligi haqida ko‘pdan-ko‘p fikrlar va nasihatlar bitilgan.

Forobiy asarlarida, Amir Temurning “Tuzuklari”da bo‘lajak davlat rahbarlariga nisbatan o‘n ikki talab va prinsiplar aniq belgilab qo‘yilgan. Xo‘ja Samandar Termiziyning “Dastur ul-mulk”, YUsuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” kabi asarlarida vazirlar, davlat mulozimlariga qo‘yiladigan talablar aniq qilib belgilab qo‘yilgan.

Xulosa shukn Sharqda hokimiyat masalasi, davlat boshqaruv va qonunlar haqidagi tasavvurlar, qarashlar Farbdan ko‘ra ancha oldin shakllangan. Davlat idora shakli yakka hokimiyat chilikka, meros tariqasida otadan farzandga o‘tishiga asoslangan holda rivojlangan.

Bu o‘rnatilgan an’anaviy tartib tarixda ichki yoki tashqi omillar ta’sirida o‘zgargan. Masalan, Afrosiyobning yurishi ming yillar davomida hukmronlik qilib kelayotgan Peshdodiylar sulolasini tugatilishiga olib kelgan edi. Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi esa Mo‘g‘ullar hukumronligini (uluslar) tugatilishi va uning o‘rnida Temuriylar sulolasini tashkil topishiga sababchi bo‘lgan edi. Bunday misollarni tarixdan ko‘plab keltirish mumkin.

Hokimiyatni bir suloladan boshqasiga o‘tishi ko‘p jihatdan zo‘rlik, ya’ni urushlar, qo‘zg‘olonlar vositasida amalga oshirilgan. Uni boshqarishda maslahat, kengash, qurultoylar kabi institutlar orqali keng ko‘lamda amalga oshirilgan. Davlatni idora qilishda raiyat (omma) bevosita yoki bilvosita ishtirok etmasdan (demokratik respublikalarda saylovlar o‘tkazilishi) qavmlar va urug‘lar boshliqlari, beklar xonlarning ishtirokida ichki va tashqi siyosatga tegishli muhim masalalar Kengash va Qurultoylarda ko‘rilgan. Masalan, Amir Temur “Tuzuklari”da Kengash va qurultoylar haqida ko‘plab misollar keltirilgan. Bunga Afg‘onistondagi “Lui Jirg‘a” institutini ham misol tariqasida ko‘rsatish mumkin.

«Muqaddas qog‘oz» yoxud Samarqand qog‘ozining qayta tiklanishi.

Samarqand shahrining o‘tmishi va bugungi kundagi yutuqlari uning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni

haqida hikoya qiladi. Samarqandda qadim zamonlardanoq ma'rifatparvarlik g'oyalarining parvarish topganligi, bu erda yozilayotgan diniy, dunyoviy, ilmiy, badiiy qo'lyozma-kitoblar, olimu ulamolar o'rtasidagi yozishmalar, davlatlar hokimiyyatlardagi ish yuritish va boshqa faoliyatlar Movarounnahrning markazit shaharlaridan biri bo'lgan Samarqandda qadimdanoq qog'oz ishlab chiqarishning shakllanishi va rivojlanishini taqozo etgan.

Samarqandda qog'oz ishlab chiqarish aynan qaysi davrdan boshlanganligi xususida biron- bir ma'lumotga ega emasmiz va bu hunarmandchilikning ildizlari ilk o'rta asrlarga borib taqalishi ehtimolga yaqin. O'rta asrlarga, xususan Somoniylar davriga kelib Samarqand eng noyob qog'oz ishlab chiqarish markaziga aylandi. Samarqand qog'ozni o'zining sifati va nafisli- gi bilan dong taratadi. Keyinroq Zahiriddin Muhammad Bobur o'z esdaliklarida: "Eng yaxshi qog'oz Samarqandda ishlab chiqariladi. Qog'oz tegirmonining arig'i Konigildan oqib keladi. Konigil Siyoh Ob (Siyob) daryosi bo'yida ko'plab qog'oz tegirmoni bor edi", deb yozadi. Bu qog'oz navlari turlicha bo'lgan. Ulardan birining nomi "qog'ozni abreshemiy" bo'lib, o'ta sifatliliqi, tozaligi, nafisligi bilan barchani o'ziga rom etgan. Ipakdan tayyorlangan bu qog'oz naviga, ayniqla, evropalik savdogarlar ko'proq xaridor bo'lishgan. Samarqandda tayyor- langan ikkinchi qog'oz navi "qog'ozni nimkatoniy" deb atalgan. Uni tayyorlashda ipak va kanop- dan foydalanilgan. Bundan tashqari, Samarqandda qog'ozning yana bir necha, bizga noma'lum bo'lgan navlari ham ishlab chiqarilgan.

Arxiv materiallaridan, o'rta asrlar qo'lyozmalari, ilmiy-amaliy manbalardan unumli foydalangan samarqandlik tadbirkor Z.A. Muxtorov, qadimi Samarqand qog'ozini qayta tiklashga kirishdi. 1998 yil 23 iyunda tadbirkor "Konnigil Meros" xususiy qog'oz ishlab chiqarish korxonasini ishga tushirdi. Korxona ilk bor qo'lbola Samarqand qog'ozini paxta tolasidan tayyorlagan bo'lsa, keyinchalik u zig'ir, ipak tolasidan xam ishlab chiqarila bosh- landi. Ushbu loyiha YUNESKO va Yaponiyaning JICA tashkiloti homiyligida amalga oshirilgan bo'lib, Samarqandda yo'qolib borayotgan qadimi, an'anaviy xalq san'atini qayta tiklashni rivojlantirishga qaratilgan.

Tarixdan bizga ma'lumki, Siyob arig'i bo'yida qator tutzorlar bo'lgan va tut daraxti po'stlog'idan Samarqand qog'ozni yaratilgan. Aytishlaricha, bu erda 2 mingga yaqin suv tegirmon- lari ishlagan. Ular keyinchalik yo'q bo'lib ketgan. Bugungi kunda Konigil qishlog'ida qo'lda qog'oz ishlab chiqarishga mo'ljallangan yagona suv tegirmoni saqlanib qolgan bo'lib, u taxminan 300 yil avval faoliyat ko'rsatgan qog'oz ustasining tegirmoni o'rnida o'rnatilganligi ham e'tiborga loyiqidir. Elchi Rui Gonsales de Klavixoning kundaligida tilga olingen ana shu Konigilda tiklangan suv tegirmoni atrofida ko'lda qog'oz ishlab chiqarish jarayonini chet el davlat arboblari kelib ko'rdilar va hayrat bilan kuzatdilar.

Samarqand qog'ozining qayta tiklanishi uchun deyarli 10 yildan buyon jon quydirayotgan tadbirkor "Konigil Meros" firmasi asoschisi Zarif Muxtorov oq qog'oz va Samarqand qog'ozini solishtirib ko'rib, bu haqda shunday deydi: "O'sha paytlarda Samarqandda tut novda- sining po'stlog'i mag'zidan, ba'zan esa unga atirgul gulbargi sharbati qo'shib xushbo'y qog'ozlar ham ishlab chiqarilgan. Qog'ozning rangi och-sariqdan to qizg'ish malla tusgacha bo'lib, ma'lumotlarga qaraganda, to'q va zarg'aldoq rangni hosil qilish uchun qog'oz qorishmasiga turli nisbatda xino qo'shilgan". Korxonaga nufuzli davlat tashkilotlaridan maxsus buyur- tmalar tushmoqda. Yaqinda Fond Forum O'zbekiston tashkiloti rahbariyati tomonidan fransiyalik mehmonlarga "taklifnomा" yozish uchun ming dona Samarqand qog'ozni varag'ini tayyorlab berishga buyurtma tushdi. Bunday qog'ozlardan samarqandlik rassomlar miniatyura chizishda, ta'mirchilar esa qo'lyozmalarni ta'mirlash va tayyorlashda keng foydalanishmoqda. Reklama sifatida korxonamizga tashrif buyurgan har bir xorijlik sayyohlarga Samarqand qog'ozidan namuna tuhfa etamiz.

Samarqand ipak qog'ozining tiklanishi - "abadiy qog'oz"ni yaratish, ya'ni qo'lyozmalar umri ni ming yillarga uzaytirishga imkon beradi. Buning uchun tutzorlarni ko'paytirish lozim. Mana,

istiqlolimiz sharofati bilan Samarqandning dunyoga mashhur bo‘lgan qog‘ozi qaytadan dunyo yuzini ko‘rdi. Bu texnologik jarayon hozirda qo‘l mehnati bilan bajarilmoqda, lekin kelajakda bu ishga zamonaviy texnologiyalarni jalb etish rejali shihlab chiqilmoqda. Le- kin o‘shanda ham Samarqand qog‘ozining qadimiy xususiyatlarini saqlab qolish asosiy vazifa bo‘lib qoladi. Kelgusida, Samarqand qog‘ozini keng targ‘ib etish, qadriyatlarimizni tiklashning bir yo‘nalishidir.

Hozirgi kunda ipak kurti tolasidan tayyorlanayotgan Samarqand qog‘ozi XIII-XIV asrlarda shihlab chiqarilgan qog‘ozlardan o‘z sifati bilan qolishmaydi. Kelajakda ipak qog‘oz shihlab chiqarish bo‘yicha Samarqand shahri o‘zining an‘anaviy qadimiy shuhratini tiklab olishiga ishonamiz. Matbuot va axborot agentligi ma‘sulligida Samarqand yubileyiga bag‘ishlab na- shrdan chiqariladigan rangli, bezakli kitob-al’bomlar, buklet va otkritkalar, plakatlar namunalari kelajakda mahalliy Samarqand qog‘oziga nashr ettirilsa ularda o‘zgacha bir mazmun, qadimiy bir shukuh paydo bo‘lur edi.

Ma’lumki, o‘lkamiz hududlarida shahar madaniyatining paydo bo‘lishi bronza davriga borib taqaladi va bu jarayon turli davrlarda bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. Ayniqsa, XV asrda, ya’ni, Amir Temur va Temuriylar davrida shahar madaniyati o‘rta asrlar davri o‘z rivojining yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilgan edi. O‘z davrida Amir Temur o‘z sultanati hududlarini g‘arbda O‘rta Yer dengizigacha, shimolda Rossiya hududlari, janubda Hindistongacha bo‘lgan yerlarni o‘z ichiga olgan holda kengaytirishga erishgan edi. U hokimiyat tepasiga kelgan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish bilan birga shaharlar taraqqiyotiga ham alohida e’tibo qaratdi. U tug‘ulib o‘sgan yurti Shahrисabz (Kesh) da mahobatli Oqsaroy va ko‘rkam machitlar, poytaxti Smarqandda ulug‘vor va hashamatli binolar, Turkistonda, Damashqda, Tabrizda masjidu – madrasalar barpo etishda bosh-qosh bo‘ldi. Amir Temur va temuriylar davridagi katta va kichik shaharlarda tinchlik hamda osoyishtalik o‘rnatilib, shihlab chiqarish, ilm-fan, madaniyat va o‘zaro iqtisodiy – savdo aloqalari rivojlandi. Bu davrda Samarqand va Hirotdan tashqari Buxoro, Xiva, Shahrисabz, Balx, Mashhad, Sheruz kabi ko‘plab madaniy markazlar mavjud edi.

Ma’lumki, Ami Temur va Temuriylar davri Movarounnahrda ro‘y bergen tarixiy-madaniy jarayonlardan Shahrисabz ham chetga qolmagan. Amir Temur o‘z vatani sifatida, Temuriy shahzodalar esa bobolarining yurti sifatida Shahrисabzga nihoyatda katta e’tibor qaratib, bu yerda ko‘pgina obodonchilik ishlari, madaniy-me’moriy inshootlar bunyod etganliklari bois Kesh-Shahrисabz o‘rta asrlarda “Qubbatal ilm val adab” degan muqaddas nomga sazovor bo‘lgan edi. Sharofiddin Ali Yazdiy ma’lumotlariga ko‘ra, Shahrисabzda o‘z davrining mashhur islam namoyondalari yashagan bo‘lib, ulardan biri Abu Muhammad Obdon Keshiy edi. XIV-XV asrlarda Abdulloh Samarqandiy, Abu Abdulloh Muhammad Buxoriy va Abdul Husayn Muslim Nishopuriylar ham Shahrисabzda yashab islam tariqatini rivojlantirganlar.

Amir Temur va temuriylar davrida ham, hozirgi kunda ham Kesh-Shahrисabzga keluvchilarining diqqat e’tiborini tortib turgan yirik me’morchilik inshooti bu – Oqsaroy binosi hisoblanadi. XIV asr oxiri –XV asr boshlarida bunyod etilgan bu yodgorlikning umumiy balandligi o‘z davrida 70 metrga yaqin bo‘lib, hozirgi kunda 38 metri saqlanib qolgan. Yodgorlik haqida Sharofiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Ibn Arabshoh, Zahiriddin Muhammad Bobur, ispan elchisi de Klaviholar ma’lumotlar beradilar. Oqsaroyning saqlanib qolgan ikkita ulkan ustuni sirlangan mozaika va betakror o‘yma naqshlar bilan bezatilgan. Bu yerdagi geometrik va tabiiy naqshlar yetti xil rangda tanlangan bo‘lib, xalq orasida “haft rangi” deb nomlanadi. Oqsaroyning g‘arbiy ustuni old tomonida, “Agar bizning kuch qudratimizga shubha qilsang, biz qurdirgan imoratlarga boq!” degan mashhur xitobnomalar bilan. Bu xitoyunoma va binoning salobati Amir Temur salatanatining kuch-qudratidan dalolat beradi. Darhaqiqti, hozirgi kunda Oqsaroy binosining saqlanib qolgan me’moriy qoldiqlari, u hajm jihatdan ulkan bo‘lib, o‘rta asrlada shakl va me’moriy bezatilishi jihatdan tengi yo‘q ekanligini

ko'rsatadi.

Shahrisabzdagi o'rta asrar O'rta Osiyo shaharlari me'morchiligining yana bir nodir namunalaridan biri shaharning janubi-sharqida joylashgan bitta me'morchilik majmuiga birlashgan ikkita inshoot guruhi – Borussiodat va Doruttilovat majmualari hisoblanadi. Bu majmualarda Amir temurning piri va ustosi Shayx Shamsiddin Kulol, otasi Amir Tarag'ay, o'g'illari Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzolar dafn etilgan. Yozma manbalar Dorussiodat va Doruttilovatning serhasham g'ishtan binolari o'zining ulug'verligi bilan ajralib turganligi haqida ma'lumotlar beradi.

Amir Temur va temuriylar o'z sultanatlarining markai sifatida Smarqandining obodonligi va gullab-yashnashiga alohida e'tibor qaratganlar. 1370 yilda Samarqand davlatning poytaxti qilib olingayahch bu shaharga turli yillarda Isfaxon, Sheroz, Xorazm, Halab, Buxoro, Tabriz, Keshdan me'morlar va binokorlar, turli kasbdagi ustalar keltirilib saroylar, machitu-madrasalar, bog'-rog'lar, hashamatli binolar bunyod etilgan. Ta'kidlash joizki, mug'ullar hukmronligi davrida butunlay vayron etilib, xarobaga aylangan Samarqand shahri Amir Temur davrida yangitdan qad rostlaydi. Tadqiqotchilarining fikricha, bu davrda shahar tevaragi mustahkam qal'a devori bilan o'ralib, Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron va Feruza kabi nomlar bilan ataluvchi oltita davrvoza o'rnatiladi. Bu davrda Samarqandda Shodimulk og'a, Amir G'usayn, Shirinbeko og'a kabi maqbaralar, Bibixonim masjidi, Go'rimir dahmasi, Ulug'bek rasadxonasi va madrasasi kabi ko'plab me'moriy inshootlar bunyod etiladi. Ulug'bek davrida Shohizinda ansamblı to'la qurib bitkaziladi va Samarqandning Registon maydoni, san'at, madaniy hayot, hunarmandchilik va savdo-sotiq gurkirab rivojlanadi.

XIV asr oxiri –XV asr boshlarida Amir Temur va temuriylar hukmronlik qilgan sug'orish tartibini qayta ko'rish va yangidan tashkil etish, yangi dehqonchilik vohalarini o'zlashtirish keng qo'lamda olib borildi. Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivoj topib, tovar-pul muomalasi o'z rivojlanishining yuqori cho'qqisiga ko'tariladi. Bularning barchasi nafaqat poytaxt Samarqantda, balki mamlakatning barcha hududlarida ulkan shaharsozlik ishlarini amalga oshirish imkoniyatini bergen edi. Misol uchun Xo'jad, O'ratepa, Qandi Bodom, Isfara, Panjikent, Andijon, Sayram, Yu Turkiston kabi shaharlarda ko'plab davlat va jamoat madaniy binolari qad ko'tarardi. Bu shaharlarda hunarmandchilikning yetakchi tarmoqlari – to'qimachilik, metalga ishlov berish, kiyim tikio', qog'oz tayyorlash kabi o'nlab turlari tarqqiy etishi natijasida ular Amir Temur va temuriylar davlatining iqtisodiy, siyosiy va madiny hayotida katta ahamiyatga ega bo'ldilar.

Alovida ta'kidlan joizki, Temur va temuriylar davri shaharlarda ilm-fanning turli sohalari, madaniyat gullab yashnadi hamda davrga va hududga xos bo'lgan boy ma'naviy qadriyatlar yaratildi. Amir Temur markazlashgan mustaqil davlat barpo etganidan so'ng uni mustahkamlash uchun qattiq harakat olib bordi. Misol uchun, manbalarning guvohlik berishicha, Temur mamlakat iqtisodiyotining yaxshilanishi va taraqqiy etishiga, shaharlarining har tomonlama rivojlanishiga, karvon yo'llarini tiklash asosida savdo-sotiqning kengayishiga hunarmandchilik va qishloq xo'jaligining rivojiga alohida ahamiyat berdi. Buning natijasi o'laroq, mamlakatning katta va kichik shaharlarda madaniy hayot rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Shuningdek, Temur va Temuriylar davri shaharlarda madaniy hayotning rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilishi bilan birga Eron, Afg'oniston, Arab mamlakatlari, ayrim Yevropa davlatlari, Hindiston, Xitoy kabi davlatlar bilan savdo-sotiq, diplomatik va madaniy aloqalar tiklanadi va yo'lga qo'yiladi. Bunday siyosat yurgizilishi Temur va temuriylarning markazi hisoblangan Movarounnahr va Hurosondagi emas balki, ularning tasarrufida bo'lgan ko'pgina hududlardigi shaharlarining ham madaniy yuksalishiga ijoyuuiy ta'sir ko'rsatdi.

Samarqand. Sharq uyg'onish davri va Ulug'bek akademiyasi

Ulug'bek [1394 yil 22 mart - Ozarbayjon hududidagi Sultoniya shahri - 1449 yil 27 oktyabr -

Samarqand] Sharq o‘rta asrlar Uyg‘onish davri taraqqiyotining etuk vakili, buyuk siyo- siy davlat arbobi, podshoh, matematik va astronom olim.

Ulug‘bek 1409 yildan boshlab, otasi Shohrux Mirzo tomonidan Movarounnahr va Turki- ston mamlakatlarining hokimi etib tayinlandi va mamlakatni mustahkamlashga jiddiy kirishdi. U 1409-1449 yillar orasida, qariyb 40 yil davomida davlat siyosiy arbobi - Movarounnahr va Turkiston o‘lkasining hokimi sifatidaadolatli faoliyat yuritdi. Shu bilan birga ilm- fanga nisbatan ham katta e’tibor qaratdi. U 1417-1420 yillar orasida Samarqand viloyatining hozirgi Registon maydonida o‘z davridagi talabalar va kelajak av- lodning ilm olishi maqsadida, katta madrasa binosini qurishga farmon bergen. Ulug‘bek madrasasi qudirib bitkazilgandan so‘ng uning ochilish marosimida Mavlono Muhammad Xavofiyni Bosh Mudarris [rektor] etib tayinladi.

Ulug‘bek madrasasining faoliyat boshlaganidan to‘rt yil o‘tgandan so‘ng, 1424 yil koshonlik matematik va astronom olim G‘iyosiddin Jamshid Koshiyning taklifiga binoan, Samarqand viloyatining Ko‘hak tepaligidagi Obirahmat arig‘i yoqasida katta rasadxona qurishga buyruq berdi. Ulug‘bek rasadxonasi 1429 yilda mukammal bitkazilib, ilmiy faoliyatga kirdi. Bu rasadxonada Ulug‘bek rahbarligida shu davrning etuk matematik va astronom olimlari:

1. Ulug‘bek [22.03.1394 - 25.10.1149] - shoh, matematik va astronom olim.
2. G‘iyosiddin Jamshid al - Koshiy [vafoti 1440] - matematik va astronom olim.
3. Ali Qushchi [1402-1474] - matematik va astronom olim.
4. Salohiddin Muso ibn Muhammad ibn Mahmud Qozizoda Rumi [1360-Running Burs shahri - 1430/37] - matematik va astronom olim. Ulug‘bekning ustozи.
5. Muyiniddin al-Koshiy [XV asr] - matematik va astronom olim. G‘iyosiddin Jamshid Koshiyning jiyani bo‘lib, Ulug‘bek taklifiga binoan 1416 yilda G‘iyosiddin Jamshid, Muhammad ibn Umar Chag‘miniy va boshqa olimlar bilan birga Samarqand shahriga kelgan.
6. Mansur ibn Muyiniddin al-Koshiy - matematik va astronom olim.
7. Nizomiddin al-Birjandi [XV asr] - matematik va astronom olim. «SHarhi «Ziji Ku- ragoniy» asarining muallifi.
8. Miram Chalabiy [vafoti 1525] - matematik va astronom olim va tabib.
9. Mahmud ibn Umar Chag‘miniy va boshqa matematik-astronom olimlar ilmiy izlanishlar va koinot yulduzlar hamda fazoviy sferalarning doiraviy harakatlariga oid ilmiy kuza- tishlar va izlanishlar olib borganlar.

Ulug‘bek ilmiy rahbarligi va G‘iyosiddin Jamshid boshchiligidagi mazkur matematik va astronom olimlar bilan birga astronomiya ilmining eng katta qomusiy asari «Ziji Kurago- niy» asari yozib tugatildi.

Ulug‘bek rahbarligi davrida Samarqand shahrida Madrasai Oliya va rasadxonaning bunyod etilishi natijasida Sharq Uyg‘onish davrining ilmiy-madaniy taraqqiyoti yuksaldi. Ulug‘bek va G‘iyosiddin Jamshid Koshiyning ilmiy rahbarligida fors tilida yozilgan «Ziji Kuragoniy» asarida olamning ekliptikasi [mintaqat ul - burj - burjlar joyi], ekvatori, fazoviy sayyoralarining doiraviy harakati, tunu kunning almashuvi, Quyosh taqvimi, 1118 yulduzlar- ning nomi va o‘rni haqida ma’lumot keltirilgan va Ulug‘bek ilmiy maktabining matematik va astronom olimlarining ilmiy kuzatishlari natijasida 1 yil 365 kunu 6 soatu 10 minutu 8 sekund hajmida belgilangan edi. Bu hisobni N’yukombning 1 yilni 365 kunu 9 minutu 6 sekund darajasida belgilangan ilmiy ma’lumoti bilan taqqoslanganda Ulug‘bek va uning ilmiy maktabining olimlari yuksak aniqlikka erishilganliklari yorqin namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, Ulug‘bek akademiyasining matematik va astronom olimlari sinus, kosinus, tangens va kotangensning ilmiy darajalarini topib, ularning ilmiy jadvalini tuzganlar. Bu olimlar trigonometrik funksiyalarning 1 darajali sinusini aniqlash uchun itaratsion algo- ritmni kashf etganlar. Ular «Pi» sonining eng aniq qiymatini topganlar. Shuning uchun ham samarqandlik tazkirachi olim Davlatshoh

Samarqandiy o‘zining «Tazkirat ush - shua- ro» [Shoirlar zikri] nomli asarida «Ulug‘bek handasa ilmida Uqlidusga va nujum ilmida Batlimusga o‘xshar edi», deb yuksak baho bergen.

Ulug‘bek va uning maktabida faoliyat yuritgan olimlar «Ziji Kuragoniy»ni yozishida qadimgi Hind mamlakatidagi nujum ilmiga bagishlab yozilgan «Sindhind» asari, qadimgi yunon astronom olimi Ptolemy [Batlimus] ning «Al-Majastiy» kitobi, Muhammad al- Xorazmiyning «Ziji Ma’muniy» asari, Abu Rayhon Beruniyning «Qonuni Ma’sudiy» si, Umar Xayyomning «Ziji Malikshohiy» kitobi va Nasriddin Tusiyning «Ziji Elxoniy» nomli astronomik asarlari asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan.

«Ziji Kuragoniy» asarida fazoviy jismlarning o‘rnii va harakatlari haqida, nisbatan mukammal ma’lumotlar keltirilgan bo‘lsa-da, ammo unda an’anaviy tarzda Ptolemy tomoni- dan asoslangan geotsentrizm nazariyasi saqlab qolingga.

Ulug‘bek hukmronligi davrida Markaziy Osiyo mamlakatida Samarqand ilmiy-madaniy muhiti taraqqiy etdi. Bu davrda turli ilmlar: mantiq, falsafa, matematika, fizika, astronomiya, kimyo, biologiya, geodeziya, geografiya, tarix, mineralogiya, adabiyot va boshqa diniy va dunyoviy ilmlar rivoj topdi. Uning davrida me’moriy san’at va arxitektura sohasi ham ja- dal sur’atda yuksaldi. Ulug‘bekning buyrug‘iga muvofiq Samarqand shahridagi Ulug‘bek madrasasi, Ulug‘bek rasadxonasi, Shohizinda ansambli, Buxoro shahri va G‘ijduvon tumanidagi Ulug‘bek madrasalari, Shahrisabzdagi Ulug‘bek masjidi va boshqa me’moriy san’atning nodir namunalari bunyod etildi.

Xullas, Amir Temur va temuriylar davrida olib borilgan siyosiy-davlat boshqaruvini mukammal tashkil etish, shaharlar taraqqiyotiga alohida e’tibor qaratish, shahar va qishloqlarda ilm-fan va madaniyatning, san’atdagi xilma-xil turlarining rivojlanishig, jamiyat manaviy hayotining yanada yaxshilanishiga qaratilgan edi. Amir Temur va temuriyriylarning ill-fan va madaniyatni qadrlaydigan, shaharlarning har tomonlama rivojlanishi uchun alohida e’tibor qaratadigan hukmdor bo‘lganligini nafaqat yozma manbalar ma’lumotlari, balki ko‘pgina shaharlarimiz bizga qadar yetib kelgan hamda hozirgi kunda ham o‘zining go‘zalligi va ulug‘vorligini namoyish etib turgan mahobatli inshootlar yana bir bora tasdiqlaydi.

6-Mavzu: Buxoro voxasi shaxarlari urbanizatsiyasi. (2 soat)

Reja

1. Buxoro voxasida eng qadimgi shaxar madaniyati
2. Ilk o‘rta asrlarda Buxoro voxasi shaxarlari
3. Samoniylar davrida Buxoro voxasidagi shaxarlarning yuksalishi

Tayanch so‘z va iboralar: O‘rta Osiyo, antik davr, Buxoro, Samoniylar davlati, Zarafshon voxasi, ilk o‘rta asrlar, o‘rta asrlar, qadimgi shahar, shaharsozlik, shahar, shahar tushunchasi, Afrosiyob, sivilizatsiya, madaniyat, davlatchilik, urbanizatsiya, moddiy madaniyat, arxeologik yodgorlik, arxeologiya, Amir Temur, Temuriylar.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.
3. Asqarov A. Eng qadimgi shahar. T., 2000.
4. Asqarov A.A., Shirinov T.Sh. Rannyaya gorodskaya kultura epoxi bronzy Sredney Azii. Samarqand. 1993.
5. Asqarov A.A., Shaydullaev Sh.B. Baqtrianing bronza va ilk temir davri madaniyatlarini xronologiyasi // O‘zbekiston tarixi moddiy madaniyat va yozma manbalarda. – Tashkent: Fan, 2005.
6. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. –Toshkent.“O’ZBEKISTON”. 2015. 670 b.

- 7.Sagdullaev A.S. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi, 1996.
- 8.Sagdullaev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. O'quv qo'llanma. T., 2004.
- 9.Sagdullaev A. va boshq, O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent. Akademiya, 2000.
- 10.Eshov.B. Sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. – Toshkent: Zar qalam, 2004; 126 b.
11. Eshov B.J. O'rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. Darslik. Toshkent. 2008.
12. Eshov B.J. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. - T.: Yangi asr avlod, 2012.-B.556.

Buxoro viloyati -(1938 yil 15 aprelda tashkil etilgan) maydoni 40,3 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi, axolisi 1507,6 ming kishi. Buxoro viloyati tarkibida 11 ta qishloq tumani (Buxoro, Vobkent, Jondor, Kogon, Olot, Peshku, Romiton, Shofirkon, Qoravulbozor, Qorako'l, G'ijduvon), 11 ta shaxar (Buxoro, Kogon, G'ijduvon, G'alaosiyo, Vobkent, Olot, Gazli, Romiton, Shofirkon, Qorako'l, Qorovulbozor) va 3 ta shaxarcha bor. Viloyatning markazi Buxoro shaxridir.

Buxoro viloyatidagi shahar. Zarafshon daryosi quyi oqimida. Toshkentdan 616 km. Mayd. 0,02 ming km². B. 2 ta shahar tumani (Fayzulla Xo'jaev va To'qimachilik)ga bo'lingan. Aholisi 264 ming kishi '(2001).

Buxoro Sharqning mashhur qadimgi shaharlaridan biri. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Buxoroga mil. av. I-ming yillik o'rtalarida asos solingen. Uning nomi ilk o'rta asr Xitoy manbalarida turlicha (An, Ansi, Ango, Buxo, Buku, Buxaer, Buxuaer, Buxala, Buxu-ala, Fuxo, Puxuala va b.) atalgan. Bu atamalardan avvalgi uchtasi Buxoroning xitoycha nomlari bo'lib, qolgani «Buxoro» so'zining xitoy tilidagi talafuzi. O'rta asr arab manbalarida esa Buxoro Numijkat, Navmichkat, Bumichkat (Yangi qo'rg'on), Al-Madina as-sufriyya (Mis shahar), Madinat at-tujjar (Savdogarlar shahri), Foxira (Faxrli shahar) kabi nomlar bilan tilga olingan. Buxoro atamasi sanskritcha «vixora» so'zining turk-mo'g'ulcha shakli — «buxor» («ibodatxona») dan kelib chiqqan deb taxmin qilingan. Keyingi tadqiqotlarda bu atama sug'diycha «bug'» yoki «bag'» («tangri») hamda «oro» («ja-mol») so'zlaridan iborat bo'lib, «tangri jamoli» degan ma'noni anglatadi, degan fikr ilgari surilmoqda. Darhaqiqat, Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan Buxoro va uning atrofidagi erlar qadimda nihoyatda xushmanzara — hayvonot va o'simlik dunyosi betakror, ko'l va oqar suvlarga boy bo'lib, tarixchi Narshaxiyang «Buxoro tarixi» asaridagi ma'lumotlar buni tasdiqlaydi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab, ayniqsa so'nggi yillarda Buxoroning yoshini aniqlash va yubileyini o'tkazish maqsadida qator tadqiqotlar olib borildi. Bu tadqiqotlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Zarafshonning qo'yi oqimlarida shaharsozlikning paydo bo'lishi qabilalarning butun voha bo'ylab yoyilishi bilan bog'liq edi. Hozirgi Buxoro viloyati hududlariga mil. avv. IV-III ming yilliklardoq anchagina yuqori tosh madaniyatiga ega bo'lgan neolit davri ovchilar va baliqchilar qabilalari yoyilgan edilar.

Buxoro shahri va Buxoro vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish-qadimgi So'g'diyona eneolit va bronza davridan boshlab bobo dehqonlar makoni bo'lganligini ko'rsatadi. Ular, avvalambor Zarafshonning yuqori oqimidagi Sarazm madaniyati bilan, qo'yi Zarafshondan topilgan Zamonbobo madaniyatlaridir. Bu madaniyat sohiblari Buxoro vohasida ilk shaharsozlik madaniyatining shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi hamda ilk temir davriga kelib mana shu qadimiylar asosida Buxoro vohasida o'zida shaharsozlik belgilarini mujassamlashtirgan manzilgohlar paydo bo'ldi va rivojlandi. Xususan, vohada topib o'rganilgan ko'pgina manzilgohlar mustahkam devorlar bilan o'ralgan bo'lib, ularda ixtisoslashgan uy hunarmandchiligi va o'troq dehqonchilik xo'jaligi mavjud edi. Mil. avv. V-IV asrlarga kelib esa hozirgi Buxoro atroflari va o'rnida shaharsozlik madaniyati rivojlanganligi izlarini kuzatish mumkin.

Buxoro vohasidagi Xo'ja Bo'ston, Konimex, Qumrabod, Arabon, Chordara, Quzmontepa kabi

o‘nlab ko‘hna shahar va qishloqlar ahamoniylar davriga oiddir. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, ular yirik etnomadaniy viloyatning uncha katta bo‘lмаган туманлари bo‘lib, bu hududlarda mil. avv. VI-IV asrlarda umumiyo ko‘rinishi bir xil bo‘lgan dehqonchilik madaniyati shakllanadi. Topilgan topilmalarning nihoyatda o‘xhashligi shundan dalolat beradi.

Keyingi yillarda Buxoro shahri va uning atroflarida ko‘pgina arxeologik tadqiqotlar olib borildi. Bu tadqiqotlar natijalariga qaraganda, mil. avv. I ming yillikning o‘rtalarida Zarafshonning yirik bir irmog‘i Buxoro shahari hududidan oqib o‘tib, uning o‘ng va chap qirg‘og‘ida shaharga asos solinadi. Yana shu narsa ham aniqlandiki, bu davrda ark hududi paxsa devor bilan o‘rab olinadi. Buxoro atroflaridan esa bu davrga oid qal’alar va qo‘rg‘onlar ham ochilganki, ular atrof qishloqlarni tashkil etgan. Tadqiqotlar tahlilidan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Buxoro vohadagi urbanistik jarayonlarning markazi bo‘libgina qolmasdan, geografik nuqtai nazardan ham vohaning markazida joylashib, viloyat markazi vazifasini bajargan.

2006 yilning aprel oyida tadqiqotchi B Eshov Nurota tabiiy-me’moriy muzeyi majmuasini takomillishtirish, shahar va uning atrofida joylashgan tarixiy-arxeologik yodgorliklarda tekshiruv ishlari olib borish, shaharlarning yoshiga aniqliklar kiritish maqsadida Nurota shahri va tumanida bo‘ldi. Avvalo, ta’kidlash lozimki Ahamoniylar davridayoq ma’lum bo‘lgan er osti suvlarini yuzaga chiqarish –koriz usulidan Nurota atroflari aholisi ham foydalangan. Nurota tumani hududida hozirgi kunda ham sug‘orish ishlarida bu usuldan foydalaniladi.

Tadqiqotchi B Eshov tomonidan Nurota qal‘asining tuzilishi, mudofaa devorlari va ulardagi minoralar (burjlar) qisman tadqiq etildi. Qal‘a devorining ichki yo‘laklariga eltuvchi kirish yo‘llari (mahalliy aholi ularni g‘orlar deb tasavvur qiladi) saqlanib qolgan. Qal‘a devori paxsa assosida xom g‘ishtdan qad ko‘targan hamda vaqt-i-vaqt bilan ta’mirlanib turilgan. Xom g‘ishtlarning o‘lchamlari So‘g‘diyonadagi mil.avv. VI-IV asrlarga oid Uzunqir, Erqo‘rg‘on, Afrosiyob yodgorliklaridagi g‘ishtlarga ancha yaqin ekanligi aniqlandi. Shuningdek topilma sopol parchalari mil.avv.V-IV asrlar buyumlariga o‘xshab ketadi. Nurota shubhasiz, mil.avv.VI-IV asrlarda shakllana boshlagan qadimgi shaharlardan biridir. Ammo, bu fikrimizni to‘la ilmiy asoslash uchun tadqiqotlar hozircha etarli emas.

Buxoro arki - Buxorodagi qadimgi shaharsozlik yodgorligi. Dastlab mil. av. I-asrda qurilgan. Shaharning qadimgi qal‘asi. Arablar istilosiga qadar arkda shahar hokimlari — buxorxudotlar yashagan. Somoniylar davrida qayta qurilib devor va burjlar bilan mustahkamlangan. Qoraxoniylar davrida va mo‘g‘ullar bosqinchiligi vaqtida ark bir necha bor vayron qilingan. Hozirgi qiyofasi asosan Shayboniylar sulolasi davrida shakllangan.

Balandligi 20 metrcha bo‘lgan tepalik ustiga qurilgan arkning maydoni 4hektar, tarhi ko‘pburchakli. Turli davrlarda devorlari tosh, pishiq va xom g‘isht, paxsalar bilan mustahkamlangan. O‘pirilib tushgan joylari dastlab xom g‘ishtdan, keyin pishiq g‘ishtdan ta’mir etilgan. Ko‘tarila boruvchi yo‘l orqali g‘arbdagi ulkan darvozadan (16-a.) ichkariga kiriladi (Sharq tomonida ham ilgari darvoza bo‘lgan). Darvozaxona peshtoqining ikki yon tomonidagi «tuldasta» va ular oralig‘idagi 3 qavatli bino yaxshi saqlangan. Ark ichkarisiga olib kiradigan uzun dalon-yo‘lakning chap devorida 12 va o‘ng devorida 13 taxmontokcha qilingan. Chap tomonidagi tokchalarning ba’zilarida obxonaga kiriladigan eshiklar bor. Guldasta (burj)lar tagida zax va dim erto‘lalar bo‘lgan. Dalonning o‘ng tomonidagi o‘rta tokchasida afsonaviy qahramon Siyovush ruhiga Navro‘z bayramida chiroqlar yoqilgan. Amir sayisxona (otxona)siga ham shu erdagи zinadan kirilgan. Dalondan chiqaverishda to‘pchi boshi (saroy qo‘riqchilari boshlig‘i)ning mahkamasi, shu erdagи ayvon tagida erto‘la bo‘lgan (bu binolar buzilib ketgan). Undan sal narida (g‘arbiy devor burchagida) pesh-ayvonli jome masjid (saroy masjidi) qurilgan (18-a. oxiri). Masjid derazalari panjaralari, devorlarining ichki tomonidagi naqshlar orasiga Qur‘on oyatlari bitilgan. Peshayvon shipi murakkab girihlar bilan bezatilgan.

Buxoroyi Sharif (Sharofatli Buxoro) — qadimgi Buxoroning keng tarqalgan nomlaridan biri.

O‘rtalarda jahondagi 7 shahar: Makka, Madina, Quddus, Buxoro, Bag‘dod, Damashq, Mozori Sharifga diniy markaz sifatida shuhrat qozonganliklari uchun «Sharif» unvoni berilgan edi. Buxoro qadimdan turli nomlar bilan atalib kelingan. Ayniqsa, Arab xalifaligi va Somoniylar davrida shahar yuksalgan. Buxoroning nomlaridan «Foxira» («Faxrli shahar») atamasi Narshaxiynt ta’rifi bo‘yicha, islom dinining barqarorligi yo‘lida qon to‘kkkan shahidlar sharafiga nisbat qilib berilgan. Shahar islomni targ‘ib qilish va qaror toptirish yo‘lida ham muhim rol o‘ynagan. Buxorodan islomiyat va hadis ilmlarining yirik targ‘ibotchilari va tasnifchilari (Imom Buxoriy va b.) etishib chiqdi. Islom huquqshunosligining Buxoro maktabi tashkil topdi. Buxoroning islom dini, musulmon axloqi, madaniyati va huquqshunosligining Sharqdagi kuchli markazlaridan biriga aylanishi tufayli unga IX asr boshlaridayoq «Qubbat ul-isлом» —«Islom dinining gumbazi» degan sifat ham beriladi. Narshaxiyning guvohlik berishicha, mashhur fiqhshunos (huquqshunos) olim Xoja imom Abu Xafsi Kabir Buxoriy tufayli Buxoro «Qubbat ul-isлом» deb atalgan.

O‘rtalarda Buxoro faqat islomiyatdagina emas, balki ilmu ma’rifat va madaniyat tarqatishda ham Mavarounnahrda yirik markaz sifatida shuhrat topdi. Buxoroda turli asrlarda bino qilingan 200 ga yaqin madrasalarda o‘z davrida minglab tolibi ilmlar diniy va dunyoviy bilimlarni olib, butun O‘rtal Osiyo bo‘ylab ziyo tarqatganlar. Shayx Sayfiddin Boharziy faoliyati tufayli Buxoroning shuhrati islom olamida yana ham ko‘proq tarqaldi. Shu sababli XIII asrdan boshlab unga yana bir sifat — «sharif» so‘zi qo‘yilib, u Buxoroyi sharif, ya’ni Sharofatli Buxoro nomi bilan yuritiladigan bo‘ldi.

Abu Bakr Muhammad Narshaxiy(899 – 959) Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far ibn Zakariyya al – Xattob ibn Sharik an – Narshaxiy – tarixchi olim. Buxoroning (hozirgi Vobkent tumanida) Narshax qishlog‘ida tug‘ilgan. Tarjimai holiga oid ma’lumotlar kam. Somoniylar saroyida kotiblik qilgan. Narshaxiy 943 – 944 yillarda «Buxoro tarixi» nomli asarini arab tilida yozib, uni somoniylar amiri Nuh ibn Nasr (hukmronlik davri: 943 – 954)ga bag‘ishlagan. Asar qo‘lyozma nusxalarda va hozirgi zamon ilmiy tarixiy adabiyotlarda «Tarixi Narshaxiy», «Taxqiq ul–Viloyat» («Viloyat haqiqatini aniqlash»), «Axbori Buxoro» («Buxoro haqida xabarlar») kabi nomlar bilan atalib kelingan. Asarning turli nomlar bilan atalishiga ham sabablar bor. Bu asarning Narshaxiy tomonidan yozilgan dastlabki asl nusxasi saqlanib qolmagan. Uning bizgacha etib kelgan qismi 1128 yilda Quva shahridan bo‘lgan Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al – Quboviy arab tilidan fors tiliga qisqartirib tarjima qilgan nusxasidir. Undan keyingi yillarda ham Narshaxiyning asari bir necha tahrirlarga uchragan, ba’zi matnlari qisqartirilgan va so‘nggi voqealar asosida to‘ldirilgan. Abu Nasr Ahmad Qubaviy asar matnini qisqartirish bilan chegaralanmay, balki Tabariy, Abu Hasan Nishopuriyning «Hazoiq ul – ulum», Ibrohimning «Axbar–i Muqanna» kabi asarlaridan foydalanib, uni to‘ldiradi. Ana shu tariqa, Buxoro tarixiga Narshaxiy yashab o‘tgan davrdan keyingi, 1178 – 1179 yillardan 1220 yillarga qadar bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar kirib qolgan.

«Buxoro tarixi» asari o‘zining ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan va hozirgi kunda Somoniylar davri tarixi bo‘yicha eng noyob, qimmatli asar hisoblanadi. Asarda Somoniylar davlatining siyosiyl, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy hayotiga oid ma’lumotlar keltirilgan. Mavarounnahr va Xuroson aholisining arab bosqinchilariga qarshi Muqanna boshchiligidagi qo‘zg‘oloni bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlar ham bu asarda ma’lum darajada o‘z ifodasini topgan. Narshaxiy saroy tarixchisi bo‘lganligi sababli hukmron tabaqa siyosatini yoqlab, xalqning hokimiyatga chiqishini qoralagan.

Imom al – Buxoriy(810.21.7, Buxoro – 870.31.8, Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘i) Buxoriy, Imom al – Buxoriy (asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al – Buxoriy) – islom olamining yirik mutafakkiri, buyuk muhaddis. Muhaddislar imomi, hadis ilmining sultonidir deb ham yuritiladi. Buxoriy umr bo‘yi hadislarni to‘plash va tizimga solish bilan shug‘ullangan, ularni sahih (to‘g‘ri, ishonchli) va g‘ayri sahih (xato, zaif)ga ajratgan. U jami 600 mingga yaqin hadis to‘plagan bo‘lib, shundan 100 ming «sahih» va 200 ming «g‘ayri sahih» hadisni yoddan bilgan.

Imom al – Buxoriy 20 dan ortiq kitob tasnif etgan. Ulardan ayrimlari bizgacha etib kelgan. Imom al – Buxoriy ilmiy merosi ham boy bo‘lib, bunga kuyidagilarni aytish mumkin:

➤ Imom al – Buxoriyning «Al – Jomi’ as – sahih» («Ishonchli to‘plam») deb nomlangan («Sahibi Buxoriy» nomi bilan ham ataladi) 4 jild (juz) dan iborat hadislar to‘plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadis to‘plamlari orasida eng ishonarli va mukammalidir.

7-Mavzu: Xorazmning o‘rta asr shaxarlari urbanizatsiyasi. (2 soat) **Reja**

1. Qadimgi davr Xorazm shaxarsozligi. Qo‘zaliqir, Qa'lalaqir, Jonbozqa’la, Qo‘yqirilganqa’la, Oybo‘riqa’la va Tuproqqa’la shaxar xarobalari.
2. Ilk o‘rta asrlarda Kat shaxri.
3. Rivojlangan o‘rta asrlarda Xorazm shaxar madaniyatini axvoli.

Tayanch so‘z va iboralar: O‘rta Osiyo, antik davr, Xorazm, Kat shaxri, Qo‘zaliqir, Qa'laliqir, Jonbosqa’la, Qo‘yqirilganqa’la, Oybo‘riqa’la, Ma’muniylar davlati, Ma’mun akademiyasi, Oltintoshlar, ilk o‘rta asrlar, o‘rta asrlar, qadimgi shahar, shaharsozlik, shahar, shahar tushunchasi, sivilizatsiya, madaniyat, davlatchilik, urbanizatsiya, moddiy madaniyat, arxeologik yodgorlik, arxeologiya, Amir Temur, Temuriylar.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.
3. Asqarov A. Eng qadimgi shahar. T., 2000.
4. Asqarov A.A., Shirov T.III. Ранняя городская культура эпохи бронзы Средней Азии. Самарканд. 1993.
5. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. –Toshkent.“O’ZBEKİSTON”. 2015. 670 b.
6. Sagdullaev A.S. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘qituvchi, 1996.
7. Sagdullaev A.S. Qadimgi O‘rta Osiyo tarixi. O‘quv qo‘llanma. T., 2004.
8. Sagdullaev A. va boshq, O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent. Akademiya, 2000.
9. Eshov.B. Sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. – Toshkent: Zar qalam, 2004; 126 b.
10. Eshov B.J. O‘rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. Darslik. Toshkent. 2008.
11. Eshov B.J. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. - T.: Yangi asr avlod, 2012.-B.556.

Xorazm viloyati - (1938 yil 15 yanvarda tashkil etilgan) maydoni 6,1 ming kvadrat kilometr bo‘lib, 1432,8 ming kishi yashaydi. Viloyat xududida 10 ta qishloq tumani (Bog‘ot, Gurlan, Urganch, Xiva, Xazorasp, Xonqa, Shovot, Yanglariq, Yangibozor, Qo’shko’pir), 3 ta shaxar (Pitnak, Urganch, Xiva) va 7 ta shaxarcha mavjud. Viloyat markazi Urganch shaxridir.

Qadimgi Xorazm — Turon va Eron mintaqalari oralig‘ida joylashgan tarixiy o‘lka va qadimiylar. Xorazm hududi qadimda Amudaryo adoqlaridan janubga tomon Murg‘ob va Tajan daryolarining yuqori oqimlarigacha cho‘zilgan. Shu boisdan bu qadimiylar tarixiy o‘lka fanda 2 xil: Qadimgi Xorazm va Katta Xorazm nomlari bilan ma’lum. Xorazm haqidagi ilk ma’lumotlar Avesto, Doro I ning Bihistun kitobalari, qadimgi yunon mualliflari (Gekatey, Gerodot, Strabon va b.) hamda ilk o‘rta asrlarning arab geograflari asarlarida uchraydi.

«Xorazm» atamasi (toponimi) Avestoda Xvairizem, qadimgi forsichada Xvarazmis, lotinchada Xorasmiya va yunonchada Xorazmiya deb yuritilgan. Arabcha yozma manbalarda bu o‘lka Xvorazm

talaffuzida tilga olinadi. «Xorazm» atamasining semantikasi haqida bir qancha fikrlar mavjud. Xorazm tarixining bilimdoni SP. Tolstov «Xorazm» atamasi talqinlari orasida eroncha «Xurr-Xurshed» va «zm-zem» so‘zleri asosida yuzaga kelgan nomning «Quyoshli o‘lka», «Quyoshli er» deb atalishi haqiqatga eng yaqin etnonimdir deb ta’kidlasada, Xorazmni «Xvarri yoki Xarri (Xurriy) xalqi o‘lkasi», «quyosh (xalqi) eri» deb izohlaydi. Sug’dshunos olim M. N. Bogolyubovning fikricha, Xorazm ayrim-ayrim 3 so‘zlardan tarkib topgan. Xu (Xush, Xash), var (vara) va zm (zim, zem). Eroniy tillarda Xu —«yaxshi» «ma’qul», var(vara) — «devor», «marza», «g‘ov», «qal’a», «qo‘ra» degan ma’nolarni bildirgan. Zm (zim, zem) esa — «er», «o‘lka», «diyor», «mamlakat» kabi ma’nolarni anglatgan. Demak, «Xorazm» atamasi qanday shaklda qayd etilmasin, u «yaxshi qo‘rali er», «ajoyib qal’ali o‘lka», «mustahkam qal’alari bor diyor» degan ma’noni anglatgan.

Avestoning «YAsht» qismida Xorazm «Ming irmokli daryo», «Ko‘llar va o‘tloqlarga boy o‘lka» sifatida madh etiladi. Qadimgi Xorazm hududi tabiiy jihatdan 2 mintaqaga ajragan. Uning Shimoliy qismida Amudaryo etaklarida son-sanoqsiz sersuvli o‘zanlar, shim. va shim.-Sharqqa tomon yastangan keng yaylovlardan iborat bepoyon pasttekisliklar, uning janubiy qismida esa, Murg‘ob va Tajan daryolari vodiilarining kattagina qismi tog‘ va adirliklar va ulardan bosh olgan katta-kichik daryo-jilg‘alar etaklarida yuzaga kelgan hosildor erlar joylashgan.

Qadimgi Xorazm mintaqalari hududlarining o‘ziga xos tabiatini, shubhasiz, qadimgi. aholining turmush tarzini belgilab-gina qolmay, balki bu diyorda yuzaga kelgan qadimiylar madaniyatlarining shakllanishi, rivoji va bir-biriga qori-shuviga ham kuchli ta’sir etgan. SHu boisdan Xorazmning Shimoliy qismi (Oqchadaryo deltasi)da mil. av. 4—3 ming yilliklarda ovchilik va baliq ovlash bilan kun kechirgan aholi (Kaltaminor madaniyati) yashagan bo‘lsa, mil. av. 2-ming yillikda esa chorvachilik va dehqonchilikning soddagina usullaridan xabardor bo‘lgan qabilalar (Tozabog‘yop madaniyati va Suvyorgan madaniyati) istiqomat qilgan. Mil. av. 2-ming yillikning 2-yarmiga borganda, xususan, uning oxiri va mil.av. 1-ming yillik boshlari (9—8-a.lar) da sug‘orma dehqonchilik mukammallahib, yaylov chorvachilik rivoj topgan (Amirobod madaniyati). Bu davrda Tozabog‘yob, Suvyorgan va Amirobod madaniyatlarini yaratgan qabilalarning qorishmasi asosida tarkib topgan Kavundi (Kavondi) qabilalari yashagan.

Bu davr Xorazm moddiy madaniyatini o‘rgangan tadqiqotchilarining e’tirof etishlaricha, Xorazmdagi o‘ziga xos madaniyat sohiblari Janubiy Turkmaniston va SHimoli-Sharqiy Eron hududlaridagi qadimgi dehqonchilik sivilizatsiyalari bilan uzviy aloqada bo‘lganlar. Bu holat arxaik Xorazm ko‘chmanchi aholisining janubdagisi boy sivilizatsiya yutuqlaridan foydalanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib, miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Qadimgi Xorazm davlati paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan edi. Bu jarayon avvalo, Sariqamisholdi hududlarida ko‘zga tashlanadi va bu hududlar Xorazm shaharsozligining boshlanishi bilan bog‘lanadi.

Xorazm arxeologik-etnografik ekaspedsiyasining tadqiqotlari tufayli bu hududlardan arxaik davrga oid 400ga yaqin manzilgohlar va yirik kanal izlari aniqlangan. Bular orasida o‘zida shaharsozlik belgilarini ask ettirgan eng yirik yodgorlik miloddan avvalgi VI-V asrning o‘rtalariga oid Ko‘zaliqir qal’asi hisoblanadi. Tadqiqotchilarining fikricha, Xorazm shaharsozlik madaniyati aynan Ko‘zaliqirdan boshlanadi.

Xorazm hududlaridan hozirgi kunga qadar bronza va temir davrining boshlanish davriga oid o‘zida shaharsozlik belgilarini aks ettiruvchi yodgorliklar aniqlanmagan. Xorazmning qadimgi aholisi neolit-bronza davridayoq janubdagisi sivilizatsiya markazlari va shimaldagi Andronov madaniyati sohiblari bilan uzviy aloqada bo‘lgan bo‘lib, ushbu aloqalar moddiy madaniyat buyumlarida kuzatiladi, shahar madaniyatida esa kuzatilmaydi. Xorazm ilk shahar madaniyatining O‘rta Osiyoning boshqa hududlariga nisbatan kechroq rivojlanishi, fikrimizcha, aholi mashg‘ulotiga bog‘liq edi. Mil.avv. I ming yillik o‘rtalariga qadar bu hudud aholisi asosan o‘troq chorvachilik,

ko‘chmanchi chorvachilik, ovchilik va baliqchilik bilan shug‘ullanganliklari bois shaharlarga ehtiyoj sezilmagan. Mil.avv.VI asrning o‘rtalaridan boshlab ya’ni, Xorazm ahmoniyalar davlati tarkibiga kirganidan so‘ng bu hududlarda shahar madaniyati jadal rivojlanadi.

M.M.Mambetullaev Xorazm hududlarida shahar taraqqiyotini quyidagi xronologik bosqichlarga bo‘lish mumkinligini taklif etadi:

- a) ahmoniyargacha bo‘lgan davr yoki ilk temir asri shaharlari (mil.avv. VII-VI asr o‘rtalarigacha - Ko‘zaliqir);
- b) ahmoniyalar davri shaharlari (mil.avv.VI asr o‘rtlari V asr - Qal’aliqir);
- v) ilk antik davr shaharlari (mil.avv.V asr oxirlari-III asr-Xazorasp, Bozorqal'a, Ulli Guldursun, Qozoqliyotgan va boshq.);
- g) etalon arxeologik majmualari o‘tish davri shaharlari (mil.avv. II asr – mil.avv.I asr – Xorazmda hozirgacha yo‘q.);
- d) «Kushon» davri yoki so‘nggi antik davr shaharlari (II-IV asrlar - Tuproqqa'l'a)

Mil. avv. I ming yillikning birinchi choragiga kelib qadimgi Xorazm hududlarida sug‘orma dehqonchilikning taraqqiy etishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi natijasida ibridoim jamoa munosabatlari o‘rniga davlatchilik tizimi shakllana boshlaydi. Ushbu tizimning shakllanishida qadimgi shaharlarning ahamiyati nihoyatda katta bo‘ldi. Ammo, ta’kidlash joizki, Xorazm ko‘hna shaharlari orasida eng dastlabki poytaxt qaysi shahar ekanligi hozirgacha aniq emas. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, qadimgi Xorazm shaharlarining rejaviy uslublari – ichki va tashqi tuzilishi, himoya inshootlari, tabiiy joylashuvi nuqtai nazaridan ko‘p hollarda bir-biri bilan o‘xshashlik topadi. Tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilgan Xorazmning eng qadimgi shahar-qal’alaridan biri bo‘lgan Ko‘zaliqirning shakllanishi mil. avv. VII-V yoki VII-IV asrlarga oiddir.

Chunonchi, mil. avv. VIII-V asrlar butun O‘rta Osiyo hududlarida yirik shaharlarning paydo bo‘lishi bilan izohlanadi.

Ko‘zaliqir qadimgi Xorazmdagi dastlabki tuzilishi ancha aniq bo‘lgan, himoya devorlari bilan o‘rab olinib diniy-topinish xususiyatiga ega bo‘lgan me’moriy yodgorlikni o‘zida aks ettiradi. Uning atroflaridagi keng maydon, aftidan keyingi qurilishlarga mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin. Ta’kidlash joizki, mil. avv. VI-V asrlarga kelib O‘rta Osiyo shaharsozlik madaniyatida ibodatxonalar qurilishi muhim bo‘lib, asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ko‘zaliqir O‘rta Osiyoning boshqa shaharlari kabi vohaning mustahkamlangan harbiy-siyosiy va ma’muriy markazi hisoblanib, rivojlangan sug‘orma dehqonchilik bilan ta’minlangan edi.

Ko‘zaliqir haqida yanada batafsilroq to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu yodgorlikda o‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm ekspeditsiyasi ko‘plab tadqiqot ishlari olib borgan. Orolbo‘yi vohasidagi qadimgi yirik kanallardan birining yaqinida joylashgan ushbu yodgorlik topilmalari mil. avv. VIII asrdan V-IV asrlargacha sanalangan. Qadimgi Xorazm tadqiqotchilar «ko‘hna shahar» va «qal’a» deb ta’riflagan ushbu yodgorlikdagi turar joylar asosan paxsa va xom g‘ishtdan qad ko‘targan. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, qal’a ikkita qurilish davrini boshdan o‘tkazgan. Mil. avv. VI-V asrlarga oid pastki qatlamlardagi g‘ishtlarning o‘lchamlari mil. avv. V-IV asrlarga oid yuqori qatlam g‘ishtlaridan farqlanadi. Undan tashqari sopollarning xususiyati va bronza o‘q uchlarining yasalishida ham ayrim farqlarni kuzatish mumkin.

Ko‘zaliqirning markazidan yirik bino qoldiqlari ochilgan bo‘lib, bu erda yarim metrga yaqin madaniy qatlama saqlangan. Har ikkala qurilish davrida mavjud bo‘lgan ushbu bino 285 kv.metri egallaydi. Qat’iy rejaviy tuzilish va binoning qat’iy maydoni butun majmuaga salobat baxsh etgan. Markaziy binoning shimal tomonidan uchta minoraning asosi qazib o‘rganilgan. Tadqiqotchilarining fikricha, ular diniy marosimlar bilan bog‘liq inshootlardir.

Ko‘zaliqir tadqiqotchilar tomonidan ahmoniyargacha bo‘lgan davr bilan sanalanishiga

qaraganda Orolbo‘yi hududlarida paydo bo‘lgan birinchi shahar bo‘lishi mumkin. O‘rta Osiyo o‘troq aholi vohalarining Ahmoniyalar davlati tarkibiga kiritilishi bilan hududlarning ichki siyosati satrapliklar markazlarida jamlangan edi. Satrapliklar markazlari mustamlakachilik va boshqaruvning asosi bo‘lib, bu o‘rinda urbanistik markazlarning mudofaasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib boradi. Eskilari ta’mirlanib, yangilari shakllanayotgan ushbu mil. avv. VI-IV asrlarga oid shaharlar mudofaasiga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqotlar tahliliga ko‘ra, Ko‘zaliqir ham aynan shu toifaga kiruvchi ko‘hna shaharlardan biri edi. Boshqacha qilib aytganda, mil. avv. I ming yillikning o‘rtalaridagi shaharlarning shakllanishida siyosiy-harbiy omil asosiy hisoblangan. Butun qadimgi dunyoda bo‘lganidek, Xorazmda ham shaharlar iqtisodiy, siyosiy va diniy-mafkuraviy markazlar hisoblangan. O‘z vaqtida S.P.Tolstov ta’kidlaganidek, agar Xorazmning eng qadimgi shaharlari markazlarida jamoat-diniy inshootlar joylashgan bo‘lsa, milodning boshlariga kelib shaharlarning markaziy qismini qal’a egallaydi.

Qadimgi Xorazm shaharlari takomillashgan mudofaa tizimiga ega bo‘lib, ko‘hna shaharlardagi avvaldan puxta o‘ylangan rejaviy uslub, me’morchilik ko‘rinishidagi o‘ziga xos xususiyatlar hamda mukammal mudofaa tizimi - Qadimgi Xorazm shaharlari bunyod etilishida aniq fanlar natijalaridan keng foydalilanidan dalolat beradi. Shuningdek, qadimgi Xorazmning katta-kichik ko‘hna shaharlari, rivojlangan, hunarmandchilik, yirik sug‘orish inshootlari-ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklarning ma’lum hududlarda markazlashganligini va bu hududlarda o‘zbek davlatchiligining ko‘pgina belgilari mavjudligini ko‘rsatadi.

Xorazm ekspeditsiyasining say’i-harakatlari tufayli qadimgi Xorazm hududlarida ham ahamoniylar davri yodgorliklari aniqlangan. Ulardan biri – satrapning qurib bitkazilmagan saroyi Qal’aliqir I bo‘lib, biz u haqda yuqorida bo‘limlarimizda eslatdik. Yana bir bu davrga oid ko‘hna shahar Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan Ko‘zaliqir bo‘lib, tabiiy tepalik ustida joylashgan. Uning maksimal uzunligi 1000 metr, eni esa 500 metrdan ziyodroqdir. Qazishmalar natijalariga ko‘ra, ko‘hna shahar ikki qator devor bilan o‘rab olinib, tashqi devor minoralar bilan mustahkamlangan. Ichki devor esa turli qurilishlarga tutashib turgan.

O‘ng qirg‘oq Xorazmdagi ahamoniylar davriga oid yana bir yodgorlik Ding‘ilja yaqinidagi manzilgoh hisoblanadi. Qazishmalar natijasida bu erdan 2600 kv.m. maydonga ega bo‘lgan ko‘p xonali katta bino ochib o‘rganilgan. Binodan turar-joy, xo‘jalik va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan 17 ta xona aniqlangan. Bino ikki metr qalinlikdagi tashqi devor bilan o‘rab olingan. Devor to‘g‘ri burchakli va to‘rtburchak yirik g‘ishtlardan bunyod etilgan. Bino qurilishlari mil. avv. V asr oxiri – IV asrning birinchi yarmi bilan sanalangan.

Mil. avv. I ming yillikning o‘rtalarida Xorazm ham rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi. Xorazm tadqiqotlari natijalariga qaraganda VI- IV asrlarda bu hududda yirik-yirik manzilgohlar mavjud edi. Bu davr Xorazm inshootlari qurilishida xom g‘isht va paxsa ishlataligan. Manzilgohlar va turar-joylardan topilgan topilmalarining boy va qashshoqligi bu erda mavjud bo‘lgan ijtimoiy va mulkiy tengsizlikdan dalolat beradi. Shaharlar aholisining asosiy mashg‘uloti hunarmandchilik bo‘lgan. Ko‘plab topilgan sopol, bronza va temir buyumlar fikrimiz dalilidir. Xorazmda bu davrda mahalliy o‘troq aholidan tashqari ko‘chmanchi chorvadorlar ham yashagan bo‘lib, ular o‘rtasida doimiy harbiy to‘qnashuvlar, iqtisodiy va madaniy munosabatlar bo‘lib turgan.

Miloddan avvalgi IV asrda Xorazm Ahamoniylar imperiyasidan mustaqil davlatga aylandi. Makedoniyalik Aleksandr va Salavkiylar hukmronligi davrida ham Xorazm davlati mustaqil edi. Bu o‘lka aholisi xo‘jaligining asosini dehqonchilik tashkil etgan.

Xorazmda shaharsozlik boshlanishi **miloddan avvalgi VII asrga** borib taqaladi (**Ko‘zaliqir** shahri xarobalari). **Mil. avv. V—IV asrlarda** bu yerda mahalliy hukmdorning qarorgohi bo‘lgan ulkan qal'a bunyod etilgan edi (**Qalaliqir** shahri xarobalari).

Miloddan avvalgi III—II asrlarda Xorazm O`rta Osiyoning yirik antik davlatlari — Yunon-Baqtriya podsholigi va Parfiya podsholigi tarkibiga ham kirmagan. Bu hol Xorazmda o`ziga xos madaniyat vujudga kelishida muhim omil bo`ldi. **Jonbosqal`a va Qo`yqirilganqal`a** yodgorliklari ana shu madaniyat namunalaridir. Qo`yqirilganqal`a xarobalari ostidan aylana shaklda qurilgan mustahkam ibodatxona qoldiqlari topilgan.

Milodiy II—III asrlarda Tuproqqal`a shahrida bundan ham ulug`vor va muhtasham qurilish ishlari amalga oshirilgan edi. Shahar qudratli mudofaa devorlari bilan o`ralgan, devor burchaklarida burjlar qurilgan. Markazdan o`tgan ko`cha shaharni ikki qismiga bo`lgan, undan esa yon-atrofqa ko`chalar ketgan, mahallalar bir-biridan ajralib turgan. Markaziy maydonda muhtasham saroy va ibodatxonalar joylashgan.

Ko`zaliqir, Jonbosqal`a, Qo`yqirilganqal`a va Tuproqqal`a Xorazmning qadimiylari shaharlaridir.

Qasrdagi saroy devorlari tasvirlar bilan bezatilgan bo`lib, shohlar, lashkarlar, mug`anniylar, hayvonlar va qushlar rasmlari chizilgan. Zallardan birida devor bo`ylab baland taglikka 20 dan ko`proq haykallar o`rnatilgan edi.

Xorazmda ayniqsa hunarmandchilik ishlab chiqarishi yuksak darajada rivoj topgan. Kulolchilik, temir, mis asboblar, quollar, zargarlik buyumlariga talab katta bo`lgan. Xorazm aholisi So`g`diyona, Marg`iyona, Baqtriya va sahro ko`chmanchilari bilan yaqindan savdo munosabatlarini o`rnatgan. Bu o`lkadan muhim karvon yo`llari o`tgan. Mil. avv. I asrda va dastlabki milodiy asrlarda Xorazmda kumush va mis tangalar zARB qilingan.

Xorazm hududidan O`rta Osiyo bo`yicha eng qadimgi yozuvlar topilgan. Bular Oybo`yirqal'a (miloddan avvalgi V—IV asrlar) yodgorligidan xum sirtiga chekilgan yozuv va Qo`yqirilganqal'adan (miloddan avvalgi IV—III asrlar) topilgan ayrim mahalliy yozuvlardir.

Milodiy I asrda Xorazmda ishlab chiqilgan **mahalliy taqvimdan** xorazmliklar VIII asrga qadar foydalanishgan.

Xiva — Xorazm viloyatidagi shahar. Xiva tumani markazi. O`zbekistonning shim.-g`arbida, viloyatning janubida, Amudaryoning chap sohilida, daryodan 40 km janubda, 91 metr balandlikda joylashgan. SHahar yonidan Polvonyop (qadimgi Xeykaniq) kanali o`tgan. YAqin tumani — Urganch (30 km). Maydoni 0,08 ming km². Aholisi 51,2 ming kishi (2004).

Xiva O`zbekistonning qadimgi shaharlaridan biri. Arxeologik ma'lumotlarga ko`ra, shahar mil. av. 5-asrda barpo etilgan. Uning nomi shaharning qadimiylari qismida joylashgan Xivaq (Xeyvaq) qudug'i bilan bog`liq. Ba`zi tadqiqotchilar shahar nomini xorazmiy tiliga yaqin bo`lgan qadimgi osetin tilidagi «Xi-auv» — qal'a so`zidan, boshqalari bu atamani antik davrdan Xiva hududidan oqib o`tgan Xeykaniq (hozirgi Polvonyop) kanalining o`zgartirilgan (Xeykaniq— Xe Ivan i Xeyvaq — Xeva — Xiva) nomidan kelib chiqqan deydilar. Xorazmlik tarixchi-solnomachi Xudoyberdi Qo'shmuhammad o`zining 1831 yilda yozgan «Dili G`aroyib» asarida Xorazmning qadimgi shaharlarini nomma-nom sanar ekan, «Bu mamlakatning yana bir qal'asi — Qal'ai Ramldir. Bu qal'aga Som ibn Nuh asos solgan bo`lib, u hozirgi Xivaq nomi ila mashhurdir» deydi.

Xalq rivoyatlarida ham shaharning bunyod etilishi Nuh zamonlariga borib taqaladi. Bunda Nuhning o`g`li Som bo`lajak shahar yoniga kelib quduq qazdirgan va shu bilan Xivaga asos solgan. Haqiqatan ham Xivaning Ichon qal'asida qadimgi Xeyvaq (Xivak) qudug'i saqlanib qolgan. Xiva to`g`risidagi dastlabki ishonchli ma'lumotlar 10-asrdan boshlab arab-fors tilidagi tarixiy-geografik manbalarda uchraydi.

Istaxriy (930yilda) Xivani o'sha davrdagi eng yirik 30 ta shahar ro'yxatiga kiritgan. U Xivani Hazoraspdan 8 farsax masofada Jurjoniya (Gurganj) yo`lida joylashganligini qayd qiladi. Muqaddasiyning ma'lumotlariga ko`ra esa Xiva bilan Hazorasp o`rtasidagi masofa 8 dovon (10

farsax)dan iborat bo‘lgan. Xiva YOqut Xamaviy (13-asr), Nizomiddin SHomiy (14-asr) asarlarida ham karvon yo‘lida joylashgan shahar sifatida eslatib o‘tiladi.

17-asrda yashab o‘tgan Mahmud ibn Valiy bu shahar to‘g‘risida shunday yozadi: «Xiva keng va bahavo shahar. U shayx Najmuddin Kubroning vatanidir». Abulg‘oziy Bahodirxonning «SHajarai turk» va «SHajarai tarokima» asarlaridagi Xiva xususidagi fikrlari ham ana shu davrga mansub.

Xiva o‘zining tarixiy o‘tmishi, me’moriy tuzilishi, obidalarining yaxlit saqlanganligi jihatidan mazkur qadimgi shaharlar orasida alohida o‘rin tutadi. Er kurrasida mashhur bo‘lgan Afina, Rim, Qohira shaxarlariga tengdosh bo‘lgan bu shaharning Ichon qal‘a qismi (1990) Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan 100-shahar bo‘lib, dunyoga al-Xorazmiy, Najmuddin Kubro, SHihabuddip Xivaqiy, Pahlavon Mahmud, Mu-hammad Rahimxon (Feruz), Munis va Ogahiy kabi buyuk zotlarni etkazib bergen azim zamin hisoblanadi.

Xivani arxeologik jihatdan o‘rganish qisman S.P.Tolstov, YA.G‘.G‘ulomov, A.I.Terenojkin tomonidan 20-asr o‘rtalarigacha olib borilgan. 1984—1993 yillarda arxeologik qazishma ishlari rejali ravishda keng miqyosda olib borildi. Qazishmalar O‘zbekiston FA Qoraqalpog‘iston bo‘limi arxeologlari va xorazmlik arxeologlar hamkor-ligida amalga oshirildi. SHahar hududida 6 ta stratigrafik qazilma va 7 shurf belgilandi. Xivaning qadimgi qismi — Ichon qal‘ada 1200 m² bo‘lgan maydon qazib o‘rganildi. Arxeologik ashylarning 7 metrgacha chuqurlikdan topilganligi, shaharning paydo bo‘lish davri qadimgi ekanligidan dalolat beradi. SHahar tarixiy taraqqiyotining birinchi davrida Ichon qal‘a o‘rnida odamlar yashay boshlagan. Arxeologik materiallarning shahodaticha, bu davr mil. av. 5-asrga to‘g‘ri keladi. Kulolchilik charxida tayyorlangan sopol buyumlar majmuasi, Shuningdek, paxsa devor qoldiqlari shu davrga mansubdir. Mil. av. 5-asr oxirida Xorazm Eronning siyosiy tazyiqidan xalos bo‘lgach, Xivada shahar sistemasining asosiy elementlari shakllana boshladı.

Mil. av. 4—3-asrlarda qal‘a atrofi 2 qavatlil qalin devor bilan o‘rab olindi. Devor oldin paxsa, uning ustiga xom g‘isht terilib, bunyod etilgan. G‘ishtlarning aksariyatiga tamg‘a bosilgan. Devor orasida (ichida) eni 2 metrli yo‘lak bo‘lgan. Devor bo‘ylab, har 22—27 m masofada minoralar tiklangan. Devordagi minoralar to‘g‘ri burchakli bo‘lgan. Qal‘a devorining butun tizimi asosiy devordan 4,4—8,5 metr masofadagi qo‘srimcha to‘sinq — devor bilan o‘rab chiqilgan.

Devor ichi va yo‘laklardan topilgan sopol buyumlar mil. av. 4—3-asrlarga taalluklidir. Bo‘yin qismi ingichka, nozik qilib ishlangan xum va xumchalarning sirtiga och pushti rangda gul naqshi solingan. YAna bir nodir topilma — ko‘zachaning sher kallasi shaklidagi dastasidir. Qadimgi qal‘a devori va yo‘laklar Xiva o‘sha davrda vohada yirik shaharlardan biri sifatida Xeykaniq (Polvonyop) kanali sohillari hamda sohilga yaqin hududlarni nazorat qilib turganligini tasdiqlovchi dalildir.

Xiva dastlab agrar-hunarmand shahar sifatida rivojlandi. Mil. av. 2-asrda Xivaning katta qismi qum ostida qolgach, aholi shaharni tark etdi. Ichon qal‘a devorlari vayron bo‘ldi.

Milodning boshlarida shaharda hayot yana tiklana boshladı. Qal‘a devorining g‘arbiy qismida ark bunyod etildi. 1—3-asrlarda (Kushonlar davri) Xiva Ichon qal‘a devorlari tashqarisidan qalin g‘ishtin devor bilan mustahkamlandi, natijada shahar devori qalinligi 7,5—9 metrga etdi.

Arxeologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, mil. 4—5-asrlarda shaharni yana qum bosgan. 6—8-asrlarda Xiva qayta tiklana boshladı. Xiva hududida zamindorlarning dastlabki ko‘shklari paydo bo‘la boshladı. Ichon qal‘ada shunday ko‘shklardan 2 tasi topilgan.

Shahar Xorazmshohlar davri (12—13-asr boshi) ravnaq topib, hududi kengaydi. 1220—21 yillarda Xiva CHingizzon qo‘sini shaharlari bilan savdo aloqalari o‘rnatildi. Keyinroq qayta tiklana boshladı. Hunarmandchilik (kulolchilik, koshinkorlik va b.) rivojlandi.

Keyingi davrda ayniqsa, 16—19-asrlarda shahar jadal taraqqiy eta bordi. Quyi Volga, O‘rtalik va YAqin Sharq shaharlari bilan savdo aloqalari o‘rnatildi.

Xiva 16-asrning 2-yarmidan Xorazmning poytaxtiga aylangach, har tomonlama rivojlandi.

Me'moriy qiyofasi ham o'zgara bordi. SHahardan o'zaro ko'ndalang kesishgan 2ta katta kucha va 4 darvoza (Otadarvoza, Polvondarvoza, Bog'chadarvoza, Tosh-darvoza) orqali Dishan qal'a (rabod) ga chiqiladi. Ichan qal'a devorining uzunligi 2200 m, balandligi 6—8 metr tag zaminining qalinligi 5—6 metr. Qal'a to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, uzunligi 650 m, eni 400 m, jami 26 ga maydonga ega.

Xivaning rabod qismi Dishan qal'a 1842 yil Olloqulixon davrida (1825—42) baland devor bilan o'rab olingan. O'sha davrda Ichan qal'ada 33 mahalla (machitqavm) va Dishan qal'ada 34 mahalla bo'lган. Mahallalar u erda yashayotgan aholining kasb-kori (CHitkarlik, Elakchilik, Kulollar, Misgarlik, G'assollar) yoki shaxs lavozimi (Otamurod qushbegi, YOqub mehtar, YUsuf yasovulboshi) bilan atalgan. SHaharda 109 katta-kichik kucha, 79 masjid va 120 qorixona bo'lган. Xivada 19-asr o'rtalarida 20 ming kishi yashagan. SHahar, asosan, 19-asrning 2-yarmidan kengaya bordi.

1874 yilda shahar ma'muriy jihatdan Qumyosqa, Kaptarxon, O'r, Ko'hnabozor, Kaltaminor, Amin chorus, Meveston, Qoraa'lam va YAngi qal'a mavzelariga bo'lingan. Xiva xonning «mulki xolisasi» hisoblanib shaxsan uning o'zi tomonidan boshqarilgan. 19-asr oxiri — 20-asr boshlarida Xivada 64 Madrasa, 79 masjid bo'lган. 1924 yil shaharda olingan aholi ro'yxatida 4029 xonadonda 18145 kishi qayd qilingan.

Xivaning ilk tarhi 1740 y.da chizilgan. SHahar tarhi uzunasiga 1 ming m, eniga 400 m bo'lib, 40 ga maydonni egallagan. Uning butun tevarak atrofi suvli xandaq bilan o'rab olingan. SHaharga Sharq tomonidan maxsus ko'priq orqali kirish mumkin bo'lган. Ko'priq kechalari ko'tarib qo'yilgan. Ko'priq yonidagi darvozadan boshlangan katta kucha to'ppa-to'g'ri Ark darvozasiga borib taqalgan. Ark shaharning g'arbiy qismida joylashgan. SHaharning asosiy ko'chasi uni 2 qism (shim. va jan.) ga ajratgan. Arkda xon saroyi, haramxona, aslahaxona bo'lib, ular maxsus qal'a devori bilan o'ralgan. Lekin, o'sha davrdagi ba'zi inshootlar chizmaga kirmay qolgan.

YAna bir tarhi Rossiyadan maxfiy topshiriq bilan kelgan topograf G.N.Zelenin tomonidan 1839 y.da chizilgan. Zeleninining ma'lumotlariga kura, shaharda o'sha davrda 17 ta masjid, 22 ta mahalla va 260 savdo rastasi bo'lган. SHaharning juda aniq va mukammal bo'lган so'nggi tarhi 1873 y.gi rus istilosidan so'ng rus topograflari tomonidan tuzilgan va o'sha yiliyoq «1873 yilgi Xiva yurishlari» maqolasiga ilova tarzida bosilgan.

Me'moriy ansamblining yaxlitligi jihatidan shahar O'rtal Osiyoda yagona hisoblanadi. 1967 yilda O'rtal Osiyoda ilk bor Xivaning Ichan qal'a (shahriston) qismi tarixiy-me'moriy yodgorliklar qo'riqxonasi deb e'lon qilindi. Xivaning jahon madaniyati taraqqiyotida tutgan o'rni YUNESKO Bosh konferensiyasining (1995 y. okt.—noyab.) 28-sessiyasida alohida qayd qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 y. 3 yanvadagi qarori bilan Xivaning 2500 yilligi 1997 y.da jahon miqyosida keng nishonlandi.

Urganch (1929 y.gacha YAngi Urganch) — Xorazm viloyatidagi shahar, viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi. Amudaryoning quyi oqimi chap sohilida. SHovot kanali shahar o'rtasidan o'tib, Urganchni shim. va janubiy qismlarga ajratgan. SHim. qismida, asosan, turar joy binolari, ilmiy va madaniy maorif muassasalari, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari, janubiy qismida esa ishlab chiqarish korxonalari joylashgan. Har ikkala sohil bir-biri bilan ko'priklar orqali bog'langan. Aholisi 136,8 ming kishi (2004).

Shahar nomining kelib chiqishi mil. av. 7—6-asrlarga borib taqaladi. «Avesto» kitobida Vurukash (Orol) dengizi bo'yida Urga (Urva) shaxri bo'lganligi qayd etilgan. Tabiiy ofatlar (suv toshqini, qurg'oqchilik) tufayli Urganch hozirgi Ko'hna Urganch hududiga ko'chirilgan. 8-asrgacha «Gurganj» nomi bilan yuritilgan. 712 yilda shaxar arablar tomonidan bosib olinganidan ksyin «Jurjoniya» deb ataldi. 1221 yil mo'g'ullar egallagandan so'ng shahar nomi Urganch shaklida yuritila boshladi. 14-asr Evropa manbalarida shahar (Ko'hna Urganch) shaklida tilga olinadi.

Ko`hna Urganch-Xonlikning yana bir shahri - Ko`hna Urganch (Gurganch) shahridir. Qadimda bu shahar joylashgan hudud hozirgi Turkmaniston (Toshkovuz viloyati) tarkibidadir.Ko`hna Urganchga asos solinganligiga 2000 yildan oshdi. Shahar muhim savdo karvoni yo`llari kesishgan yerda joylashganligi uchun ham tez rivojlangan. Ko`hna Urganch X - XI asrlarda Xorazm davlatining poytaxti edi. Bu shahar arab geograflari asarida Jurjoniya nomi bilan qayd etilgan. X asrning ikkinchi yarmida poytaxt Gurganchda mustaqil amirlik tuzilgan. 995- yilda Gurganch amiri Ma`mun ibn Muhammad poytaxti Kot shahri bo`lgan xorazmshohlarni tormor etib, o`zini Xorazmshoh deb e`lon qilgan. Shu tariqa Gurganch Xorazm davlatining yagona poytaxtiga aylangan.

XI-XII asrlarda bu shaharda madaniyat, ilm-fan rivojlandi. Shahar mustahkam qal`a-devor bilan o`rab olindi.

SHaharga 1646 yilda Xiva xoni Abulg`oziy Bahodirxon tomonidan asos solingan. Amudaryo o`z yo`nalishini o`zgartirib Orol dengizi tomon oqa boshlaganidan so`ng Gurganj sh. (Ko`hna Urganch) suvsiz qolgan. Abulg`oziy Bahodirxon Gurganj. Vazir qal`a (sha-har)larida va ular atroflarida tarqoq holda yashagan aholini ko`chirib Amudaryoning janubiy qismlarida joylashtirgan va aholi o`rnashgan hudud atrofini qal`a devori bilan mustahkamlab unga «Toza Urganch», ya`ni «Yangi Urganch» deb nom bergen. SHundan keyin qadimgi Gurganj shaxarning nomi Ko`hna Urganch bo`lib qoldi. Yangi Urganch bilan Ko`hna Urganch oralig`i 170 km.

Vazir shahri- Vazir Xorazmning shahar-qal`alaridan biri bo`lgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, - shayboniylardan bo`lgan Mustafoxon tomonidan XV asr o`rtalarida asos solingan.

XVI asrda shayboniyarning o`zaro urushlari shaharni vayron bo`lishiga olib kelgan. 1558- yilda Xivaga kelgan Antoniy Jenkinson bu haqda bunday deb yozgan edi: «Vazir shahri keyingi 7 yil mobaynida o`zaro urushlar oqibatida to`rt marta vayron bo`ldi. Shuning uchun ham bu yerda savdogarlar juda kam, borlari ham nochor».

1593-1598- yillarda esa Abdullaxon II harbiy yurishlari chog`ida ham shahar yana vayron etildi. Abulg`ozixon Yangi Urganchga asos solgach, Vazirning qolgan aholisini ham shu yerga ko`chirgan. Shu tariqa shahar o`z ahamiyatini butunlay yo`qotgan.

Mahmud az – Zamaxshariy(1075.18.3, Xorazm, Zamaxshar qishlog`i – 1144, hoz. Ko`hna Urganch). **Zamaxshariy** (nisbasi; to`liq ism – sharifi Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Axmad) – tilshunos, adib, tafsir va hadis olimi. Buyuk mutafakkir arab grammatikasi, lug`atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, jug`rofiya, tafsir, hadis va fiqh (qonunshunoslik)ka oid 50 dan ziyod noyob asarlarning muallifidir. Ularning aksariyati bizgacha etib kelgan. Zamaxshariy ko`p asarlarini Makkada yozadi. SHu boisdan u Jorulloh («Allohnning qo`schnisi») degan sharafli laqabga muyassar bo`lgan.

8-Mavzu:Chirchiq va Angren vodiysi shaharlari. O`rta asrlarda Toshkent urbanizatsiyasi. (4

soat)

Reja

1. Qadimgi davr Toshkent voxasi manzilgoxlari. Burgulik madaniyati.
2. Antik davr shaxarlari. Qovunchi madaniyati.
3. Ilk o`rta asrlarda Choch va Iloq.
4. Toshkent XIV-XVI asrlarda.

Tayanch so`z va iboralar: O`rta Osiyo, antik davr, Toshkent, Shosh, Shoshkent, ilk o`rta asrlar, o`rta asrlar, qadimgi shahar, shaharsozlik, shahar, shahar tushunchasi, Choch, Iloq, Angren, Oxongoron, Burgulik madaniyati, Qovunchi madaniyati, sivilizatsiya, madaniyat, davlatchilik, urbanizatsiya, moddiy madaniyat, arxeologik yodgorlik, arxeologiya.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
3. Asqarov A. Eng qadimgi shahar. T., 2000.
4. Asqarov A.A., Shirinov T.Sh. Rannyaya gorodskaya kultura epoxi bronzsi Sredney Azii. Samarqand. 1993.
5. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. –Toshkent. "O'ZBEKISTON". 2015. 670 b.
6. Sagdullaev A.S. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi, 1996.
7. Sagdullaev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. O'quv qo'llanma. T., 2004.
8. Sagdullaev A. va boshq, O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent. Akademiya, 2000.
9. Eshov.B. Sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. – Toshkent: Zar qalam, 2004; 126 b.
10. Eshov B.J. O'rta Osyoning qadimgi shaharlari tarixi. Darslik. Toshkent. 2008.
11. Eshov B.J. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. - T.: Yangi asr avlod, 2012.-B.556.

Toshkent viloyati – O'zbekiston Respublikasining shim-Sharqida joylashgan. 1938 y. 15 yanvarda tashkil qilingan. SHim. va shim.-g'arbdan Qozog'iston Respublikasi, shim.-Sharqdan Qirg'iziston Respublikasi, Sharqdan Namangan viloyati, jandan Tojikiston Respublikasi, jan-g'arbdan Sirdaryo viloyati bilan chegaradosh. Maydoni (Toshkent shaxri maydonisiz) 15,3 ming km². Aholisi (Toshkent shahri aholisisiz) 2,4 mln. kishidan ziyod (2004). Viloyat tarkibida 15 ta tuman (Bekobod, Buka, Bo'stonliq, Zangiota, Oqqa'rg'on, Oqangaron, Parkent, Piskent, Toshkent, CHinoz, YUqori CHirchiq, YAngiyo'l, O'rta CHirchiq, Qibray, Quyi CHirchiq). Markazi — Toshkent shaxri Maydoni 327,9 km². Aholisi 2157,8 ming kishi (2004 y) 11 tuman bor.

Toshkent haqidagi dastlabki aniqroq ma'lumotlar mil. av. 2-a. — mil. 5-asrlarga mansub Xitoy manbalarida uchraydi. Ularda Toshkent viloyati qadimda Lo-yueni, Yuni, so'ngra Chjeshe, Chjechji, Chjesi va Shi deb nomlangan. Bu atamalar (avvalgi ikkitasidan tashqari) «Choch» so'zining xitoycha talaffuz etilishi natijasida hosil bo'lib, hatto oxirgi «SHi» toponimi xitoychada «tosh» ma'nosini anglatgan.

Qadimgi Qang' davlatining fuqarolari ham «qang'ar», «qanzar», keyinchalik «qanhi», «qang'li» yoki «qa'ni» deb nomlangan. Ular (qanqa-lar) hindlarning qadimgi kitobi «Mahabharata»da saklar va toxarlar nomlari qatorida tilga olingan. YOzma manbalarda keltirilishicha, Toshkentning qadimgi nomi «Choch» bo'lgan. Toshkent arablar tasarrufiga o'tgach, arab alifbosida «ch» harfining yo'qligi bois arabiyl asarlarda «Shosh» deb yuritilgan. Ilk o'rta asrlarda u «Choch», «Shosh», «Shoshkent», «Madinat ash-Shosh», «Binkat» va «Tarkan» deb nomlangan. Toshkent xaqidagi dastlabki ma'lumotlar mahalliy olimlar (Xorazmiy) va tarixchi-geograflardan Tabariy, Istahriy asarlarida uchraydi. Istahriyning «Qitob al masolik val mamolik» («Yo'llar va mamlakatlar to'g'risidagi kitob»)ida Shoshning bosh shahri Binkat deb ko'rsatiladi. 10-asrda yozilgan (muallifi noma'lum) «Hudud ul-Olam» («Olamning chegaralari») kitobida «Choch bu katta viloyat, xalqi jangovar va sahiydir. U erda kamon va o'q-yoy yasaladi. Binkat Chochning poytaxti hisoblanadi. Bu katta shahar, ayni vaqtida podshoning qarorgohidir», deb ta'riflanadi. Firdavsiyning «Shohnoma» asarida Choch o'zining kamoni Shoshiy (o'q-yoylari) bilan mashhurligi haqida misralar bor.

Shahar «Toshkent» nomi bilan dastavval 11-asrning mashhur allomalari — Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Koshg'ariyning asarlaridatilga olinadi. Beruniy «Hindiston» asarida Toshkent nomining kelib chiqishi to'g'risida so'z yuritib, «Tosh» so'zi asli turkcha bo'lib, SHosh ko'rinishini olgan. «Toshkand — toshli qishloq demakdir» (Abu Rayhon Beruniy, Tanlangan asarlar, T., 1963, 2-

j., 232-6.), deb izohlaydi. Mahmud Koshg‘ariyning ma’lumoti bo‘yicha, T. 11 —12-asrlarda «Tarkan» deb ham yuritilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma» da Toshkent nomi ustida to‘xtalib, «...asarlarda Toshkent nomini Shosh, ba’zan Choch yozadilar» deb qayd etadi. Biroq 16 asr oxiri va 17 asr boshlarida Toshkent toponimi shuhrat topib, uning qadimgi Choch, Shosh va Binkat nomlari asta-sekin muomaladan tushib qoldi. 17 asrlarda yashagan tarixchi olim Mahmud ibn Vali shunday yozadi: «Shosh — Sayxun (Sirdaryo)ning u tomoniga joylashgan shahar va Turkiston (viloyat)ga qaraydi. Uni Choch ataydilar. Biroq hozirgi vaqtida u Toshkent nomi bilan mashhurdir».

Arxeologik tadqiqotlar natijasida Toshkent voxasida so‘nggi bronza va ilk temir davridayoq ko‘chmanchi chorvadorlar qo‘rg‘onlari bilan birgalikda dexqonchilik bilan shug‘ullangan qishloqlar bo‘lgan. Oddiy sug‘orish usullaridan foydalangan bu axolining madaniyati dastlabki ochilgan qishloq nomi bilan Burgulik madaniyati deb yuritiladi. Chirchiq va Oxongaron xavzalarida ushbu madaniyatga oid 25dan ziyod yodgorlik ochilgan.

Mil.av. 3 asrda qadimgi Choch viloyatida tashkil topib, milodning 3-asrlarigacha hukm surgan «Qang» («Qang‘a» yoki «Qang‘xa») davlati Xitoy yozma manbalarida «Kangkiya» («Kanizuy») nomlari bilan tilga olinadi. Maydoni 6,5 hektar bo‘lgan. Qadimgi toxarlar tilida «qang» so‘zi ham «tosh» ma’nosini anglatgan. Bu davlatning poytaxti — Bityan shaxri bo‘lib, u Iosha-Xa-sart daryosi (Sirdaryo) bo‘yida joylashgan. Bityan sh. Daean (Farg‘ona vodiy-si)dan 1510 li (528 km) masofada bo‘lgan. Bityan shaxrining bizgacha saqlanib qolgan xarobalari mahalliy aholi o‘rtasida «Qanqatepa» nomi bilan mashhur. U Toshkentdan 70 km janubda — Sirdaryoga yaqin erda, Ohangaron daryosining qurib qolgan qadimgi o‘zani bo‘yida joylashgan. Arxeologik ma’lumotlardan ma’lum bo‘lishicha, Qanqatepa mil. av. 3 asrdayoq atrofi mudofaa devori bilan o‘ralgan hamda arkli katta shahar bo‘lib, maydoni 160 hektarga teng bo‘lgan.

Toshkent vohasida shahar madaniyatining shakllanib, shaharning qad ko‘tarishi shu o‘lkada yashagan qadimiy chorvador va dehqonlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi ulkan tarixiy jarayon bo‘lib, bu jarayon shubhasiz o‘lkaning o‘zlashtirilib, obod etilishi, ayniqsa, unda chorvachilik va dehqonchilik xo‘jaliklarining tashkil topishi hamda hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning rivojlanish tarixi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu jarayonning tarixiy manzarasi nihoyatda keng bo‘lib, u yozma manbalarga nisbatan ko‘proq arxeologik tadqiqotlar vositasi bilan tiklanmokda. Shuning uchun ham Toshkent hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning natijalari qadimiy va o‘rta asrlarga oid manbalardagi ma’lumotlarni to‘ldirib, ularga aniqlik kiritmoqda.

Geografik jihatdan qulay, iqlimi mo‘‘tadil bo‘lgan CHirchiq va Ohangaron vodiylarida uzoq o‘tmishdayoq chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullangan aholi yashagan. Arxeologik yodgorliklarning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi 2-ming yillikning oxiri va 1-ming yillikning boshlarida ko‘chmanchi chorvador aholining o‘troqlashuvi kuchayib, dehqonchilik kengaya boshlagan. Hali sug‘orma dehqonchilik va irrigatsiya inshootlari qurish imkoniyati bo‘limgan Toshkentning dastlabki dehqonlari, garchi daryoning asosiy oqimidan suv bog‘lab olishga qurbilari kelmagan bo‘lsada, lekin, daryo toshqinlari va adirlardan kelgan suvlardan hosil bo‘lgan irmoqlar bo‘yida, tabiiy zaxob erlarda dehqonchilik qilganlar. Hozirgi Toshkentning Qorasuv, Salor va Jo‘n arig‘idan sug‘oriladigan janubiy qismida shunday ibridoiy dehqonchilik madaniyati tashkil topgan. Toshkentning bu ibridoiy dehqonchilik madaniyatining izlari dastavval shahardan 30 km janubida Burganlisoy yoqasida topilib, tadqiq etilgani tufayli tarix fanida u Burgami madaniyati nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Miloddan avvalgi 6—4-asrlarda Qorasuv, Salor va Jo‘n arig‘i yoqalarida dastlab ilk qishloqlar qad ko‘targan. SHulardan biri Jo‘n arig‘i bo‘yidagi SHoshtepaning ostki qatlamidan qazib ochilgan qal‘a xarobasidir. 1980-82 yillarda olib borilgan qazish ishlari uning miloddan avvalgi 6—4 asrlar va 2—1 asrlardagi rivojlanish bosqichlarini aniqlashga imkon berdi. Bir tomoni Jo‘n arig‘iga yondoshgan bu

qadimiy joy atrofi dastavval tuproq, marza bilan o'ralib, qal'a, istehkom qiyofasini olgan. SHoshtepaning qadimgi aholisi chorvachilik (qoramolchilik, yilqichilik, qo'ychilik hamda tuyachilik) bilan shug'ullangan. Qadimgi shoshtepaliklar jez va temirdan qurol-yarog' va asboblar yasashni, kulolchilik hamda to'qimachilikni yaxshi bilgan. SHubhasiz, bu qishloqlarda, keyinchalik Toshkent vohasida shahar madaniyati shakllanib, qadimgi Toshkentning asta-sekin qad ko'tarishiga zamin bo'ldi.

Mil. av. 2—1 asrlarda SHoshtepada qadimgi shahar belgilari paydo bo'ldi. Qadimgi qishloq xarobalari ustida atrofi qalin aylanma devor bilan o'rabi olingan doira shaklidagi qal'a (qo'rg'on) qad ko'tardi.

Mil. 1—2-asrlarda suyakdan yasalgan yozuv tayoqchasi (stil) qadimgi Shoshda yasalib ishlatilgan. 15 smli bu suyak qalamning bir tomoni yozish uchun uchli qilib, ikkinchi o'chirgich tomoni esa qiyshiq ko'p burchak shaklida kurakcha qilib yasalgan. Bu topilma milod boshlaridayoq Toshkent vohasida ham xattotlik mavjudligidan guvohlik beradi.

Shoshtepadagi arxeologik obidalar shaharning mustahkam mudofaa devori, hashamatli me'moriy majmuoti, hunarmandchilik buyumlari, xat-savod va savdodan dalolat beruvchi topilmalar milod bo'sag'asida Toshkent vohasida shahar madaniyati rivojlanib, Shoshtepadagi qadimgi qishloq shahar qiyofasini ola boshlaganini ko'rsatadi. Shoshtepani o'rganish Toshkent hududidan shahar madaniyati tarixi xuddi shu davrda boshlangan, ya'ni uning yoshi 23 asrdan kam emas deb baholashga imkon berdi.

Mil. ning 1-asriga kelib Chirchiq, Salor, Qorasuv bo'yalaridagi vohaning qariyb yarmidan ko'prog'i o'zlashtirilib obod etilgan. Salor yonida joylashgan Choch shahri bu davrda har tomonlama etakchi mavqega ega bo'lib, uni muarrixlar haqli ravishda milodning boshlaridagi Toshkentning asosi deb hisoblaydilar. Buyuk ipak yo'lida joylashgan Toshkent Evropa mamlakatlarining Hindiston va Xitoy bilan olib borgan turli aloqalarida muhim rol o'ynagan. Bu shahar 6—8-asrlarda, ayniqsa, ravnaq topgan. Shaharning Turk xokonligi tarkibiga kirishi, uning Qoramozor tog'laridagi konlar yaqinida joylashganligi, hunarmandchilik mahsulotlariga doimo muhtoj dasht ko'chmanchilarining yondoshligi, Shuningdek, asosiy karvon yo'llari, xususan, Buyuk ipak yo'li vohaning Shimoliy hududlaridan o'tishi uni tezda Choch davlatining poytaxti bo'lib qolishiga imkon berdi. Shahar atrofi kuchli mudofaa devorlari bilan o'rabi olinib, maxsus saroy-qal'a qurilgan. Arxeologik qazishmalar vaqtida topilgan ishlab chiqarish qurollari va uy-ro'zg'or buyumlari bu erda yuksak madaniyat bo'lganidan dalolat beradi. Manbalarga ko'ra, shahar, ichida saroy, ibodatxona bo'lgan ark, amaldorlarning uylari joylashgan shahriston, hunarmandlar mahallalari o'nashgan ichki va tashqi rabodlardan iborat bo'lgan. Shahar atrofida ozod jamoalarning keng ekinzorlari, qishloqlari, ilk zamindorlik dehqonlarining qo'rg'on va bog'-rog'lari, istehkomlari paydo bo'lgan. Ekinzor erlar va bog'lar chekkasida — ko'chmanchilar dashtiga tutash chegaralarda mudofaa istehkomlari qurilgan. Arab manbalarida bu shahar Chochning poytaxti — «Madinat ash-Shosh» (Shosh shahri) deb atalgan.

Choch poytaxti hunarmandlari metalldan mehnat qurollari, yarog'-aslalahalar, zeb-ziyarat va ro'zg'or buyumlari yasashgan, ko'nchilik bilan shug'ullanishgan, paxta va jun-shisha idishlar, zargarlik buyumlari yasab, ichki va tashqi savdoni ta'minlashgan. Shaxar qizg'in savdo markazi xam bo'lgan. G'arbda Vizantiyadan tortib, Sharqda Xitoygacha bo'lgan davlatlarning Toshkent. hududidan topilgan tangalari shundan dalolat beradi.

Choch hokimi ham o'z tangalarini zarb qildirgan. 4—8-asrlarda Chochda kumush tangalar chiqaradigan zarbxona bo'lgan. Qadimda Choch hukmdorlari old tomoniga mulkdorning surati, orqa tomoniga hujumga tayyorlanib turgan qoplon tasviri yoki sulolaviy ayri tamg'a tushirilgan pullarni zarb etgan. Chochning xuddi shu davrda zarb etilgan ba'zi tangalari orasida hukmdor bilan yonma-yon turgan malika tasviri tushirilgan pullar ham uchraydi. Bu shubhasiz, Chochning ilk o'rta asr ijtimoiy va

iqtisodiy, ayniqsa, siyosiy hayotida hukmron tabaqa ayollarining yuqori nufuzga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ular «SHo‘rxon xotun» va «Kabachxotun» (uy malikasi) kabi sharafli nomlar bilan ulug‘lanib, shahar tashqarisida joylashgan so‘lim qarorgohda istiqomat qilganlar. Bunday oyimlar yashagan joy «Achabat» (Katta ona qo‘nog‘i) deb yuritilan. Savdo-sotiq va xunarmandchilik bilan birga madaniyat qam yuksalgan. Manbalarga ko‘ra, tasviriy san’at va, ayniqsa, musiqa rivoj topgan.

Arab qo‘shinlari Chochga ilk bor 713 y.da bostirib kelishgan. Tabariyningyozi-shicha, Chochni zabit etish uchun arablar 20 ming kishilik qo‘shin tortgan. Shaxar aholisi arablarga qarshi qattiq qarshilik ko‘rsatgan.

Lekin, arablar ko‘p o‘tmay Chochni bosib olganlar va talon-toroj qilib katta o‘lja bilan qaytganlar. Arab istilochilari tomonidan vayron etilgan shahar o‘zini o‘nglay olmadı. Faqat 9-a.ga kelib, avvalgi o‘rnidan 4—5 km shim.-g‘arbroqda, Bo‘zsuv kanalidan chiqarilgan Kaykovus (Kolkohdiz) arig‘i yonida yangitdan vujudga keldi va yana Chochning poytaxtiga aylanib, jadal taraqqiy eta boshladı. Bu yangi shahar arab manbalarida Binkat (uzokdan ko‘rinib turuvchi yoki quyi shahar) deb tilga olinadi. Bu nom 9—10-asrlarda zarb etilgan kumush va chaqa tangalarda Shosh va Madinat ash-Shosh nomlari bilan bir qatorda uchraydi. Arablar dashtlik chorvador qabilalar hujumidan hosildor erlarni muhofaza qilish maqsadida 8-asrning 70-yillarda Chirchiq vohasining shim.-g‘arbiy chegaralari bo‘ylab Soyliq qishlog‘i yonidagi tog‘lardan to Sirdaryogacha devor qurdirganlar. Unint xarobashri Kampirdevor nomida saqlanib qolgan. 9—10-asrlarda Shosh Somoniylarga tobe bo‘lgan.

Yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, Binkat shaxrining keyingi asrlardagi o‘rni Toshkentning to‘rt dahasida, asosan, uchtasi — Sebzor, Ko‘kcha, Beshyog‘och hududida joylashgan bo‘lib, u alohida qalin devorlar bilan o‘rab olingen 4 qism: ark (o‘rda), shahriston (shaharning asosiy qismi) hamda ichki (rabodi dohil) va t a sh q i (rabodi xorij) raboddalaridan iborat bo‘lgan va bir necha qator mudofaa devori bilan o‘ralgan. Shu davrdagi ark (maydoni 3 hektar) va shahriston (maydoni 15 hektargacha) shahar markazida hozirgi SHayxontohur tumani hududidagi Eski jo‘va bozori va undan Sharqdagi katta tepalikda joylashgan. Qal’ada hukmdor saroyi va zindon bo‘lgan. Saroyning birdarvoza (qopqa)sidan shahristonga, boshqasidan shaharning ichki rabodiga chiqilgan. Shahar markazida bozor bo‘lgan, u «Jo‘ba» deb yuritilan.

Markaz bilan shahar darvozalari ko‘chalar orqali bog‘langan. Bir va ikki qavatli paxsa yoki sinchkori devorli hovlili qilib turar joylar kurilgan. Ichki va tashqi rabod devorlari oralig‘i 4 km bo‘lgan. SHaharda kulolchilik, o‘q-yoy, gazlama, gilam, chodir. hamda charm mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlangan.

10-asr oxiri 12 asr o‘rtalarida Choch Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirdi. 1214—15 yillarda Muhammad Xorazmshoh qoraxitoylar qo‘shini hamda naymanlar xoni Kuchluq bilan jang qilib, SHosh viloyatini ulardan tortib oldi va viloyat dushmanlar qo‘liga o‘tmasligi uchun SHosh markazi aholisini ko‘chirtirib yubordi. SHu bois mo‘g‘ullar 1220 yilda shaharni qarshiliksiz qo‘lga kiritgan bo‘lishi mumkin. Juvayniyning mo‘g‘ullar bosqini haqidagi xabarida Toshkent shahri tilga olinmagan. 13—14-asrning 1-yarmida Toshkent viloyati Chig‘atoy ulusi tarkibida, 14-asrning 2-yarmi — 15-asrning 80-y.larigacha Toshkent Amir Temur va Temuriylar tarkibida bo‘ldi. 1404 yil da Ulug‘bek ixtiyoriga mulk tarzida berildi. Bu davrda shahar voha bilan dasht chegarasidagi kuchli qal‘aga aylandi, uning hududi kengaydi, ishlab chiqarish savdo-sotiq, madaniyat rivojlandi. Registon, Shayxontohur ansamblidagi maqbaralar, Jome masjidi va boshqalar qurildi. Arxeologik topilmalar, me’moriy obidalar mahalliy an‘analarning qo‘shni Sharq mamlakatlari madaniyati bilan uyg‘unlashib ketganligini ko‘rsatadi. Temuriylar urtasida boshlangan taxt uchun kurash natijasida Toshkent 1485 y.da Mo‘g‘iliston xoni Yunusxon ixtiyoriga o‘tdi va uning qarorgohiga aylandi. Lekin, u kup hukmronlik qilmay, 1487 yilda Toshkentda vafot etdi. Yunusxonidan keyin taxtga uning o‘g‘li Sultan Mahmudxon o‘tirdi. Uning hukmronligi ham ko‘pga bormadi. Toshkent 1503 yilda Shayboniyxon va

Ko'chkunchixon tasarrufiga o'tdi. 16-asrda Toshkent yana obodonlashib, Turkistonning hunarmandlik, savdo-sotiq va madaniy markazlaridan biriga aylandi. Shahar yangi devor bilan o'raldi. Me'morlik obidalari qad ko'tardi, ularning ayrimlari (Shayx Xovandi Tohur maqbarasi, Ko'kaldosh madrasasi, Baroqxon madrasasi) bizning davrimizgacha etib kelgan. Hunarmandlikning taraqqiyoti savdo-sotiq aloqalarining kengayishiga olib keldi. 1558 yilda Toshkent qirg'iz-qaysoqlar qamaliga bardosh berdi.

16-asrning 2-yarmida Qozon va Astraxon xonliklarining Rus davlatiga bo'ysundirilishi natijasida Toshkent bilan Moskva o'rtasida savdo aloqasi rivojlandi, har ikki tomon bir-biriga elchilar yubordi. 1579 yilda Toshkentni Buxoro xoni Abdullaxon II bosib oldi. 1588 yilda shahar aholisi Abdullaxon II ning noibi, Toshkent viloyatining hokimi O'zbekka qarshi isyon ko'targan. Lekin, ko'p o'tmay isyon bostirildi. 1597 yilda shaharni Tavakkalxon (1598 y. v. e.) bosib oldi. Oz fursat o'tmay Toshkent yana Buxoro xonligiga o'tdi. Ashtarkoniylardan Imomqulixon qozoqlarni tormor keltirib, 1611 yilda o'g'li Iskandarni Toshkentga noib qilib tayinladi. Biroq shahar aholisi isyon ko'tarib, qochib ketayotgan Iskandarni tutib o'ldirdi. Bundan g'azablangan Imomqulixon Toshkent aholisidan shafqatsiz o'ch olib, ularni qirg'in (qatliom) qildi.

1723 yilda Toshkent Jung'ar xoni Gaddan-Siren qo'liga o'tdi. Bu davrda Toshkent aholisi tokchilik, bog'dorchilik hamda poliz ekinlari, bug'doy, tariq, arpa, suli, zig'ir, kunjut etishtirish bilan shug'ullanardi. Shahar rastalarida ipak mato, ip gazlama, zarbof kiyimlar ko'p bo'lган. Rus savdogarlar Toshkentga movut, kunduz terisi va turli bo'yoqlar keltirishgan. Toshkent bilan Balx, Xiva, Buxoro, Samarkand, Ko'lob, Shahrисabz va boshqalar shaharlar o'rtasida savdo-sotiq rivojlangan. Pul muomalasi bu davrda ham hali yaxshi taraqqiy qilmagan edi. Toshkent aholisiga don va qoramol bilan to'lanadigan maxsus soliq (hosilning 1/10-1/5 ulushi) solingan. Toshkent Jung'ariya xonligi barham topgandan keyin (1758) Katta O'rda va kalmoklarning hujumlari natijasida ko'p zarar ko'rdi.

18-asr o'rtalarida garchi shahar qo'ldan-qo'lga o'tib turgan bo'lsada, Toshkent 4 daha (qism)ga — Shayxontohur, Sebzor (Qaffoli Shoshiy), Ko'kcha (Shayx Zayniddin), Besheg'och (Zangiota) dahalariga bo'linib, ularning har birini mustaqil hokim boshqargan. Toshkent tarixida bu davr Chorhokimlik deb atalgan. Shaharni boshqarish bo'yicha barcha ma'muriy lavozimlarga Toshkentning boy savdogar va aslzodalari tomonidan ko'rsatilgan shaxslar tayinlangan.

Hokimlar tashqi bosqinlarga qarshi kurashish uchun navbat bilan qo'shin ajratganlar. Muhim masalalar ham birgalikda hal qilingan. Hokimliklar urtasida shaharda hukmron bo'lish uchun ba'zan to'qnashuvlar bo'lib turgan. Bunday to'qnashuvlar sababli yuzaga kelgan notinchlik davri deyarli chorak asr davom etgan. Ayrim vaqtarda butun shahar hududi jang maidoniga aylangan. Lekin, 4 daha hokimlarining o'zaro to'qnashuvlari asosan, shaharning Janggoh, Labzak arig'i bo'yida («Jangob») bo'lган. O'zaro to'qnashuvlarga shahar aholisi ham jalb etilgan. Faqat Eski juva bozori betaraf joy hisoblanib, notinchlik vaqtida ham savdo-sotiq davom etgan. Chorhokimlik davrida Toshkent aholisi atrofdagi shahar va qishloqlar, Dashti Qipchoqning chorvador aholisi hamda Sibir bilan savdo aloqalarini uzmag'an. Rossiya bilan savdo-sotiqni rivojlantirish maqsadida 1779 yilda Toshkentdan Tobolsk shaxriga elchilik missiyasi jo'natilgan. Biroq, bu davrda Toshkentdag'i ichki ziddiyatlar va notinchliklardan foydalangan ko'chmanchilar shaharga bir necha marta hujum qildilar. Natijada shahar atrofidagi bog'lar, dehqonchilik dalalari payhon qilindi. Umuman olganda chorhokimlik davri Toshkent hayoti xo'jaligining tushkunlik davri bo'ldi. Shu bois savdo-hunar-mandchilik ahlining ilg'or fikrli vakillari o'rtasida shaharni yagona hokim qo'l ostida birlashtirish g'oyalari vujudga keldi. Shu davrda shahar yaxlit tashqi devor bilan o'ralgan va uning uzunligi 14 km, darvozalar soni 12 ta edi.

1784 yilda Shayxontohur dahasi hokimi Yunusxo'ja qolgan 3 daha hokimligini ham o'z tasarrufiga olib, mustaqil Toshkent davlatini tashkil etdi. Bir necha harbiy yurishlardan keyin u Katta O'rdadan

Toshkent atrofidagi qishloqlarni qaytarib olishga, Toshkent aholisiga tinchlik bermayotgan ko‘chmanchi juz qabilalarini bo‘ysundirishga muvaffaq bo‘ldi. 1799 yilda Qo‘qon qo‘shinlari Toshkentni qamal qildi, ammo toshkentliklarning kuchli zarbasiga uchrab orqaga qaytdi.

Toshkent davlati tashqi kuchlar, ayniqsa, Qo‘qon xonlari tazyiqida bo‘lsada, 20 yildan ziyod umr ko‘rdi.

Toshkent davlati markazlashgan davlat sifatida bo‘lib, uning ma’muriyatini «voliy viloyat» lavozimi bilan Yunusxo‘ja boshqardi. Keyinroq Yunusxo‘ja «Xazrati Eshon» unvonini olib, ayni paytda «xon» deb ham yuritildi. Yunusxo‘ja huzurida tuzilgan «xon kengashi»ga 4 daha mingboshilari, oqsoqollari va boshqalar kiritilgan. Kengashda, asosan, daha va ulus boshqaruvi hamda harbiy masalalar muhokama etilib bir echimga kelingan. Davlatning ichki va tashqi siyosatini devonbegi, qozi va raislar amalga oshirganlar. O‘ta jiddiy masalalar: o‘g‘irlilik, qotillik va boshqalarni Yunusxo‘janing o‘zi hal etib, aybdorga tegishli jazo berilgan; qotillarga esa o‘lim jazosi qo‘llanilgan. Xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalarni ham Yunusxo‘janing o‘zi olib borgan.

Anhorning o‘ng tarafida xon farmoni bilan baland va qalin devor o‘ralgan O‘rda, ya’ni davlat mahkamasi bino qilingan. Unda Yunusxonning qarorgohi va devonxonadan tashqari zARBxona joylashgan. O‘rdani qo‘riqlash va muhofaza etish uchun 2 ming kishilik qo‘shin bo‘lgan.

Toshkentlik tarixchi Muhammad Solihning ma’lumotiga ko‘ra, otaliq — devonbegi lavozimiga Rustamto‘ra, par-vonachi lavozimiga Odilto‘ra, bosh harbiy amir lavozimiga Sarimsoqto‘ra, qo‘shin boshlig‘i lavozimiga Boboxon-to‘ralar tayinlangan. Davlatning moliya ishlari b-n boshchixo‘ja shug‘ullangan. U ichki va tashqi savdo ishlarini na-zorat qilgan.

Yunusxon shimolda Toshkentga tutashgan Dashti Qipchoq hududini ham tasarrufiga olib, aholisiga ziddiyatli vaqtarda zaruriy sondagi lashkar to‘plab berish majburiyatini yuklagan. Chimkent va Sayram shaxarlari, keyinchalik Turkiston shaxri ham Toshkent davlati tarkibiga kiritilgan. Niyozbek, Oltintepa, Qorabuloq, Sarapon, Temir mavzelari va bilan o‘nlab qishloqlar Toshkentga tobe bo‘lgan.

1800 yilda Toshkent davlatining chegarasi janub va g‘arbdan Sirdaryo bo‘ylab, shimoldan Turkiston va Qoratog‘ yon bag‘irlari orqali o‘tgan. Sharqda Sayram tizmasi va Ugom daryosining o‘ng sohili, janubiy-Sharqda Chatqol-Qurama tog‘ tizmalarini yoqalab Sangir qishlog‘igacha cho‘zilgan. Uning Shimoliy va g‘arbiy hududlarida, asosan, chorvador ko‘chmanchi aholi yashagan. 1797 yil ma’lumotlariga qaraganda, barcha soliq va majburiatlardan ozod, er va suv bilan ta‘minlangan 2 ming doimiy qora-qozondan tashqari Yunusxon ixtiyorida 50—70 ming atrofida lashkar bo‘lgan.

Toshkent shaxri seysmik jihatdan faol zona (8—9 balli seysmik rayon)da joylashgan. 1866—68 yillar va 1966 yildagi zilzilalar kuchli zilzilalar sirasiga kiradi. 1866 y. 26 apreldan 27 aprelga o‘tar kechasi sodir bo‘lgan zilzila oqibatida mozor va jome masjidlarining gumbazlari, jumladan, Xoja Ahror jome masjidi gumbazi, aholi yashaydigan imoratlar qulab, ko‘plab qurbanlar bo‘lgan. 1966 yilgi Zilzila natijasida 2 mln. m² dan ortiq turar joy, 236 ma’muriy bino, 700 ga yaqin savdo va umumiyy ovqatlanish joylari, 26 kommunal xo‘jalik korxonasi, qariyb 180 o‘quv yurti, shu jumladan, 8 ming o‘rinli maktab, 36 madaniy maishiy muassasa, 185 tibbiy va 245 sanoat korxonasi binolari zarar ko‘rdi. 78 ming oila, 300 ming kishi boshpanasiz qoldi, 8 kishi halok bo‘lib, 150 ga yaqin kishi jarohatlangan.

9-Mavzu: Farg‘ona, Yettisuv va Janubiy Qozog‘iston o‘rta asr shaharlari urbanizasiyasi. (4

soat)

Reja

1. Farg‘ona vodiysi haqida umumiyy ma’lumot.

2. Qadimgi Farg‘ona shaxarlari urbanizatsiyasi. Dalvarzin, Ershi, SHo‘rabashat, Uchqo‘rg‘on. Axsikent.
3. O‘rta asr Farg‘ona vodiysi shaharlari urbanizatsiyasi. Koson, Axsikat (Xushkat) va Quva (Qubo) Osh, O‘zgan, Xo‘jand, Andijon, Qo‘qon, Marg‘ilon shaxarlari.
4. Janubiy Qozog‘iston shaxarlari urbanizatsiyasi. Taroz, O‘tror, Sayram-Isfijob, Sig‘noq. Ettisuv-Jetisuv

Tayanch so‘z va iboralar: O‘rta Osiyo, antik davr, Farg‘ona vodiysi, Andijon, Namangan, Farg‘ona, Ershi, Dovon davlati, Eylaton, Sho‘rabashad, Dalvarzin, Chust madaniyati, Aksi, Axsikent, Qubo, Uchqo‘rg‘on, Uchtepa, ilk o‘rta asrlar, o‘rta asrlar, qadimgi shahar, shaharsozlik, shahar, shahar tushunchasi, sivilizatsiya, madaniyat, davlatchilik, urbanizatsiya, moddiy madaniyat, arxeologik yodgorlik, arxeologiya.

Adabiyotlar:

- 1.Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.
3. Asqarov A. Eng qadimgi shahar. T., 2000.
4. Asqarov A.A., Shirinov T.Sh. Rannyaya gorodskaya kultura epoxi bronzsi Sredney Azii. Samarqand. 1993.
5. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. –Toshkent. “O’ZBEKISTON”. 2015. 670 b.
6. Sagdullaev A.S. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘qituvchi, 1996.
7. Sagdullaev A.S. Qadimgi O‘rta Osiyo tarixi. O‘quv qo‘llanma. T., 2004.
- 8.Sagdullaev A. va boshq, O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent. Akademiya, 2000.
9. Matbabaev B.X.,Mashrabov Z.Z. Andijon tarixi.(Qadimgi davrlardan XX asr boshlarigacha) – Toshkent.: “Sharq”.2014.-B.280.
10. Matboboev B.X. O‘zbek davlatchiligining ilk bosqichlarida Farg‘ona // O‘zbek davlatchiligi tarixida qadimgi Farg‘ona. – Namangan, 2001.
- 11.Eshov.B. Sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. – Toshkent: Zar qalam, 2004; 126 b.
12. Eshov B.J. O‘rta Osyoning qadimgi shaharlari tarixi. Darslik. Toshkent. 2008.
13. Eshov B.J. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. - T.: Yangi asr avlod, 2012.-B.556.

Farg‘ona vodiysi — O‘rta Osiyodagi tog‘lar orasida joylashgan vodiy, O‘rta Osyoning yirik tog‘ oralig‘i (soylig) botiqlaridan biri. Shimolda Tyanshan va janubda Hisor-Olay tog‘ tizmalari bilan o‘ralgan. Asosan, O‘zbekiston, qisman Qirg‘iziston va Tojikistoi Respublikalari hududi kiradi. G‘arbda tor yo‘lak (eni 8—10 km) «Xo‘jand darvozasi» orqali Toshkent—Mirzacho‘l botig‘i bilan tutashgan. Uzunligi 300 km, eni 60—120 km, eng keng joyi 170 km, maydoni 22 ming km². Balandligi, g‘arbda 330 m, Sharqda 1000 m. Uning umumiy tuzilishi ellips (bodom)simon ko‘riniшda. G‘arbdan Sharqqa kengayib boradi.

Andijon viloyati - O‘zR tarkibidagi viloyat. Farg‘ona vodiysining Sharqiy qismida. 1941 y. 6 martda tashkil etilgan. Maydoni 4,2 ming km². Axolisiy 2196,0 ming kishi (2000). 14 qishloq tumani (Andijon, Asaka, Ba-liqchi, Buloqboshi, Bo‘z, Jalaquduq, Izboskan, Marhamat, Oltinko‘l, Paxtaobod, Ulug‘nor, Xo‘jaobod, SHahrixon, Qo‘rg‘ontepa), 11 shahar (Andijon, Asaka, Marhamat, Oxunboboev, Paxtaobod, Poytug‘, Xonobod, Xo‘jaobod, SHah-rixon, Qorasuv, Qo‘rg‘ontepa), 5 shaharcha (Andijon, Bo‘z, Janubiy Olamushuk, Kuyganyor, Polvontosh) va 95 qishloq fuqarolari yig‘ini bor (2000). Markazi — Andijon sh.

Andijon — Andijon viloyatdagi shahar. Viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi. O'zbekistonning yirik industrial shaharlaridan biri. SHahar Farg'ona vodiysining Sharqida. Andijonsoy yoqasida, dengiz sathidan 450 m balandlikda joylashgan. Aholisi 333,4 ming kishi (2000). Maydoni 74,3 km². Andijon shaxri . Shimoliy -g'arbdan Oltinko'l tuman, g'arbdan Buloqboshi tumani va janubiy-Sharqdan Andijon tumani bilan chegaradosh.

Andijon toponomi to'g'risida ayrim manbalarda shahar nomi «andi», «adoq» («azoq») kabi urug' atamalari bilan bog'likligi ko'rsatilgan. Bir vaqtlar bu erda andilar (hindlar) yashagan va shaharning nomi «Andukon» deb atalgan, degan rivoyat ham bor. O'rta asrlar (IX-XVI) davri tarixini yorituvchi bir necha yozma manbalar mavjud. SHahar nomi X asrdan keyingi yozma manbalarda «Andukan», «Andugan», «Andigan», «Andikan» ko'rinishlarida uchraydi. «Andijon» toponomikasi xususida ko'plab fikr va mulohazalar bor. Uzoq yillardan beri bu borada ilmiy izlanishlar olib borayotgan S.Jalilov fikricha, «Andijon» nomi «adoq» so'zidan olingen bo'lishi kerak. CHunki «Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy» kitobida «Adoq -Turkistonda voqe' Andijon shahrining ismi qadimiysidir» deb yozilgan. Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'atit-turk» asarida «Azg'ish (Adg'ish)» joy nomi deyilgan. Bularning barchasida «ad» o'zagi bo'lib, u «adok», «azoq» ma'nosidagi o'zbeklarning 92 urug'idan birining qadimgi turkcha nomidan kelib chiqqan.

Eng katta yodgorliklari: Dalvarzin (Andijon viloyati Jalolquduq tumani) (25 hektar), Ashqoltepa (Jalolquduk tumanida, Dalvarzin yaqinida) - 13 hektar, Chust (Buonomozor) - 5 hektar. Sug'orma dehqonchilik va qisman xonaki chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Tarixiy jihatdan so'nggi bronza va ilk temir davriga to'g'ri keladi.

Dalvarzin shahar xarobasi (mil. avv. XII—VII asrlar) - Andijon viloyati Jalolquduq tumani Oyim fukarolar yig'ini Dalvarzin mahallasi yaqinida joylashgan olamga mashhur arxeologik yodgorlik. YOdgorlikni 1952 yili YU.Zadneprovskiy aniqlagan va olim 16 yil davomida muntazam arxeologik qazishma ishlari olib borgan. 2003-2005 yillari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti bilan Bobur Xalqaro jamg'armasi hamkorlikda qayta qazishmalar o'tkazdilar. Qazishmalarga ko'ra, Dalvarzin maydoni 25 hektar va u uch qismidan iborat

1. Hukmdorlar yashagan ark - 2 hektar;
2. Aholining asosiy yashash joyi -18 hektar;
3. Mol-qo'y saqlaydigan yoki atrof aholi uchun janjal-suronli kezlarda panagoh - 5 hektar.

Dalvarzin arki nafaqat O'zbekiston, balki O'rta Osiyoda ham eng ko'hna ark hisoblanadi. Har bir qism alohida mudofaa devorlari bilan o'rab olingen. Ularning qalinligi 4-6 metr, balandligi 2,5 metrga boradi.

Dalvarzin ko'plab belgilariga ko'ra vodiyning eng qadimgi va O'rta Osiyodagi qadimgi shaharlardan biri hisoblanadi. Bu belgilarni quyidagilardir: maydoni katta - 25 hektar, murakkab tuzilgan va uch kator devor bilan o'rab olingen, alohida arkka e'tibor qaratilgan, hunarmandchilik yaxshi rivojlangan. Bu shahar kamida 300-400 yil Fargonaning madaniy, hunarmandchilik va savdo markazi bo'lib xizmat qilgan. Dalvarzinni vodiyning eng qadimgi shahri ekanligi akademiklardan A.Asqarov, YU.Buryakov, professorlardan T. Shirinov, A.Sagdullaev va xorijdagisi olim N.Negmatov kabi mutaxassislar tomonidan tan olingen.

Eylaton madaniyati (ayrim hollarda Eylaton - Oqtom nomi bilan ataladi) mil. avv. VII—VI—III asrlar bilan belgilanadi. Vodiya 40 dan ortiq arxeologik yodgorlik aniqlangan bo'lsada, ularning aksariyatini mozorqo'rg'onlar tashkil etadi. B.Latinin, Yu.Zadneprovskiy, T Obolduevalar arxeologik qazishmalar o'tkazganlar. Simtepa, Sho'rakashot, Quvada madaniy qatlamlar bilan kam miqdorda topilmalar aniqlangan. Faqat Eylaton va Andijondagi Sarvontepada qalin qatlamlar bilan gulli sopollar qayd etilgan va Shuning uchun bu yodgorliklar vaqt jihatidan oldingilardan qadimgiroq davrga to'g'ri keladi.

Andijon shahridagi Sarvontepa Eylaton madaniyati vodiy tarixidagi tutgan o'rni haqida yangi fikrlar aytish uchun yangi daliliy ashyolarni berdi.

Axoli asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Biroq bu davrda chorvachilik roli bir oz ortadi. Tarixiy jihatdan ilk temir davriga to'g'ri keladi.

Eylaton shahar xarobasi (mil. avv. VI-III asrlar) (mahalliy aholi Shahri Haybar deb ham ataydi) — Andijon viloyati Izboskan tumanining Yangiqishloq fuqarolar yig'ini Eylaton mahallasi yaqinida joylashgan.

Uni 1932 yili B.Latinin aniqlagan, yodgorlikda Yu.Zadneprovskiy, T Obolduevalar ko'p ishlar qilganlar. Yirik shahar xarobasi bo'lmish Eylaton ikki qismidan iborat Tashqi shahar maydoni 200 hektar bo'lib, birinchi mudofaa devori bilan o'rالgan. Uning ichida 40 hektar joyda ichki shahar bo'lib, u ikkinchi mudofaa devori bilan o'rab olingan.

Mudofaa devorlari kuzatuv minoralari bilan mustahkamlangan. Mudofaa devorlari kalinligi 4 metr, balandligi 2,5 metrga boradi. Kuzatuv minoralari har 50-60 metrda joylashgan. Eylaton ushbu davr uchun hozircha ma'lum bo'lgan eng katta yodgorlik bo'lib, arxeologiya fanida butun bir madaniyat nomini olgan.

Eylaton yodgorligiga davriy va qatlamlar xususiyatlari bo'yicha eng yaqini esa Andijon Eski shahar qismidan topilgan Sarvontepa hisoblanadi. Buning ustiga Eylaton va Andijon bir hududda - Qoradaryo havzasida joylashgan. Eylatonni miloddan avv. VI—V—III asrlarda, ya'ni Dalvarzin tanazzulga yuz tutgandan keyingi davr uchun Fargona vodiysining o'ziga xos iqtisodiy, savdo va ma'muriy boshqaruv markazi bo'lib qolgan deyish mumkin.

Marhamat madaniyati (milodiy I-IV asrlar) yodgorliklari soni keskin ortadi, ular taxminan 500-600 taga etadi. Yirik yodgorliklari Mingtepa (38 hektar), Uchqo'rg'on (12 hektar), Qaynovot (15 hektar) Andijon viloyatining deyarli barcha hududida bu madaniyatning arxeologik yodgorliklari aniqlangan va ular Davan podsholigi gullagan vaqtiga to'g'ri keladi.

Xitoy yozma manbalarida tilga olingen Ershi shahri deb ko'pchilik arxeolog-tarixchilar tomonidan (A.Bernshtam, YU Zadneprovskiy, N.Gorbunova) tan olingen. Olimlarning bu xulosaga kelishining sababi Mingtepaning maydoni murakkab va mukammal tuzilgan ikki qator mudofaa devorlari bo'lgan. Bunday yodgorlik ushbu davr uchun vodiyya hozircha ma'lum emas. Arxeologik jihatdan Mingtepa ichki va tashqi shaharlardan iborat bo'lib, hozirda ichki shahar (38 hektar) saqlangan, xolos. Madaniy qatlamlar qalinligi 10 metrdan ziyod. Hozirda Mingtepaning mukammal devorlari burjlar bilan birga yaxshi saqlanib qolgan. Mudofaa devorlari qalinligi quyida 7 metrdan, yuqori qismida 4 metrdan ortadi, balandligi (saqlangani) 4 metr. Bu o'lchamlardan kelib chiqib, mudofaa devorlari mahobatini anglash mumkin. Devorning har 35-40 metrida kuzatuv minoralari saqlangan: ulardan 4 tasi markaziy, kamida 60 tasi oraliq kuzatuv minoralari hisoblanadi.

O'tgan asrning 50-yillarida tuzilgan rejaga ko'ra tashqi mudofaa devor ham shunday mukammal bo'lgan. SHundan bo'lsa kerak, bu shaharni Xitoy armiyasi ikki marta qamal qilib ham qo'lga krita olmagan.

Ta'kidlash joizki, shaharda arxeologik qazishmalar ancha vaqtadan buyon olib borilmoqda. Hisoblarga ko'ra, shaharda xozirgacha qariyb 20 mavsumda arxeologik qazishma-kuzatuv ishlari olib borilgan. Ulardagi arxeologik tadqiqotlar natijasiga kelsak, 2000 yilgacha shahardagi eng qadimgi qatlam so'nggi antik va ilk o'rta asrlarga tegishli edi. Asosiy e'tibor o'rta asrlardagi Andijon arki va shaxristoni atrofidagi hududlarni o'rganishga qaratilgandi. Barcha ko'hna shaharlardagi kabi Andijonning Eski shahar qismidagi arxeologik yodgorliklar buzib yuborilgan yoki keyingi davrlar qatlamlari ostida qolib ketgan, buning oqibatida arxeologik tekshirish ishlari olib borish juda qiyin kechmoqda. Shunga qaramay, keyingi yillarda, asta-sekin bo'lsa-da, arxeologik topilmalar ko'lamni ortib bordi. Ayniqsa, 2000 yildan buyon O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademik Yahyo G'ulomov

nomidagi Arxeologiya institutining Bobur xalqaro fondi tashabbusi va yordami bilan hamkorlikda qilingan ishlari yaxshi natijalar bermoqda. Bu ishlarda Andijon davlat universiteti Tarix fakulteti talabalari, O‘zbekiston tarixi kafedrasi olimlari, magistrantlari ham qatnashmokda.

Andijonni arxeologik o‘rganishda asosiy e’tibor hozirda mavjud yoki buzilib ketgan yodgorliklar o‘rnini aniqlashga qaratilgan. Buning uchun 1893, 1913 yillari olingan Andijonni tarixiy-topografik kartasini va ayrim yozma manbalardagi xabarlarni shahardagi saqlangan arxeologik yodgorliklar bilan solishtirib o‘rganildi. Buning natijasida hozirgi shahar o‘ramida 8 ta arxeologik ob’ekt, 11 ta shahar qabristoni, 39 ta masjid bo‘lganligi qayd etildi. Andijon shahridagi ushbu yodgorliklarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Arxeologik jihatdan, ya’ni moddiy-madaniy qatlamlar qayd etilgan yodgorliklar: bularga Chordona (T.Keldiev ko‘chasi), Sarvontepa (Sujoat va Tutzor ko‘chalari), Qo‘shtepa I, II (Shahrixon ko‘chasi), Yakkatepa (Dalvarzin ko‘chasi), Ganchtepa-Ugrayor (xozirgi uysozlik kombinati yaqinida), Kultepa (Kyultepa, hozirgi viloyat Hokimligi binosi o‘rni va uning atroflari), ark va shahristonlar o‘rni kiradi.

2. Arxeologik qazishmalar o‘tkazilmagan, lekin sopol parchalari topilgan yodgorliklar. Bular Qoraqo‘rg‘on (xalq ta’limi boshqarmasi bazasi), Avg‘onbog‘, Oqgo‘r, Mushktepa va O‘razonteia (Mehnat ko‘chasi

Ushbu ob’ektlar orasida birinchi guruhga mansub yodgorliklardan CHordonada, Sarvontepada (Tutzor va Sujoat ko‘chalari kesishgan joyda), YAkkatepada (Dalvarzin ko‘chasi, 67-69-uylar oralig‘ida), Qo‘shtepada (SHahrixon ko‘chasining juft nomerli uylar boshlanishida), Ark ichida (Tashkilot ko‘chasi dagi 41-42-uylar oralig‘ida), SHahristonda (Haqiqat ko‘chasi dagi 13-uy) 4 ta qazishma va 10 ga yaqin shurf solindi. 2000-2004 yillarda olib borilgan arxeologik tekshirishlarda shahar tarixi, ayniqsa, qadimgi davriga oid yangi ma’lumotlar olindi. Ushbu ma’lumotlar va bizgacha olib borilgan arxeologik qazishmalar materiallaridan kelib chiqib, Andijon shahrining paydo bo‘lishi va rivojlanishi bosqichlarini arxeologik materiallar asosida quyidagi asosiy bosqichlarga bo‘lish mumkin:

I bosqich. Shaharning eng qadimgi davriga Tutzor va Sujoat ko‘chalari kesishgan erda joylashgan Sarvontepa hududida aniqlangan Eylaton madaniyatiga xos yangi arxeologik kompleks kiradi

Eylaton I, II bosqichlarga ajratildi. Ilk bosqichda (Eylaton I) ko‘lda yopma usulda yasalgan sopol buyumlar, ba’zilari ustiga bo‘yoq bilan gul solingan, ayrim hollarda kulolchilik charxida yasalgan idishlar uchraydi, biroq ubti qizil angobli charxda yasalgan sopol namunalari yo‘q. Bu kompleks miloddan avvalgi VI-V asrlar bilan belgilanishi mumkin. Keyingi Eylalon II bosqichida kulolchilik charxida tayyorlangan sopol idishlar paydo bo‘ladi, charxsiz yasalgan idishlar ham keng iste’molda qolaveradi va ular sirtiga bo‘yoq bilan naqsh solish uchramaydi. Bu topilmalar mil. avv. IV-III asrlarga taalluqli. Arxeologik tekshirish natijalariga ko‘ra, Sarvontepa kompleksi Tutzor va Sujoat ko‘chalari va ular yaqinidagi shaxsiy uylar, hovlilar ostida 1 gektardan ko‘proq maydonni, 15 gektargacha maydonni egallaydi. Bunday madaniy qatlamlar hozircha Farg‘ona vodiysidagi birorta tarixiy shahar ostidan topilganicha yo‘q. Andijon shahridan mil. avv. IV-III asrlarga oid arxeologik majmua topilishining uch muhim jihatni bor. Birinchidan, shaharning Sarvontepa hududida shahar o‘zagi (yadroasi) tarkib topganidan va bundan 2300-2600 yil oldin shaharning Eski shahar qismida qadimgi dehqonlar va xunarmandlarning dastlabki aholi punktlari mavjud bo‘lganini isbotlaydi. Ikkinchidan, bu yodgorlikning topilishi shaharni suv bilan ta’minlanish masalasiga oydinlik kiritadi. YA’ni bu fakt Andijonsoy kechi bilan mil. avv. IV-III asrlarda sun’iy kanal sifatida mavjud edi deyishga arxeologik asos bo‘ladi

Uchinchidan, shaharning qadimgi qismini uning Sharqidan izlash mumkin degan avvalgi fikrga

tuzatish kiritib, qadimgi shahar qoldiqlari hozirgi Andijonning janubi-g'arbiy (janubiy) tarafida yoki markazida edi degan xulosaga olib keladi. Bularning barchasi Andijon shahrining «eng kadimgi o'zagi (yadrosi)» Sarvontepa edi deyishga asos bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, bu nuqtada avval Sarvontepada va uning asosida vodiyning eng katta shaharlaridan birining paydo bo'lishi bejiz emas edi. Bizningcha, Sirdaryoning eng katta ikki irmog'idan biri bo'lmish Qoradaryoning yuqori va o'rta oqimlaridagi kulay geografik shart-sharoitlar Farg'ona vodiysidagi eng qadimgi dehqonchilik madaniyati va uning zaminida ilk shaharlarning paydo bo'lishida turtki bo'lgan bo'lsa, ajab emas.

Chunki Qoradaryo va uning irmoqlari bo'yalaridagi hududlarda bronza va ilk temir davrining eng qadimgi yirik dexqonchilik vohalarida ilk shaharlar, mil. avv. VIII-VII asrlarda esa vox'a davlatchiligi belgilari arxeologik jihatdan qayd etilgan. Bularga Dalvarzin, Ashqaltepa, Axshar (mil. avv. II mingyillikning oxirgi choragi - mil. avv. I mingyillikning birinchi choragi), Eylaton shahar xarobasi, Sarvontepa (mil. avv. VI-III asrlar) kabilalar kiradi. Bulardan Jalolquduq tumani Oyim kishlog'ining shimoli-Sharqiy qismida joylashgan Dalvarzin aksariyat tarixchi-arxeologlar tomonidan «vodiydagi eng qadimgi shahar» deb tan olinmoqda. Bu fikrning to'g'riligini yodgorlikda o'tgan asrning 80-yillarigacha olib borilgan va hozirda davom ettirilayotgan arxeologik qazishmalar natijalari tasdiqlamokda. Dalvarzinda ilk shaharlarga taalluqli ko'plab belgilari mayjud.

Ilk temir davrida shakllangan (mil. avv. VI—V asrlar) va ilk antik davrda rivojlangan (mil. avv. VI-V asrlar) Eylaton shahar xarobasi (maydoni 200 hektar) ham vodiydagi urbanistik jarayonlarning keyingi rivojida aktiv rol o'ynagan. Sarvontepa va Eylaton davriy jihatdan bir vaqtga to'g'ri keladi. Demak, Andijon «Farg'ona ilk sivilizatsiyasi» makonlari zanjiridagi hududda joylashgan bo'lib, uni vodiydagi eng qadimgi shaharlar sirasiga kiritish mumkin. Chunki bu shahar vodiydagi ilk dehqonchilik makonlari va dastlabki shaharlar aniqlangan xududda joylashgan, Shuning uchun Andijonni qadimgi shaharlar katoriga kiritish tarixiy hakiqatga zid emas. Bu borada, ayniqsa, shaharning janubi-g'arbiy yoki markaziy qismidagi yodgorliklarni arxeologik o'rganish kutilganidan ham yaxshi natijalar bermoqda.

II bosqich. Qadimgi davrga xronologik jihatdan mil. avv. asrlar oxiri va milodiy eraning dastlabki asrlari kiradi. Bu davr arxeologik materiallari Sarvontepa, Chordona, Ganchtepa, Qo'shstepe yodgorliklarida qayd etildi. Biroq milodiy II-III asrlar materiallari Andijon shahar doirasida juda kam, hozircha buning sababi noma'lum bo'lib qolmoqda. Holbuki, bu davrda qadimgi Farg'ona vodiysidagi Davan davlati gullagan va 70 dan ortiq katta-kichik shaharlari (bular bir qismi balki yirik qal'ali qishloqlar) bo'lgani Xitoy yozma manbalarida ta'kidlangan. Bu davlat poytaxti Ershi shahri (xozirgi Marhamat tumani markazidagi Mingtepa xarobasi) Andijon shahridan 28-30 kilometr janubda joylashgan va aksariyat farg'onashunos tarixchi-arxeologlar tomonidan tan olingan.

III bosqich. Ilk o'rta asrlarda (V-VIII asrlar) shahar hududi kengaygan. Chunki shahar atrofida badavlat dehqonzodalarning qal'a-qo'rg'onlari paydo bo'ladi. Bu tarixiy davr arxeologik jihatdan Chordona, Sarvontepa, Yakkatepada aniqlandi. Ilk o'rta asr komplekslari - asosan boy kulolchilik mahsulotlari davriy jihatdan ikkiga. V-VI va VII-VIII asrlarga bo'lindi. Bu davr qatlamlaridan qadimgi turkiylar tamg'asi tushirilgan sopol parchasi topildi

Namangan viloyati - 1941 y. 2 martda tashkil etilgan (1960 y. 25 yanvarda Andijon va Farg'ona viloyatlari tarkibiga qo'shib yuborilgan. 1967 y. 18 dekabrda qayta tashkil etildi). Namangan viloyati respublikaning Sharqida, Farg'ona vodiysining shim-g'arbiy qismida, Tyanshan tog' tizmasi tarmoqyaari — Qurama va Chatqol tog'larining yon bag'rida joylashgan. SHim. va shim-Sharqdan Qirg'iziston Respublikasining Jalolobod viloyati, jan-Sharqdan Andijon, janubdan Farg'ona, shim va shim-g'arbdan Toshkent viloyati va Tojikistonning Sug'd viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 7,44 ming km². Aholisi 1982,7 ming kishi (2002). Namangan viloyatida 11 qishloq tumani (Kosonsoy,

Mingbuloq, Namangan, Norin, Pop, To‘raqo‘rg‘on, Uychi, Uchqo‘rg‘on, Chortoq, Chuet, Yangiqo‘rg‘op), 8 shahar (Namangan, Kosonsoy, Pop, To‘raqo‘rg‘on, Uchqo‘rg‘on, Chortoq, Chuet, Xaqqulobod), 11 shaharcha (Jomasho‘y, Toshbuloq, Navbahor, Oltinkon, Uyg‘ursoy, Chorkesar, Xalqobod, Uychi, O‘nhayat, Yangiqo‘rg‘on, Oqtosh), 99 qishloq fuqarolari yig‘ini bor. Markazi — Namangan shaxri.

Farg‘ona vodiysining qadimgi poytaxti Axsikat (Axsikent) 1620 y.dagi qattiq zilzila natijasida vayron bo‘lganligi sababli, uning aholisi hozirgi Namangan shaxri hududiga ko‘chib o‘tgan. Namangan tuz koni («Namak kon») yaqinida vujudga kelgan bo‘lib, shahar nomi o‘rtalasrlarga oid tarixiy hujjatlarda birinchi marta tilga olinadi. Zahiriddin Bobur o‘zining «Boburnoma» (16-asr.) asarida Namangan qishlog‘i haqida gapirib o‘tgan. V. P. Nalivkinning («Qo‘qon xonligining qisqacha tarixi», Qozon, 1886) yozishicha, Namangan 1643 yilga mansub vaqf hujjatlarida uchraydi. 18-asrda Namangan Qo‘qon xonligiga tobe bo‘lgan.

Axsikat — qadimgi shahar xarobasi. Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Shahand qishlog‘i hududida, Sirdaryoning o‘ng sohilida joylashgan. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, Axsikent shahri mil. av. 3 — 2-asrlarda vujudga kelgan, 9 — 10- asrlarda Farg‘ona vodiysining poytaxti bo‘lgan. 1219 y. mo‘g‘ullar tomonidan butunlay vayron qilingan. Axsikent ning eski o‘rnidan 5 — 7 km g‘arbda bunyod etilgan yangi shahar — Aksi 14— 17-asrlarga oiddir. Axsini arxeologik jihatdan o‘rganish ishlari 19-asr oxirlari — 20- asr boshlaridan boshlangan. 1885 yil N. I. Veselovskiy, 1914 yilda, I.A. Kastane qazish va qidiruv ishlari olib borgan. Sovet davrida M. E. Masson (1939) va A. N. Bernshtam (1948)lar tekshirganlar. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Aksi ark, shahriston va raboddan iborat bo‘lganligi, shaharning uch qismi ham alohida devorlar bilan o‘ralganligi, arkda hokim saroyi, zindon, shahristonda ichki bozor, jome masjidi, pishiq g‘ishtdan ishlangan hovuz va ariklar, rabodda hunarmandlar mahallalari va tashqi bozor mavjud bo‘lganligi aniqlangan. Aksi Namangan o‘lkashunoslik muzeyi xodimlari tomonidan ham o‘rganilgan (1957 - 59). 1960 yilda O‘zbekiston FA Tarix va arxeologiya instituti uyushtirgan maxsus ekspeditsiya Aksi rabodidan 11-asrga oid ko‘hna hammom o‘rnini ochgan. U erdan sopol idish, quvur, chaqa tanga va shisha buyumlar topilgan. Bundan tashqari, Aksi xarobalaridan g‘arbroqda o‘rtalasrlarga oid yana bir shahar xarobalari borligi aniqlangan. Akademik Ya. G‘ G‘ulomov va arxeolog I. Ahrorov mazkur tadqiqotlar asosida bu erda turli davrlarga oid ikkita shahar bo‘lganligini, ulardan biri qadimgi Axsikent va ikkinchisi Bobur tug‘ilgan Aksi ekanligini birinchi bo‘lib isbotladilar. 1967 yil rassom I. A. Smirnov Aksi xarobalaridan yig‘ib jamlagan sopol idish, jez buyum va zeb-ziynatlar majmuasini Moskvadagi Sharq xalqlari davlat muzeyiga taqdim etgan. Aksi yodgorligi uzbek xalqi madaniyati tarixida muhim o‘rin tutganligi uchun 1950 yildan davlat muhofazasiga olingan

Chust madaniyati - Farg‘ona vodiysidagi ko‘hna dehqonchilik madaniyati (mil. av. 2-ming yillik oxirgi choragi — 1-ming yillik boshlari). Dehqonlar suv bo‘yidagi unumdon erlarni o‘zlashtirilishiga qarab alohida voha yoki guruh tarzida joylashganlar. Chust madaniyati yodgorliklari, asosan, Farg‘ona vodiysining shim-Sharqiy tumanlarida uchraydi, ularning soni hozirda 80 dan ortiq. Bu madaniyatga taallukli 1-yodgorlik 1950 yil toshkentlik arxeo-loglar M.E.Voronets va V.I.Sprishevskiy lar tomonidan hozirgi Chust shaxri yaqinidan topilgan. Madaniyat nomi shundan (mahalliy aholi Buonomozor deb ataydi). 1953—61 yillarda V. I. Sprishevskiy Chust madaniyatida muntazam arxeologik tekshirish ishlari olib borgan. Chust madaniyatini keyingi o‘rganilishida Sankt-Peterburglik olim Yu.A.Zadneprovskiyning xizmatlari katta bo‘lgan. Chust madaniyatining ayrim yodgorliklarida (Dalvarzin, Chust) mudofaa inshootlari o‘rganilgan. Andijon viloyati, Jalaquduq tumanidagi Dalvarzin vodiysidagi ilk shahar va o‘ziga xos markaz bo‘lgani (mil. av. 12— 7-asrlar) arxeologik jihatdan isbot etilgan.

Hozirgi kunda Chust madaniyatida 3 xil turdag‘i yashash joylari kavlangan: 1) chaylaga

o'xshash engil uylar; 2) erto'lalar; 3) g'isht-paxsadan qilingan uylar. Chust madaniyati sohiblari, asosan, ilk sug'orma dehqonchilik (arpa, bug'doy, tariq), chorvachilik, metall (jez)ga ishlov berish, kulolchilik, to'qimachilik bilan shug'ullanganlar; ovchilik, baliq ovlash ham xo'jalikda muhim rol o'ynagan. Bunga arxeologik yodgorliklarni qazish paytida topilgan jez pichoqlar, bigizlar, metallga ishlov berishda ishlatilgan tosh qoliplar, to'qimachilikda qo'llanilgan suyakdan yasalgan taroqsimon asboblar hamda minglab sopol idishlar guvohlik bermoqda. Uy-ro'zg'or buyumlari ichida, ayniqsa, naqshindor sopol idishlar ajralib turadi. Naqshlar, asosan, geometrik shaklda qora, jigarrang bo'yoq bilan idish sirtiga berilgan. Ayrim hollarda hayvon tasvirlari (echki) ham uchraydi. Chust madaniyati aholisi marhumlarni o'zлari yashab turgan joyga (uy ichiga va ostonalarga) dafn etishgan. Alohida ajratilgan qabristonlar bo'lмаган. Marhumlarni yakka va ko'pchilik qilib g'ujanak holda yon tomon bilan ko'mganlar. Faqat Dalvarzintepada odam suyagi va kallasi alohida, ikkilamchi bor ko'milgani qayd etilgan. Bulardan tashqari, uy hayvonlari ham ba'zida odam suyaklari bilan birga ko'milgan. Hozirda Chust madaniyatining o'ziga xos mahalliy xususiyatlari va qo'shni hududlar [Toshkent vohasidagi Burg'uluq (Burganli)] madaniyati, Janubda O'zbekistonning Kuchuktepa madaniyati bilan aloqalari (B.X.Matboboev) o'rganilmoqda.

Farg'ona viloyati 1938 y. 15 yanv.da tashkil etilgai. Respublikaning Sharqida, Farg'ona vodiysining janubida joylashgan. Shimoldan Namangan, Andijon viloyatlari, janubiy va Sharqdan Qirg'iziston, g'arbdan Tojikiston Respublikalari bilan chegaradosh. Maydoni 6,8 ming km². Aholisi 2815 ming kishi (2004). Tarkibida 15 tuman (Bakdod, Beshariq, Buvayda, Dang'ara, Yozyovon, Oltiariq, Oxunboboev, Rishton, So'x, Toshloq, Uchko'prik, Farg'ona, Furqat, O'zbekiston, Quva), 9 shahar (Beshariq, Marg'ilon, Rishton, Farg'ona, Yayıpan, Quva, Kuvasoy, Qo'qon, Hamza), 10 shaharcha (Bag'dod, Dang'ara, Do'stlik, Yozyovon, Muqimi, Oltiariq, Toshloq, Chimyon, Sho'rsuv, Yangi Marg'ilon), 164 qishloq fuqarolari yig'ini bor (2004). Markazi — Farg'ona shaxri.

Quva — Farg'ona viloyati Quva tumanidagi shahar (1974 y.dan), tuman markazi. Maydoni 0,44 ming km². Farg'ona sh.dan 40 km shim.-Sharqda. YAqin t.y. staniyyasi Quva (4 km). Aholisi 40 ming kishi (2005). Quva Farg'ona vodiysidagi eng qad. shaharlarlan biri. SHaharning vujulga kelishi va nomi haqida turli rivoyatlar mavjud. «Farg'ona tarixi»niig muallifi Ibratning yozishicha, Quva Qubod (yoki Qubo) deb atalib, keyinchalik «Quva» shaklini olgan. Quva va Divan davlati to'g'risida dastlabki ma'lumotlar mil. av. 2-asrga mansub Xitoy manbalarida keltirilgan. O'sha davrda Quva kengayib qo'handiz, shahriston va rabod kabi uch qismdan iborat bo'lgan. Shahar tevaragi ikki qator qalin va baland mudofaa devori bilan o'rالgan. Rabodda baland (3,6 m) yaxlit tagkursi ustida budda ibodatxonasi qad ko'targan. Ibodatxona 8-asr. boshlarida arablar tomonidan vayron qilingan. 9—12-asrlarda Quva Farg'onaning yirik, kurkam va obod shahriga aylangan. Istaxriyning ta'kidlashicha, Kuva kattaligi jihatidan Farg'ona da Axsikatdan keyin ikkinchi shahar hisoblangan. Ibn Havqalning yozishicha, Quva Sayxun (Sirdaryo)gacha etib boradigan nahr sohilida qad ko'targan. Uning markazida Registon maydoni, ko'handizda jome masjidi, rabodida esa saroy, qamoqxona va bozorlari joylashgap. Quva mo'g'ullar istilosini oqibatida vayron etilib, 14—16-asrlarda qasaba shaklidagi maskanga aylangan. Yoqt Hamaviy Quvani katta shahar deb ataydi. SHahar Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asariga ilova qilingan xaritasida ko'rsatilgan. Quvada hunarmandchilik rivojlangan. Temirchilik va shishasozlik yuksak darajaga etgan, shaharning o'z tangasi zarb qilingan. «Boburnoma»-da Quva Andijondan 4 og'och (farsax) narida joylashgan qishloq deb aytildi. Tarixchi A.Muhammadjonovning fikricha, shahar nomi «Qaviybod», «Qavobod» yoki «Qaybod» shakllarida talaffuz etilgan va qaviylarning qarorgohi, tojdar hukmdorning kayoniy taxi o'rnatilgan qasr va mamlakatning bosh shahri — poytaxt ma'nosini anglatgan. Keyinchapik o'zgarib Quva shaklini olgan.

Quvada 1956—60 yillarda Ya.G'ulomov boshchiligidida (V.D.Jukov, I.Ahrorov, V.A.Bulatova,

A.Muhammadjonov, H.Muhamedov, M.Aminjonova) arxeologik qazishma ishlari olib borildi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, o'rta asrlarda Quvaning umumiyligi maydoni 100—120 ga ni tashkil etgan. Shundan shahriston 12 ga va uning shimali-Sharqiy burchagidagi arki a'lo 1 ga maydonni egallagan (shahriston va ark qoldiqlari hozirgacha saqlangan). 1998 y. Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yillik yubileyiga tayyorgarlik ko'rish vaqtida Quvada arxeologik qazishmalar olib borildi. Buning natijasida shahristonning janubiy. mudofaa devori ostidan 8 metr dan ziyod chuqurlikdan mil. av. 2—1 -asrlarga oid moddiy madaniyat buyumlari topildi. 1998 yildagi qazishma ishlari natijasida shaharning uch darvozasi o'rni aniqlandi, shahar xarobasi hududidan turar joy binolari majmuasi va uning shimolda 7—8-asolarga oid budda ibodatxonasi hamda u erdag'i budda ilohchari haykallari topildi.

Quvadan bir qancha mashhur kishilar, xususai, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad al-Quboviy, Rukniddin Quboviy, Muhammad ibn Muhammad al-Quboviy, Abduqa-yum Vaxmiy, SHokirxon Hakimiyya va boshqalar etishib chiqqan.

Qo'qon — Farg'ona viloyatidagi shahar. Farg'ona vodiysining g'arbiy qismida, So'x daryosi (tarmog'i)ning quyi oqimida joylashgan. Temir yo'l staniysi. Qo'qon janubdan Katta Farg'ona kanali o'tadi. Aholisi 211 ming kishi (2004, 1879 y.da 18,4 ming, 1926 y.da 68,4 ming, 1939 y.da 85 ming, 1959 y.da 105 ming, 1979 y.da 158 ming kishi).

Mahalliy tarixchi va arxeologlar orasida shaharning yoshi 2 ming yildan ortiqdegan taxmin mavjud. Qo'qonga oid dastlabki ma'lumotlar 10-asr yozma manbalarida uchraydi. Etimologiyasi haqida turli taxminlar bor [mas, Istaxriy va Ibn Xavqal asarlarida «Xavokand» (Ho'kand) shaklida, ya'ni go'zal», «yoqimli» yoki «shamol shahri» ma'nosila uchraydi]. Keyingi asrlarda «Ho'qandi latif» degan atama ham ishlatilgan. Undan tashqari «balandlikdagi shahar», «khular shahri» [ya'ni, «hu (ku) qabilasi — elati shahri»] versiyalari ham bor. Qadimgi Xitoy qo'lyozmalarida Qo'qon nomi «Guyshan», «Xo'xan» tarzida ifodalangan.

Qo'qoniig 18-asrgacha bo'lgan siyosiy tarixi haqila ma'lumotlar juda oz. Qo'qon podsho Rossiysi qo'shinlari tomonidan zabit etilganda Qo'qon xonligi arxivining ko'p qismi olib ketilgan. Ko'qon qadimda Hindiston va Xitoyga boriladigan karvon yo'lida joylashgan. 13-asrda mo'g'ullar tomonidan butunlay vayron qilingan. Shundan keyin 18-asrgacha Qo'qon kichik aholi turar joyi sifatida mavjud bo'lgan. 1709 i. Qo'qon xonligi tashkil topgach, 1711 y. Eskiqo'rkon qal'asi o'rni. Qo'qon shaxriga asos solindi, istehkom va qal'a barpo etildi. 1732 y. Abdurahimbiy bu ishni nihoyasiga etkazdi va shaharni xonlik poytaxtiga aylantirdi. SHu davrdan boshlab shahar Qo'qon deb atala boshladi. Shaharning mustahkam levori, 12 darvozasi (Xo'jand, G'oziyog'liq. Quduqliq, Sarmozor, Namangan, Chimyon, So'x, Margilon, Rishton, Mo'yimuborak Qatagon, Isfara) bo'lgan. Ko'qon hududi 12 ma'muriy bo'lak (daha)ga taqsim kilingan. Shaharda 3 mingga yaqin xonadoida 31 ming kishi yashagan. Norbo'tabiy davrida (1766—98) ravnaq topdi, Sharqning savdosotiqa va hunarmandchilik markazlaridan biriga aylandi.

Marg'ilon — Farg'ona viloyatidagi shahar. Farg'ona vodiysining jan. qismida, Olay tog'lari etagida joylashgan. Farg'ona shaxridan 10—12 km shimolda. Aholisi 183,2 ming kishi (2002; Marg'ilon to'g'risidagi dastlabki yozma ma'lumotlar 10-asrga taalluqli. Usha davrlarda shahar «Marg'inon» deb atalgan va keyinchalik har ikki nomi ham ishlatilib kelingan. Marg'ilon nomining kelib chiqishi haqida aniq bir ma'lumot yo'q. Ayrim toponimistlar «marg'» —«maysazor», o'tzor»dan deb taxmin qiladilar. Marg'ilon «murg'» va «yunon» so'zlaridan degan mahalliy to'qima rivoyat ham bor. Ibratnipyg «Tarixi Farg'ona» qo'lyozma asarida yozilishicha, shaharga 883 yilda asos solingan. Arxeologik topilmalar Marg'ilon o'rnda milod boshlaridan aholi yashab kelayotganligini, 10 asrda u katta qishloq bo'lganligini, 11 — 12-asrlarda esa shaharga aylanganligi tasdiklamoqda. V.V.Bartold «Mo'g'ullar istilosi davrida Turkiston» asarida Qoraxoniyalar davrida ham Marg'ilon shahri markazidagi maydon. Viloyatning bosh

shahri hisoblanganligini kayl etgan. «Boburnoma»da Marg‘ilon Farg‘onadagi 8 ta shahardan biri ekanligi, shaharning obodligi, shirin mevalari haqida so‘z yuritilib, uning «donai kalon» deb ataluvchi anori va «subhoni» navli o‘rigi maqtaladi. Shaharning qadimgi qismida o‘tkazilgan arxeologik qazilmalar natijasida Marg‘ilonga bundan 2 ming yil avval asos solinganligi aniklandi. Mahalliy ma’lumotlar bo‘yicha shaharning 12 darvozasi bo‘lgan. Buyuk ipak yo‘lida joylashgan Marg‘ilon aholisi qadimdan atlas to‘qish bilan shug‘ullanib kelgan va shu tariqa uni jahonga mashhur qilgan. Marg‘ilonning shoyi matolari Misr, Eroy va YUnioniston, Qashg‘ar savdogarlari tomonidan ko‘plab xarid qilingan

Qirg‘iziston (Кыргызстан), Qirg‘iz Respublikasi (Кыргыз Республикасы) — O‘rtal Osiyoning shim.-Sharqidagi davlat. Mayd. 199,9 ming km². Aholisi 5 mln. 12 ming kishi (2003). Poytaxti — Bishkek sh. Ma’mu-riy jihatdan 7 viloyat, 40 r-n, 23 sha-har, 28 shaharchaga bo‘linadi. Milliy bayrami — 31 avg. — Davlat mustaqilligi kuni (1991).

Davlat tuzumi. Qirg‘iziston — suveren, unitar, demokratik respublika. Amaldagi konstitutsiyasi 1993 y. 5 mayda qabul qilingan; 1996, 1998, 2001 va 2003 y.larda o‘zgartishlar kiritilgan. Davlat boshlig‘i — prezident (2005 y.dan K.Boqiev). U umumiy teng, to‘g‘ri yashirin ovoz berish yo‘li bilan 5 yil muddatga saylanadi. Bir shaxs ketma-ket ikki martadan ortiq prezident etib saylanishi mumkin emas. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni parlament — Jokorgu Kenssh, ijrochi hokimiyatni bosh vazir boshchiligidagi hukumat amalga oshiradi. 1993 y. 5 maydan Qirg‘iz Respublikasi deb nomlandi.

Qirg‘izistonda topilgan arxeologik yodgorliklar bu hududda taxm. 300 ming yil ilgari odam yashaganligidan darak berali. Mil.av. 3-ming yillik oxiri — 2-ming yillik boshlarida avval mis, keyinchalik jezdan ishlangan qurollar tarqalgan. Qirg‘izistonning shimolida saklar qabila ittifoqi (mil.av. 7—3-a.lar), keyinchalik ular o‘riida usunlar (mil.av. 2-a. — mil. 2-a.) qabila ittifoqi mavjud bo‘lgan. Janubiy rayonlar mil.av. 2—1-a.larda Lavan davlati, keyinchalik mil. 1—4-a.larda Kushon podsholigi tarkibida bo‘lgan. 5-asrda Qirg‘iziston shimolidagi ko‘chmanchi qabilalar o‘troqlasha boshladi. 6—7-a.larda Qirg‘iziston Turk xoqonligi tarkibida bo‘ldi. Qirg‘iziston G‘arbiy Turk xoqonligining markazi bo‘lib, xoqonlik poytaxti — Suyob sh. CHu vodiysida (To‘qmoq shaxri o‘rnida) joylashgan. SHim. Kirg‘izistonda o‘troq hayotning rivojlanishida O‘rtal Osiyoning dehqonchilik vohalaridan ko‘chib kelgan aholining roli katta bo‘lgan. 6—8-asrlarda ko‘chmanchi turkiy qabilalar Urxun-Enisey yozuvidan, o‘troq aholi sugd yozuvidan foydalangan. Qirg‘iziston hududida shomoniylig, zardushtiylik, buddaviylik va xristian dinlari tarqalgan. 8-asrning boshida Qirg‘izistondagi siyosiy qokimiyat turgash zodagonlari qo‘liga o‘tgani. 8-asr o‘rtalarida Oltoydan Tyanshanga qarluqlar kslib, bu erdag‘i hokimiyatni egallab olishgap. Qarluqlar hukmronligi 10-asr o‘rtasiga qadar davom etgan. Tyanshanda qirg‘iz qabilalari yashagani haqidagi ilk yozma manbalar 10-asrga oiddir. Bu davrda CHu va Talas vodiylarida shahar va qishlokdir soni ko‘paygan. Ular Issiqko‘l qirg‘oqlarida ham vujudga kelgan.

O‘sh viloyati - Qirg‘iziston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1939 y. 21 noyab. da tashkil qilingan. O‘sh viloyati respublikaning jan.-g‘arbiy qismida joylashgan. Jan.-Sharqida Xitoy bilan chegaradosh. Mayd. 29,2 ming km². Aholisi 1176 ming kishi (1999), asosan, qirg‘izlar va o‘zbeklar, Shuningdek, rus, tatar, ukrain, tojik va b. millat vakillari ham yashaydi. Shahar aholisi 480 ming kishidan ziyod. Yirik shaharlari: Qizilqiya, Sulukta, Qorasuv, O‘zgan. 10 ma’muriy tumanga bo‘lingan, 5 shahar, 7 shaharcha bor. Markazi — Ush sh

Qirg‘iziston Respublikasida qazib olinadigan neft va gaz, ko‘mirning asosiy qismini O‘sh viloyati beradi. Foydali qazilmalari: toshko‘mir va qo‘ng‘ir kumir, neft, yonuvchi slanetslar, tabiiy gaz, surma, simob, qo‘rg‘oshin rudalari, volfram, tosh tuzi, qurilish materiallari va b.

O‘zgan — Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh viloyati O‘zgan tumanidagi shahar, tuman markazi. Koradaryo sohilida. O‘sh shaxridan 68 km. O‘sh orqali O‘sh — Qorag‘ulja avtomobil yo‘li o‘tgani.

Aholisi 41,5 ming kishi (1999). O‘zganning qadimgi qatlam lari mil. av. 2—1- a. larga oid. Qadimgi O‘zganning arki va 3 shahristoni bo‘lgan. 3-shahristonda 16-asr gacha aholi yashagan. O‘zgan rabodlari 3-shahristonning shim.-Sharqida joylashgan. A.N.Bernshtam boshchiligidagi o‘tkazilgan arxeologik qazishlar (1945—50) natijasida kushanlar davridan temuriylar davrigacha yaratilgan moddiy yodgorliklar (sopol buyumlar, tangalar, har xil metall asboblar va b.) topilgan. Qadimgi O‘zgan katta siyosiy va ma’muriy mavqeni egallagan. Memorlik rivojlangan

Sho‘rabashot madaniyatining (mil. avv. IV—I aslar) vodiyyida 50 dan ortiq arxeologik yodgorliklari xaritaga tushirilgan. YU.Zadneprovskiy, P.Gavryushenko, G.Yunusaliev, B.Abdulg‘ozieva, B.Matboboevlar tadqiq etganlar. Yirik yodgorliklari SHo‘rabashot (70 hektar), Qoradaryo (10 hektar), Do‘ngbuluoq (8 hektar) va Tenesh (5 hektar) Paxtaobod, Izboskan, Qo‘rg‘ontepa (Sultonobod) tumanlarida bu madaniyat yodgorliklari topib o‘rganilgan. Qadimgi Farg‘ona Davan podsholigi rivojlangan davr xisoblanadi.

Sho‘rabashot shahar qoldig‘i (mil. avv. IV—I aslar) - Kirg‘iziston Respublikasi O‘zgan shaxri yaqinidagi oldingi «Suoroboshot» sovxozi «Bo‘ston» bo‘limida YAssi daryosi o‘ng qirg‘og‘ida, aniqrog‘i, Andijon suv omboridan 2 kilometr Sharqda joylashgan. Yu.Zadneprovskiy, B.Amanbaeva, B.Matboboevlar o‘rganganlar. Maydoni 70 hektar va uch qismidan iborat Har bir qism kuchli mudofaa devorlari bilan mustahkam o‘rab olingan. Birinchi qism - ark, ikkinchisi aholi yashaydigan qism va uchinchi qism - mol-ko‘y saqlanadigan va atrof xudud aholisi uchun notinchlik paytida yashirinadigan panagoh. SHo‘ra-bashotdan uy-ro‘zg‘or buyumlaridan tashqari terrakota (kuydirilgan loy)dan yasalgan odamlar haykali (yuz qismi) topilgan. Bu haykalchalar antik davr Farg‘ona aholisi to‘g‘risida birinchi ashyoviy tasviriy dalildir. Bu shahar xarobasi qadimgi Farg‘ona Davan davlati hukm surgan vaqtga to‘g‘ri keladi. Muhimi Xitoy yozma manbalarida bu shahar «Yu» («Yu-chen») shahri deb tilga olinadi. Aynan Yuchen shahri Farg‘ona vodiysiga (Xitoydan vodiya kiraverishda) yurish qilgan xitoyliklarga juda qattik, karshilik ko‘rsatganlari haqida yozma manbalarda ma’lumotlar bor.

Jalolobod viloyati - Qirg‘iziston Respublikasi tarkibidagi viloyat. Mamlakatning janubiy qismida joylashgan. 1930 y. 21 noyabda tashkil etilgan (1958- 89 yillarda O‘sh viloyati tarkibidan alohida viloyat). SHim, va shim.-g‘arbdan Qirg‘izistoning Talas va Chu Sharq va shim.-sharkdan Norin, jan.-sharkdan O‘sh viloyatlari, jan na jan. g‘arbdan Uzbekiston bilan chegaraladosh. Maydoni. 33,7 ming km. Jalolobod viloyati. tarkibila 10 tuman, 5 shahar bor.

Tojikiston Respublikasi (Chumhurii Tochikiston) — O‘rtal Osiyoning jan-Sharqida joylashgan davlat. Mayd. 143,1 ming km². Aholisi 6578,5 ming kishi (2002). Poytaxti — Dushanba shaxri. Ma’muriy jihatdan Tog‘li Badaxshon muxtor viloyati, 2 viloyat va 45 tuman ga bo‘linadi. Milliy bayrami — 9 sent. — Mustaqillik kuni (1991).

Davlat tuzumi. Tojikiston — respublika, unitar demokratik ijtimoiy-huquqiy davlat. Amaldagi Konstitutsiyasi 1994 y. 6 noyabda qabul qilingan. Davlat boshlig‘i — prezident (1994 y.dan E. Rahmonov), u Tojikiston fuqarolari tomonidan 7 yil muddatga saylanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni Majlisi Oli, ijrochi hokimiyatni bosh vazir boshchiligidagi Vazirlar Kengashi (hukumat) amalga oshiradi

O‘rtal Osiyo, jumladan, hozirgi Tojikiston. hududidan so‘nggi paleolit davriga oid qurollar topilgan. Qadimda Baqtriya davlati vujudga keldi. Keyinchalik Tojikiston. hududida Axomaniylar hukmronligi o‘rnatildi. 329 yilda makedoniyalik Aleksandr qo‘sishlari bostirib keldi, xalq unga qattiq qarshilik ko‘rsatdi. Natijada Tojikiston. hududining bir qismi Salavkiylar davlati tarkibiga, so‘ng hududning aksariyat qismi Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga kirdi. Kushonlar davrida yirik sug‘orish kanallari qurildi, shaharsozlik, hunarmandchilik yuqori darajaga ko‘tarildi, ayniqsa, qo‘shni mamlakatlar bilan savdo-sotiq va ijtimoiy aloqalar rivojlanga bordi. Yunon yozuvi asosida kushon yozuvi paydo bo‘ldi.

5—6-asrlarda O‘rtalik Osiyoning Sharqiy qismini ko‘chmanchi xioniy qabilalari, so‘ngra eftaliylar egallab oldi. 6-asr 2-yarmida Tojikiston hududi Turk xoqonligi tarkibiga qo‘shib olindi. 8-a. o‘rtalarida arablar bostirib kelishi natijasida islom dini joriy qilina boshlandi. 9—10-asrlarda Tojikiston hududi Toxiriylar va Somoniylar davlati tarkibida, 9—13-asrlarda G‘aznaviyilar, Qoraxoniylar, G‘uriilar, Qoraxishoshar, Xorazmshohlar davlatlari tarkibida bo‘lgan. Tojikiston. hududiga bostirib kirgan Chingizxon qo‘shinlari (1219 — 21) aholining qattiq qarshiligiga duch keldi (Xo‘jandda Temur Malik boshchiligidagi xalq qarshiligi va b.). Mo‘g‘ullar istilosи iqtisodiy-ijti-moiy va madaniy hayotga jiddiy zarar etkazdi. 14-asrning 2-yarmiga kelib, xo‘jalik qaytadan tiklana boshladi. Tojikiston hududi bu davrda Amir Temur va temuriylar, 16-asrda esa Shayboniylar sultanati tarkibida bo‘ldi. So‘ngra Buxoro amirligi qo‘l ostiga o‘tib, 19 -asrning boshlarida Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi o‘rtasida taqsimlandi. 19-a.ning 2-yarmida podsho Rossiyasi tomonidan zabt etildi. Rossiyada Okt. tuntarishi (1917)dan so‘ng aholining jiddiy qarshiligiga (Ibrohimbek, Eshon Sulton, Davlatmandbiy, Fuzayl Maxsumlar boshchiligidagi) qaramasdan, Tojikiston bolsheviklar tomonidan bosib olindi.

Xo‘jand (1936-91 yillarda Leninobod) — shahar, Tojikiston Respublikasi Sug‘d viloyati markazi. Farg‘ona vodiysining g‘arbiy qismida, Turkiston tizmasi bilan Mo‘g‘ultog‘ o‘rtasida, Sirdaryo bo‘yida joylashgan. Aholisi 147 ming kishidan ziyod (2001), asosan, tojiklar va o‘zbeklar, shunishdek, rus, tatar, ukrain, ko-reys, afg‘on, nemis, qirg‘iz, turkman va b. millat vakillari ham yashaydi.

Xo‘jand. O‘rtalik Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan bo‘lib, mil.av. 1-ming yillikda vujudga kelg‘an. Arxeologik qazishmalar natijasida shahar hududidan mil. av. 6—4-asrlarga oid tarixiy ashyolar topilgan. Mil. av. 329 yilda shaharni Aleksandr Makedoniyalik egallagan. Tarixiy ma’lumotlar bo‘yicha shahar 7-asrning 2-yarmida Xo‘jand nomi bilan mashhur bo‘lgan (Xo‘jand orqali Xitoydan Evropaga Buyuk ipak yo‘li o‘tgani). 8-asrda arab xalifaligi, 13-asrda mo‘g‘ullar imperiyasi, 14—15-asrlarda Temuriylar, 16-asrda SHayboniylar, so‘ngra Qo‘qon xonligi tasarrufida bo‘lgan.

1866 yilning 24 mayida shaharni podsho Rossiyasi qo‘shinlari bosib oldi. Xo‘jand 1924 yilda O‘rtalik Osiyoda milliy davlat chegaralanishi o‘tkazilgandan so‘ng O‘zbekiston tarkibiga kirgan, 1929 yildan Tojikiston tarkibiga o‘tkazilgan.

O‘tmishda Xo‘jandda kustar ipakchilik rivojlangan. SHahar savdo va hunarmandchilik markazi sifatida Buyuk ipak yo‘lining chorrahasida O‘rtalik Osiyon Xindiston, Eron, YAqin Sharq, Xitoy va O‘rtalik dengiz havzasidagi mamlakatlar bilan bog‘lab turishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Shahardan o‘nlab tarixiy shaxslar, Temur Malik, munajjim va riyoziyotshunos Abdumahmudi Xo‘jandiy (10-asr), shoirlardan Mahasti Xo‘jandiy (12-asr)- Kamol Xo‘jandiy (14-a.), Muhammadaminxo‘ja Koshif (1825 — 87), Abdullo Fayoz (1847—1934), Asiri; geograf va sayyoh Xoji Yusuf Mirfayozov (1842— 1925), faylasuf olim Muhammad Osimiy (1920—96) va boshqalar etishib chiqqan.

Qozog‘iston Respublikasi — Evrosiyo materigining markaziy qismida joylashgan davlat. G‘arbda Kaspiy dengizi, Shimolda Rossiya, Janubdan O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Sharqdan Xitoy bilan chegeradosh. Mayd. 2 mln 724,9 ming km². Aholisi 20 mln. kishi Poytaxti — Ostona shaxri 1997 yildan. Ma’muriy jihatdan 14 viloyat, viloyatlar audan (tuman) -larga bo‘linadi. Mustaqillik kuni 16 dekabr 1991 yil. Yirik shaharlari: Olmaota, Qarag‘anda, Chimkent, Pavlodar, Semipalatinsk.

Qozog‘iston hududida yashagan qabilalarning jez davridagi turar joy qoldiqlari mozorqo‘rg‘onlar va h.k. saqlangan. Mil.av. 1-ming yillik va mil. dastlabki asrlarda Qozog‘iston hududida yashagan qabilalar ko‘chma kigiz o‘tov uylar bilan birga paxsa, xom g‘ishtdan ham uylar qurgan. O‘rtalik asrlarda shaharlari [Isfijob (11-asrdan Sayram), Taroz va b.] barpo etildi, qal‘a va qo‘rg‘on-lar qurildi. 8-a.dan hoz. Qozog‘istonning jan. qismida islom dini tarq-alishi munosabati b-n

masjid, Madrasa kabi yangi tipdag'i binolar, sar-doba, hammom, karvonsaroy, konussimon maqbaralar qurildi. 10 asrdan memorial inshootlar (Taroz sh. yaqinidagi Babaji xotin maqbarasi. Oishabibi maqbarasi) barpo etildi. 13-a. 2-yarmidan shaharlar (Sig'noq, Taroz. Sayram va b.) qayta tiklandi. 14—16-asrlarda shaharlar qurish avj oldi, monumental binolar (Qarag'anda viloyatidagi Alasha xon maqbarasi, 13-a. 2-yarmi; Turkiston shahridagi Ahmad Yassaviy maqbarasi — Yassaviy majmuasi, 14-a. oxiri — 15-a. boshlarida) buniyod etildi. 17—18-a.larda Q. hududi chegarasi bo'ylab harbiy is-tehkomlar — YOyiq sh.chasi (Uralsk), Gurev, Orsk, Semipalatinsk, Orenburg qal'alari qurildi. 19-a.da eklektika ruhida qal'a, ma'muriy va savdo ipshootlari, maqbaralar qurildi.

Taroz, Talas (1936 y.gacha Avliyoota, 1936—1938 y.larda Mirzoyan, 1938 y.dan Jambul, 1998 y.dan Taroz) — Qrzog'iston Respublikasi Jambul vi-loyatidagi qad. shahar, viloyatnijpg ma'-muriy markazi. Olmaotadan 545 km g'arb-da, Talas daryosini t.y. kesib o'tgan joy-da. Aholisi 325 ming kishiga yaqin (2003).

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Taroz taxm. 5-asrda vujudga kelgan. Dastlab, vizantiyalik elchi Zemarx tomonidan 568 yilda qayd etgan. Shahar arab, fors manbalarida Talas, Taroz, Yangi nomlari bilan tilga olingan (8—18-asrlar).

Qadimda Taroz Talas daryosi yoqasida joylashgan. U qal'a, shahriston va raboddan iborat bo'lgan. 7-asrda Taroz muhim savdo markazi. 751 y. Taroz yaqinida Talas jangi bo'lib o'tgan. 9-asr oxiridan Somoniylar, 10-asr oxiridan Qoraxoniylar davlati tarkibida. 12-asr oxiridan boshlab Qoraxitoylar va Mo'g'ullar istilosidan ancha shikastlangan Taroz tanazzulga uchray boshlagan. 16-asr boshida shaharda hayot barham toptan. Tarozda o'tkazilgan qazishmalar chog'ida zardushtiyarning ossuariylarda ko'milgan qabrлari, devoriy rasmlar bilan bezatilgan 11 — 12-asrlarga oid hammom, korizlar (suv o'tkazgich) topilgan. 19-asrda Avliyoota qal'asi qurilgan.

O'tror, Turar band, Tarband, O'trortepa — qadimgi shahar xarobasi (mil. av. 1-asr — mil. 16asrlar) Janubiy Qozog'istondagi Aris daryosining Sirdaryoga quyilish joyida. O'tror 3 qism (ark, shahriston, rabod)dan iborat bo'lib, burjlar bilan mustahkamlangan mudofaa devori va xandaqlar bilan o'rالgan. O'trordan ko'chalar, hammom, turar joy binolari qoldiqlari, uy-ro'zg'or, zargarlik buyumlari, kamon o'qlari va boshqalar topilgan. Mo'g'ullar istilosiga qadar Xorazmshohlar davlatining savdo va hunarmandchilik shaharlaridan biri bo'lgan. O'tror mudofaasidan so'ng mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan. Oq O'rda xonlari uni 14 asrda tiklaganlar. Bu davrda masjid, Madrasa, xonaqoh qurilgan. Amir Temur va temuriylar davrida muhim harbiy shahar, qal'a bo'lgan. Bu davrda Evropadan Osiyoga boradigan yangi savdo yo'li vujudga kelgan; u Volga sohillaridan Uraldagi Saroychik shaxri orqali Ko'hna Urganch, O'tror va Olmalikqa borgan. Bu yo'ldan musulmon savdogarlari ham, evropalik tijoratchilar ham foydalanishgan. O'trordan ko'plab allomalar etishib chiqqan; shahar obodligi, chiroyi bilan nom chiqqan. 16-asrdagi o'zaro ichki nizolar paytida huvillab qolgan.

Jarkent-Yangikent — kadimiy shahar xarobasi (mil. 1-asr — 16-asr boshi). Orol dengizining Shimoliy.-Sharqiy qirg'og'ida, hozirgi Kazalinsk tumani yaqinida joylashgan. 9—13-asr manbalarida Yangikent nomi bilan mashhur bo'lgan. 10-asr manbalarida aytilishncha, Jarkent o'g'uzlar mamlakatinish asosiy shaxri hisoblangan. Mo'g'ullar istilosi (13-asrga kadar Snrdaryoning quyi oqimida shahar axolisining siyosiy qarorgohi, savdo va xunarmandchilik markazi bo'lgan. Volga buyi, Kiev va Novgorod bilan aloqa qilib turgan. 16 asr boshlarida. SHayboniylar davrida Jarkent xaroba holga kelgan.

Sayram-Isfijob qadimgi shahar va Aris daryosi bo'yida joylashgan shahar.

Sig'noq - mil. 2—5-asrlardagi xitoy manbalarida tele deb nomlangan 44 ta turk qabilasidan birining nomi. Turk haqonligi davrida gashkil topgan. Bo'rji. aziy. o'g'uz, kirgiz, irtish. unitur kabi qabilalar bilan birga Tangritog' (Tyanishan) etaklaridagi yaylovlarda yashagan. Turk xoqon ligi tashkil topgach, uning fuqaroligiga o'tib turk de yurita boshlagan. SIG'NOQ. Supax Sugnik

So‘niqota, Sunaq qo‘rg‘on — Sirdiryoning quyi oqimi bo‘ylarnda, Qizilo‘rdaning janubida joylashgan qal‘a shahar 11-asr o‘rtalaridan yirik savdoo shahri, qipchokdar poytaxti sifatida mashxur. 1219 y. etti kunlik qamaldan so‘ng Sig‘noq mo‘g‘ullarning Jujixon boshchiligidagi qo‘shini tomonidan vayron kilingan, lekin 14 asrda qayta tiklanib. 14-asr o‘rtasida Oq O‘rda poytaxtiga aylangan. 15 asrda Sig‘noq o‘zbek xonlarinnng poytaxt shahri bo‘lgan. 16-asrda esa qozoq xonlari tessarrufiga o‘tgan.

Ettisuv (qozoqcha Jetisu) - Qozog‘istonning janubiy-Sharqiy qismi. Shimolda Balxash ko‘li, shim-Sharqda Sassiqliko‘l va Olako‘l, jan-Sharqda Jung‘ariya Olatovi tizmasi, janubda Shimoliy Tyanshan tizma tog‘lari hamda g‘arbda Chu-Ili tog‘lari bilan chegaralangan. Ettisuv atamasi Balxash kuliga quyiladigan 7 daryo (Ili, Qoratol, Biyon, Oqsuv, Lepsa, Baskon, Sarkand)dan olingan. Ettisuvning shim-g‘arbiy va Shimoliy tekislik qismi Tovqum, Sarieshiko‘tov, Luqqum, YOmonqum kabi qumli va qisman sho‘rxok cho‘llardan iborat. Shuvoq-sho‘ra, saksovulzor va butazorlar, dare bo‘ylarida to‘qaylar, jan-Sharqida 2000 m gacha balandlikda bargli o‘rmonlar, yuqoriroqda qarag‘ayzor va alp hamda subalp o‘tloqlari bor.

Tarixiy manbalarda Ettisuv deganda ancha katta hudud (Chu daryosi vodiysi bilan birga) tushunilgan. Ettisuv — Markaziy Osiyo madaniyatining qadimgi markazlaridan biri. Ettisuvda saklar, keyinchalik usunlar yashagan. Mil. 6-asr oxirlarida Ettisuvda G‘arbiy Turk xoqonligi, keyinchalik turkashlar (8-asrning o‘rtalarigacha) va qarluqlar (766—940) hukmronlik qilishgan. Ettisuvni 10-asrning o‘rtalaridan Qoraxoniylar, 12-asrning 30-yillaridan Qoraxitoylar boshqargan. Mo‘g‘ullar bosqinchiligi davri (1219—21)da Ettisuvning dehqonchilik vohalari va shaharlari qattiq zarar kurgan. 16-asrda Ettisuvda qozoqlarning Katta juzi tashkil topgan. 19-asrning o‘rtalarida Rossiya tomonidan bosib olingan.

Chimkent (qozoqcha Shimkent)- Qozog‘iston Respublikasi Janubiy Qozogiston viyaoyatiaati shahar, viloyat markazi (1932—62 yillarda Janubiy Qozog‘iston viloyati, 1962—64 yillarda Janubiy Qozog‘iston o‘lkasi, 1964—92 yillarda Chimkent viloyati markazi). Tog‘ oldi tekisliklarida, Bodom va Sayram (Sirdaryo havzası) daryolari oralig‘ida. Jambul, Aris, Langar t.y. yo‘nalishlarining chorrahasi. Aholisi 354,4 ming kishi (2002). Chimkent 12-a.da Xitoydan O‘rta Osiyo va G‘arbiy Osiyoga o‘tgan savdo yo‘li («Ipak yo‘li») ustida vujudga kelgan. 19-a. boshidan Ko‘qon xonligi tasarrufida bo‘lgan, 1864 y. Rossiya bosib olgan va Rossiyaning Urta Osiyodagi ma’muriy va xarbii tayanch punktiga aylantirilgan. Shaqarning suet rivojlanishiga t.y.dan uzoqligi ham ta’sir etgan. Faqat 1915 y. Aris — Chimkent liniyasi sh.ni Orenburg — Toshkent magistrali bilan bog‘ladi. 1924 y.gacha Chimkent. Turkiston Respublikasi tarkibida. O‘rta Osiyoda milliy chegaralanish o‘tkazilgandan keyip Sirlaryo gubernyasiniig ma’muriy markazi, so‘ng okrug markazi bo‘lib Qozog‘iston Muxtor SSR tarkibiga kirdi. Shahar sanoati mahalliy q.x. xom ashylari va foydali qazilmalarmi qayta ishlaydigan qo‘rg‘oshin zavodi, temirchilik-press uskunalarini ishlab chiqaradigan, «Fosfor» (mineral o‘g‘itlar va b. ishlab chiqariladi), «Chimkentshina» ishlab chiqarish birlashmalari, «Elektroapparat», neftni qayta ishlaydigan, kimyo-farma-sevtika, cement, g‘isht z-dlari va b. ishlab turibdi. Engil (paxta toza-lash, qorako‘l z-dlari), oziq-ovqat (go‘sht k-ti, yog‘ ekstraksiya, sut-kon-serva, meva-konservasiya, pivo z-dlari) sanoati korxonalarini faoliyat kursa-tadi. 3 oliy o‘quv yurti, 3 teatr, o‘lkashunoslik muzeyi bor.

10-Mavzu: So‘nggi o‘rta asrlar O‘rta Osiyo shaharlari urbanizatsiyasi. (4 soat) Reja.

1. Temuriylar davridan hozirgi qishloq va shaharlari tipini vujudga kelishi.

2. Yozma manbalarda so'nggi o'rta asr shaharlari to'g'risida. Buxoro, Xiva, Samarqand, Qarshi, SHahrishabz, Qo'qon, Marg'ilon, Toshkent.
3. Buxoro, Xiva va Samarqandning so'nggi o'rta asr shaharlarining namunasi ekanligi.

